O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari va 2026-yil 10-apreldagi №384- son qarori bilan kimyo fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2026-10/3
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2026

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich, PhD, dots.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, f.f.d., prof.*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.	*Normuratov Oybek Ulug’berdiyevich, q.-x.f.d., dots.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.	*Omonov Mamatqobil Ismoilovich, b.f.d., dots.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dots.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q-x.f.n., dots.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dots.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dots.*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dots.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.d., dots.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Sotipov Goyipnazar, q-x.f.d., prof.*
Kushmanov Jasur Baxodirovich, f.f.f.d., dots.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q-x.f.d., prof.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dots.*
Karimov Ravshanbek Allayarovich, q.-x.f.f.d., k.i.x.	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dots.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, f.f.f.d.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№10/3 (143), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2026 y. – 197 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2026

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Alimov Sh.K. The heroism of our nation’s soldiers and the courage of the people during World War II: factors that ensured the great victory 5

Almanov Q.O. Jizzax vohasi aholisi orasida ba’zi bir shomonlik marosimlaridagi vositalar haqida 9

Aralov O‘.T. Shomon chorlovlarini tasnif qilish mezonlariga doir 11

Artiqova A.A., Cho‘liyeva V.E. XI–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmdagi ilm-fan taraqqiyotida Mahmud az-Zamaxshariyning o‘rni 14

Axmedova D.N. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti faoliyatining tarixiy taraqqiyot bosqichlari 17

Bekmirzayev I.I. Bibiona arxeologik yodgorligining topografik joylashuvi va stratigrafik tahlili 20

Ergasheva S.A. Tavka qo‘rg‘oni devoriy tasvirlarining tarixiy-badiiy xususiyatlari 23

Ergashev U. Yoshlar tarbiyasida diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari 26

G‘aniyev B.B. Kasalliklarni davolash bilan bog‘liq shomon marosim folklori janrlarini tasnif qilish mezonlari 28

G‘aniyev B.I. Shahrisabz xalq teatri: tarixiy ildizlari va taraqqiyot 31

Inamov O. Namangan viloyati bozorlari infratuzilmasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari 34

Kadirova D.S. Globallashuv sharoitida turizm madaniyatining transformatsiyasi va rivojlanish tendensiyalari 36

Komilov S. Shahrisabz shahri mahallalarining tashkil etilishi tarixi va transformatsion jarayonlari 38

Madraximova G.S. Qo‘qon xonligi malikalari tomonidan olib borilgan bunyodkorlik ishlari 40

Maqsumov N.O. Farg‘ona vodiysi sport maktablarida milliy sport turlari holati 42

Nafiddinova X.R. Turkiy xalqlar tarixiy-madaniy merosi va millatlararo hamjihatlik: “Turk dunyosi kelajagi” forumi misolida 44

Najmiddinov A. Farg‘ona vodiysidagi ayrim yog’ochdan yasalgan idishlar 49

Nuralova N.M. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonga ko‘chirilgan xalqlar 51

Nurmatov N.O‘. Ikkinchi jahon urushi yillarida evakuatsiya qilingan aholining joylashuvi va uy-joy bilan ta’minlanishi 55

Panjiyev A.O‘. O‘zbekiston SSR hukumati raisi Abdujabbor Abdurahmonovning faoliyati 57

Pardayev A.A., Raimova N.A. Qashqadaryo vohasida 1920–1930-yillarda istiqlolchilarning sovet rejimiga qarshi qurolli harakati 60

Pardayev D. XIX asr oxiri — XX asrda o‘zbeklar dehqonchiligi va suv xo‘jaligining etnohududiy xususiyatlari 62

Qodirov M.M. O‘zbekistonda zamonaviy shahar infratuzilmalari rivojlanishining huquqiy asoslari 65

Rajabova D.Sh. Xorazm Ma’mun akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi faoliyatida akademik islohotlar 67

Rahmonberdiyeva M.J. Qadimgi Turon xalqlari hayotida Mitraning diniy va ijtimoiy-siyosiy mavqei 70

Raimov A.Y. Turkiston ASSRda yilqichilik sohasidagi davlat nazorati va ot savdosining shakllanish tarixi (1923-yil) 72

Rasulova D. Chor Rossiyasi davrida Termiz yo‘llari: shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy ahamiyati 75

Samarov F.U. Markaziy O‘zbekiston hududidagi ko‘hna yodgorliklar yozma manbalarda 78

Sattorov Sh.J. Munavvarqori Abdurashidxonovning “O‘zbekistonning yangi tarixi”da yangi maktab-maorif borasidagi xizmatlari haqida 82

Sodiqov S.S. Yangi O‘zbekiston yoshlarining faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda mehnat madaniyatining roli 85

Tojiboyev U.U. Zamonaviy o‘zbek teatrining shakllanishi 87

Tog‘ayev Z.T. Buxoro va Samarqand birodarlashgan shaharlar hamkorligida (1980–2026-yillar) 89

Umrzaqov A. Dinning inson e’tiqodi shakllanishidagi o‘rni va ijtimoiy ahamiyati 92

Urunbayeva M.S. Zamonaviy jamiyatda diniy qadriyatlarning shaxs ma’naviy kamolotiga ta’siri 94

Xoliqov G‘.J. O‘zbekiston tibbiyot xodimlarining Yaman, Suriya va Afg‘onistondagi faoliyati 96

Yakubova G.Sh. O‘zbekistonda kolxozlar bo‘linmas fondlarining shakllanishi, iqtisodiy-huquqiy mohiyati va evolyutsiya bosqichlari 98

Yaxshiyeva S.O. XX asrning 60–80-yillarida O‘zbekistonda madaniy hayot va milliy o‘zlikni saqlash masalalari 100
Yaxshiyeva S.O. The restoration of national historical memory and the transformation of national consciousness in Uzbekistan in the 1980s–1990s 103
Арсланов Б.М., Каримов М.Т. Система водоснабжения и водоотведения средневекового Ахсикета (по материалам городища Эски Ахси) 107
Кўчаров Ж.Қ. Амир Темур давлати ва Мин сулоласи ўртасидаги савдо-иқтисодий алоқалар 111
Муратбаев Н.С. Жалолиддин Гурланийнинг “Ал-шофий фи-л-усул” асари: манбашунослик ва матншунослик таҳлили 113
Хаётова Н.З. Гиждуванский курган: функциональные изменения исторического городского ядра в советский период 116
Эшчанов Ж. Полвонниёзҳожи Юсупов хотираларининг Хоразм тарихини ўрганишдаги илмий аҳамияти 119
Якубов Д.Ф. Роль образовательной дипломатии в развитии узбекско-китайского сотрудничества: современные тенденции и перспективы 124

PEDAGOGIKA FANLARI

Alaudinova D.R., Aripova I.I. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-didaktik tamoyillari 130
Bobokeldiyeva A., Bobokeldiyeva L. Didaktik o‘yinlarni tashkil etishda bo‘lajak tarbiyachilarni kreativ qobiliyatini rivojlantirish 133
G‘aniyev K.X. Ekologik va biologik bilimlarni simulyatsion ta’lim hamda osce texnologiyalari bilan integratsiyalash bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va dasturi 137
Jabborova N.H. Nofilologik yo‘nalish talabalarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida 142
Jabborova N.H. Oliy ta’limda ingliz tili fani mazmuniga etnopedagogik komponentlarni integratsiyalashning metodik imkoniyatlari 145
Mamutov P.J. Qoraqalpog‘iston Respublikasida maktab ta’limiga moslashish davrida 7–8 yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va morfofunksional holatini kompleks baholash 148
Nasirov P.I. Sport takomillashuvi bosqichida 16–17 yoshli sprinterlarda neyromushak toliqishining marra tezlanishi texnikasiga ta’siri 151
Nasirov P.I. Uzoq masofaga yuguruvchilarda harakatlar asimmetriyasi va pastki oyoq biomexanikasining ortiqcha yuklama bilan bog‘liq jarohatlarga ta’sirini o‘rganish 154
Rozimova Yo.Yu., Saidalie S.S. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy-metodik asoslari 157
Ro‘zmetov Q.Sh. An’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasi asosida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish 160
Sherboeva M.O. Matematika yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi tematik lug‘at boyligini oshirishda onlayn tarjimonlardan foydalanishning afzalliklari 165
Tursunov A.R. Katta ashula ijrochilik maktabining o‘ziga xos xususiyatlari va uning milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati 170
Xakimov O.B. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik mahoratini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari 172
Zokirova D.B. Theoretical and methodological approaches to developing academic writing proficiency among english language learners 176
Азаматова Ш.Т. Методика преподавания русского языка в системе военного и профессионального образования 178
Мамутов П.Ж. Основные закономерности воздействия физических нагрузок на организм детей начальной школы 181
Ортикова М.Х. Методика формирования командно-речевой культуры курсантов в процессе обучения русскому языку 185
Самиева Г. Инклюзив таълимнинг мазмун-моҳияти ва ривожланиш тенденциялари 187

TIBBIYOT FANLARI

Norimmetova S.X. Kasbiy issiqlik stressining ishchilar salomatligi va mehnat unumdorligiga ta’siri 191
Маматова М.Ш. Физиологическое обоснование дифференцированного подхода к организации двигательной активности и режима отдыха подростков с учетом полового диморфизма 194

TARIX FANLARI

UDC: 94(575.1)"1939/1945"

THE HEROIZM OF OUR NATIONS SOLDERS AND THE COURAGE OF THE PEOPLE DURING WORLD WAR II FACTORS THAT ENRURED THE GREAT VICTORI

Sh.K. Alimov, PhD, prof., University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSR tomonidan ko'rsatilgan moddiy, harbiy va ma'naviy yordamning miqyosi, front va front ortidagi fidokorona mehnat, harbiy harakatlarda o'zbekistonliklarning faol ishtiroki hamda bu hissaning Buyuk G'alabada tutgan o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, bu tarixiy voqealarning mustaqil O'zbekiston davridagi tarixiy xotira siyosati doirasida qanday e'tirof etilayotgani haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston, front orti, harbiy harakatlar, tarixiy xotira, g'alaba, fidokorlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются масштабы материальной, военной и духовной помощи, оказанной Узбекской ССР в годы Второй мировой войны, самоотверженный труд на фронте и в тылу, активное участие узбекистанцев в военных действиях и роль этого вклада в Великую Победу. Также рассматривается, как эти исторические события признаются в рамках политики исторической памяти в период независимого Узбекистана.*

Ключевые слова: *Вторая мировая война, Узбекистан, тыл, военные действия, историческая память, победа, самоотверженность.*

Abstract. *This article analyzes the scale of material, military and spiritual assistance provided to the Uzbek SSR during the Second World War, the selfless labor at the front and on the home front, the active participation of Uzbeks in the war effort and the role of this contribution to the Great Victory. It also examines how these historical events are recognized within the framework of historical memory policy during the period of independent Uzbekistan.*

Key words: *World War II, Uzbekistan, home front, military actions, historical memory, victory, selflessness.*

Vatan oldidagi burchni ado etish chog'ida yurtimiz ozodligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida halok bo'lgan mard va jasur o'g'lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko'rsatish biz uchun ham farz, ham qarzdir.

Shavkat Mirziyoev

Yangi O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoevning bevosita rahbarligida Ikkinchi jahon urushi yillarida jasorat va matonat, mehr va muruvvat kabi insoniylikning yuksak namunasini ko'rsatgan xalqimizning Buyuk g'alabaga qo'shgan munosib hissasi bilan bog'liq muqaddas xotirani saqlab qolish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmokda.

Ikkinchi jahon urushida O'zbekiston xalqining ko'rsatgan matonati va jasorati beqiyos [1]. Jumladan, respublikamizda umumiy safarbarlik urushning ilk kunlaridan boshlandi. Vatan himoyasiga 1941 yilning 8 iyuliga qadar Xorazmdan 1156 kishi, Samarqanddan 1316, Toshkentdan 1941 yil 26 iyungacha 932, Andijondan 798, Farg'onadan 1735, Namangandan 267 nafar harbiylar frontga yuborildi [2].

O'zbek xalqi o'z farzandlariga ko'zda yosh, qalbida dard bilan nasihat qilib: "**Faqat g'alaba bilan qayt, qahramon bo'lib qayt, avlod - ajdodlarimizning jasoratiga munosib bo'l**", deb frontga kuzatar edi. Sodda dil, qalbi ochiq, vujudi uyg'oq, dili pok, o'zi pok o'zbek va xalqimiz Kompartiya hamda Sovetlarning yolg'on tashviqot targ'ibotlariga ko'r-ko'rona ishonardi. SSSRni

Vatan deb bilib, sarob "kommunistik" kelajakka ishonardi. Lenin va Stalinni "**xalqlar dohiysi"** deb bilib, 30 yillardagi qatag'on qurbonlarini ko'pchilik esa sodda dil xalqimiz – astoydil xalq dushmanlari deb ishonar edilar.

O'zbekiston mehnatkashlari, avvalo, xotin-qizlar mamlakat boshiga tushgan kulfatni o'z kulfatlari va fojialarni o'z fojialari deb bildilar. 1941yil iyun oyining o'zida Ursatevsk stansiyasida 300 dan ortiq, Samarqandda 250 dan ko'proq, "Tashselmash" zavodida 220, Andijon parovoz deposida 120 dan ortiq xotin-qizlar frontga ketgan o'z otalari, akalari va erlarining o'rniga ishga kirib, harbiy matonatli mehnat qildilar [2].

Bunday vatanparvarlik harakati butun O'zbekistonda, shu jumladan, qishloqlarda ham keng quloch yoydi. O'zbek xalqi Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yi va Rossiya Federatsiyasi hududlariga qilingan hujumni jonajon o'z yurti O'zbekistonga qilingan hujum hisoblab, har jabhada qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar.

Urush yillarida urushga yalpi safarbarlik bilan front hududlaridan front ortiga ham yalpi safarbarlik boshlandi. Bunga quyidagi harbiy hujjatlar orqali ishonch hosil qilamiz. VKP(b) Markaziy Qo'mitasi va Davlat Mudofaa Qo'mitasining topshiriqlariga binoan SSSR Gosplani 1941 yilning III, IV kvartallari va 1942 yil uchun harbiy xo'jalik rejalarini ishlab chiqdi va uni 1941yil 16 avgustda Siyosiy Byuroda tasdiqladi. Ana shu rejaga asosan mamlakatning G'arbiy mintaqalaridagi sanoat korxonalarini O'rta Osiyo, Ural va Sibir hududlariga ko'chirib joylashtirishga qaror qilindi.

Qisqa muddat davomida 1941 yilning noyabr oyida Ukraina, Belorussiya, Moskva, Leningradning 1563 ta sanoat korxonasi, (shundan 1360 tasi harbiy sanoatga oid) Ittifoqning sharqiy mintaqalariga, bulardan 308 tasi O'rta Osiyo respublikalariga joylashtirildi.

O'zbekistonga bunday yirik sanoat korxonalarini ko'chirib keltirilishi – respublikani Qizil Armiyaning qudratli harbiy-mudofaa arsenaliga aylantiribgina qolmay, mamlakat iqtisodiy potensialini kuchaytirishga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sishiga ham olib keldi. Yirik sanoat korxonalari bilan bir qatorda O'zbekistonga Ittifoqning G'arbiy hududlaridan fan, ma'rif va madaniyat muassasalari, minglab-minglab boshpanasiz qolgan oilalar, ota-onasiz yetim bolalar ham evakuatsiya qilindi. O'rta Osiyoga jami bo'lib 3 million kishi ko'chirildi. Shundan 2 million 300 mingtasi O'zbekistonga, 716 mingtasi Qozog'istonga joylashtirildi. Bu 1941 yil 3 dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti evakuatsiya qilingan sovet fuqarolarini qabul qilish hamda joylashtirish bo'yicha maxsus qarori asosida amalga oshirildi [3]. Qarorda ota-onasiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qilishga alohida e'tibor berilib, Toshkent shahrida maxsus qabul bo'limi tashkil qilindi.

O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan aholini o'zbek xalqi o'zining issiq bag'riga oldi, ularga mehr-oqibat ko'rsatdi, uy-joy hamda oziq-ovqat bilan ta'minladi. Ota-onasiz, yetim-yesir bolalarning ko'pchiligi O'rta Osiyo respublikalariga, xususan O'zbekistonga yuborildi. Faqat, 1941yilning o'zida 200 ming bola bolalar uylariga joylashtirildi. Ming-minglab bolalarni o'zbek oilalari o'z bag'riga oldi. 1943 yilga qadar 4672 nafar go'daklar o'zbek xalqining mehr-muruvvat va dil haroratidan hamda diyonatidan bahramand bo'ldilar [3].

O'zbekistonning mehnatkash xalqi o'z vijdon amri va qalb da'vati bilan respublikani fashizmga qarshi kurashda Ittifoqning tayanch bazalaridan biriga aylantirdi. Bu hol esa SSSRning Germaniya ustidan g'alaba qozonishini ta'minlagan muhim omillardan biri edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida nafaqat front, balki front ortidagi harbiylar o'zbek xalqining ma'suliyati va burchdorligi hamda matonatini mustahkamlash davridagi urush harbiy tarixi bilan solishtirib, qiyoslab bo'lmasligini muallif o'nlab, yuzlab manbalar, dalillar, Vatan himoyachilari bilan qilingan esdalik va xotira suhbatlarini o'ta qadrlagan holda, ayniqsa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'zining 2017 yildan hozirgacha 3–5 martalab manzilli chiqishlarida, 9 may **"Xotira va qadrlash" kunidagi nutqiga muvofiq. bu davrni ilmiy-nazariy hamda konseptual o'rganish maqsadga muvofiqdir,** - degan o'ta muhim g'oyani ilgari surdi.

Bu o'rinda urush davridagi harbiy tarixiy haqiqatni yaratishda olimlar, davlat arboblari, keng jamoatchilik juda faol tarzda ish olib bormoqda. Chunonchi Qutbiddin Burhonov, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisining fikrlarini keltiramiz: *"To'qqiz yil mobaynida (2017 – 2025 yillar) jonkuyar olim va mutaxassislarimizning ilmiy izlanishlari tufayli*

Ikkinchi jahon urushi haqiqiy harbiy tarixining yangi sahifalari ochildi. Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 551 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingta yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortiq oilalar mislisiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi urushdan nogiron bo'lib qaytgan" [4].

Ana shunday ezgu ishlarning davomi sifatida G'alaba bog'i hududida vatanimiz himoyachilari sharafiga barpo etilgan yana bir tarixiy yodgorlik – **Millat fidoyilari** majmuasi hech shubhasiz, g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. *"Ishonchim komil,* – dedi Prezident Shavkat Mirziyoev, – *yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan ushbu muhtasham badiiy obida el-yurtimiz dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo'tabar maskan bo'lib qoladi" [4].*

Urush yillarida umuman O'zbekiston iqtisodi, jumladan, neft sanoati ham ulkan odimlar tashladi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1941yil 4-aprelda *«O'rta Osiyoda neft sanoatini rivojlantirish to'g'risida»* maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida *"O'zbekistonda yangi neft konlari ochildi. 1945 yilda respublikada neft qazib olish 1940 yildagiga nisbatan 4 marta ko'paydi va yiliga 478 ming tonnani tashkil etdi. Elektr energiyasi va yoqilg'i bazalarining vujudga keltirilishi O'zbekistonda metallurgiya va mashinasozlik sanoatlarining ham rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi" [4]* .

O'zbekiston mehnatkashlari urush yillarida kimyo sanoati; qurilish materiallari sanoati; to'qimachilik; poyafzal; yengil va oziq-ovqat sanoati; mahalliy va kooperativ sanoati hamda transport tarmoqlarini rivojlantirish sohasida ham bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. O'zbekiston SSR sanoati mahsulotining umumiy hajmi 1941 yilda 1945 yilga nisbatan 7 barovar, shu jumladan; og'ir sanoat ishlab chiqarishi 4 barovar, mashinasozlik sanoati 13,4 barovarga o'sdi [5].

Yengil sanoat korxonalari umumiy qiymati 443,3 million so'mlik mahsulotlarni front ehtiyojlari uchun ishlab chiqardi. Bu fashistlar Germaniyasini tor-mor keltirishda O'zbekistonning qo'shgan katta va munosib hissasidir [6].

Ta'kidlash joizki, Vatan urushi yillarida adabiyot va san'at sohasi vakillari ham yuksak fidoyilik namunalarini ko'rsatdilar. Shoir va yozuvchilar, dramaturg va publitsistlar xalqni fashistlarga qarshi chuqur nafrat va g'alabaga so'zsiz ishonch ruhida tarbiyalaydigan yangi-yangi asarlar ustida ish olib bordilar. Oybekning "Qutlug' qon" romani, Hamid Olimjonning "O'lim bosqinchilarga" kabi asarlari jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi. G'ofur G'ulom, Uyg'un, Islom shoir, Fozil Yo'ldosh, Abdulla Qahhor, Zulfiya va boshqa adiblar ham urush yillarida xalq irodasi va ruhiyatiga madad beruvchi asarlar yaratdilar. Yozuvchi va shoirlar o'z asarlari qahramonlari obrazlarini bevosita frontlarda bo'lib, jang maydonlarida jon olib, jon berayotgan jangchilar bilan uchrashib, ularning qahramonliklarini o'z ko'zlari bilan ko'rib, undan ruhiy ta'sirlanib yaratdilar. Atoqli adib Oybek Ikkinchi jahon urushining ko'pgina xalqlar taqdirida o'chmas iz qoldirishini his qilgan holda, bu haqda roman yozish ishtiyoqida bo'ldi. U shu maqsadda Moskva ostonalarida jang qilayotgan o'zbek qismlarga borib, bo'lajak qahramonlarning harbiy hayotini yaqindan o'rgandi. U 1942 yil dekabrdan 1943 yil martining so'nggi kunlariga qadar frontda bo'ldi, safar chog'ida urushning achchiq haqiqati bilan to'yingan turkum she'rlarini yozdi. Afsuski, o'sha yillarda urush haqidagi bor haqiqatni yozishning iloji yo'q edi. Shu bois, Oybek domla boshlab qo'ygan «Quyosh qoraymas» harbiy mavzuda yozayotgan romanini tugatmay, «Navoiy» romani ustidagi ishini davom ettirdi. Roman 1944 yili nashr etildi. Asar tez orada urush davri o'zbek adabiyotining yuksak namunasi sifatida e'tirof etildi.

Urush yillarida radio xodimlari, madaniy-oqartuv muassasalarining ham xizmatlari katta bo'ldi. Shu davrda 754 kinoqurilma, 11 muzey, 360 qiroatxona, 1044 klub, 433 kutubxona, 2888 qizil choyxonalar omma orasida ommaviy–siyosiy, madaniy-tarbiyaviy ishlarni olib borish markaziga aylandi [7].

Xullas, fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekiston fani, adabiyoti va san'ati xodimlari ham o'zlarining salmoqli ulushlarini qo'shdilar.

Ochig'ini aytganda o'zbek xalqi o'zining insoniy, baynalmilal burchini bajardi. Fashizmning millati, Vatani yo'q. U qaerda paydo bo'lmasin, unga qarshi kurash dunyodagi barcha erksevar

millatlar va xalklarning insoniyat oldidagi burchidir. O‘zbek xalqi partiyaning, sovetlarning yolg‘on va aldovdan iborat proletar va sotsialistik baynalmilalchilik va xalqlar do‘stligi to‘g‘risidagi, amalda esa shovinistik va mustamlakachilikdan iborat tashviqot hamda targ‘ibotlariga ko‘r-ko‘rona ishongan edilar.

Bu balandparvoz g‘oya va chaqiriqlar partiyaning buyuk saltanatchilik va shovinistik siyosatni xaspo‘shlash maqsadida ongli sur’atda olib borilgan siyosat ekanligini, o‘sha davrda ma’muriy–byurokratik bosim mavjudligini xalqimiz yaxshi tushunar edi. Keyingi davrlarda, ayniqsa tariximizning so‘nggi o‘n yilliklarida bu masalaga haqiqat nuqtai nazaridan yondoshilganida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoevning ham xissasi katta bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy harbiy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozimligi ko‘rsatildi. “**O‘tmishga berilgan baho, -** deyiladi Murojaatnomada, **albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur” [8]**.

O‘tmishdagi buyuk sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish zarur [8].

Hozirgi paytda jahondagi kuch markazlari o‘rtasida qarama-qarshilik tobora avj olib, global siyosatning harbiylashuvi asosiy tendensiyaga aylanmoqda. Afg‘onistonda beqarorlik saqlanib qolayotgani, barchamizni jiddiy tashvishga solmasdan qo‘ymaydi. Bunday murakkab jarayonlarda bizning bosh maqsadimiz – O‘zbekistonning davlat mustaqilligi, uning sarhadlari daxlsizligi hamda hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlashdan iborat bo‘ladi [9].

“Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kudrati, mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida, milliy armiyamiz 2030 yilga qadar eng zamonaviy kurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta’minlanadi. Qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilarni tayyorlash, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida boshlangan ishlarimizni jadallashtiramiz,» - deya ta’kidladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev [10].

Shu munosabat bilan harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma’naviy salohiyat O‘zbekiston Kurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur!? Ushbu strategiya asosida Qurolli Kuchlarning tezkor zamonaviy boshqaruvini amalga oshirish, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar bilan ta’minlash hamda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘zda tutiladigan qarorlar qabul qildik» [10].

Vaqt o‘tadi, zamonlar o‘tadi, lekin uzoqni ko‘zlab, hayotning o‘zi o‘rtaga ko‘yayotgan talablarni inobatga olib, odamiylik, insonparvarlik fazilatlarini ulug‘lash, umuman e’zozlash Vatan uchun, elu yurt uchun xizmat qilgan ajdodlar nomlarini, inson xotirasini qadrlash yo‘lida qilingan bunday savobli ishlar hech kachon unutilmaydi.

Shu bois o‘ninchi yildirki, mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmokda. Ularning har biriga moddiy, ma’naviy va boshqa turdagi yordamlar berib kelinyapti. Buni hech ikkilanmasdan yangi O‘zbekistonda xalq jasoratiga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom namunasi, deyish mumkin. Qolaversa, bu bizni o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo‘lishga, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga rag‘batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ватанпарвар. 2025 йил 20 июнь.
2. Р.Шамсутдинов. Ҳ.Мўминов. Ўзбекистон тарихи. Т., Ёшлар матбуоти нашриёти. 2023. Б-244.
3. Ўзбекистон тарихи. Т. “Ёшлар матбуоти” нашриёти, 2023. Б-223.
4. Халқ сўзи. 2025 йил 8 май.
5. Янги Ўзбекистон. 2026 йил 14 январь.
6. Муаллиф умумлашмаси. Шахсий архив.
7. Каримов Ш. Ғалабага қўшилган ҳисса. Т.: 2020. Б-110.
8. Халқ сўзи. 2018 йил 29 декабрь.

9. К.Норматов. Миллий ғоя ва ҳарбий ватанпарварлик руҳи тараққиётимиз ҳамда, фаровонлигимиз асоси бўлиши керак. Янги Ўзбекистон. 2024 йил 24 июнь
10. Янги Ўзбекистон. 2025 йил. 20 февраль.

UO’K 94(575.114)"XIX/XX"

JIZZAX VOHASI AHOLISI ORASIDA BA’ZI SHOMONLIK MAROSIMLARIDAGI VOSITALAR HAQIDA

Q.O. Almanov, t.f.d., prof., Guliston davlat universiteti, Guliston

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jizzax vohasi aholisi orasida saqlanib qolgan shomonlik bilan bog‘liq marosimlar va ularda qo‘llaniladigan vositalar etnologik jihatdan tahlil qilingan. Shomon-baxshilar faoliyatida childirma, doira, qamchi va boshqa marosimiy buyumlarning o‘rni, ularning ramziy va amaliy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, qadimgi diniy tasavvurlarning mahalliy urf-odatlarda saqlanishi hamda ularning islomiy an’analar bilan uyg‘unlashuvi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jizzax vohasi, shomonlik, baxshi, marosim, childirma, doira, qamchi, qadimgi e’tiqodlar, marosimiy vositalar, etnologiya.*

Аннотация. *В статье с этнологической точки зрения анализируются сохранившиеся среди населения Джизакского оазиса обряды, связанные с шаманизмом, а также используемые в них ритуальные средства. Рассматриваются роль чилдирмы, бубна, плети и других предметов в деятельности шаманов-бахши, их символические и практические функции. Особое внимание уделяется сохранению древних религиозных представлений в местных обычаях и их взаимодействию с исламскими традициями.*

Ключевые слова: *Джизакский оазис, шаманизм, бахши, обряд, чилдирма, бубен, плеть, древние верования, ритуальные предметы, этнология.*

Abstract. *This article provides an ethnological analysis of shamanistic rituals preserved among the population of the Jizzakh oasis and the ritual objects used in these practices. It examines the role of the childirma, tambourine, whip, and other ritual objects in the activities of shaman-bakhshis, focusing on their symbolic and practical functions. The article also highlights the preservation of ancient religious beliefs in local customs and their interaction with Islamic traditions.*

Key words: *Jizzakh oasis, shamanism, bakhshi, ritual, childirma, tambourine, whip, ancient beliefs, ritual objects, ethnology.*

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarining an’anaviy turmush tarzi, urf-odat va marosimlari uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, turli diniy e’tiqod va tasavvurlar ta’sirida rivojlangan. Xususan, o‘zbek xalqi ma’naviy madaniyatida islomgacha bo‘lgan davrlarga oid animistik, magik va shomonistik qarashlarning ayrim unsurlari mahalliy urf-odat hamda marosimlarda saqlanib qolgan. Bugungi kunda ushbu qadimiy e’tiqodiy tasavvurlarni etnologik jihatdan o‘rganish xalqning tarixiy-madaniy merosi va an’anaviy dunyoqarashini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jizzax vohasi qadimdan o‘troq dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlari o‘zaro tutashgan hududlardan biri bo‘lib, bu holat voha aholisining urf-odatlari va marosimlarida ham o‘z aksini topgan. Ayniqsa, Zomin, Baxmal va G‘allaorol hududlarida shomon-baxshilar faoliyati bilan bog‘liq ayrim marosimlar hamda ularda foydalaniladigan an’anaviy vositalarning saqlanib qolganligi e’tiborga molikdir. Bunday marosimlarda childirma, doira, qamchi, tasbeh, pichoq, oyna, suv, kul, turli iplar, hayvon juni va boshqa buyumlardan foydalanilishi ularning nafaqat amaliy, balki muayyan ramziy-ma’naviy mazmunga ham ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, Jizzax vohasi aholisi orasida shomonlik bilan bog‘liq marosimlar va ularda qo‘llaniladigan vositalarni o‘rganish qadimgi e’tiqodiy tasavvurlarning transformatsiyasi, ularning mahalliy an’analarda saqlanish darajasi hamda islomiy urf-odatlar bilan o‘zaro uyg‘unlashuv jarayonlarini yoritish imkonini beradi. Mazkur maqolada voha aholisi orasida uchraydigan shomonlik marosimlari, shomon-baxshilar faoliyati va marosimiy vositalarning funksional hamda ramziy xususiyatlarini etnologik jihatdan tahlil qilish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlari va shomonlik an’analari T.D.Bayaliyeva[1], G.P.Snesarev, V.N.Basilov[2],

A.T.Toleubayev[3] kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqodlari, urf-odat va marosimlari A.Ashirov[4], A.Abdurahmonov[5], M.Jo‘rayev[6], U.Alibekov[7] hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, L.Troitskaya[8] va V.N.Basilov asarlarida shomon-baxshilar faoliyati hamda marosimlarda qo‘llaniladigan childirma, doira kabi vositalar haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Biroq Jizzax vohasida saqlanib qolgan shomonlik marosimlari va ularning atributlarini hududiy-etnologik jihatdan o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, etnologik, tavsifiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Jizzax vohasida saqlanib qolgan shomonlik marosimlari va ularda qo‘llaniladigan vositalar ilmiy adabiyotlar hamda dala tadqiqotlari materiallari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, marosimiy an’analar boshqa turkiy xalqlardagi shomonlik unsurlari bilan qiyosiy o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo xalqlarining uzoq o‘tmishidagi e’tiqodiy qarashlari bilan bog‘liq bir qator etnologik tadqiqotlar qilingan bo‘lsa-da[4], “...hozirga qadar O‘rta Osiyo xalqining, jumladan, o‘zbek xalqi orasidagi totemizm, shuningdek, animizm, magiya, fetishizm va ushbu diniy e’tiqodlar bilan u yoki bu darajada bog‘langan marosimlar tahliliga oid biror-bir jiddiy ish yaratilmagan.

O‘zbek xalqining udumiy qadriyatlari tarkibida shomonistik qarashdagi urf-odatlar, ushbu marosimlarni o‘tkazishda foydalaniladigan asori atiqalar haqida arzirli ma’lumotlar kam. Asosan tadqiqotlarda hayvon kulti bilan bog‘liq ayrim mualliflar o‘zlarining bir qator fikrlarini bildirib o‘tishgan. Ayniqsa, U.Alibekov Mirzacho‘l vohasida olib borgan tadqiqotlarida bo‘ri kulti va chilla davri bilan bog‘liq an’analar qoldiqlari ijtimoiy hayotda, oila va nikoh, shuningdek, xo‘jalik hayoti bilan bog‘liq an’analarni yoritishdagi ayrim tadqiqotlarida bir qator fikrlarni berib o‘tadi[7]. Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, Jizzax vohasi aholisi hayotida qadimgi diniy tasavvurlar bilan bog‘liq an’analar keng yoritilmagan. Ayniqsa, bugungi voha aholisining kundalik turmushida muqaddas islom dini bilan bevosita bog‘lanib ketgan qadimgi diniy tasavvurlar bilan bog‘liq an’analar hanuzgacha aholi orasida saqlanib kelyapti.

Qadimdan o‘troq dehqon va chorvador qavmlar makon tutgan Jizzax vohasida islomgacha mavjud bo‘lgan bir qator urf va odatlar bugungi kungacha saqlanib qolmoqda. Shulardan ma’lum birlari aholi turmushida alohida o‘ringa ega bo‘lib, bu marosimlarda asosiy ishlarni bajaruvchilar asosan ayol baxshilardir. Bu marosimlar ko‘p hollarda bemorlarni tuzatish va qo‘l olish kabi hollarda o‘tkazilgan. Unda odamlar turli-tuman noz-ne’matlarni tayyorlashib, qarindoshlarini chaqirib o‘tkazishgan. Asosiy yumushlarni baxshilar bajarishgan. Bu marosimlarni o‘tkazishda baxshi ayollar ko‘makchi vazifasini bajaradigan turli vositalardan foydalanganlar. Vohada shomonlikning o‘ziga xos marosimlar tizimi mavjud bo‘lib, ularning hech biri marosimiy vositalarsiz o‘tmaydi. Shomon-baxshilar o‘zlarining ruhiy kuchlariga nisbatan ishonch-e’tiqodni yanada oshirish, maqsadga tezroq va qulayroq ravishda yetishish yoxud muayyan ta’sirni uzoqroq muddat saqlab turish maqsadida xilma-xil tashqi yordamchi vositalardan foydalanadilar.

Jizzax vohasida, ayniqsa, mintaqaning tog‘li tumanlari bo‘lgan Zomin, Baxmal, G‘allaorol tumani hududidagi asosan qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi maskanlarida shomon-baxshilarining marosimlari ko‘p o‘tkaziladi. Bu marosim jarayonlarida asosan qarindosh-urug‘ va oilaning barcha a’zolari ishtirok etgan. Marosim jarayonida baxshilarning asosiy atributlari jumlasiga qamchi, childirma, doira, tasbeh, kul, suv, pichoq, oyna, turli xil iplar, inson sochi, tol novdasi, qalampir, hayvon juni (yungi) kabilar kiradi. Nomlari qayd etilgan anjomlar vositasida voha ayol shomon-baxshilari bemorlarni davolash ishlarini olib boradilar. Bu kabi davolash marosim atributlaridan biri “childirma” va “qamchi” hisoblanadi. Bu vositalar orqali barcha oila a’zolari (o‘zlarining tilida qoqib, so‘g‘ib qo‘yilgan). Vohada aholi orasida “baxshi boqaman deydi, mulla o‘qiyman deydi” degan naql ham paydo bo‘lgan.

Jizzax vohasi shomon-baxshilari bemorlarni davolash marosimlarida childirma, doira va qamchidan asosiy vosita sifatida foydalanganlar. Childirma sadolari ostida yordamchi ruhlarni chaqirish, qurbonlik qilish kabi amallar bajarilgan. Childirma va doira, odatda, echki terisidan tayyorlangan bo‘lib, K.Shoniyozov ma’lumotlariga ko‘ra, uning atrofiga halqa va shildiroqlar

o‘rnatilgan. L.Troitskaya va V.Basilov tadqiqotlarida ham XX asrda mintaqa shomon-baxshilari childirmadan faol foydalanganligi qayd etilgan.

Shomonlik marosimlarida childirma va qamchi yetakchi atributlardan hisoblangan. Bunday marosimlarda shomon-baxshilar o‘rtasida ustoz-shogirdlik va “qo‘l olish” an’analari ham mavjud bo‘lgan. Shunga o‘xshash marosimiy vositalar uyg‘ur, oltoy, xakas va boshqa xalqlarning shomonlik an’analarida ham uchraydi.

Shomon doiralarining ichki qismini turli tasvirlar va qon bilan bezash qadimgi animistik tasavvurlar bilan bog‘langan. Mahalliy qarashlarda qon sehrli kuchga ega, ruhlarni jalb qiluvchi hamda insonni yovuz kuchlardan himoya qiluvchi vosita sifatida talqin etilgan. Bunday qarashlarning ayrim ko‘rinishlari Jizzax vohasi aholisi orasida saqlanib qolgan. “Baxshi” atamasi ham tarixiy jihatdan ko‘p ma’noli bo‘lib, turkiy xalqlarda shomon, tabib, ozan, dostonchi, ustoz va bilimdon ma’nolarida qo‘llangan. Uning etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, ayrim hududlarda “baxshi” so‘zining tabib, shifo beruvchi va marosim bajaruvchi shaxs ma’nosi hozirgacha saqlanib qolgan. Bu esa qadimgi shomonlik va animistik tasavvurlarning ayrim unsurlari xalqning an’anaviy madaniyatida davom etayotganligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Jizzax vohasi shomonlarining marosim vositalari boshqa hududlardagi shomonlik an’analaridan keskin farq qilmaydi va ularning aksariyati hozirgacha saqlanib qolgan. Biroq islom dini ta’sirida ayrim qadimiy marosim vositalari iste’moldan chiqib, ularning o‘rnini yangi unsurlar egallagan. Natijada shomonlikka xos ayrim an’analar islomiy urf-odatlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan. Bu jarayon Jizzax vohasi aholisining diniy-etnologik an’analarida qadimiy e’tiqod unsurlari transformatsiyalashgan holda davom etayotganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Баялиева Т.Д Доисламские верования и их перижитки у киргизов. – Фрунзе: Илим, 1972.

2. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. Отв. ред. Снесарев Г.П, Басилов В.Н. - М.: Наука, 1975.

3. Толеубаев А.Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов (XIX-начало XX в). - Алма-Ата, 1991.

4. Аширов А. Ўзбек халкининг кадимги эътикод ва маросимлари. - Т. 2007. –Б.1; 73-104.

5. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T.:Yangi asr avlodi, 2005.

6. Жўраев М. Сеҳрли рақамлар сирлари. -Т.:Узбекистан, 1991. –Б.28.

7. Алибеков У. Ўзбек халкининг анъаналари тизимида “чилла” этнологик удумининг астрономик билимлар билан боғланиши хусусида// “Ўзбекистонда моддий маданият ва этномаданий жараёнлар” республика илмий-амалий анжумани. Мақолалар тўплами, - Термиз, 2010. -Б. 119-121.

8. Троицкая А.Л. Первые сорок дней ребёнка (чилля) среди оседлого населения Ташкента и Чимкентского уезда. Сб. «В.В. Бартольду».- Т, 1927. –С.349-361.

UO‘K 398.332 (=512.151)

SHOMON CHORLOVLARINING TASNIF QILISH MEZONLARIGA DOIR

O‘.T. Aralov, tadqiqotchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek shomon chorlovlarining tasnif qilish mezonlari ishlab chiqilgan. Shomon chorlovlarining ichki guruhlarga ajratish, ajratish prinsiplari har tomonlama tadqiq etilib, shomon mifologik homiylariga yo‘naltirilgan chaqiruv adresatiga nisbatan tasniflash taklif etilgan. Shomon homiylari iyerarxiyasi, ularning marosim jarayonidagi sakral vazifalari inobatga olinishi, mifologik homiylarning shomon faoliyatida tutgan o‘rniga e’tibor qaratish lozimligi uqtiriladi. O‘zbek shon chorlovlari tasniflangan.*

Kalit so‘zlar: *shomon, baxshi, kushnoch, doira, mezon, tasnif.*

Аннотация. *В данной статье разработаны критерии классификации узбекских шаманских призываний. Всесторонне исследуются принципы и особенности разделения шаманских призываний на внутренние группы, а также предлагается классификация в зависимости от адресата призыва, направленного к мифологическим покровителям шамана. Подчёркивается необходимость учитывать иерархию шаманских покровителей, их сакральные функции в процессе проведения обряда, а также уделять особое внимание роли мифологических покровителей в деятельности шамана. Осуществлена классификация узбекских шаманских призываний.*

Ключевые слова: *шаман, бахши, кушноч, дойра, критерий, классификация.*

Abstract. *This article develops criteria for the classification of Uzbek shamanic invocations. The principles and characteristics of dividing shamanic invocations into internal groups are comprehensively examined, and a classification based on the addressee of the invocation directed toward the shaman's mythological patrons is proposed. The article emphasizes the importance of considering the hierarchy of shamanic patrons, their sacred functions in the course of ritual practices, and the role of mythological patrons in shamanic activities. Uzbek shamanic invocations are classified accordingly.*

Key words: *shaman, bakhshi, kushnoch, frame drum, criterion, classification.*

Shomon marosimlari jarayonida keng ijro etiladigan janrlardan biri bu shomon chorlovlaridir. Shomon chorlovlari marosim folkloridagi o‘rni va ijro uslubi, mifologik mohiyatiga ko‘ra tasniflanishi masalasi hozirgacha amalga oshirilmagan.

Biz jahon shomonshunosligiga doir ko‘plab adabiyotlar bilan tanishdik. Xususan, taniqli etnologlar, shomon chorlovlarini yozib olgan olimlar: G.V. Ksenofontov, V.K Arsenyev, A..Baldunnikov, P.Gurtorov N.P Dыrenkova, Ye.D. Prokofьyeva V.N Basilov, L.P Potapov, N.A. Baskakov, Ye.P Batyanovalarning tadqiqotlarida ham shomon chorlovlari ichki guruhga ajratilgan holat kuzatilmadi[1].

Shomon chorlovlari borasida filologik izlanishlar olib borgan taniqli olimlarning tadqiqotlari bilan tanishar ekanmiz ular shomon chorlovlarining janr tabiati, musiqiy muammolari, lingvistik tabiati, badiiy xususiyatlari kabi masalalarga bag‘ishlanganligi, biroq shomon chorlovi janridagi og‘zaki aytimlarni ichki guruhlarga ajratish, tasniflash muammosini kun tartibiga qo‘ymaganligini guvohi bo‘ldik. Xususan, O.Murodov tojik shomonlarining chorlovlarini ommalashtiradi, ammo olimning asosiy e’tibori, shomonning mifologik homiylariga qaratilgan[2]. Ye.S. Novik Oltoy turklarining shomon marosimlarining keng ko‘lamda tadqiq etgan olima. Olimaning diqqat markazida shomon marosimlari, shomon afsonalari va ularning badiiyati masalalari turadi[3].

Sibir va Markaziy Osiyo shomonlari ekstaz va kechinmalarini qiyosiy tadqiq etgan U. Yoxansen tadqiqotlarida ham shomonning mifologik homiylarini chorlashi masalasiga to‘xtalib o‘tadi, biroq ularning tasniflash masalasiga e’tibor bermaydi[4]. Holbuki, Sibir va Markaziy Osiyo shomonlari e’tiqodida garchi mushtaraklik mavjud bo‘lsa-da, o‘ziga xos lokal va falsafiy farqlari ko‘zga tashlanadi.

Taniqli o‘zbek folьkloshunosi professor M.Jo‘rayev va Janubiy koreyalik folklorshunos olima O.Inkyonglar shomoniylikka doir izlanishlarida o‘zbek va koreys xalqlari eposida shomoniylik izlarini aniqlaydi, biroq shomon marosim folklori janrlari, xususan, shomon chorlovlari borasida alohida tadqiqotlar olib bormaydilar[5].

O‘zbek shomon marosimi folklorining yirik tadqiqotchisi professor O.Qayumovning tadqiqotlarida shomon chorlovlarining o‘ziga xosligi, janriy belgilari ochiqlangan, biroq shomon chorlovlarining atroflicha tahlili, uning tasnifoti masalalari amalga oshirilmagan. O.Qayumov faqat chorlovning shomon marosimi folklorining alohida mustaqil janri ekanligini asoslagan[6]. O‘zbek shomon afsonalarini tadqiq etgan I.Darmonovning dissertatsiya ishida o‘zbek shomon afsonalarining tasnifi masalasi ko‘tarilgan. Olim shomon afsonalarini dastlab tasnif qilish mezonlarini aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va epik janrlar tasnifotiga doir ilg‘or ilmiy nazariy xulosalarni o‘rganib chiqadi. I. Darmonov shomon afsonalari mavzuiy va morfologik xususiyatiga ko‘ra tasniflashni taklif qilgan[7]. Tadqiqotchining morfologik xususiyatni inobatga olib tasniflashi nazarimda shomon nasriga doir og‘zaki asarlarni tasniflashda qo‘l keladi. Chunki unda muallif syujet tuzilishida fabulalar ishtirokiga ko‘ra, bir fabulali va ko‘p fabulali afsonalarga ajratgan.

Bizningcha, shomon chorlovlarini mazmun va mohiyati, vazifasi, badiiy va til xususiyatlari, ijro uslubi, ifodalangan ramlar mohiyati va mifologik arsenalda tutgan o‘rniga ko‘ra ichki guruhlarga ajratilishi lozim. Shomon chorlovlarini tasniflashda bir vaqtning o‘zida folklorshunoslik, etnografiya, dinshunoslik va badiiylik mezonlarini hisobga olish maqsadga muvofiq keladi. Shundan kelib chiqib, shomon chorlovlarini tasniflashning asosiy mezonlari sifatida quyidagilarni inobatga olishimiz kerak:

1. Vazifaviylik mezoni,

2. Yo‘llanish manzili mezoni,
3. Badiiy mezon,
4. Ijroviy mezon yoki – ijro usuli,
5. Ramziylik mezoni.

Vazifaviylik mezoni shomon chorlovi janridagi asarlarni ularning marosimda bajaradigan vazifasi asosida tasniflashni nazarda tutadi. Bu mezonga ko‘ra, har bir chorlovning janr tabiati badiiy shaklidan ko‘ra, avvalo, amaliy va sakral vazifasi orqali belgilanadi. Chunki shomon chorlovlari, eng avvalo, muayyan marosimni amalga oshirish, g‘ayritabiiy kuchlar bilan muloqot o‘rnatish yoki muayyan maqsadga erishish uchun ijro etiladi.

Ushbu mezon asosida shomon chorlovlari quyidagi vazifaviy guruhlarga ajratilishi mumkin:

- Davolash chorlovlari – bemorni ruhiy yoki jismoniy xastalikdan xalos qilish, yovuz ruhlarni quvish va insonning ichki muvozanatini tiklash maqsadida ijro etiladi. Bunday chorlovlar badik, gulafshon, ko‘chiriq marosimlari tarkibida ijro etiladi.
- Himoya chorlovlari – inson, oila, chorva yoki yashash makonini turli ofatlar, kasalliklar va yomon kuchlardan muhofaza qilishga qaratilgan shomon marosimi tarkibida ijro etiladigan chorlovlar. Bunday chorlovlarga ijrochi mifologik homiylardan himoyasidagi shaxs yoki joyni yovuz kuchlardan himoya qilishda madad so‘raydi.
- Baraka va farovonlik chorlovlari – dehqonchilikda ser hosilga erishish, chorva ko‘payishi, oila a’zolariga rizq va farovonlik tilash maqsadida o‘tkaziladigan shomon marosimi tarkibida ijro etiladi.
- Bashorat va yo‘l-yo‘riq chorlovlari – kelajak haqida xabar olish, qaror qabul qilish yoki muayyan holatga munosabatni aniqlash vazifasini bajaradi. Bunday chorlovlar odatda fol ko‘rish, bashorat qilishga bag‘ishlangan marosimlar tarkibida ijro etiladi.
- Poklanish (tozalanish) chorlovlari – inson, uy-joy yoki marosim makonini ma’naviy va sakral jihatdan poklash maqsadida o‘tkaziladigan shomon marosimi tarkibida ijro etiladigan chorlovlardir. Xalqimizda ba’zan uyidan duo oldirganligi haqida gaplar eshitamiz. Shomon mifologiyasidagi magik amallarda qora maglar o‘zgalarning uylariga, mulklariga, o‘ziga duoyi bad qilishadilar.

Yo‘llanish manzili mezoni shomon chorlovi janridagi asarlarni ularning kimga yoki qaysi g‘ayritabiiy kuchga qaratilganligi asosida tasniflashni nazarda tutadi. Shomon mifologiyasida har bir chorlov muayyan manzilga yoki obyektga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mazmuni, badiiy qurilishi, murojaat shakllari va marosimdagi vazifasi aynan shu obyekt xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bois **yo‘llanish manzili mezoni** shomon chorlovlarining janr tabiatini aniqlashdagi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Ushbu mezon asosida shomon chorlovlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- **Homiy ruhlarga qaratilgan chorlovlar** – shomonning homiy ruhlari: parilar, momolar, bobolardan madad so‘rash, ularni marosimga chaqirish va yordam olish maqsadida ijro etiladi.
- **Ajdodlar ruhiga qaratilgan chorlovlar** – urug‘ yoki oila ajdodlarining ruhlariga murojaat qilinib, ularning himoyasi va qo‘llab-quvvatlashlari so‘raladi. Odatda bunday chorlovlar Ajdodlaridan azayimxon, baxshi bo‘lib o‘tgan shomonlar tomonidan ijro etiladi.
- **Tabiat ruhlariga qaratilgan chorlovlar** – tog‘, o‘rmon, suv, daryo, shamol, olov kabi tabiat obyektlarining egasi deb tasavvur qilingan ruhlarga bag‘ishlanadi. Xorazm porxonlari chorlovlarida Amudaryo egasi deb tasavvur qilinuvchi Er Xubbi yoki Xo‘jami ulug‘, Zarafshon vohasi shomonlari chorlovlarida suv egasi deb talqin qilinadigan Suv parisi, Oltoy shomonlari chorlovlarida yer osti dunyosi egasi deb qaraladigan Erlikxan singari obrazlarga murojaat qilinadi.
- **Oliy ilohiy kuchlarga qaratilgan chorlovlar** – ayrim shomonlik an’analarida osmon ilohlari yoki olamni boshqaruvchi oliy kuchlarga murojaat qilish holatlari ham uchraydi. Masalan o‘zbek shomonlari Jang‘il baxshi, Dilbar baxshilar repertuaridagi chorlovlarda Ollohga, Oltoy turklari, xususan, yoqut shomonlari repertuarida Tengriga murojaat qilish motivlari ko‘zga tashlanadi.
- **Ko‘p manzilli chorlovlar** – bir vaqtning o‘zida bir nechta ruh yoki sakral kuchlarga murojaat qilinadigan murakkab kompozitsiyali shomon chorlovlardir.

Badiiylik mezoni shomon chorlovi janridagi asarlarni ularning **badiiy tuzilishi, til xususiyatlari va poetik vositalari** asosida tasniflashni nazarda tutadi. Bu mezonga ko‘ra,

chorlovlarning janr xususiyati ularning marosimiy vazifasi bilan bir qatorda, matnning qanday poetik shaklda yaratilgani va ijro etilgani orqali ham belgilanadi. Chunki shomon chorlovlari oddiy nutq emas, balki muayyan badiiy qonun-qoidalarga bo'ysunuvchi, sakral ma'no yuklangan mifopoetik matnlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Ксенофонтов Г. В. Шаманизм. Избранные труды (Публикации 1928-1929 гг.) Творческо-производственная фирма «Север-Юг» 1992.

2.Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана. Известия АН Республики Таджикистан. Отд. общ. наук,1974. – №4. – С.42-48.

3.Новик Е.С. Обряд и фольклор в Сибирском шаманизме. –М. 1984.– С. 237; Новик Е.С. Поэтика шаманских легенд /Ред.: Н.В. Емельянов, В.Т. Петров. –Якутск: Якутский филиал СО АН СССР, 1978. – С. 104-109.

4.Йохансен У. Экстаз и одержимость: различия в переживаниях шаманов Сибири и Центральной Азии//Этнографическое обозрение, 2007. №1.

5.Жўраев М., Инкёнг О. Қадимги шомон мифологияси ва эпик мотивлар генезиси//Илм сарчашмачлари. Урганч, 2013. 8-сон. –Б.45-51.

6.Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси) Номзодлик дисс. Авто. Реф. – Тошкент, 1999; Қаюмов О.С. Ўзбек шомон маросим фольклори. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2020.

7.Darmonov I.K. O'zbek shomon afsonalari (o'rganilishi, tasnifi va poetikasi). Filol fan bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss.fvtoref. – Nukus, 2025.

UO'K 94(575.1):929

XI — XII ASRLAR MOVAROUNNAHR VA XORAZMDAGI ILM-FAN TARAQQIYOTIDA MAHMUD-AZ ZAMAXSHARIYNING O'RNI

A.A. Artiqova, magistrant, Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy
V.E. Cho'liyeva, f.f.d., prof., Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya*. Ushbu maqolada buyuk alloma Mahmud az-Zamaxsharining boy ilmiy merosi hamda uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Zamaxshariy o'z davrining yirik mutafakkiri, tilshunos va mufassir olimi sifatida Sharq ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning ilmiy faoliyati tilshunoslik, tafsir, adabiyot va boshqa ilmiy sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada allomaning ijtimoiy qarashlari, u yaratgan ilmiy maktabning ahamiyati hamda asarlari orqali shakllangan ilmiy an'analar yoritib beriladi. Shuningdek, Zamaxshariy merosining nafaqat Sharq mamlakatlarida, balki jahon ilmiy tafakkuri rivojida tutgan o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Alloma qoldirgan ma'naviy meros bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.*

Kalit so'zlar*. tafsir, tilshunos, mufassir, grammatika, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jo'g'rofiya, hadis, fiqh, sivilizatsiya, madaniy meros.*

Аннотация. *В данной статье анализируется богатое научное наследие великого учёного Махмуда аз-Замахшари и его роль в развитии мировой цивилизации. Как великий мыслитель, лингвист и учёный своего времени, Замахшари внес большой вклад в развитие восточной науки. Его научная деятельность сыграла важную роль в развитии языкознания, интерпретации, литературы и других научных областей. В статье освещаются научные взгляды учёного, значение созданной им научной школы и научные традиции, сформированные благодаря его трудам. Также научно анализируется роль наследия Замахшари не только в странах Востока, но и в развитии мировой научной мысли. Научное наследие, оставленное Алломой, сохранило свое значение и сегодня и служит важным источником для развития науки.*

Ключевые слова: *Махмуд Замахшари, научное наследие, восточные мыслители, лингвистика, наука интерпретации, мировая цивилизация, научное мышление, культурное наследие.*

Abstract. *This article analyzes the rich scientific heritage of the great scholar Mahmud al-Zamakhshari and his role in the development of world civilization. As a great thinker, linguist and scholar of his time, Zamakhshari made a great contribution to the development of Oriental science. His scientific activity was important in the development of linguistics, interpretation, literature and*

other scientific fields. The article highlights the scholar's scientific views, the importance of the scientific school he created, and the scientific traditions formed through his works. Also, the role of Zamakhshari's heritage not only in Eastern countries, but also in the development of world scientific thinking is scientifically analyzed. The scientific heritage left by Alloma has preserved its importance even today and serves as an important source for the development of science.

Key words: *Mahmoud Zamakhshari, scientific heritage, Eastern thinkers, linguistics, science of interpretation, world civilization, scientific thinking, cultural heritage.*

Xorazm o'lkasi ko'hna va qadimiy shaharlardan biri hisoblanib — Mahmud az-Zamaxshariyning vatani — O'rta Osiyodagi, Jayhun daryosining ortidagi (Movarounnahr) beshta iqlimdan biri hisoblanadi.

Ilm va madaniyat maskani bo'lgan Xorazm Amudaryoning janubi, Xurosonning shimoli sharqida joylashgan bo'lib, islom dini madaniy – ma'rifiy hayotida muhim mavqeyiga ega bo'lgan.

Xorazm o'lkasining iqlimi, keng maydonli mulklari, bozorlari gavjum bo'lgan shahar va qishloqlar, chorva mollari, mo'ynalar va poliz mahsulotlari, islomiy madaniyat keng yoyilgan, olimlar va fozillari haqidagi ma'lumotlarni ibn Rusta, Al-Yaqubiy, Al – Balazariy, Ibn Xurdodbek, Ibn Fazlan, Ibn Xavkal, Ibn Battuta, olimlar asarlari orqali o'rganamiz. Al Muqaddasiy "Bu shaharlari ta'rifi bilan birga, unihg ahlini zehni o'tkir, ilm – fanda idrokli, fiqhni yaxshi egallagan qobiliyatli va o'qimishli kishilardir" [1].

Olim ko'p asarlarini Makkadaligida yozgan. Hayotida chuqur iz qoldirgan bu zaminda Zamaxshariy besh yilga yaqin yashagan. Allomaning Jorulloh (Alloh qo'shnisi) degan sharafli ta'rifga sazovor bo'lishi shundan. Islom olamida yirik olim darajasiga ko'tarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa shaharlarida ham juda ko'p shogirdlari bo'lgan. U qarindosh-urug'larining qiyin-qistovlariga qaramasdan oila qurmagan deyiladi manbalarda.

Zamaxshariy arab tili grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jo'g'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Aynan shu asar tufayli olimlar: "Agar shu turk (Zamaxshariy) bo'lmaganida edi, arablar o'z tillari nahvi (grammatika)ni unutib yuborgan bo'lardi", deb aytishgan [2]. Zamaxshariyning "Al-Kashshof an haqoiqit tanzil va uyunil aqovil fi vujuhit ta'vil" asarini alohida tilga olmaslikning iloji yo'q. Asar Qur'onning sharhi, ya'ni tafsirdir. Asarning yozilish turi murakkabligiga qaramay, butun jahonda katta shuhrat qozongan. Hatto shu kunlarda ham Qohiradagi "Al-Azhar" universiteti talabalari "Al-Kashshof"ni alohida o'quv kursida o'rganadilar.

Az-Zamaxshariyning keng tanilgan "Al-Kashshof an haqoiq ittanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl" ("Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish") asari Qur'on tafsiriga bag'ishlangan. Ma'lumki, o'rta asrlardan boshlab Qur'onni tafsir yoki sharh bilan o'qish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qur'on yaratilgan davrdan boshlaboq unga bag'ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida Qur'onga bag'ishlangan ko'pdan ko'p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o'zidan oldin yaratilgan Qur'on tafsiriga bag'ishlangan ko'plab asarlarni qunt bilan o'rgangan. "Al-Kashshof" az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida yozilgan. [2. B.479] Ushbu asar yozilish jarayonida az-Zamaxshariy nafaqat mavjud tafsirlarni tahlil qilgan, balki ularning yondashuv uslublarini ham solishtirib, Qur'on matnidagi balog'at, uslub, lafziy tuzilish va ma'no qatlamlarini chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor qaratgan. "Al-Kashshof"ning o'ziga xosligi ham shunda oyatlarning lug'aviy ildizi, grammatik tuzilishi, bayon san'ati va ma'nodagi nozik jihatlar bir -biri bilan uyg'un holda sharhlanadi. Az-Zamaxshariy tafsir berar ekan, har bir so'zning ichki ohangi, uning matndagi o'rni va ta'sir kuchini hisobga olgan holda yondashadi. Bu asar tafsir ilmidagi nazariy yondashuvni yanada yuksak bosqichga ko'tardi, chunki muallif Qur'on oyatlarini faqat diniy hukmlar nuqtai nazaridan emas, balki ilmiy-mantiqiy tahlil, tilshunoslik va adabiy-estetik qarashlar nuqtai nazaridan ham izohlaydi. Shuning uchun ham "Al-Kashshof" keyingi asrlarda yaratilgan ko'plab tafsirlarga asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ulamolar bu tafsirni mutolaa qilar ekan, undagi bayon uslubining ravonligi, dalillarning aniqligi va tafakkur teranligini alohida e'tirof etganlar. Shu jihatdan "al-Kashshaf" tafsiri keyingi mufassirlar uchun metodologik namuna bo'lib xizmat qilgan .Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, az-Zamahshariy Qur'on darslari

jarayonida shogirdlarining oyatlar ma'nosini chuqurroq tushunishga bo‘lgan ehtiyojini sezgan. Aynan shu ehtiyoj uni tizimli va mukammal tafsir yozishga undagan ."Al-Kashshaf" avvalo ta'limiy ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga kelib, keyinchalik keng ilmiy doiralarda e'tirof etilgan.Az-Zamahshariy o‘z tafsirida Tabariy, al-Wahidi, Abd al-Qohir al-Jurjoniy kabi allomalarning ilmiy merosiga tayangan holda, ularning yondashuvini yanada mukammallashtirgan.

Az-Zamaxshariy Qur'on oyatlarining har bir lafzida hikmat borligini ta'kidlab, o‘quvchini matnni chuqur tafakkur bilan o‘qishga undaydi. Uning yondashuvi tafsirni shunchaki izoh berish emas, balki oyatlar orqali fikrni uyg‘otish, tafakkurni faollashtirish, so‘zning ichki ma'nosiga kirib borish deb talqin etadi. Mahmud Zamaxshariyning"Kashshof an-haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil" "Qur'onning berk haqiqatlarini va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko‘zlarini ochgich" nomli tafsiri mufassirlar orasida e'tiborli ilmiy manba sifatida e'tirof etilgan. Asarga yozilgan sharh, hoshiya, muxtasar va ta'liqotlarni o‘rganish musulmon dunyosining juda ko‘plab olimlari unga murojaat etganligini ko‘rsatadi.

Imom Ahmad ibn Munir Molikiy Iskandariy (vaf. 683/1284) "Kashshof" ga bag‘ishlab "Intisob" – "Tiklanish" nomli asarini yozgan. Muallif asardagi mo‘tazila aqidasiga taalluqli o‘rinlarga tanqidiy munosabatda yondashadi. Asarning tili, balog‘ati, fasohatiga juda yuqori baho beradi.

Alamuddin Iroqiyning (vaf. 704/ 1305) "Insob" – "Tiklash" nomli sharhi. Mazkur sharhda Alamuddin Iroqiy Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" va Imom Ahmad ibn Munir Molikiy Iskandariyning "Intisob" asarlarini qiyosiy tahlil qiladi va mazkur ikki manbaga nisbatan o‘z fikrlarini bayon qiladi.

Abu Ali Umar Sukkuniy Mag‘ribiyning (vaf. 717/ 1317) "Tamyiz" – " Ajratish" nomli sharhi. Muallif "Kashshof" asarining ilmiy, filologik jihatlariga ijobiy baho beradi, lekin undagi mu'tazila aqidasiga taalluqli bo‘lgan tomonlarini tanqid qiladi. Sharhning nodir nusxasi Qohiradagi Dorul-kutubi-l-misriyya kutubxonasida saqlanadi.

Valiyyuddin Ahmad ibn Zaynuddin Iroqiy (vaf. 826/1423)ning "Insof ala-l-Kashshof" raddiya sharhi. Muallif Ibn Munirning "Ilmu-d-din", Abu Hayyonning "Tafsiru-l-bahr", Ibn Hishomning "Mug‘niy" asarlariga tayanib "Kashshof"dagi hadislarini taxrij qilgan. Valiyyuddin Iroqiy asarni 826/1423 yilda yozib tugatgan. Asarning bir nusxasi "Daru-l-kutubil-misriyya" qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Burhoniddin Haydar Hiraviy (vaf. 830/ 1427) ustozi shayx Sa'dning "Kashshof"ga yozgan hoshiyasiga yozilgan hoshiya. Unda ustozining "Kashshof"ga bo‘lgan salbiy fikrlariga raddiya yozgan. Ushbu asar "Daru-l-kutubil-misriyya" qo‘lyozma fondida saqlanmoqda.

Ahmad ibn Ismoil Kuroniy (vaf. 893/ 1488) "G‘oyatu-l-amoniy fi tafsiri-l-kalomi-r-rabboniy" – "Allohning kalomini tafsir qilishdagi eng so‘nggi g‘oya" asarini yozgan. Olim hoshiyada Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" va Qozi Baydoviyning "Tafsir" asarlariga tanqidiy munosabat bildirgan. Asar "Daru-l-kutubil-misriyya" qo‘lyozma fondida saqlanmoqda.

Abu Sa'd Imodiy (vaf. 982/1574) ning "Ma'aqidu-t-taraf fi avvali tafsir surati-l-Fath mina-l-Kashshof" – "Kashshof"dagi Fath surasi tafsiriga izoh" nomli hoshiyasi.

Imom Hofiz Shahobiddin Abu-l-Fazl ibn Ali ibn Hajarning "Kofiyu-sh-shofiy fi taxriji-l-ahadisi-l-Kashshof" – "Kashshof" dagi hadislarni taxriji bo‘yicha yetarli" nomli asari.

Muhyiddin Afandining "Tanzilu-l-oyot ala shavahid mina-l-abyat" – "Oyat ma'nosini quvvatlaydigan baytlar" nomli asari. Unda Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" tafsiriga kiritgan baytlari sharhlangan, ularning mualliflari ko‘rsatilgan.

Xidr ibn Atoullohning "Is'af bi sharhi abyati-l-Qoziy va-l-Kashshof" – " Qoziy" va "Kashshof" baytlarini sharhlashga yordam"nomli asari. Asar ikki jilddan iborat, 994/ 1586 yili yozilgan.

Shayx Muhammad ibn Ali Ansoriy (vaf. 662/ 1264) sharhi. Zamaxshariyning "Kashshof" asaridagi mu'tazila aqidasiga doir fikrlarni chiqarib tashlab, ahli sunna val jamoa mazhabiga mos keladigan jihatlarini qoldirgan.

Nosiriddin Qoziy Baydoviyning (vaf. 692/ 1293) "Anvoru-t-tanzil" -"Qur'on nurlari" nomli asari. Unda "Kashshof" asariga raddiyalar bildirgan va mu'tazila aqidasiga doir jihatlariga tanqidiy yondashilgan.

Shayx Taqiyyiddin Sabbokiy (vaf. 765/ 1364) "Sababu-l-inkifof an iqroi-l-Kashshof" – "Kashshof"ni o'qishdan yuz o'girish sabablari" nomli muxtasar asarini yozgan.

Abu-s-Saodat Muborak ibn Muhammad ibn Asir Hizriyning "Insof fi-l-jam'i bayna-s-Sa'labiy va-l-Kashshof" – "Kashshof" va Sa'labiy tafsirini insof bilan jamlash" nomli asari.

Badriddin Muhammad Muqriy Halabiy (vaf. 705/1306) "Muxtasaru-r-roshif min zulali-l-"Kashshof" mina-t-tafosir" – "Kashshof"ning zilol suvlaridan ichish" nomli asarida Abu-l-Abbos Ahmad Mahdiy, Abu Lays Samarqandiy va Sa'labiy fikrlarini "Kashshof" asari bilan qiyosiy tahlil qilgan. Olimlar ushbu asarni "Kashshof"ning muhim muxtasarlaridan biri sifatida baholaganlar.

Imod Kanadiyning (vaf. 720/1320) "Kafil bi ma'anii-t-tanzil" – "Qur'on ma'nolarining kafolati" nomli 23 jilddan iborat asari. Bunda har bir oyatning tafsiridan so'ng Mahmud Zamaxshariyning bu haqdagi fikrini keltirib o'tiladi. Imod Kanadiy nahv ilmi borasida mashhur olimlardan bo'lganligi sababli "Kashshof"ning balog'at, grammatik jihatlariga alohida e'tibor beradi va allomaning fikrlarini aynan keltiradi.

Nizomiddin Qumiy Nisoburiy (vaf.728/1328) "Kashshof"ga bag'ishlangan muxtasar muallifi. Olim o'z muxtasarida Imom Roziyning "Tafsiri kabir" va Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" tafsirini qiyosiy tahlil qiladi.

Shamsuddin Abu-s-SanoShofe'iy (vaf. 749/ 1348). U Imom Roziyning "Mafotihu-l-g'ayb" – "G'ayb kalitlari" asari va Zamaxshariyning "Kashshof" tafsirini qiyosiy o'rgangan.

Abu-s-Sa'id Ummadiyning (vaf. 982/1574) "Irshodu-l-aqli-s-salim ila mazaya-l-kitabi-l-karim" – "Sog'lom aqlni Qur'on hidoyatidan bahramand qilish" nomli muxtasar asari. Mazkur asar "Tafsiri Abu-s-Sa'id" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Imom Yahyo ibn Hamza Alaviy Yamaniy (vaf. 749/ 1348). " Olim "Tiroz" – "Namuna" nomli kitobini "Kashshof" asari ta'sirida yozgan. Asar muqaddimasida olim ko'plab tafsirlarni o'rganganligi ammo ularning birortasida ham Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" tafsiridagi kabi bayon va ma'oniy ilmlarini qamrab olgan, Qur'oni karim lafzi hamda ma'nosidagi mo'jizaviy ma'nolarini yoritib beradigan mukammal tafsir ko'rmaganligini yozadi va shogirdlarining iltimosiga ko'ra yuqoridagi tafsirning balog'ati va fasohatiga bag'ishlangan ushbu asarini yozganligini ta'kidlaydi.

Buyuk alloma hijriy 538 yilda arafa kechasi (1144 yil 14 aprel) Xorazmda vafot etgan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud az-Zamahshari Sharq ilm-fani tarixida muhim o'rin egallagan buyuk allomalardan biridir. Uning ilmiy faoliyati va boy merosi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zamaxshariy tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar tilshunoslik, tafsir va adabiyot sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, allomaning ilmiy merosi Sharq va G'arb ilmiy tafakkurining boyishiga xizmat qilib, jahon sivilizatsiyasi rivojida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning ilmiy qarashlari va ma'naviy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ilm-fan rivojida muhim manbalardan biri sifatida qadrlanadi. Shu sababli Zamaxshariy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish ilmiy hamda ma'naviy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Uvatov U. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent, "O'zbekiston", 2011. – B.10.

2. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" asari qo'lyozma nusxalari haqida. – Oltin bitiglar. / Golden scripts. — 2020/4. – B.78.

3. Xoji Xalifa. Kashf az Zunun. Dor Saodat. – J.2. – B.147.

UO'K 94:378

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI FAOLIYATINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

D.N. Axmedova, o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tarixiy izchillik asosida yoritiladi. Unda institutning 1975-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali sifatida faoliyat boshlagani, keyinchalik 1992-yilda Qarshi agrar-iqtisodiyot institutiga*

aylantirilgani hamda 1995-yilda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti sifatida qayta tashkil etilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, institutning muhandislik, energetika, neft va gaz, geologiya va konchilik, iqtisodiyot, elektronika va avtomatika hamda sanoat texnologiyalari yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlashdagi faoliyati, ilmiy-tadqiqot salohiyati va professor-o'qituvchilar tarkibi haqida ma'lumotlar beriladi. Maqolada institutning ta'lim infratuzilmasi, ilmiy markazlari, kafedralari, kutubxonasi, talabalar turar joylari hamda xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi ham yoritilgan. Institut tashkil etilganidan buyon minglab yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab, Qashqadaryo viloyati va mamlakatning turli sohalari uchun muhandislik, iqtisodiy va texnik kadrlar yetishtirishga munosib hissa qo'shib kelayotgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, oliy ta'lim, institut tarixi, shakllanish.*

Аннотация. *В статье на основе исторической последовательности освещаются процессы становления, формирования и развития Каршинского инженерно-экономического института. В ней анализируется деятельность института, начавшаяся в 1975 году в качестве Каршинского филиала Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства, его последующее преобразование в 1992 году в Каршинский аграрно-экономический институт, а также реорганизация в 1995 году в Каршинский инженерно-экономический институт. Кроме того, представлены сведения о деятельности института по подготовке специалистов в направлениях инженерии, энергетики, нефтегазовой отрасли, геологии и горного дела, экономики, электроники и автоматики, а также промышленных технологий, его научно-исследовательском потенциале и профессорско-преподавательском составе. В статье также рассматривается развитие образовательной инфраструктуры института, научных центров, кафедр, библиотеки, студенческих общежитий и международных связей. Отмечается, что со дня основания институт подготовил тысячи высококвалифицированных специалистов и вносит значительный вклад в подготовку инженерных, экономических и технических кадров для Кашкадарьинской области и различных сфер страны.*

Ключевые слова: *Каршинский инженерно-экономический институт, высшее образование, история института, становление.*

Abstract. *The article examines the establishment, formation, and development of the Karshi Engineering-Economics Institute based on a consistent historical approach. It analyzes the institute's activities, which began in 1975 as the Karshi Branch of the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, its subsequent transformation into the Karshi Agrarian-Economic Institute in 1992, and its reorganization as the Karshi Engineering-Economics Institute in 1995. The article also provides information on the institute's activities in training specialists in engineering, energy, oil and gas, geology and mining, economics, electronics and automation, and industrial technologies, as well as its research potential and academic staff. The development of the institute's educational infrastructure, research centers, departments, library, student accommodation facilities, and international cooperation is also discussed. The article demonstrates that since its establishment, the institute has trained thousands of highly qualified specialists and has made a significant contribution to providing the Kashkadarya region and various sectors of the country with engineering, economic, and technical professionals.*

Keywords: *Karshi Engineering-Economics Institute, higher education, history of the institute, formation.*

Kirish. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, sanoat tarmoqlarining kengayishi hamda malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, muhandislik, energetika, qishloq xo'jaligi, neft va gaz, geologiya-konchilik hamda iqtisodiyot sohalari uchun zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashda hududiy oliy ta'lim muassasalarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Qashqadaryo viloyatida muhandislik va iqtisodiy yo'nalishlarda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimining rivojlanishida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tarixiy o'rni alohida e'tiborga loyiq. Qarshi muhandislik-

iqtisodiyot institutining faoliyat tarixi 1975-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali tashkil etilishi bilan bog‘liq. Mazkur ta’lim muassasasi dastlab hududning qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish sohalari uchun muhandis kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyingi yillarda uning ta’lim yo‘nalishlari va ilmiy faoliyat ko‘lami bosqichma-bosqich kengayib bordi. **Adabiyotlar sharhi.** Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining shakllanishi va rivojlanish tarixini o‘rganishda mavjud ma’lumotlar, avvalo, uning tashkil topish jarayoni va keyingi tashkiliy o‘zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Institut tarixiga oid materiallarda uning faoliyati 1975-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali sifatida boshlanganligi qayd etiladi. Ushbu davr institutning hududda oliy muhandislik ta’limini shakllantirishdagi dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingi yillarda ta’lim muassasasining faoliyat yo‘nalishlari kengayib, uning tashkiliy maqomida ham muhim o‘zgarishlar yuz bergan.Mavjud materiallarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 1992-yilda institutning Qarshi agrar-iqtisodiyot institutiga aylantirilishi uning rivojlanishida yangi bosqichni yuzaga keltirgan. Mazkur o‘zgarish ta’lim faoliyatining faqat muhandislik yo‘nalishlari bilan chegaralanib qolmasdan, iqtisodiy va agrar sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlarining kengayishiga zamin yaratgan. 1995-yilda institutning Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti sifatida qayta tashkil etilishi esa muhandislik va iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlarining yagona ta’lim tizimida rivojlanishiga asos bo‘lgan muhim tashkiliy bosqich sifatida baholanadi. Adabiyot va mavjud ma’lumotlarda institutning mutaxassis tayyorlash faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, muhandislik, energetika, neft va gaz, geologiya va konchilik, iqtisodiyot, elektronika va avtomatika hamda sanoat texnologiyalari kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi institut faoliyatining ko‘p tarmoqli xususiyatini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishlarning mavjudligi hududda turli ishlab chiqarish va iqtisodiy sohalar uchun zarur bo‘lgan texnik, muhandislik va iqtisodiy kadrlarni tayyorlash jarayonining bosqichma-bosqich shakllanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini izchil o‘rganish maqsadida tarixiylik, tizimlilik, izchillik va qiyosiy tahlil metodlaridan maqolada foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini institut faoliyatining turli bosqichlarini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish tashkil etdi. Xususan, 1975-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali sifatida tashkil etilgan davrdan boshlab, 1992-yilda Qarshi agrar-iqtisodiyot institutiga aylantirilishi va 1995-yilda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti sifatida qayta tashkil etilishigacha bo‘lgan jarayonlar tarixiy-kronologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, institutning muhandislik, energetika, neft va gaz, geologiya va konchilik, iqtisodiyot, elektronika va avtomatika hamda sanoat texnologiyalari yo‘nalishlaridagi faoliyati tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida institutning ilmiy-tadqiqot salohiyati, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kafedralari, ilmiy markazlari, kutubxonasi, talabalar turar joylari va boshqa ta’lim infratuzilmasining rivojlanishi alohida yo‘nalishlar sifatida ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining shakllanish va rivojlanish jarayonlari tarixiy izchillik asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari institut faoliyatini bir necha muhim bosqichlarga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi. Birinchi bosqich 1975-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali sifatida faoliyat boshlanishi bilan bog‘liq. Ushbu davrda ta’lim muassasasining asosiy vazifasi hududning qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun muhandislik yo‘nalishida malakali kadrlar tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Mazkur bosqich keyinchalik mustaqil oliy ta’lim muassasasi sifatida rivojlanish uchun dastlabki tashkiliy va ta’limiy asosni shakllantirgan. Ikkinchi muhim bosqich 1992-yilda filial negizida Qarshi agrar-iqtisodiyot institutining tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu o‘zgarish institut faoliyatida ta’lim yo‘nalishlarining kengayishiga olib kelgan. Muhandislik mutaxassisliklari bilan bir qatorda iqtisodiy va agrar yo‘nalishlarning rivojlanishi hududdagi oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning turli sohalar bo‘yicha qamrab olinishini ta’minlagan. Tadqiqot materiallari shuni ko‘rsatadiki, bu davr institutning tashkiliy jihatdan mustahkamlanishi va ta’lim faoliyatining ko‘lamini kengaytirish jarayonida muhim o‘rin tutgan. 1995-yilda institutning

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti sifatida qayta tashkil etilishi uning rivojlanish tarixidagi navbatdagi muhim natija sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqichda muhandislik va iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlarining bir tizim doirasida rivojlanishi institutning ko‘p tarmoqli oliy ta’lim muassasasi sifatidagi faoliyatini kuchaytirgan. Keyingi faoliyat jarayonida energetika, neft va gaz, geologiya va konchilik, elektronika va avtomatika, sanoat texnologiyalari hamda iqtisodiyot kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi institutda tayyorlanadigan mutaxassislar tarkibining yanada kengayganini ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida institutning rivojlanishini faqat ta’lim yo‘nalishlarining ko‘payishi bilan izohlash yetarli emasligi aniqlandi. Uning ilmiy-tadqiqot faoliyati, professor-o‘qituvchilar tarkibi va ilmiy salohiyati ham institut taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy markazlar va kafedralarning faoliyati ta’lim jarayonini ilmiy izlanishlar bilan bog‘lashga xizmat qilgan. Professor-o‘qituvchilarning ta’lim va ilmiy faoliyatdagi ishtiroki esa mutaxassislar tayyorlash sifatining mazmuniy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Institutning moddiy va ta’lim infratuzilmasi ham rivojlanish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi. Kutubxona, talabalar turar joylari, kafedralar va ilmiy markazlarning mavjudligi talabalarning ta’lim olishi, ilmiy izlanish olib borishi va o‘quv jarayonida zarur sharoitlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu jihatdan institutning rivojlanishi ta’lim mazmuni bilan bir qatorda uning tashkiliy va moddiy bazasining takomillashuvi bilan ham bog‘liq holda kechgan. Tadqiqot natijalarida xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi ham institut faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida aniqlandi. Xalqaro aloqalarning kengayishi ta’lim va ilmiy faoliyat doirasida tajriba almashish, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish va institutning tashqi akademik aloqalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratgan. Shu sababli institut tarixi hududdagi oliy ta’lim va mutaxassislar tayyorlash tizimining shakllanish jarayonini aks ettiruvchi muhim tarkibiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, muhandislik ta’limi va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga oid farmon va qarorlari. – Toshkent.
3. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. Institut tarixi, ta’lim yo‘nalishlari va faoliyatiga oid ma’lumotlar. – Qarshi.
4. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. Institutning ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta’lim infratuzilmasiga oid ma’lumotlar. – Qarshi.

UO’K 902

BIBIONA ARXEOLOGIK YODGORLIGINING TOPOGRAFIK JOYLASHUVI VA STRATIGRAFIK TAHLILI

I.I. Bekmirzayev, ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida, G‘ovasoy o‘rta oqimida joylashgan Bibiona arxeologik yodgorligining topografik joylashuvi va mudofaa tizimi, shuningdek yodgorlikda olib borilgan qazishmalar natijasida aniqlangan besh qurilish davriga oid stratigrafik ma’lumotlar tahlil qilingan. Dastlab, yodgorlik XX asrning 50-yillarida aniqlangan bo‘lib, 2021-yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti Axsikent ekspeditsiyasi tomonidan qayta o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar davomida yodgorlikning besh qurilish davriga oid stratigrafik ketma-ketligi aniqlanib, uning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Natijalar yodgorlikning mudofaa devori bilan mustahkamlangan shimoli-g‘arbiy va mustahkamlanmagan janubi-sharqiy qismlardan iborat tuzilishini hamda dastlabki yer osti va yarim yer osti inshootlaridan funksional zonalarga ajratilgan doimiy turar-joy tizimiga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotlar Bibiona yodgorligining G‘ovasoy vohasida antropogen landshaft shakllanishi va Chust madaniyati arxitekturasining rivojlanish bosqichlarini aniqlashtirishdagi ilmiy ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Bibiona yodgorligi, G‘ovasoy vohasi, Chust madaniyati, mudofaa devori, stratigrafiya, antropogen landshaft, arxeologik davrlashtirish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется топографическое расположение и оборонительная система археологического памятника Бибиона, расположенного в северной части Ферганской долины, в среднем течении реки Говасай, а также стратиграфические данные, относящиеся к пяти строительным периодам, выявленным в ходе раскопок, проведённых на памятнике. Памятник был первоначально обнаружен в 50-х годах XX века, а с 2021 года повторно изучается Ахсикентской экспедицией Института антропологии Академии наук Узбекистана. В ходе исследований была выявлена стратиграфическая последовательность пяти строительных периодов памятника, освещены этапы его развития. Результаты показывают структуру памятника, состоящую из укреплённой оборонительной стеной северо-западной и неукреплённой юго-восточной частей, а также процесс перехода от первоначальных углублённых и полууглублённых сооружений к постоянной жилой системе, разделённой на функциональные зоны. Кроме того, исследования раскрывают научную значимость памятника Бибиона в уточнении процесса формирования антропогенного ландшафта в оазисе Говасай и этапов развития архитектуры чустской культуры.*

Ключевые слова: *памятник Бибиона, оазис Говасай, чустская культура, оборонительная стена, стратиграфия, антропогенный ландшафт, археологическая периодизация.*

Abstract. *This article analyzes the topographic location and defensive system of the Bibiona archaeological site, located in the northern part of the Fergana Valley in the middle course of the Govasoy River, as well as the stratigraphic data related to the five construction periods identified during excavations carried out at the site. The site was first recorded in the 1950s, and since 2021 it has been re-investigated by the Akhsikent expedition of the Institute of Anthropology of the Academy of Sciences of Uzbekistan. In the course of the research, the stratigraphic sequence of the site's five construction periods was established, and the stages of its development were clarified. The results show the site's structure, consisting of a fortified northwestern section enclosed by a defensive wall and an unfortified southeastern section, as well as the transition process from the initial subterranean and semi-subterranean structures to a permanent dwelling system divided into functional zones. Furthermore, the research reveals the scientific significance of the Bibiona site in clarifying the process of anthropogenic landscape formation in the Govasoy oasis and the stages of development of Chust culture architecture.*

Keywords: *Bibiona site, Govasoy oasis, Chust culture, defensive wall, stratigraphy, anthropogenic landscape, archaeological periodization.*

Kirish. 2021-yildan boshlab, G'ovasoy o'rta qismida joylashgan Bibiona yodgorligida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy Arxeologiya markazi hozirda Antropologiya instituti Axsikent ekspeditsiyasining maxsus guruhi A. Anarbayev va S. Baratovlar boshchiligida arxeologik tadqiqotlar olib bormoqda. (1) Yodgorlik Namangan viloyatining Chust shahri shimoliy qismida, Bibiona ziyoratgohi yaqinida joylashgan tepalikdir. Yodgorlik hududi 1950-yillarda umumiy maydoni 4,06 gektarni tashkil etgan. Hozirgi kunda yodgorlikdan 2,3 gektar maydon saqlanib qolgan. Bu yodgorlik dastlab XX asrning 50-yillarida aniqlanib, M. E. Vorones, (4) V. I. Sprishevskiy, (8) Y.A. Zadneprovskiy (5) va B. X. Matbabayevlar (7) tomonidan ko'p yillik qazishmalar olib borilgan bo'lsa-da, lekin keyingi yillarda Farg'ona vodiysining ilk antropogen landshafti paleogeografiyasi, arxeobotanikasi va arxeoseysmologiyasi ilk marotaba o'rganish zaruriyati tug'ildi. Shu asosda G'ovasoy vohasidagi Bibiona (Chust), Chilhujra va Balandtepa yodgorliklarida fundamental arxeologik tadqiqotlar tashkil qilinib kelinmoqda. (2) Shu yodgorliklar orasida eng qadimiysi Bibiona yodgorligidir.

Yodgorlikning topografik joylashuvi va mudofaa tizimi. Bibiona arxeologik yodgorligi geografik joylashuvi Chust soy bo'yida joylashgan bo'lib, vohaning tekislik qismida joylashgan. Bu tepalik qadimdan tabiiy mudofaalangan relyefdan foydalangan. Bu joylar odatda bir tomondan suv havzalari, boshqa tomondan esa botqoqliklar bilan o'ralgan bo'lib, faqatgina bitta tomondan kirish imkoniyatini taqdim etgan. Shu sababli, asosiy mudofaa inshootlarining ana shunday yo'llar ustida joylashuvi mantiqiy deb qaraladi. Masalan, Dalvarzin yodgorligining o'troq aholisi Qoradaryo bo'ylarida joylashgan bo'lib, bu yondashuv keyingi yodgorliklarda ham kuzatiladi. (6) Bibiona

yodgorligi ham joylashuv topografiyasidan kelib chiqib, tabiiy landshaft elementlari, xususan soy va botqoqliklardan mudofaa vositasi sifatida foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Yodgorlikning g‘arbiy qismida topilgan yoysimon devor qoldiqlariga asoslanib, bu hududga kirish yo‘li g‘arbiy tomondan bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va tepalikning planigrafik holati shuni ko‘rsatadiki, yodgorlik ikki qismdan iborat bo‘lib: shimoli-g‘arbiy qismi, taxminan 1,5 gektar maydonga ega bo‘lib, mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Bu yerda turar joylar topilmagan. Tadqiqotchilar V. I. Sprishevskiy va S.Baratov fikricha “ushbu qism chorva uchun qo‘ra yoki harbiy xavf tug‘ilganda atrof aholisi uchun boshpana sifatida foydalanilgan bo‘lishi mumkin. (9) ”Chust mudofaa devorlari paxsadan va xom g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, g‘isht o‘lchamlari 54–55×32×8–10 sm ni tashkil etgan. Devor qalinligi turli joylarda 1,5 dan 3 metrgacha, saqlanib qolgan balandligi esa 2 dan 5 metrgacha bo‘lgan. Mudofaa minoralari qoldiqlari aniqlanmagan. Shimoli-g‘arbiy devor bo‘lagining poydevori madaniy qatlam ustiga qurilgan. Shuning uchun ham tadqiqotchi tomonidan manzilgoh tarixi uch davrga bo‘lingan: 1-davr himoya devorlari qurilishidan avvalgi, 2-davr himoya devorlari mavjud bo‘lgan va 3-davr himoya devorlari vayron bo‘lganidan keyingi davr. (8) Umuman olganda, manzilgoh eramizdan avvalgi II va I ming yilliklar chorrahasiga oid deb hisoblangan. (8) Mudofaa devori Bibiona yodgorligining dastlabki bosqichida mavjud bo‘lmasa-da, lekin uning keyingi taraqqiyotini belgilab beradi. Bu mudofaa devori uch bosqichda qurilgan. Birinchi bosqich uning G‘arbiy tarafidagi “yoysimon” qismi, ikkinchi bosqichda janubiy qanoti va oxirgi bosqichda qolgan qismi qurilgan. (9) Lekin oldin aytib o‘tilganidek devor madaniy qatlam ustiga qurilgan. Ya’ni shuni taxmin qilish mumkinki mudofaa devori yoki kichik to‘siq maydoni keyinchalik ma’lum himoya zaruratidan qurilgan bo‘lishi mumkin. Yodgorlikning qolgan qismidan mudofaa inshootlari aniqlangani yo‘q. Shu bilan birga, tepalik landshafti tabiiy mudofaalanish imkoniyatini beradi. Uning shimoli-g‘arbiy qismidan G‘ovasoy daryosi irmog‘i oqib o‘tadi. Hozirgi vaqtda soy kichik irmoq shaklida qolib, soy suvi Chustsoy deb ataladi va soy suvi kam va oqim kuchi past bo‘lsa-da, taxminan 2–3 ming yil avval gidrologik sharoit ancha farq qilgan. Bu davrda soy suvi madaniy landshaftga nisbatan kam darajada antropogen ta’sirga uchragan bo‘lib, uning asosiy daryo tarmog‘iga integratsiyalashuvi va oqim hajmi yuqori bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin.

Ikkinchi, ya’ni sharqiy qism esa mustahkamlanmagan bo‘lib, bu yerda turar joylarning qoldiqlari aniqlanib, o‘rganilgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar yodgorlikning markaziy va shimoli-sharqiy qismida olib borildi.

Stratigrafik tahlil natijalari. Bibiona yodgorligining besh qurilish davri asosida olib borilgan stratigrafik tahlil G‘ovasoy vohasida antropogen landshaftning bosqichma-bosqich, uzluksiz va intensivlashuvchi tarzda shakllanganligini ko‘rsatadi:

1. Dastlabki bosqich (I davr). Vohaning ilk o‘zlashtirilishi doimiy turar-joy qurilishidan emas, balki materik tuprog‘iga qazilgan chuqurlar (yer osti va yarim yer osti inshootlari) tizimidan boshlangan. Bu landshaftni minimal darajada o‘zgartiruvchi, resurslarni (oziq-ovqat zaxiralari, vaqtinchalik turarjoy) o‘zlashtirish strategiyasini aks ettiradi, ya’ni jamoa hali landshaftni tubdan qayta qurishga emas, balki mavjud relyefga moslashishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

2. O‘tish bosqichi (II–III davr) funksional ixtisoslashuvning boshlanishi. Gipsli va loyli suvalgan pollar, o‘choq va pech qoldiqlari, hojatxona va oqova tizimlarining paydo bo‘lishi vohada maishiy makonning funksional zonalarga bo‘lina boshlaganini ko‘rsatadi. Bu jamoaning endilikda vaqtinchalik emas, balki doimiy, ko‘p funksiyali turar-joy tizimini shakllantirishga o‘tganidan dalolat beradi, ya’ni antropogen landshaft endi tabiiy relyefga moslashishdan uni maqsadli qayta tashkil etishga o‘tgan.

3. Barqarorlashuv bosqichi (IV davr) arxitektura tizimining mustahkamlanishi. Xom g‘ishtdan qurilgan to‘rtburchak rejali, sufali, aniq ichki tuzilishga ega turar-joylarning paydo bo‘lishi vohada barqaror, ko‘p avlodli turar-joy an’analarining shakllanganini bildiradi.

4. Kengayish bosqichi (V davr) hudud chegarasining kengayishi. Yirik o‘lchamli, mustahkam paxsa devorli inshootlarning yangi maydonlarda paydo bo‘lishi vohada turar-joy hududining tashqariga qarab kengayib borganini, demak, aholi sonining o‘sishi va yodgorlikda antropogen ta’sir zonasining kattalashib borganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Bibiona arxeologik yodgorligida 2021-yildan buyon olib borilayotgan tadqiqotlar uning topografik tuzilishi, mudofaa tizimi va stratigrafik rivojlanish bosqichlariga oid qator

masalalarga aniqlik kiritdi. Tadqiqot natijalari yodgorlikning tabiiy mudofaalangan relyef sharoitida shakllanganligini hamda mudofaa tizimida G‘ovasoy irmog‘i va botqoqlik kabi landshaft elementlaridan samarali foydalanilganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mudofaa devorining madaniy qatlam ustiga keyinchalik qurilganligi va uning uch bosqichda shakllanganligi yodgorlikning mudofaa infratuzilmasi aholi manzilgohi rivojlanishining keyingi bosqichlarida vujudga kelganini anglatadi.

Stratigrafik tahlil natijalari yodgorlik tarixida besh qurilish davrini ajratish imkonini berdi. Ushbu ketma-ketlik dastlabki yer osti va yarim yer osti inshootlaridan boshlab, funksional zonalarga ajratilgan doimiy turar-joylar hamda yirik paxsa devorli me’moriy majmualargacha bo‘lgan uzluksiz rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Turar-joylarning rejalashtirilishi, qurilish usullarining takomillashuvi va hududning bosqichma-bosqich kengayishi G‘ovasoy vohasida antropogen landshaftning izchil shakllanganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Bibiona yodgorligi Chust madaniyatining ilk bosqichlarini, aholi manzilgohlarining hududiy tashkil topishini hamda Shimoliy Farg‘ona vohasida bronza davridan ilk temir davriga o‘tish jarayonidagi ijtimoiy va me’moriy o‘zgarishlarni yoritishda muhim tayanch yodgorliklardan biri ekanligi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Анарбаев А.А., Баратов С. Новые археологические работы на поселении Чуст-Бибиона // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент, 2022. – Вып. 42. – С. 205–227.

2. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Нажмиддинов А., Бекмирзаев И., Пардаев М. Археологические работы на поселении Чуст-Бибиона в 2023 году // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2023 йил. – Самарқанд, 2024. – № 16. – Б. 40–49.

3. Анарбаев А., Корженков А. Сейсмическая опасность Ферганской долины: археосейсмологические данные. Монография. – Ташкент: Фан, 2024. – 248 с.

4. Воронец М.Э. Археологическая рекогносцировка 1950 г. по Наманганской области // Известия Академии наук Узбекской ССР. – Ташкент, 1951. – № 3. – С. 86–96.

5. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1962. – 118 с.

6. Заднепровский Ю.А. Раскопки поселений чустской культуры Ферганы // Археологические открытия 1974 года. – Москва: Наука, 1975. – С. 511–512.

7. Матбабаев Б.Х. Новые исследования на Чустском поселении (Фергана) // Советская археология. – 1984. – № 4. – С. 132–141.

8. Спришевский В.И. Чустская стоянка эпохи бронзы (раскопки 1953 г.) // Советская этнография. – 1954. – № 3. – С. 112–120.

9. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // Советская археология (СА). – 1972. – №3. – С. 65–72, 228.

UO‘K 75.052:94(575.1)

TAVKA QO‘RG‘ONI DEVORIY TASVIRLARINING TARIXIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

S.A. Ergasheva, katta o‘qituvchi, PhD, Termiz davlat universiteti, Termiz
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0004-1881-7200

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo vohasidagi Tavka qo‘rg‘oni devoriy tasvirlarining tarixiy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Undagi ov manzaralari, ot va chavandoz obrazlari, tasviriy kompozitsiya hamda ot anjomlarining ifodalanishi o‘rganiladi. Tavka devoriy rasmlarining O‘rta Osiyo tasviriy san’ati an’analari bilan bog‘liqligi ochib berilib, ularning ilk o‘rta asrlar madaniyati va badiiy tafakkurini o‘rganishdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tavka qo‘rg‘oni, devoriy tasvir, monumental rangtasvir, ov manzarasi, ot obrazi, chavandoz, Surxondaryo, ilk o‘rta asrlar.*

Аннотация. *В статье анализируются историко-художественные особенности настенных росписей крепости Тавка, расположенной в Сурхандарьинском оазисе. Рассматриваются сцены охоты, образы лошадей и всадников, композиционные особенности и изображение конского снаряжения. Раскрывается связь росписей Тавки с традициями*

изобразительного искусства Центральной Азии и освещается их значение для изучения культуры и художественного мышления раннего средневековья.

Ключевые слова: *крепость Тавка, настенная роспись, монументальная живопись, сцена охоты, образ лошади, всадник, Сурхандарья, раннее средневековье.*

Abstract. *This article analyzes the historical and artistic features of the wall paintings of Tavka Fortress, located in the Surkhandarya oasis. It examines hunting scenes, images of horses and horsemen, compositional features, and the depiction of horse equipment. The study highlights the connection between the Tavka murals and the traditions of Central Asian visual art, as well as their significance for understanding the culture and artistic thought of the Early Middle Ages.*

Key words: *Tavka Fortress, wall paintings, monumental painting, hunting scene, horse imagery, horseman, Surkhandarya, Early Middle Ages.*

Qadimgi yodgorliklarda olib boriladigan arxeologik tadqiqotlar ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi hamda san'at an'analari haqida muhim ma'lumotlar beruvchi noyob manbalarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, qadimiy me'moriy inshootlar devorlarida saqlanib qolgan mahobatli rangtasvir namunalari o'sha davr kishilarining estetik qarashlari, diniy e'tiqodlari va kundalik hayotini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. O'rta Osiyoda devoriy tasvirlar yaratish an'anasi miloddan avvalgi III–I asrlardayoq keng tarqalgan bo'lib, mahobatli rangtasvir san'ati, ayniqsa, milodiy V–X asrlarda yuqori darajada rivojlangan. Qadimgi rassomlar ibodatxonalar va saroylar devorlariga ilohiy kuchlar, afsonaviy qahramonlar, marosimlar, ov jarayonlari hamda kundalik hayot manzaralarini tasvirlaganlar. Buddaviylik va zardushtiylik kabi diniy qarashlarning keng yoyilishi natijasida ibodatxonalar devorlarida diniy mazmundagi kompozitsiyalar shakllangan bo'lsa, hukmdorlar saroylari, boylarning qal'a va qo'rg'onlarida dunyoviy hayotga oid voqealar o'z ifodasini topgan.

Surxondaryo vohasidagi Qoratepa, Fayoztepa va Dalvarzintepa buddaviylik majmualari, Tojikistondagi Panjikent va Ajinatepa ibodatxonalari devorlarida saqlangan tasvirlar ushbu an'ananing yuksak taraqqiy etganidan dalolat beradi. Afrosiyob, Panjikent, Bolaliktepa va Zartepadan aniqlangan devoriy rasmlar esa saroy va turarjoy me'morchiligida dunyoviy mavzular, tantanali marosimlar, mehmondorchilik, ov va kundalik turmush bilan bog'liq sahnalar keng tasvirlanganini ko'rsatadi. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonning qadimiy madaniy merosi ana shunday noyob yodgorliklardan yana biri — Tavka qo'rg'onida aniqlangan devoriy tasvirlar bilan boyidi. Sherobod tumani hududida joylashgan ushbu yodgorlik ilk o'rta asrlarga oid muhim arxeologik obyektlardan biri sanaladi. Tavka qo'rg'onini arxeologik jihatdan o'rganishda Shaymardonqul Raxmanovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega[1].

Tavka qo'rg'onining tarixiy-arxeologik xususiyatlarini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar, san'atshunoslik ishlari, yozma manbalar, folklor materiallari hamda toponimik ma'lumotlar muhim manba vazifasini bajaradi. Tavka yodgorligini o'rganishda Sh. A. Raxmanovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning Sherobod Dahanasidagi bojxona devori hamda Tavka qo'rg'onining Buyuk Ipak yo'lidagi muhim manzilgoh sifatidagi o'rniga bag'ishlangan ishlari yodgorlikning tarixiy va me'moriy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Sh. Raxmanov va M. Reutovaning Tavka qal'asidagi monumental rangtasvirga bag'ishlangan maqolasi esa yodgorlikdagi devoriy tasvirlarning badiiy xususiyatlarini o'rganishda muhim manbalardan biridir.

Tavka qo'rg'oni joylashgan hududning qadimgi va o'rta asrlar tarixi T. Dj. Annaev, A. I. Boboxodjaev va Sh. A. Raxmanovlarning tadqiqotlarida ham yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda Ko'hitang–Boysun hududidagi qadimgi va o'rta asr yodgorliklarining arxeologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ot obrazi va uning qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatidagi o'rnini o'rganishda A. M. Beleniskiy, S. P. Nesterov hamda M. E. Masson tadqiqotlari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Beleniskiy va Nesterov asarlarida otning qadimgi va o'rta asrlardagi diniy-e'tiqodiy qarashlar, kultlar va mafkuraviy tasavvurlardagi o'rni tahlil qilingan. M. E. Masson esa Tohariston hududidagi otlarning keyingi davrlardagi loqay otlari bilan bog'liqligi masalasiga e'tibor qaratgan.

T. Nafasovning O'zbekiston toponimlariga bag'ishlangan lug'ati Tavka nomining kelib chiqishi va uning toponimik xususiyatlarini o'rganishda yordamchi manba sifatida ahamiyatlidir.

Shuningdek, “Alpomish” dostoni va uning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan aytilgan varianti Tavka nomining xalq og‘zaki ijodidagi aksini o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, arxeologik, san’atshunoslik va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tavka qo‘rg‘oni devoriy tasvirlarining mazmuni va badiiy xususiyatlarini aniqlashda ularni O‘rta Osiyoning boshqa qadimgi va ilk o‘rta asr yodgorliklaridagi devoriy rangtasvir namunalari bilan qiyoslash usulidan foydalanildi. Shuningdek, devoriy kompozitsiyadagi ot, chavandoz, ohu va tomoshabin obrazlari ikonografik jihatdan tahlil qilindi. Ranglar, kompozitsion tuzilish, harakatning ifodalanishi, ot anjomlarining tasvirlanishi va obrazlarning o‘zaro joylashuvi badiiy tahlil qilindi.

Tarixiy manbalar, arxeologik ma’lumotlar va folklor materiallarini o‘zaro qiyoslash orqali Tavka qo‘rg‘oni devoriy tasvirlarining tarixiy-madaniy mazmunini aniqlashga harakat qilindi.

Tavka qo‘rg‘oni baland tepalikda, Sherobod shahridan taxminan 4 kilometr shimolda, Sherobod daryosining so‘l qirg‘og‘ida joylashgan. Qal’a yuqoriga olib chiqadigan yo‘lak bilan birga hisoblanganda qariyb bir gektar maydonni egallaydi. Uning ikki tomoni tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, bunday geografik joylashuv yodgorlikning mudofaa va nazorat vazifalarini bajarishida muhim ahamiyat kasb etgan. Tavka qo‘rg‘oni V–VI asrlarda Kufton hokimlarining qarorgohi sifatida foydalanilgani haqidagi ma’lumotlar yodgorlikning siyosiy va ijtimoiy tarixdagi o‘rnini belgilashda muhimdir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bojxona binosining ikkita zali, ayvonlari va yo‘laklari mavjud bo‘lgani aniqlangan. Qal’aning qabul marosimlari o‘tkazishga mo‘ljallangan xonasi devorlarida saqlanib qolgan tasvirlar yodgorlikning eng muhim badiiy topilmalaridan biridir. Devoriy rasmlar ikki qavatli imorat devorlariga ishlangan bo‘lib, ular bizgacha to‘liq holda yetib kelmagan. Shunga qaramay, saqlanib qolgan qismlar orqali kompozitsiyaning asosiy mavzusini aniqlash mumkin. Unda ov jarayoni tasvirlangan bo‘lib, sahna yagona mazmuniy kompozitsiya asosida yaratilgan[2].

Tasvirda sariq, jigarrang va kulrang tuslarda berilgan oltita otning ov ortidan shiddat bilan chopib borayotgani aks ettirilgan. Otlarning abzallari va yopinchig‘iga oltin rang bilan ishlov berilgani, ularning yugan-jilovlari hamda boshqa jihozlari aniq ko‘rsatilgani qadimgi rassomning ot va ot anjomlarini tasvirlashga katta e’tibor berganini ko‘rsatadi.

Devoriy tasvirda otliqlardan faqat birining qiyofasi nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Saqlangan chavandoz orqasiga o‘girilib, kamondan o‘q uzayotgan holatda tasvirlangan. Uning yumshoq qo‘njli charm etik kiyganligi va butun gavdasi bilan ov jarayoniga berilgani rassom tomonidan harakatning dinamik holatda ifodalanganidan dalolat beradi. Kompozitsiyada ohu ovlash jarayoni asosiy syujet sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ov jarayonini kuzatayotgan qiz-juvonlar tasvirining saqlanib qolishi mazkur manzaraning faqat ovchilarning faoliyatini emas, balki tomosha va marosim jarayonini ham aks ettirganini ko‘rsatadi[3].

Ov manzaralarining qadimgi tasviriy san’atdagi o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda ovchilik insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab mavjud bo‘lgan. Mezolit davridayoq bu mashg‘ulot kishilar hayotining muhim qismi hisoblangan. Ko‘hitang tog‘laridagi Zarautsoy g‘ori devorlariga bo‘yoq yordamida ishlangan ov sahnalari qadimiy tasviriy san’at namunalari qatoriga kiradi. O‘rta Osiyo va umuman Sharq tasviriy san’atida ov sahnalari nafaqat kundalik hayot hodisasi, balki ajdodlarning diniy-e’tiqodiy qarashlari bilan ham bog‘liq holda shakllangan. Qadimgi tasavvurlarga ko‘ra, ovda muvaffaqiyatga erishish jangdagi g‘alaba bilan qiyoslangan. Shu sababli ovchi va chavandozlarning yovvoyi hayvonlar ustidan g‘alaba qozonishi kuch, jasorat va muvaffaqiyat ramzi sifatida talqin qilingan bo‘lishi mumkin. Tavka devoriy rasmlarida otlarning tasviriga alohida e’tibor berilgani diqqatga sazovordir. Sharq tasviriy san’atida ot obrazi muhim o‘rin egallagan. Devoriy kompozitsiyada otlarning shamoldek chopib borayotgan holatda tasvirlanishi rassomning harakat va dinamikani ifodalashdagi mahoratini namoyon etadi[4].

Otlarning tashqi ko‘rinishi, harakat holati, yugan-jilovlari, egar-abzallari va yopinchig‘ining batafsil tasvirlanishi ularning jamiyat hayotida nafaqat transport vositasi, balki ijtimoiy va ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan hayvon sifatida qadrlanganini ko‘rsatadi. Otning Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi o‘rni yozma manbalarda ham aks etgan. Miloddan avvalgi II asrda Xitoydan yurtimizga kelgan elchi va sayyoh Chjan Syan o‘z yozuvlarida Farg‘onada chopqir arg‘umoqlar mavjudligini

qayd etgan. M. Ye. Massonning fikriga ko‘ra, Tohariston hududidagi otlar keyingi davrlardagi loqay otlarining uzoq ajdodlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xitoy manbalarida Toharistonda qadimda ot ilohiylashtirilgani va unga sig‘inish bilan bog‘liq qarashlar mavjud bo‘lgani qayd etiladi. Mintaqa xalqlarining ayrim marosimlarida otni ulug‘lash bilan bog‘liq urf-odatlarning turli ko‘rinishlari keyingi davrlargacha saqlanib kelgani etnografik tadqiqotlarda ham kuzatiladi. Tavka qo‘rg‘oni devoriy tasvirlarida otlarning abzallari va jihozlarining batafsil aks ettirilishi shu nuqtai nazardan muhim badiiy belgi sifatida qaralishi mumkin. Egar, sovliq-yugan, uzangi va yopinchig‘ining aniq tasvirlanishi rassomning real hayotdagi ot anjomlarini yaxshi bilganini ko‘rsatadi. Tavka qo‘rg‘onining nomi ham xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq. Qal’a “Alpomish” dostonidagi qahramonlardan biri, qalmiq xoni Toychixonning qizi Tavkaoyim nomi bilan atalishi haqida ma’lumotlar mavjud. Dostonning mahalliy variantlaridan birida Tavkaoyim qal’asi go‘zallar suratlari bilan bezatilgani haqida fikr uchraydi[6].

Umuman olganda, Tavka qo‘rg‘oni devoriy tasvirlari O‘zbekiston hududida mahobatli rangtasvir san’atining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ularni arxeologik, san’atshunoslik, tarixiy, etnografik va folklorshunoslik manbalari bilan kompleks tadqiq etish Surxondaryo vohasining qadimgi va ilk o‘rta asrlar madaniy merosi haqidagi ilmiy tasavvurlarni yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alpomish. O‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, nashrga tayyorlovchilar X. Zarif va T. Mirzaev, 2-kitob, Toshkent, 1993.

2. Аннаев Т. Дж., Бобоходжаев А. И., Рахманов Ш. А. Некоторые итоги изучения древних и средневековых памятников предгорной и горной полосы Кугитанг-Байсунтау // Сб. ИМКУ, вып. 23. Ташкент, 1990.

3. Беленицкий А. М. Конь в культах и идеологических представлениях народов Средней Азии и Евразийских степей в древности и раннем средневековье // КСИА АН СССР. № 154. Ранние кочевники. М., 1978. С. 31–39.

4. Массон М. Е. К истории происхождения локайской лошади // Изв. АН Тадж. ССР. 1949. № 5.

5. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: «O‘qituvchi», 1988. – 288 b.

6. Нестеров С. П. Конь в культах тюрко-язычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. Новосибирск, 1990. С. 144.

UO’K 316.74:2-673.5:37.017

YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

U.Ergashev, o‘qituvchi, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari va uning yoshlar dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga ta’siri, jamiyatda konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *diniy bag‘rikenglik, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy falsafa, ma’naviy qadriyatlar, vijdon erkinligi, konfessiyalararo totuvlik, diniy madaniyat.*

Аннотация. *В статье рассматриваются социально-философские основы формирования культуры религиозной толерантности в процессе воспитания молодёжи, её влияние на мировоззрение, духовно-нравственные ценности и социальные отношения молодых людей, а также значение в укреплении межконфессионального согласия в обществе.*

Ключевые слова: *религиозная толерантность, воспитание молодёжи, социальная философия, духовные ценности, свобода совести, межконфессиональное согласие, религиозная культура.*

Abstract. *This article examines the socio-philosophical foundations of developing a culture of religious tolerance in youth education, its influence on young people’s worldview, spiritual and moral values, and social relationships, as well as its significance in strengthening interfaith harmony in society.*

Keywords: *religious tolerance, youth education, social philosophy, spiritual values, freedom of conscience, interfaith harmony, religious culture.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, uning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va turli dunyoqarash vakillariga nisbatan hurmat munosabatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv, xalqaro migratsiya, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi sharoitida diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki turli diniy e’tiqodlar, madaniy an’analar va dunyoqarashlarning o‘zaro munosabati jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik hamda shaxslararo munosabatlarning mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Diniy bag‘rikenglik insonning o‘z e’tiqodiga sodiq qolgan holda boshqalarning diniy qarashlari, vijdon erkinligi va ma’naviy tanlovini hurmat qilishga asoslangan ijtimoiy-axloqiy munosabatdir. Mazkur tushuncha faqat turli din vakillarining tinch-totuv yashashini emas, balki o‘zaro muloqot, hamkorlik, inson qadr-qimmatini e’tirof etish va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan diniy bag‘rikenglik shaxsning ma’naviy yetukligi va jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini tavsiflovchi muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida Markaziy Osiyo hududi turli diniy e’tiqodlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘zaro aloqada bo‘lgan makon sifatida shakllangan. Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlar natijasida hududda turli diniy-falsafiy qarashlar tarqalgan. Mazkur tarixiy tajriba diniy bag‘rikenglikni faqat zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida emas, balki uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan madaniy qadriyat sifatida ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasida diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillarini mustahkamlash muhim ijtimoiy vazifalardan hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligining kafolatlanishi va davlatning dunyoviylik tamoyiliga asoslanishi diniy e’tiqodlar xilma-xilligiga huquqiy yondashuvning asosini tashkil etadi [1].

Diniy bag‘rikenglik muammosi falsafa, sotsiologiya, dinshunoslik, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro kesishgan nuqtasida o‘rganiladigan murakkab ilmiy masalalardan biridir. Mazkur tushunchaning nazariy asoslarini tahlil qilishda klassik falsafiy qarashlar, xalqaro huquqiy hujjatlar va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar muhim metodologik ahamiyatga ega.

Ingliz faylasufi Jon Lokkning «Bag‘rikenglik haqida maktub» asarida diniy e’tiqod masalalarida majburlashning cheklanganligi, vijdon erkinligi va diniy jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy-axloqiy asoslari muhokama qilinadi [2]. Lokkning qarashlari zamonaviy diniy bag‘rikenglik konsepsiyasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning tarixiy yondashuvi hozirgi universal tenglik tamoyillaridan ayrim jihatlari bilan farqlanadi.

YUNESKO tomonidan 1995-yilda qabul qilingan «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»da bag‘rikenglik inson huquqlari, asosiy erkinliklar va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish bilan bog‘liq qadriyat sifatida talqin etiladi. Deklaratsiyada bag‘rikenglik befarqlik yoki har qanday qarashni tanqidiy baholamasdan qabul qilish emasligi, balki insonlarning huquq va erkinliklarini tan olishga asoslanishi qayd etilgan [3].

Amerikalik siyosiy faylasuf Jon Roulzning adolat nazariyasida esa turli axloqiy va dunyoqarash tizimlariga ega fuqarolarning adolatli ijtimoiy institutlar doirasida hamkorlik qilishi masalasi muhim o‘rin egallaydi [4]. Ushbu yondashuv diniy bag‘rikenglikni shaxsiy fazilat bilan birga, ijtimoiy institutlar faoliyatining muhim tamoyili sifatida ham o‘rganish imkonini beradi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada diniy bag‘rikenglikning shakllanishi ko‘p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiylashuv mexanizmlari, ta’lim tizimi, oilaviy tarbiya, ommaviy axborot vositalari va madaniyatlararo muloqot bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ayniqsa, yoshlarning axborot olish imkoniyatlari kengaygan sharoitda diniy mazmundagi ma’lumotlarni tanqidiy baholash, stereotiplarni farqlash va turli qarashlarga nisbatan asosli munosabat bildirish ko‘nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Diniy bag‘rikenglik madaniyati shaxsning diniy xilma-xillikni anglash, turli e’tiqod vakillarining huquqlarini hurmat qilish, ular bilan konstruktiv munosabatga kirishish va

ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi murakkab ma'naviy-axloqiy tizimdir. Uning shakllanishi shaxsning bilimi, qadriyatlari, hissiy munosabati va amaliy xulq-atvori bilan bevosita bog'liq.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan diniy bag'rikenglik madaniyatining mohiyatini uch asosiy jihat orqali izohlash mumkin.

Birinchidan, diniy bag'rikenglik aksiologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Chunki u inson qadr-qimmati, vijdon erkinligi, o'zaro hurmat va ijtimoiy adolat kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Yoshlarning mazkur qadriyatlarni anglab yetishi ularda turli e'tiqod vakillariga nisbatan insonparvar munosabat shakllanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, diniy bag'rikenglik gnoseologik jarayon bilan bog'liq. Turli dinlar tarixi, diniy an'analar va dunyoqarashlar haqida ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'lish yoshlarning diniy stereotiplar, noto'g'ri tasavvurlar va asossiz umumlashtirishlarga tanqidiy munosabat bildirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda diniy bilim bilan ilmiy bilimning vazifalarini farqlash, ma'lumotlarning manbasini tekshirish va turli nuqtayi nazarlarni qiyosiy o'rganish muhimdir.

Uchinchidan, diniy bag'rikenglik ijtimoiy-kommunikativ qadriyat hisoblanadi. U turli e'tiqod va dunyoqarash vakillarining o'zaro muloqotga kirishishi, ijtimoiy masalalarda hamkorlik qilishi hamda kelishmovchiliklarni zo'ravonliksiz hal etishi uchun ma'naviy asos yaratadi.

Mazkur jihatlar diniy bag'rikenglik madaniyatining faqat diniy munosabatlar doirasida emas, balki jamiyatning umumiy axloqiy va fuqarolik madaniyati tarkibida shakllanishini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasida diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va fuqarolik hamjihatligini ta'minlash bilan bog'liq muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan biridir. Uning shakllanishi yoshlarning turli diniy va dunyoqarash tizimlariga nisbatan ongli, xolis va hurmatga asoslangan munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Yangi tahrir. — Toshkent, 2023.
2. Locke J. A Letter Concerning Toleration. — 1689.
3. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. — Paris, 16 November 1995.
4. Rawls J. A Theory of Justice. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971.

UO'K 94(575.1):398.2

KASALLIKLARNI DAVOLASH BILAN BOG'LIQ SHOMON MAROSIM FOLKLORI JANRLARINI TASNIF QILISH MEZONLARI

B.B. G'aniyev, tadqiqotchi, O'zRFA QQB Ijtimoiy-gumanitar fanlar universiteti si, Nukus

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kasalliklarni davolash bilan bog'liq shomon marosim folklori janrlarini tasniflash mezonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shomonlik marosimlarida uchraydigan chorlovlar, aytimlar, badiklar, afsunlar va boshqa folklor namunalarining funksional, mazmuniy, marosimiy hamda poetik xususiyatlari asosida tasniflash masalalari yoritiladi. Kasalliklarni davolashga qaratilgan marosim folklori janrlarining bajarilish maqsadi, marosimdagi o'rni, ijro shakli, mifologik tasavvurlar bilan bog'liqligi va sakral vazifalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, davolash marosimlarida shomon, baxshi va kushnochlarning faoliyati hamda ularning folklor matnlarini ijro etishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasalliklarni davolash bilan bog'liq shomon marosim folklorini kompleks mezonlar asosida tasniflash taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *shomon, shomonlik, marosim folklori, kasallik, davolash marosimi, chorlov, badik, afsun, baxshi, kushnoch, mifologik tasavvur, sakral, tasnif, mezon, folklor janrlari.*

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются критерии классификации жанров шаманского обрядового фольклора, связанных с лечением заболеваний. Рассматриваются вопросы классификации шаманских призываний, песнопений, бадиков, заклинаний и других фольклорных образцов, встречающихся в шаманских обрядах, на основе их функциональных, содержательных, обрядовых и поэтических особенностей. Особое внимание уделяется цели исполнения жанров обрядового фольклора, направленных на лечение заболеваний, их месту в обряде, форме исполнения, связи с мифологическими*

представлениями и сакральным функциям. Также анализируются деятельность шаманов, бахши и кушночей в лечебных обрядах и их роль в исполнении фольклорных текстов. В исследовании предлагается классификация шаманского обрядового фольклора, связанного с лечением заболеваний, на основе комплексных критериев.

Ключевые слова: *шаман, шаманизм, обрядовый фольклор, болезнь, лечебный обряд, призывание, бадик, заклинание, бахши, кушноч, мифологические представления, сакральное, классификация, критерий, фольклорные жанры.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the criteria for classifying the genres of shamanic ritual folklore associated with the treatment of diseases. The issues of classifying shamanic invocations, ritual chants, badik songs, incantations, and other folklore texts found in shamanic rituals are examined on the basis of their functional, thematic, ritual, and poetic characteristics. Particular attention is paid to the purpose of performing ritual folklore genres intended for healing, their role in the ritual, forms of performance, connections with mythological beliefs, and sacred functions. The activities of shamans, bakhshis, and kushnochs in healing rituals and their role in performing folklore texts are also analyzed. The study proposes a classification of shamanic ritual folklore associated with the treatment of diseases based on a комплекс of criteria.*

Key words: *shaman, shamanism, ritual folklore, disease, healing ritual, invocation, badik, incantation, bakhshi, kushnoch, mythological beliefs, sacred, classification, criterion, folklore genres.*

Yer yuzida odamzod yaratilibdiki, xastaliklar bilan kurash uning hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Ibtidoiy davrlardan tortib to zamonaviy tibbiyot yutuqlariga erishilayotgan bugungi kunimizga qadar kasalliklarga qarshi kurash jarayoni turli shakl va bosqichlarni bosib o‘tgan. Ana shunday qadimiy va sirli usullardan biri – sehrli marosimlar o‘tkazish, sehrli so‘zlar va predmetlar vositasida davolashga qaratilgan shomon marosimlaridir. Shomon marosimlari folklori shunchaki urf-odat emas, balki insoniyatning tabiat va ruhiy dunyo o‘rtasidagi aloqaga asoslangan qadimiy e’tiqodi shaklidir. Bashariyat tarixining ilk bosqichlarida, xususan, tibbiyot hali shakllanmagan davrlarda, bemorlarni davolashda shomon marosimlari muhim o‘rin tutgan.

Bemorni davolashda shomon **marosimlarining o‘rni**ni bir nechta muhim omillar orqali tushunishimiz mumkin. Bular: **psixoterapiya yoki ruhiy ta’sir, ishonch effekti, giyohlar va tabiiy usul**larni qo‘llash singari omillarni o‘z ichiga oladi.

Psixoterapiya yoki ruhiy ta’sir. Shomon marosimlari juda kuchli emotsional va psixologik ta’sirga ega. Doira sadolari, ritmik zarblar, kuylash, olov va tutun (isiriq)dan foydalanish bemorda chuqur psixo-emotsional holatni keltirib chiqaradi. Taniqli psixiatr va gipnozchi Konstantin Ivanovich Platonovning tadqiqotlarida qayd etilgan psixologik suggestiya (gipnoz va gipnotik ta’sir) bo‘lib, bemorda sog‘ayishga bo‘lgan kuchli ishonchni uyg‘otadi[1].

Ishonch effekti. YUNESKO tasarrufidagi butun jahon gipnozchilar assosiatsiyasi Prezidenti, Akademik VM.Kadibaning tushuntirishicha, inson ruhiyati shunday tuzilganki, u ishongan narsasiga javoban jismoniy darajada ham o‘zgarishlarni boshdan kechirishi mumkin. Shomonning marosimi, uning sirli harakatlari bemorga “mendagi yovuz kuch (kasallik) haydalmoqda”- degan qat’iy ishonch beradi. Bu esa immunitetni faollashtiradi va tananing o‘z-o‘zini tiklash xususiyatini ishga tushiradi[2].

Giyohlar va tabiiy usullarni qo‘llash. Shomonlar faqatgina ruhiy marosimlar bilan cheklanib qolmaydilar. Ular xalq tabobatini yaxshi biladilar. Marosim davomida va undan so‘ng bemorga turli shifobaxsh giyohlar, damlamalar va tabiiy malhamlar berilish hollari ham kuzatiladi. Ya’ni, marosim ruhiy tomonni davolagan bo‘lsa, giyohlar jismoniy jihatdan tanaga yordam beradi, — deb hisoblaydilar. V.L.Ogudin o‘zining «Narodnaya medisina Sredney Azii i Kazaxstana» nomli kitobida yozishicha, qadimda o‘zbek shomonlari va davolovchilari orasida “Zulukchi”, “Emchi” “Otachi”lar bo‘lganki, bular turli giyohlar bilan bemorlarni davolashgan[3]. Hozirgi o‘zbek shomonlari amaliyotida emchilik va otachilik – giyohlar bilan davolash ham kuzatiladi. Ayniqsa, isiriqning qaynatmasi, turli shifobaxsh giyohlardan foydalanish va bemorning shomon seansidan keyin tavsiya etilgan giyohlarning damlamalarini iste’mol qilishi hollari ko‘p uchraydi.

O‘zbek folklorshunosligida shomonlik hamda sehrli marosimlar folklorini tadqiq etish, ularni tasniflash masalasi yirik olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Bu borada, ayniqsa, Bahodir Sarimsoqov, O.Qayumov kabi folklorshunoslarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek marosim folklorini, jumladan, sehrli va shomonlik marosimlarini tizimga solishda eng asosiy va fundamental manba sifatida B. Sarimsoqovning tadqiqotlari e’tirof etiladi. Olim o‘tgan asrning 80-yillarida yaratgan “O‘zbek marosim folklori” nomli monografik tadqiqotida marosimlarning mohiyatiga ko‘ra tasniflaydi. Shomon marosimlari garchi shomon marosimi sifatida tilga olinmasa-da so‘z sehriga asoslangan marosimlar sifatida tahlil qilinadi. B.Sarimsoqov sehrli marosimlar va ularga aloqador folklor matnlarini tasniflashda **funksional-maqsadli mezon** hamda **magik ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishi**ni asos qilib oladi. Olim sehrli marosim folklorini quyidagi asosiy ichki guruhlarga ajratadi:

1. Homiy ruhlar tomonidan tanlangan iqtidorli shaxslar tomonidan ijro etiluvchi janrlar: badik kinna shomon chaqiriqlari;

2. Alohida qobiliyatli shaxslar ijro etuvchi janrlar: avrash, buruyey-burey kabi;

3. Keng ommaviy ijro etiluvchi janrlar: olqish va qarg‘ishlar[4].

B. Sarimsoqov shomon (parixon) tomonidan ijro etiladigan matnlarni **avrashlar**, **afsunlar** va **chaqiriqlar** kabi janrlarga ajratib, ularning genezisi qadimgi totemistik va animistik qarashlarga borib taqalishini isbotlaydi. Shomon chorlovlarini “shomon chaqiriqlari” deb nomlagan va ularni alohida tadqiqot masalasi ekanligi uchun o‘z tadqiqotiga kiritmaganligini bildirgan.

O‘zbek shomon marosimlari tarkibidagi kasalliklarni davolashga qaratilgan marosimlar folklori janrlarini ijro uslubiga ko‘ra tasniflash ham mumkin. Bunda marosim qo‘shiqlarining ijrosida ijrochining maqsadidan kelib chiqish lozim. Masalan, **sakral-magik ijro** – bevosita davolash va mifologik marosimlar ichidagi shomon aytimlarini qamrab oladi yoki **professionallashgan epik ijro** kabi guruhlarga ajratish mumkin. Professionallashgan epik ijroda shomon marosimlarining poetik va shakl jihatidan baxshichilik eposiga ko‘chishi inobatga olinishi mumkin.

Olimlarning tasniflaridagi quyidagi umumiy mezonlar aniqlangan. Bular: a) **marosimning maqsadi va funksiyasi** (davolash, himoyalanish, hosildorlik oshirish); b) **ijrochining maqomi** (shomon/parixon, avrovchi, oddiy marosim ijrochisi); s) **matnning janriy xususiyati** (avrash, afsun, chorlov, gulafshon, badik). Biroq bu mezonlar o‘zbek shomonlarining kasalliklarni davolash bilan bog‘liq marosimlari jarayonida ijro etiladigan folklor janrlarining mifopoetik tabiatini to‘la ochib bera olmaydi deb hisoblaymiz.

XX asr folklorshunoslik ilmining yirik allomalari: V.M.Jirmunskiy va Hodi Zarifovlar o‘zlarining muhim tadqiqotlarida shomonizm (shomonlik marosimlari) hamda epik ijod (dostonchilik) o‘rtasidagi genetik va genetik-funksional aloqadorlikni, shuningdek, shomon folklorining eposga ta’sirini chuqur tahlil qilganlar[5].

Olimlar shomon folklorining dostonchilikka o‘tishi va ta’sirini tasniflashda **uchta asosiy mezon**ni ilgari suradilar:

1. Ijrochining sakral va genetik maqomi mezoni (baxshi va shomon tipining transformatsiyasi). Olimlar o‘zbek dostonchilari (baxshilar) siymosini o‘rganish orqali ularning genezisi bevosita shomonlik ildizlariga borib taqalishini isbotlaydilar. Ijrochining kasbiy faoliyatga kirishish mexanizmi (initsiatsiya) va jamiyatdagi sakral o‘rni alohida ahamiyat kasb etishiga e’tiborni qaratadilar. V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning ko‘rsatishicha, qadimgi davrda shomon ham davolovchi (magik funksiya), ham arvohlar/ruhlar haqidagi afsona va hikoyalarni, xalq dostonlarini ijro etuvchi (epik funksiya) sinkretik siymo bo‘lgan. Dostonchilik rivojlanishi bilan bu ikki funksiya ajralgan.

2. Marosimiy-arxaik va sakral motivlar mezoni (Epos syujet tizimidagi shomoniy elementlar). Olimlar shomon marosimlari folklorining folklor matniga ta’sirini tasniflashda **eposdagi sakral va mifologik motivlarning saqlanib qolganlik darajasi**ni asos qilib oladilar. Doston syujetida shomon mifologiyasiga xos dunyoqarash va marosimlarning badiiy motivga aylanish darajasiga e’tibor qaratadilar. Alpomish yoki boshqa qahramonlarga yordam beruvchi “g‘oyib eranlar”, “chiltan” kabi obrazlar shomonning homiy ruhlari (azizlari)ning epik ko‘rinishidir.

3. Poetik-musiqiy va ritmik ijro mezoni (So‘z va ohang magiyasi). Olimlar shomon aytimlari va epik ijro (doston aytish) o‘rtasidagi ijrochilik vositalarini solishtirish mezonini kiritadilar. Rechitativ (bo‘g‘izdan aytish), soz jo‘rligi va improvizatsiyaning formal analogik xususiyatlari mazkur mezonning mohiyatini tashkil etadi.

Shomonning doira, qobuz yoki do‘mbira jo‘rligida trans holatida aytadigan “chorlov”lari va avrash aytimlaridagi **alliteratsiya (undoshlar takrori), ritmik rechitativ va ekspressiv-emosional ijro tarzi** baxshilarning doston aytish texnikasiga (doston ijrochiligidagi tomoqdan kuylash va marosimiy ohangga) asos bo‘lgan deb hisoblaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Платонов К. И. Слово как физиологический и лечебный фактор (К физиологии психотерапии). – 3-е изд.: – М., 1962.

2. В.М.Кандыба. Тайны великого шамана//Загадочные сверхвозможности человека. – Киев, 2000./ https://royallib.com

3. Огудин В.Л. «Народная медицина Средней Азии и Казахстана» – Москва: «ИД Ганга», 2021.– С. 22.

4. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.144. (– 216 б.)

5. В.М.Жирмунский, Х.Т.Зарифов. Узбекский народный героический эпос. – Москва: Художственной Литературы. 1947. – С.25. (– 264).

UO'K 908

SHAHRISABZ XALQ TEATRI: TARIXIY ILDIZLARI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

B.I. G‘aniyev, o‘qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Qashqadaryo vohasida, xususan Kitob-Shahrisabz hududlarida XX asr 20-yillarida dastlabki qo‘g‘irchoqbozlar va masxarabozlar jamoalarining paydo bo‘lishi ilk teatrlashgan tomoshalarning yaratilishiga asos bo‘ldi. Mizrob masxara faoliyati va uning ishini davom ettirgan bir qancha shogirdlari tomonidan qo‘yilgan tomoshalarda yuqori tabaqa vakillari qilmishlari kulgu ostiga olinib, oddiy xalq manfaatlari asosiy mavzuga aylanardi. Bu davrda ko‘plab shaharlarda “Ko‘k ko‘ylak” nomi bilan teatr truppalari tuzildi. Uning negizida Shahrisabzda “Xalq teatri” maqomiga ega teatr shakllandi.*

Kalit so‘zlar: *Xalq teatri, masxarabozlar, Mizrob masxara, “Ko‘k ko‘ylak”, “Padarkush”, kolxoz teatri.*

Аннотация. *Возникновение в 1920-е годы XX века первых коллективов кукольников и масхарабозов в Кашкадарьинском оазисе, в частности в Китабо-Шахрисабзском регионе, стало основой для создания первых театрализованных представлений. В постановках, созданных Мизроб-масхара и его многочисленными учениками, продолжившими его деятельность, высмеивались поступки представителей высших сословий, а интересы простого народа становились главной темой. В этот период во многих городах были созданы театральные труппы под названием «Кўк кўйлак» («Синяя рубашка»). На их основе в Шахрисабзе сформировался театр, получивший статус «Народного театра».*

Ключевые слова: *Народный театр, масхарабозы, Мизроб-масхара, «Кўк кўйлак», «Падаркуш», колхозный театр.*

Abstract. *The emergence of early puppeteer and “maskharaboz” (traditional folk entertainer) troupes in the Qashqadaryo oasis specifically in the Kitob-Shahrisabz region during the 1920s laid the foundation for the creation of the first theatrical performances. In the shows staged by the entertainer Mizrob and the disciples who continued his work, the actions of the upper class were satirized, while the interests of the common people became the central theme. During this period, theater troupes known as "Ko‘k Ko‘ylak" (Blue Shirt) were established in many cities; based on this model, a theater with "People’s Theater" status was formed in Shahrisabz.*

Keywords: *Folk theater, jesters, Mizrob Maskhara, "Ko‘k Ko‘ylak" (Blue Shirt), "Padarkush" (The Patricide), collective theater.*

Kirish. Qashqadaryo vohasi o‘zbek xalqining boy va qadimiy tarixiy-madaniy maskanlari orasida alohida mavqega ega. Ushbu zamin asrlar mobaynida betakror folklor namunalari,

dostonchilik va baxshichilik maktablari, mumtoz maqom hamda xalqona ashula yo‘nalishlari, shuningdek, masxarabozlik, qiziqchilik va qo‘g‘irchoqbozlik kabi qadimiy an’anaviy tomosha san’atining eng yirik va nufuzli markazlaridan biri sifatida e’tirof etilib kelingan. Qashqadaryo vohasida teatr san’atining taraqqiy etishi uning xalq og‘zaki ijodi va milliy tomosha san’ati ildizlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy tomosha san’atining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri bu masxarabozlik va qiziqchilik hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Qashqadaryo vohasidagi teatr va musiqa harakati murakkab hamda ziddiyatli sharoitda shakllangan. Jumladan, Shahrisabz hududi an’anaviy teatr san’ati shakllangan hududlardan hisoblanadi. Miraki hududidagi Chopiq, Xitoy, G‘ilon, Chungurak, Yordon kabi qator qishloqlarda masxarabozlar repertuarida «Eshoni rais», «Sudxo‘r», «Sartarosh», «Bo‘z do‘koni» singari satirik va yumoristik komediyalarni namoyish etgan kichik teatr jamoalari faoliyat ko‘rsatgan. [1] Mizrob masxara boshchiligidagi mazkur truppa o‘zining mazmunli va yuqori saviyadagi chiqishlari orqali nafaqat mahalliy miqyosda, balki butun Shahrisabz hududida katta shuhrat qozongan.

Asli qashqadaryolik bo‘lgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Halil o‘g‘li Qodirov (1932-yil 10-martda Shahrisabz shahrining Zangaron guzarida Abduxalil Mahsum Qodirov va Oyshabonu Qurbon qizi oilasida tug‘ilgan) [2] o‘z xotiralarida shunday deydi: 1958–1963-yillar davomida Berdiyor Diyorov bilan bir necha bor uchrashib, suhbatlashgan hamda uning ijodiy faoliyatini bevosita kuzatishga muyassar bo‘lganman. Muallif ta’kidlashicha, undan komediyalarning o‘nlab namunalari yozib olinib, ularning ijro jarayonlari tahlil etilgach, san’atkorning chinakam masxaraboz maqomiga ega ekanligi o‘z isbotini topgan. Berdiyor Diyorov ustozi Mizrobning boy repertuari hamda ijro mahoratini chuqur o‘zlashtirgan chinakam professional san’atkor bo‘lgan. [3]

“Ko‘k ko‘ylak” – tashviqot janridagi estrada-teatr tomoshasi hisoblanib, XX asrning 20–30-yillarida keng tarqalgan. Ishtirokchilar sahnaga ko‘k ko‘ylak kiyib chiqqanliklari bois “Ko‘k ko‘ylak” deb nom olgan. “Ko‘k ko‘ylak”chilarga sahna, dekoratsiya, grim va alohida libosning hojati yo‘qligi uchun tomoshalar klublar, zavod va fabrika, o‘quv yurtlarida, shahar maydonlari va dala shiyponlarida ko‘rsatilgan. O‘zbekiston hududida “Ko‘k ko‘ylak” teatr to‘garaklari tashkilotchilaridan biri Ali Ardobus (Ibrohimov Ali Fayzullayevich, 1900–1959-yillar) bo‘lib, u Toshkent pedagogika bilim yurti qoshida, keyinchalik esa Samarqand shahrida 75 kishilik “Ko‘k ko‘ylak” jamoasini tashkil etdi. XX asr 20-yillari 2-yarmidan Qo‘qon, Namangan, Andijon, Jizzax, Qarshi, Shahrisabz va boshqa shaharlarda ham shu nomdagi teatr jamoalari tashkil etildi. [5]

Hozirgi Shahrisabz Xalq teatri ham 1928-yilda “Ko‘k ko‘ylak” nomli truppa sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, unga o‘z davrining ilg‘or ziyolisi, jonkuyar pedagog, tashkilotchi, aktyor va rejissyor Qori Zokir Sodiqov boshchilik qilgan. Truppada mahalliy iste’dod egalari Naftoli Yusupov, Zaynab Samiyeva, Ikroma Boltayeva, Qurbon Rajabov, Olim Odiliy, Said Shukurov, Buzruk Kamolov, Hasan To‘rayev, Himoyat Ochildiyeva, Abdurahmon Hofiz, Islom Ikromov, Sobir Azizov, Ma’di Jalil, Abdusattor Abdullaxon, Rajab Muhammadiyev, Nizomjon Qobilov, Hanifa Pinxasova, Rustam To‘rayev, Nabijon Yusupov, Niyoz Naychi, Usmonjon Berdiyev, Halimjon Salimov, Boboqul Saidov, San’atxon Niyozova, Majid Mamatovlar truppa a’zolari hisoblangan.

Bu davrda Qori Zokir Sodiqovning faoliyati alohida tahsinga sazovor. 1940-yilda harbiy xizmatdan qaytgach Buxoro viloyati harbiy komissariyatida harbiy zaxira ro‘yxatiga olinadi. U 1941-yil 5-martdan esa Shahrisabzga qaytib kolxoz teatrida ishlay boshlaydi va shu yerda umrining oxirigacha teatr aktyori, rejissyori va truppa boshlig‘i bo‘lib ishlaydi. Uning tashabbuskorligi bilan teatr yanada rivojlanadi [6]. XX asrning 50–60-yillarida Xalq teatriga Nizomjon Qobulov, Chorshanbe Husanov, Ilyunina, Melikov, Abdurahmon Tolipov va Boboqul Saidovlar rejissyorlik qildilar. 1959–1960-yillarda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining yagona viloyat sifatida qayta tashkil etilishi oqibatida ko‘plab san’atkorlar Qarshi, Termiz va Buxoro shaharlaridagi teatrlarga o‘tib ketdi.

1971-yildan boshlab 2014-yilgacha esa bu dargohni fidoyi inson, ko‘plab mashhur san’atkorlarning sevimli ustozi, bir necha orden va medallar sohibi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Elmurod Dilmurodovich Boymurodov boshqardi. Elmurod Dilmurodovich 1971-yilda Toshkent Davlat teatr va rassomchilik san’ati institutining (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti) rejissyorlik bo‘limini muvaffaqiyatli tugatib, yo‘llanma asosida qadimiy va hamisha navqiron yurti bo‘lmish Shahrisabz shahriga, shahar xalq teatriga ishga yuborildi. [7] Hozirgi kunda “Baxtli bolalik” bolalar maqomchilar ansamblining badiiy rahbari bo‘lib ijodiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Shu davrda O‘zbekiston xalq hofizi O‘ktam Ahmedov, O‘zbekiston xalq artisti Maryam Sattorova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Isoq To‘rayev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Mansur Xurramov, Nasiba Sattorova, Oygul Xalilovalar yetishib chiqdi. Shu dargohdan nafas olgan ijodkorlardan Usmon Berdiyev san’at va madaniyat institutida, Marat Tatliyev Respublika qo‘g‘irchoq teatrida, Rustam Jumayev “O‘zbekfilm”da, Mannon Hamidov Andijondagi Abbos Bakirov nomli teatrda, Burxon Sharopov O‘zbekiston televideniyesida, Zulayxo Sohibova Qarshidagi Mulla To‘ychi Toshmuhammedov nomli teatrda faoliyat yuritmoqdalar.

Jamoa xalq teatrlarining Respublika ko‘rik-tanlovlarida 1965-yilda “Uyg‘onish” (K.Yashin asari) spektakli bilan Samarqand shahrida 3-o‘rin, 1972-yilda “Nasriddinning sarguzashtlari” (Y.Azimzoda asari) spektakli bilan Samarqand shahrida 2-o‘rin, 1974-yilda “Yakka qabr” (E.Rajabning “Amu to‘lg‘onadi” hikoyasi asosida) spektakli bilan Navoiy shahrida 2-o‘rin, 1976-yilda “Intilganga tole yor” (M.Karim asari) spektakli bilan Qarshi shahrida 1-o‘rin, 1986-yilda ”Shaxsan javobgarmiz” (V.Lando asari) spektakli bilan 1-o‘rin, 1993-yilda “Yulduzlar girdobi” (P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani asosida) spektakli bilan 2-o‘rin, 2008-yilda “Yangi yil sarguzashtlari yoxud vaqt qaroqchilari” (R.Yoriyev asari) spektakli bilan Toshkent shahrida 3-o‘rin, 2012-yilda “Haqiqat uchun kurash” (Jabbor Xalilning “Dovul ” romani asosida) spektakli bilan Buxoro shahrida “Qishloq hayoti” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rin, spektakllar ijrosi bo‘yicha 2-o‘rin sohibiga aylandi.

2014-yildan teatrni Nodira Norova, 2014-2016-yillarda Abdug‘ofur Qodirov, 2016-yildan 2017-yilning iyul oyigacha Mansur Xudayqulovlar boshqardi. Bugungi kunda teatrga iste’dodli va tajribali san’atkor Sabur Yadgarov rahbarlik qilmoqda. [8] So‘nggi yillarda qilingan ishlarga nazar tashlansa, shu davrning o‘zida teatr sahnasida 8 ta o‘ziga xos spektakllar, bir nechta kichik sahna asarlari sahna yuzini ko‘rdi. 7 ta spektakl hozirgi kunda teatr repertuaridan mustahkam joy olgan. Bular S. Yadgarovning “Uylanish”, A. Rahmatovning “Dadajonisi, kechiring”, A.P. Chexovning “Oqqush qo‘shig‘i”, Tavfiq al-Hakimning “Bexato otilgan o‘q”, S.Yadgarovning ”Sportchi Quyon” va “Ojar o‘rdakcha”, R.Farhodiyning “O‘tkir shoxli buqacha” nomli asari asosidagi “Buqachaning sarguzashtlari” asarlaridir. [9]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Shahrisabz xalq teatri o‘tmish va kelajakni bog‘lovchi, milliy madaniyatimizning bebaho durdonalarini kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ma’naviyat maskani bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu teatr va uning fidoyi ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘ziga xos ijodiy merosini o‘rganish hamda targ‘ib qilish milliy teatrimiz kelajagini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi. (XVIII-XX asrlar) – Toshkent, «Ijod dunyosi», 2003. – B. 88.
2. uz.wikipedia.org sayti ma’lumotnomasi
3. Qodirov M. Xalq teatri an’analari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – B. 89.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent, Akademnashr, 2018. - B. 15.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Shahrisabz xalq teatri joriy arxivi ma’lumoti
7. Ismoil To‘xtamishev. Bu gulshan sahnida. – Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2006. – B. 88.
8. Shahrisabz xalq teatri joriy arxivi hisobotlari
9. Shahrisabz xalq teatrining 2025-yil — “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” davomida bajargan ishlari to‘g‘risida hisoboti

UO’K 339.138:94(575.14)

NAMANGAN VILOYATI BOZORLARI INFRATUZILMASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI (1991–2025-YILLAR)

O.Inamov, o‘qituvchi, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda 1991–2025-yillar oralig‘ida Namangan viloyati bozorlarida bozor infratuzilmasining shakllanish qonuniyatlari, moddiy-texnika bazasining modernizatsiyalashuvi hamda savdo-logistika tizimining transformatsiyasi kompleks tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Namangan viloyati, bozor infratuzilmasi, «Chorsu» dehqon bozori, moddiy-texnika bazasi, ixtisoslashuv, agro-logistika, xususiy sektor, POS-terminallar, PQ-1326, investitsiyalar.*

Аннотация. *В статье представлен комплексный анализ закономерностей формирования рыночной инфраструктуры, обновления материально-технической базы и трансформации торгово-логистических цепочек на рынках Наманганской области в период с 1991 по 2025 год.*

Ключевые слова: *Наманганская область, рыночная инфраструктура, дехканский базар «Чорсу», материально-техническая база, специализация, агрологистика, частный сектор, POS-терминалы, ПП-1326, инвестиции.*

Abstract. *This scholarly article provides a comprehensive historical and economic analysis of the formation, modernization of material-technical assets, and transformation of trade-logistical infrastructure across the markets of Namangan region between 1991 and 2025.*

Keywords: *Namangan region, market infrastructure, "Chorsu" peasant market, material and technical base, specialization, agro-logistics, private sector, POS-terminals, Resolution PP-1326, investments.*

Bozor iqtisodiyotining barqaror amal qilishi tovar ayirboshlash jarayonlariga xizmat qiluvchi muhandislik, texnik, transport va axborot infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita belgilanadi [1]. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab aholi zich joylashgan, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish salohiyati yuqori bo‘lgan Farg‘ona vodiysida, xususan Namangan viloyatida savdo infratuzilmasini tubdan qayta qurish dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biriga aylandi [2].

Tarixan Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida yirik hunarmandchilik va dehqonchilik markazi sifatida rivojlangan Namangan bozorlari sobiq sovet davrida davlat va kooperativ savdosining qat’iy doirasiga kiritilgan edi [3]. 1991-yilda rejali iqtisodiyot tizimining izdan chiqishi natijasida taqsimot mexanizmlari falajlanib, aholining o‘zini o‘zi oziq-ovqat va birlamchi iste’mol mollari bilan ta’minlashning birdan-bir yo‘li an’anaviy dehqon va buyum bozorlari bo‘lib qoldi [4]. Biroq mavjud bozorlarning moddiy-texnika bazasi, sanitariya holati, saqlash omborlari va yo‘l-transport o‘tkazuvchanligi oshib borayotgan tovar va yo‘lovchi oqimiga mutlaqo javob bermas edi [5].

1991–2025-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan islohotlar viloyat bozorlarining huquqiy maqomi, mulkchilik shakli, arxitektura qiyofasi va texnologik ta’minotini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu davrda ochiq havodagi antisanitariya holatidagi yog‘och rastalardan ko‘p tarmoqli yopiq savdo pavilyonlariga, sovutiladigan zamonaviy agro-logistika markazlariga hamda raqamli to‘lov tizimlariga ega savdo shaharchalariga o‘tildi [6].

Olingan manbalar va arxiv dalillari 1991–2025-yillarda Namangan viloyati bozor infratuzilmasida sifat va miqdor ko‘rsatkichlari quyidagicha o‘zgarganini namoyon etdi.

1991-yil holatiga ko‘ra, Namangan viloyati bo‘yicha jami 16 ta ro‘yxatga olingan kooperativ va shahar dehqon bozorlari faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning umumiy foydali savdo maydoni 112,4 ming kv. metrni tashkil qilgan [8, 10]. Bozorlarning 85 foizdan ortiq qismi ochiq osmon ostidagi beton va taxta peshtaxtalardan iborat bo‘lib, muzlatkichli omborxonalar bilan ta’minlanganlik darajasi bor-yo‘g‘i 12 foizni tashkil etgan. 1992–1996-yillarda ishsizlikning o‘sishi va davlat do‘konlarida tovar taqchilligi yuzaga kelishi oqibatida Namangan shahrining tarixiy o‘zagi —

«Chorsu» dehqon bozori atrofidagi Uychi, Marg‘iloniy, Bobursho‍h ko‘chalarida noqonuniy «ko‘cha savdosi» vujudga keldi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1995-yilda «Chorsu» bozoridagi 2 100 ta rasmiy o‘ringa nisbatan bozor tashqarisida 4 500 dan ortiq fuqaro ruxsatsiz savdo bilan shug‘ullangan. Bu esa shahar markazida jiddiy antisanitariya holatini keltirib chiqardi va transport harakatini falaj qildi. Shunga o‘xshash holat Chust shahri markazidagi Chust dehqon bozori hamda Kosonsoy tumanining markaziy bozorida ham kuzatildi.

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 23-apreldagi 168-sonli qaroriga muvofiq, Namangan viloyatidagi bozorlar davlat tasarrufidan chiqarilib, davlat ulushi saqlangan ochiq aksiyadorlik jamiyatlari (OAJ) sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tkazildi. Bu o‘zgarish bozorlarga o‘z daromadlaridan infratuzilmani ta’mirlash uchun maqsadli foydalanish imkonini berdi. Ushbu davrda amalga oshirilgan eng yirik infratuzilmaga oid o‘zgarish — savdo turlarining dislokatsiyasi va ixtisoslashuvi bo‘ldi:

1. Meva-sabzavot ulgurji savdosi: Namangan shahar markazidagi tirbandlikni kamaytirish maqsadida ulgurji qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi Kosonsoy yo‘li yoqasida tashkil etilgan yangi ulgurji bozorga ko‘chirildi.

2. Qurilish mollari va avtomobil ehtiyot qismlari: Ilgari dehqon bozorlari ichida aralash sotilgan nooziq-ovqat tovarlari ajratilib, Namangan–To‘raqo‘rg‘on trassasi bo‘yida ixtisoslashtirilgan bozorlar majmuasi barpo etildi.

3. «Yashil bozor» modernizatsiyasi: Namangan shahridagi «Yashil bozor» dehqon bozorida 1999–2003-yillarda 250 tonna sig‘imga ega dastlabki statsionar ammiakli va freonli sovutish omborlari hamda mustaqil sanitariya-veterinariya ekspertizasi laboratoriyasi foydalanishga topshirildi.

Namangan viloyati bozorlarida infratuzilmaning shakllanish jarayoni respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ldi.

Xulosa. 1991–2025-yillarda Namangan viloyatida bozor infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Bosqichma-bosqichlik tamoyili: Bozor infratuzilmasining rivojlanishi to‘rtta aniq xronologik bosqichni bosib o‘tdi. Dastlabki stixiyali omonat savdo maydonlaridan (1991–1997) boshlangan jarayon institutsional islohotlar (1998–2009), davlat dasturlari orqali kapital qayta qurish (2010–2016) hamda raqamlashtirilgan logistika tizimiga (2017–2025) qadar yuksaldi.

2. Iqtisodiy samaradorlik: 2010–2016-yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli rekonstruksiya dasturi (PQ–1326) Namangan shahri va tumanlarida savdo o‘rinlarini 1,8 barobarga oshirish, sanitariya va yong‘in xavfsizligini 100 foizga ta’minlash hamda atrof-muhit transport logistikasini optimallashtirish imkonini berdi.

3. Kelgusi istiqbollar: 2025-yil talablaridan kelib chiqib, Namangan viloyati bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun an’anaviy bozorlarni elektron ulgurji savdo birjalari (B2B platformalari) bilan integratsiyalash, tumanlardagi kichik dehqon bozorlari qoshida mini-muzlatkichli omborxonalarni ko‘paytirish hamda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning avtomatlashgan klasterlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – 128 b.

3. Bozorov A.F. Farg‘ona vodiysi shaharlarida savdo munosabatlari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fan. nomz. diss. – Toshkent: O‘zMU, 2004. – 164 b.

4. Rasulov A.M. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va savdo sohasidagi transformatsion jarayonlar (1991–2000-yillar). – Toshkent: Fan, 2003. – 186 b.

5. Qodirov R.M. Bozor infratuzilmasi va hududiy savdo tarmoqlarini rivojlantirish omillari. // Iqtisodiyot va ta’lim. – Toshkent, 2018. – № 4. – B. 68–74.

6. Ergashev T.X. O‘zbekistonda dehqon bozorlari faoliyatining institutsional asoslari va ularning modernizatsiyasi (Namangan viloyati misolida). // O‘tmishga nazar. – Toshkent, 2021. – № 11. – B. 54–61.

UO’K 338.48:316.7:008

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

D.S. Kadirova, katta o‘qituvchi, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida turizm madaniyatining transformatsiyasi, uning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, turizm madaniyati, transformatsiya, madaniyatlararo muloqot, raqamli texnologiyalar, milliy qadriyatlar.*

Аннотация. *В статье анализируются трансформация культуры туризма в условиях глобализации, её социокультурные особенности и современные тенденции развития.*

Ключевые слова: *глобализация, культура туризма, трансформация, межкультурная коммуникация, цифровые технологии, национальные ценности.*

Abstract. *This article analyzes the transformation of tourism culture in the context of globalization, its sociocultural characteristics, and contemporary development trends.*

Keywords: *globalization, tourism culture, transformation, intercultural communication, digital technologies, national values.*

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, turizm tizimida ham tub ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro iqtisodiy integratsiya, transport va kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda madaniyatlararo aloqalarning faollashuvi turizmning mazmuni va ijtimoiy funksiyalarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Natijada turizm faqat iqtisodiy faoliyat yoki dam olish shakli sifatida emas, balki xalqlar o‘rtasida madaniy muloqotni rivojlantiruvchi, milliy qadriyatlarni ommalashtiruvchi va inson dunyoqarashini boyituvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sharoitida turizm madaniyatini rivojlantirish masalasi mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy shaharlar, milliy hunarmandchilik an’analari, gastronomik madaniyati va mehmondo‘stlik qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa tarixiy-madaniy markazlar turizmning iqtisodiy imkoniyatlari bilan birga, milliy madaniyatni xalqaro miqyosda tanitish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, turizmning globallashuvi madaniy qadriyatlarning tijoratlashuvi, tarixiy merosning asl qiyofasini saqlash, ekologik muvozanat va mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur holatlar turizm madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini iqtisodiy manfaatlar bilan cheklamasdan, ularni ijtimoiy, axloqiy, ekologik va madaniy mezonlar asosida o‘rganishni talab etadi.

Turizm madaniyatining rivojlanishi va globallashuv bilan o‘zaro aloqadorligi zamonaviy ijtimoiy fanlarda keng tadqiq etilayotgan masalalardan biridir. Mazkur muammoni o‘rganishda turizm sotsiologiyasi, madaniyatshunoslik, ijtimoiy falsafa va barqaror rivojlanish konsepsiyalariga oid ilmiy yondashuvlar muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Britaniyalik sotsiolog Jon Urry o‘zining The Tourist Gaze asarida turistik tajribaning ijtimoiy shakllanishi, turistlarning makon va madaniy obyektlarni idrok etish xususiyatlari hamda zamonaviy jamiyatda turistik qarashlarning o‘zgarishini tahlil qiladi [1]. Uning yondashuviga ko‘ra, turizm tajribasi faqat sayohatchining shaxsiy tanlovi bilan emas, balki jamiyatdagi madaniy tasavvurlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy munosabatlar bilan ham belgilanadi.

Din Makkennell turizmni zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmalari bilan bog‘liq hodisa sifatida tadqiq etib, turistik tajribada haqiqiylik, madaniy namoyish va sayohatchining yangi taassurotlarga intilishi masalalariga e’tibor qaratgan [2]. Ushbu yondashuv turizm madaniyatining transformatsiyasini tarixiy-madaniy merosning turistik iste’mol obyektiga aylanishi bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Arjun Appadurai globallashuv sharoitidagi madaniy oqimlar va transmilliy aloqalarni o‘rganib, zamonaviy madaniyatning shakllanishida insonlar, axborotlar, texnologiyalar va tasavvurlar harakatining ahamiyatini ochib beradi [3]. Mazkur konsepsiya turizm madaniyatining globallashuv jarayonida qanday o‘zgarishini tushuntirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniy xilma-xillikni muhofaza qilish tamoyillari va BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari turizm madaniyatini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [4; 5].

Globallashuvning turizm madaniyatiga ta’siri ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, xalqaro turizm standartlari, xizmat ko‘rsatish me’yorlari va kommunikatsiya shakllarining keng tarqalishi turistik faoliyatning umumiy madaniy mezonlarini shakllantiradi. Ikkinchidan, turistik hududlarning o‘ziga xos milliy madaniyati, an’analari va tarixiy merosiga bo‘lgan qiziqish ortib, mahalliy madaniy identiklikning ahamiyati kuchayadi.

Mazkur ikki jarayon o‘rtasidagi munosabat turizm madaniyatining transformatsiyasini belgilaydi. Xalqaro standartlashuv xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkoniyatini yaratsa, madaniy o‘ziga xoslikni saqlash turistik hududlarning jozibadorligini ta’minlaydi. Biroq haddan tashqari tijoratlashuv mahalliy an’analarni soddalashtirilgan namoyish shakliga aylantirish xavfini ham keltirib chiqaradi. Shu sababli turizm madaniyatini rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘zlashtirish bilan birga, milliy madaniy merosning tarixiy mazmunini saqlash muhim vazifa hisoblanadi.

Turizm madaniyatining transformatsiyasi sayohat qilish maqsadlari, turistik ehtiyojlar, madaniy tajriba va turistik xizmatlardan foydalanish usullarining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy turizmda tarixiy obidalarni tomosha qilish, dam olish va yangi hududlar bilan tanishish asosiy motivlar sifatida ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy turizmda mahalliy madaniyatni bevosita his qilish, milliy taomlar tayyorlash jarayonida qatnashish, hunarmandchilik an’analarini o‘rganish va mahalliy aholi bilan muloqot qilish kabi tajribaviy faoliyat shakllari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday o‘zgarish turizmning passiv kuzatuvdan faol madaniy ishtirokka tomon rivojlanish imkoniyatini kengaytiradi. Turist endilikda faqat tarixiy yoki tabiiy obyektni tomosha qiluvchi shaxs emas, balki madaniyatlararo muloqotning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Turizm madaniyatining ijtimoiy transformatsiyasi mahalliy aholining turistik faoliyatdagi o‘rni bilan ham bog‘liq. Mahalliy jamoalarning turizmni rivojlantirish jarayonlariga jalb etilishi madaniy merosni asrash, an’anaviy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar turizm madaniyatining yangi shakllarini yuzaga keltirib, turistik axborot almashinuvi, madaniy merosni targ‘ib qilish va turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida madaniy qadriyatlarning asl mazmunini saqlash va axborotning ishonchliligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida turizm madaniyatining barqaror rivojlanishi iqtisodiy samaradorlik, madaniy merosni muhofaza qilish, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarining uyg‘unligiga bog‘liqdir. Shu sababli turizm madaniyatini rivojlantirish strategiyalarida milliy qadriyatlarni asrash, madaniyatlararo muloqotni kengaytirish, raqamli innovatsiyalarni oqilona joriy etish va mahalliy jamoalarning turistik faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Urry J. The Tourist Gaze: Leisure and Travel in Contemporary Societies. — London: SAGE Publications, 1990.

2. MacCannell D. The Tourist: A New Theory of the Leisure Class. — New York: Schocken Books, 1976.

3. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996.

4. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: United Nations, 2015.

5. UNESCO. UNESCO Universal Declaration on Cultural Diversity. Paris, 2 November 2001. URL: https://www.unesco.org/en/legal-affairs/unesco-universal-declaration-cultural-diversity

UO'K 94(575.1):316.334.3

SHAHRISABZ SHAHRI MAHALLALARINING TASHKIL ETILISHI TARIXI VA TRANSFORMATSION JARAYONLARI

S. Komilov, o'qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shahrisabz shahrida mahalla institutining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari, an'anaviy ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda zamonaviy davrdagi transformatsion jarayonlari tahlil qilinadi. Shahrisabzning qadimiy shahar sifatidagi rivojlanishi mahallalarning hududiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Maqolada tarixiy shaharsozlik, aholining joylashuvi, hunarmandchilik va savdo faoliyatining mahallalar rivojiga ta'siri, shuningdek, mustaqillik yillarida mahalla institutida yuz bergan tashkiliy va ijtimoiy o'zgarishlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Shahrisabz, mahalla, tarixiy shahar, shaharsozlik, ijtimoiy institut, hunarmandchilik, transformatsiya, urbanizatsiya, mahalla fuqarolar yig'ini, milliy qadriyatlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется формирование института махалли в городе Шахрисабз, его исторические корни, роль в традиционной общественной жизни и трансформационные процессы в современную эпоху. Развитие Шахрисабза как древнего города было тесно связано с территориальным и социальным формированием его окрестностей. В статье рассказывается о влиянии исторического городского планирования, расселения населения, ремесел и торговли на развитие кварталов, а также об организационных и социальных изменениях, произошедших в институте кварталов за годы независимости.*

Ключевые слова: *Шахрисабз, махалля, исторический город, градостроительство, социальный институт, ремесла, трансформация, урбанизация, сход граждан махалли, национальные ценности.*

Abstract*. This article analyzes the formation of the mahalla institution in the city of Shahrisabz, its historical roots, its role in traditional social life, and its transformation processes in the modern era. The development of Shahrisabz as an ancient city was closely linked to the territorial and social formation of its neighborhoods. The article covers the historical urban planning, the impact of population settlement, crafts, and trade activities on the development of neighborhoods, as well as the organizational and social changes that occurred in the neighborhood institution during the years of independence.*

Key words: *Shahrisabz, neighborhood, historical city, urban planning, social institution, craftsmanship, transformation, urbanization, neighborhood citizens' assembly, national values.*

O'zbekiston hududidagi qadimiy shaharlar tarixini o'rganishda mahalla institutining shakllanishi va rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mahalla ko'p asrlar davomida aholining kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari, iqtisodiy faoliyati va madaniy an'analarini tartibga solib kelgan. Ayniqsa, qadimiy shaharlar tuzilishida mahallalar shahar makonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan.

Shahrisabz O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, uning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Qadimgi Kesh vohasining markazlaridan biri sifatida shahar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda muhim o'rin egallagan. Shahar hududining kengayishi, aholi sonining ko'payishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida turli yashash hududlari shakllangan. Vaqt o'tishi bilan ushbu hududlar mahalla sifatida ijtimoiy va hududiy jihatdan takomillashgan[1].

Shahrisabz mahallalarining tashkil etilishi va rivojlanishi mintaqaning uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Mahalla instituti o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy hamkorlik va mamlakat aholisining jamoaviy hayotini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shahrisabzning tarixiy rivojlanishi davomida mahallalar hududiy, ijtimoiy va demografik omillar ta'sirida shakllanib, vaqt o'tishi bilan ularning tashkiliy va funksional xususiyatlarini o'zgartirdi. Ushbu maqolada Shahrisabz mahallalari tarixi, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar va zamonaviy davrdagi o'zgarish jarayonlari tahlil qilinadi.

Shahrisabz mahallalarining tarixini o‘rganish orqali nafaqat shaharning urbanistik rivojlanishini, balki mahalliy aholining turmush tarzi, o‘zaro munosabatlari, kasb-hunari va madaniy qadriyatlarini ham anglash mumkin. Shu sababli mahalla tarixini shahar tarixidan alohida tasavvur etib bo‘lmaydi.

Shahrisabzda mahallalarning shakllanishining tarixiy asoslari.Shahrisabzning qadimiy shahar sifatida rivojlanishi uning geografik joylashuvi va voha iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Kesh vohasi qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan hududlardan biri hisoblangan. Aholining o‘troq hayot tarzi shahar va qishloq manzilgohlarining shakllanishiga, keyinchalik esa ularning ichki hududiy bo‘linishiga zamin yaratgan[2].

O‘rta asrlarda shaharlarning rivojlanishi bilan aholining ma’lum hududlarda kasb-kor, qarindoshlik, kelib chiqish yoki ijtimoiy aloqalar asosida birlashuvi kuchaygan. Bunday hududiy jamoalar keyinchalik mahalla shakliga kelgan. Mahallaning asosiy xususiyati shundan iborat ediki, uning aholisi nafaqat bir hududda istiqomat qilgan, balki kundalik hayotda o‘zaro yordam va hamkorlik tamoyillari asosida yashagan.

Shahrisabzda ham mahallalarning shakllanishiga bir necha omil ta’sir ko‘rsatgan. Birinchidan, aholining hududiy joylashuvi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ikkinchidan, hunarmandchilik va savdo faoliyatining rivojlanishi ayrim hududlarning muayyan kasb egalari yashaydigan maskanlarga aylanishiga olib kelgan. Uchinchidan, qarindoshlik va qo‘shnichilik munosabatlari mahalla jamoalarining mustahkamlanishida katta rol o‘ynagan[3].

An’anaviy mahallalarda masjid, guzar, choyxona, bozor va boshqa jamoat maskanlari aholining ijtimoiy hayotini birlashtiruvchi markaz vazifasini bajargan. Guzar atrofida kundalik ehtiyojlar uchun zarur bo‘lgan savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari shakllangan. Shu tariqa mahalla oddiy turar joy hududidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy makonga aylangan.

Mahalla instituti tarixan o‘zini o‘zi boshqarishning muhim shakllaridan biri sifatida shakllangan. Unda aholi o‘z hududidagi masalalarni jamoaviy tarzda hal qilishga intilgan. Hashar, obodonlashtirish, marosimlarni tashkil etish, ehtiyojmand oilalarga yordam ko‘rsatish kabi jarayonlar mahalla hayotining ajralmas qismi bo‘lgan[4].

Shahrisabz mahallalarida ham qo‘ni-qo‘shnichilik va o‘zaro yordam an’analari uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan. To‘y, ma’raka, hashar va boshqa jamoaviy tadbirlarda aholining birgalikda ishtirok etishi mahalla birdamligini mustahkamlagan. Ayniqsa, katta avlod vakillari yosh avlod tarbiyasida muhim ijtimoiy rol bajargan. Mahallaning yana bir muhim vazifasi milliy va mahalliy madaniy an’analarni saqlashdan iborat bo‘lgan. Urf-odatlar, marosimlar, hunarmandchilik sir-asrorlari, mahalliy sheva va turmush tarzi avloddan avlodga, ko‘pincha aynan mahalla muhitida o‘tib kelgan. Shahrisabz tarixiy hunarmandchilik an’analari bilan ham mashhur bo‘lgan. Kulolchilik, zargarlik, to‘qimachilik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik va boshqa hunar turlarining rivojlanishi shahar mahallalarining iqtisodiy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan. Hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi oilalar ma’lum hududlarda istiqomat qilishi natijasida kasbga asoslangan ijtimoiy muhit yuzaga kelgan[5].

Shahrisabz mahallalarida urbanizatsiya va ijtimoiy transformatsiya.Bugungi kunda Shahrisabz shahridagi mahallalar transformatsiyasini urbanizatsiya jarayonlaridan alohida ko‘rib bo‘lmaydi. Shahar aholisi sonining o‘sishi, yangi uy-joylarning barpo etilishi, transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining rivojlanishi mahalla hududlarining funksional tuzilishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tarixiy mahallalarda qadimiy uy-joylar, tor ko‘chalar, guzarlarga xos tuzilma va an’anaviy me’moriy elementlar saqlanib qolgan bo‘lsa, yangi mahallalarda zamonaviy ko‘p qavatli yoki yangi loyihalar asosida qurilgan turar joylar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari ko‘proq uchraydi. Bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi aholining yashash sharoitlarini yaxshilaydi. Ikkinchi tomondan, tarixiy mahallalarning an’anaviy qiyofasini saqlab qolish masalasi dolzarb bo‘lib qoladi. Shahrisabzning tarixiy-madaniy merosi hisobga olinadigan bo‘lsa, shaharni modernizatsiya qilish jarayonida tarixiy muhitni asrash muhim vazifalardan biridir.

Shuningdek, zamonaviy davrda mahalla aholisi tarkibida ham ijtimoiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Yoshlarning oliy ta’lim olish, yangi kasblarni egallash va boshqa hududlarda ishlash

imkoniyatlarining kengayishi mahalladagi an'anaviy ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilmoqda. Biroq bu jarayon mahallaning ahamiyatini butunlay kamaytirmaydi. Aksincha, mahalla yangi sharoitga moslashib, o‘z funksiyalarini yangicha shaklda davom ettirmoqda[6].

Tarixiy meros va mahallalarni saqlash masalalari. Shahrisabz mahallalarining tarixiy qiyofasini o‘rganish va saqlash shahar madaniy merosini asrashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tarixiy mahallalar faqatgina turar joy hududi emas, balki xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiruvchi makondir. Mahallalarning tarixiy qiyofasini saqlashda eski uy-joylar, mahalla guzarlari, masjidlar, ko‘chalar va boshqa tarixiy obyektlarning o‘rni katta. Shu bilan birga, tarixiy hududlarni zamonaviy shahar infratuzilmasi bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi[3].

Shahrisabz shahri mahallalarining shakllanishi va rivojlanishi shahar tarixining ajralmas qismidir. Mahallalar dastlab aholining hududiy, qarindoshlik, kasbiy va qo‘shnichilik aloqalari asosida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik ular murakkab ijtimoiy institutga aylangan. Mahalla guzarlari, masjidlar, hunarmandchilik markazlari va boshqa jamoat maskanlari mahalla hayotining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etgan.

XX asrda mahalla instituti ma'muriy-boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar ta'sirida transformatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy va madaniy funksiyalari saqlanib qolgan. Mustaqillik davrida esa mahallaning o‘zini o‘zi boshqarish instituti sifatidagi mavqeyi mustahkamlanib, uning faoliyat yo‘nalishlari kengaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

3. Sagdullayev A. S. (mas'ul muharrir). Qadimgi Kesh–Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent: Sharq, 1998. – 104 b.

4. Mankovskaya L. Yu. Qashqadaryoning arxitektura yodgorliklari: Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yo‘l ko‘rsatkich. – Toshkent: O‘zbekiston, 1979.

5. Лунина С. Б. Города Южного Согда в VIII–XII вв. – Ташкент: Фан, 1984.

6. Пугаченкова Г. А., Рempел Л. И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1958.

UO'K: 94(575.1)

QO‘QON XONLIGI MALIKALARI TOMONIDAN OLIB BORILGAN BUNYODKORLIK ISHLARI

G.S. Madraximova, t.f.n., dots., O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi davrida malikalar tomonidan olib borilgan bunyokorlik ishlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, malikalar homiyligida bunyod etilgan masjid va madrasalar ta'lim tizimining rivojiga hissa qo‘shganligi va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilganligi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *maktab, Qo‘sh madrasa, masjid, xonaqoh, mudarris, vaqf, qorixona, ziyoratgoh, mulk, hadya*

Аннотация. *В этой статье рассматривается творческая работа, проделанная королевами во времена Кокандского ханства. Также подчеркивается, как мечети и медресе, построенные под покровительством королев, способствовали развитию системы образования и служили развитию страны.*

Ключевые слова: *школа, двойное медресе, мечеть, ханако, мударрис, вакф, карихона, зияраго, имущество, дар.*

Abstract. *This article discusses the construction activities undertaken by princesses during the era of the Kokand Khanate. It also highlights how the mosques and madrasas built under their patronage contributed to the development of the educational system and served the progress of the country.*

Keywords: *school, Twin Madrasa, mosque, khanqah, mudarris, waqf, qari-khana, pilgrimage site, property, gift.*

Qo‘qon xonligi hukmdorlaridan tashqari malikalar ham bunyodkorlik ishlariga homiylik qilib, madaniy jarayonlarda sezilarli ishlarni amalga oshirganlar.

Ana shunday malikalardani biri Qo‘qon xonligining birinchi hukmdori Shohruhbiyning rafiqasi Nozikbibi bo‘lgan. U Shohruhbiy vafotidan keyin o‘ziga in’om qilingan yer-mulkda «qizlar uchun maktab ochib, ularning savodini chiqarish bilan shug‘ullangan. O‘ziga tegishli bo‘lgan yerlardan kelgan mablag‘larning bir qismiga yetimxona ochgan. Miskinlarni qo‘llab-quvvatlab, qishloq maktabi harajatlariga sarf etgan» [1].

Shuningdek, Qo‘qon xonligini boshqargan Abdurahimbiyning rafiqalari Kenagas Oyim (Oychuchuk Oyim) homiyligida ham ko‘plab bunyodkorlik ishlari olib borilgan. Qo‘qon shahridagi “Chilustun” xonaqoh tarixi malika Kenagas Oyim nomi bilan bog‘liqdir. Tarixda shunday bir an’ana bo‘lgan: biror atoqli shaxs vafot etsa, uning xotirasi uchun qarindoshlari tomonidan me’moriy inshootlar (masjid, madrasa, qorixona, xonaqoh va h.k.) qurdirilgan. Qo‘qon xoni Abdurrahimbiy vafot etgach, an’anaga amal qilib, Oychuchuk Oyim katta bir xonaqoh (hozirgi Tolzor mahalla markazi o‘rnida) qurdirgan. Me’morlarining hisobi bo‘yicha, xonaqoh va uning ayvonlari shiftini ko‘tarib turish uchun qirqta ustun kerak bo‘lgan. Mazkur xonaqoh shahar miqyosida «zikri samo’» o‘tkazish, musofir darvesh va qalandarlarga boshpana sifatida qurilgan. Bino tomini qirq ustun ko‘tarib turgani uchun, unga “Chil ustun xonaqohi” degan nom berilgan. Xonaqoh ta’minoti uchun vaqf mulklari ajratildi. Tarixchi olim Ya.Dadaboevning ta’kidlashicha, birinchi zikri samo’ni Musoxon To‘ra Dahbediy boshqargan [2]. Keyinchalik bunday marosimlarni ham nomdor shayx va eshonlar o‘tkazib borganlar. Xonaqoh ko‘p o‘tmay xonlikning eng yirik ziyoratgohlaridan biriga aylangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qon xonligi tugatilgandan keyin Rossiya mustamlakachiligiga qarshi shahar aholisi tomonidan qo‘zg‘alon qo‘tarilgan. Rus qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangalarda qo‘zg‘alonchilarning bir qismi Chilustun xonaqohiga chekinganlar. Xonaqox rus askarlari tomonidan o‘qqa tutilishi natijasida vayronaga aylangan.

Qo‘qon xonligi hukmdori Norbo‘tabiyning rafiqasi Zuhra Oyim (Ming Oyim) xonlik tarixida nom qoldirgan malikalardan hisoblanadi. Norbo‘tabiy unga mahr sifatida katta yer mulk hadya qilgan. U ushbu mulkdagi xovlilardan birida maktab ochib, otinbibilarni yollab qizlarni o‘qitgan. Bir qism yerlarini turli masjid, madrasa, xonaqoh va qabristonlarga vaqf qilib bergan [3].

Ming oyimning bunyodkorlik ishlaridan eng yirigi o‘z nomidagi madrasaning qurdirganligi bo‘lgan. Madrasai Ming Oyim katta yo‘lning ikki chetida qurilganligi uchun “Qo‘sh madrasa” deb ham atalgan. 1802- yilda qurib bitkazilgan madrasa ming oyimning o‘ziga tegishli zeb-ziynatlarining hisobiga barpo etilgan. Madrasa Chorsu maydoning sharqiy tomonida joylashgan bo‘lib, xon madrasa turkumiga kirgan. Mazkur madrasa mudarrisi islomxo‘ja Domullo imomxo‘ja o‘g‘illari tayinlangan. Hujralar soni-81 ta, (1912- yilgi ma’lumotlarga ko‘ra) tolibi ilmlar -200 ta, mudarrislar soni 24 tani tashkil etgan [4].

Shuningdek, Norbo‘tabiy vafotidan keyin u Qo‘qonda mavjud bo‘lgan Qalandarxonani obodonchiligiga ham alohida e’tibor qaratgan. Zuhra Oyim 1799- yillarda Qalandarxonani kengaytirib “Chordona” (to‘rt tomonidan eshigi bor) uslubida qo‘shimcha xonaqox qurdirgan. Qalandarxonalar g‘ariblar uchun va tasavvuf yo‘liga kirib, dunyoviy hayotdan voz kechgan, umrini allohga bag‘ishlagan “qalandar”larning maskani hisoblangan. Ularning muqim boshpanalari bo‘lmagan. Mazkur maskan keyinchalik ziyoratgoh sifatida ham mashhur bo‘lgan [5].

Xonlik malikalari orasida o‘zining nafaqat ilm ma’rifati bilan, balki bunyodkorlik ishlari bilan nom qoldirgan malikalardani biri Oftob Oyim (1780- 1830) bo‘lib, u Qo‘qon xonligi hukmdori Norbo‘taxonning qizidir. Oftob Oyim yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lib, handasa, ilmi hisob, ilmi mantiq kabi fanlarni ham o‘zlashtirgan. U 1806- yilda Qo‘qondagi Degrezlik va Rixtagarlik mahallari tutashgan joyda o‘zining nomida madrasa bunyod etgan. Oftob Oyim madrasasi hujralarining soni - 20 ta, tolibi ilmlar adadi - 42 ta, mudarrislar soni esa 4 nafar bo‘lgan. Bugungi kungacha uning kichik bir qismi saqlanib qolgan [6].

Qo‘qon shahrida xon avlodlaridan bo‘lgan malikalar qurdirgan o‘quv yurtlaridan biri Xudoyorxonning onasi qurdirgan Hokim Oyim madrasasidir. Madrasa Qo‘qon shahrining katta bozorida 1874- yilda bunyod etilgan. Unga Hokim Oyim tomonidan katta mulk vaqf qilib berilgan.

Vaqfnomada Xudoyorxonning ikkita muhri va o‘sha davr qozilarining muhrlari bosilgan. Hokim Oyim o‘zi bunyod etgan madrasaga 1874- yilda Qo‘qon shahrining Yaxshilik mahallasida joylashgan 1 ta karvonsaroy va 56 ta do‘konni vaqf qilib bergan.

Shuningdek, Qo‘qon xonligining malikasi Nodirabegim ham masjid, madrasa qurilishiga homiylik qilish bilan birga ularning ta’minoti uchun mablag‘lar ajratgan. Masalan u qurdirgan Xonim madrasasining hujralari gilamlar, kerakli asbob-anjomlar bilan to‘ldirilgan. Unumdor yerlar va bog‘lar, karvonsaroy, rasta, bozorlardan tushgan mablag‘larni mazkur majmua uchun vaqf qilingan. Madrasa kutubxonasiga “Alloh yo‘lidagi vaqf” deb muhr bosilgan mingta mo‘tabar kitob in’om etilgan, shuningdek, qorixonada maxsus tayinlangan qorilar har kuni Qur’onning ma’lum qismini o‘qib, savobini marhum Amir Umarxon ruhiga bag‘ishlaganlar. Ular uchun ham Nodirabegim alohida maosh va vaqflar ajratgan. Qolaversa, u ayollarning o‘qish yozishni o‘rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishini yo‘lga qo‘ygan. Bu xayrli ishga yana bir mashhur shoira Jahon otin Uvaysiy ham o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan.

Nodirabegimning bunday hayrli ishlarida Amir Umarxonning xizmatlari katta bo‘lgan. Umarxon davridagi ilm-fanga bo‘lgan e’tibor natijasida ayollarning ham ilm olishlari uchun sharoitlar yaratildi. Shuningdek, «qizlarga Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr», Fuzuliy, hamda Navoiy asarlari o‘qitilgan. Bundan tashqari xattotlik san’ati ham o‘rgatilgan. Badiiy asarlarni chiroyli husnihatda ko‘chirishda ayollar ham ishtirok etgan. Bu esa xonliklar davrida qo‘lyozma kitoblar fondining boyishiga xizmat qilgan [7]. Ushbu davrda Dilshodi Barno, Mahzuna, Anbar Otin kabi shoiralar ham madaniy jarayonlarda faol ishtirok etganlar.

Shuningdek, xonlik davridagi ta’lim tizimi diniy-ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllanib, butun musulmon Sharqidagi ilmiy-ma’rifiy an’analarning mintaqada namoyon bo‘lishiga sharoit yaratdi. Bu jarayonda madrasalar va maktablar diniy-ilmiy bilim berish markazlari bo‘lish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy ongini, axloqiy tartibini va mafkuraviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy institutlar bo‘lgan.

Xulosa qilganda, Qo‘qon xonligi tarixida malikalar tomonidan bunyod etilgan masjid, madrasalar xonlikning mustahkamlanishi va taraqqiy etishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu bilan birga xonlik poytaxti bo‘lgan Qo‘qon shahrida va uning boshqa hududlarida ko‘plab inshootlar, tarixiy yodgorliklar bunyod etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Йўлдошева М. Қўқон хонлиги маликалари. Science and innovation international scientific Journal, - 2022. – № 7. – P. 47-48.

2. Дадабоев М.Я.Олтун Бешик. (Хўқанд хонлари тазкираси).-Тошкенет. Ilm ziyo. 2025.-Б.544.

3. Йўлдошева М. Қўқон хонлиги маликалари. Science and innovation international scientific Journal, - 2022. – № 7. – P. 47-48.

4. Дадабоев М.Я.Олтун Бешик. (Хўқанд хонлари тазкираси).-Тошкенет. Ilm ziyo. 2025.- Б.546.

5. Дадабоев М.Я.Хўқанди латиф меъморчилиги.(XVIII-XX аср бошлари). – Тошкент: Ilm Ziyo, 2025. – Б.77.

6. Дадабоев М.Я.Олтун Бешик. (Хўқанд хонлари тазкираси).-Тошкенет. Ilm ziyo. 2025.- Б.550.

7. Islomova M. O‘rta osiyo xonliklarida ayollar ta’limining o‘rni va ahamiyati / «Sivilizatsiyalar chorrahasidagi o‘lka: Markaziy Osiyo tarixining yangi tadqiqot yo‘nalishlari va metodologik yondashuvlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani materiallari. – Guliston: Universitet, 2026. - B. 236.

UO’K 796.853.23:796.077(575.1)

FARG‘ONA VODIYSI SPORT MAKTABLARIDA MILLIY SPORT TURLARI HOLATI (KURASH MISOLIDA)

N.O.Maqsumov, o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining qadimiy milliy sport turlaridan biri bo‘lgan kurashning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, milliy madaniyat va an’analar tizimidagi o‘rni hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillarida kurash sportini rivojlantirish hamda sport maktablarida kurashchi sportchilarni tayyorlash tizimi va kurashning O‘zbekiston milliy sporti sifatidagi nufuzi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kurash, milliy sport, o‘zbek kurashi, polvon, sport, milliy qadriyat, yoshlar tarbiyasi, jismoniy tarbiya, xalqaro kurash, milliy an’analar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются происхождение, историческое развитие, место борьбы как одного из древних национальных видов спорта узбекского народа в системе национальной культуры и традиций, а также её значение в воспитании молодежи. Также проанализированы развитие борьбы в годы независимости, система подготовки спортсменов-борцов в спортивных школах и престиж борьбы как национального спорта Узбекистана.*

Ключевые слова: *кураш, национальный спорт, узбекская борьба, палван, спорт, национальные ценности, воспитание молодежи, физическая культура, международная борьба, национальные традиции.*

Abstract. *This article analyzes the origins, historical development, role in the system of national culture and traditions, as well as the significance of kurash, one of the ancient national sports of the Uzbek people, in the upbringing of youth. Additionally, the development of Kurash during the years of independence, the system of training Kurash athletes in sports schools, and the prestige of Kurash as a national sport in Uzbekistan were analyzed.*

Keywords: *kurash, national sports, Uzbek kurash, polvon, sports, national values, youth upbringing, physical education, international kurash, national traditions.*

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yosh avlodni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish hamda milliy sport turlarini keng ommalashtirish jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-madaniy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy sport turlari xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma’lumki, sportning rivojlanishi bir qancha sabab va shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Dunyoda ayrim sport turlari ba’zi kishilarning g‘oyalari va tashabbuslari tufayli paydo bo‘lgan (masalan, voleybol, basketbol, dzyudo, sambo va hokazo). Bunday sport turlarining vujudga kelishida qat’iyatli inson asosiy o‘rin tutadi. Biroq sport olamida muallifi yoki egasi bo‘lmagan sport turlari ham mavjud. Ba’zi sport turlari va ularni rivojlantirish uslublarining ijodkori sifatida muayyan bir xalq yoki millat e’tirof etiladi. Bu sport turlari o‘sha xalqning tarixi, urf-odatlari va turmush tarzi bilan bog‘liqdir. Kurash ham ayni shunday, o‘zbek xalqining marosimlari, madaniyati va an’analari asosida shakllangan sport turidir. O‘zbek xalqi kurashning yaratuvchisidir. Sport insoniyat hayotida jismoniy sog‘lomlikni ta’minlash bilan birga, shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotida ham muhim o‘rin tutadi. Har bir xalqning o‘ziga xos milliy sport turlari mavjud bo‘lib, ular xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, an’analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalqining ana shunday qadimiy sport turlaridan biri – kurashdir.

Kurash asrlar davomida xalqimiz hayotida nafaqat jismoniy bellashuv, balki o‘ziga xos tarbiya maktabi vazifasini bajargan. To‘ylar, sayillar, bayramlar va turli xalq tantanalarida polvonlarning kurash tushishi an’anaga aylangan. Ramazon yoki Qurbon hayiti marosimlari hamda Navro‘z bayrami kunlarida, ayniqsa, dastlabki uch kunida oqsoqollar boshchiligida kurash musobaqalari o‘tkazilgan. Odamlar tomoshaga kelgan, mahbuslar ozod qilingan, gunohkorlarning aybi kechirilgan. Darhaqiqat, kurash o‘zbek xalqining hayoti va turmush tarzida muhim o‘rin tutgan. Kurash maydonida kuch sinashgan polvonlardan jismoniy baquvvatlik bilan birga halollik, jasorat, sabr-toqat va raqibga hurmat talab qilingan.

Bugungi kunda kurash O‘zbekistonning milliy sport ramzlaridan biriga aylangan. Uning xalqaro miqyosda keng tarqalishi o‘zbek xalqining boy sport va madaniy merosini dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan sport maktablari va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilib, ular o‘rtasida muntazam ravishda hududiy musobaqalar tashkil etilgan. 1992-yilning fevral oyi mobaynida Bag‘dod tumanida sport maktablarining 1976–1977-yillarda tug‘ilgan yoshlari o‘rtasida «milliy kurash» sporti bo‘yicha viloyat birinchiligi o‘tkazilgan. Ushbu musobaqada Beshariq, Farg‘ona, Marg‘ilon, Uchko‘prik, Yozyovon, Rishton, Buvayda, Bag‘dod tumanlarida joylashgan sport maktablaridan sportchi-yoshlar ishtirok etgan. Yakunda Bag‘dod, Rishton hamda Uchko‘prik jamoalari sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. Musobaqalarni

kuzatib borgan ishchi guruh kurash maydoni yaxshi jihozlangani, kurashchilar xulqining yaxshiligi va raqibga nisbatan hurmati hamda tibbiy xodimlar xizmatini alohida e'tirof etgan [1].

Kurash ilk bor 1992-yilda Kanadada dzyudo bo'yicha o'tkazilgan Jahon chempionati va Xalqaro dzyudo federatsiyasining Kongressi doirasida targ'ib qilindi. 1994-yili Xirosima shahrida tashkil etilgan Osiyo o'yinlarining kurash musobaqalaridan olingan yozma ma'lumotlar va videoyozuvlar e'lon qilinib, kurashning bellashuv hamda usul otish texnikasi tushuntirib berildi. 1995-yilda Hindistonda bo'lib o'tgan Xalqaro dzyudo federatsiyasining Osiyo Kongressida o'zbek milliy sporti – kurash atroflicha muhokama qilindi. Shu tariqa kurash jahonga tanila boshladi. 1998-yil 6–7-mart kunlari Irlandiyaning Dublin shahrida Yevropa dzyudo federatsiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda kurashga oid yozma hamda muhim videomateriallar namoyish etildi. O'zbekiston vakillari 1998-yil 15–18-aprel kunlari Monako shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro dzyudo federatsiyasining ellik yillik yubileyida ishtirok etib, kurash haqida batafsil ma'lumot berdilar. Albatta, bunda Yevropa Olimpiya qo'mitasi hamda Irlandiya Olimpiya qo'mitasi prezidenti Patrik Xikining hissasi katta bo'ldi. 1998-yil sentyabr oyida Prezident sovrini uchun o'tkazilgan musobaqadan so'ng Polsha, Yaponiya, Turkiya kabi turli mamlakatlardan kurashni qo'llab-quvvatlovchi xatlar kela boshladi. Bu sa'y-harakatlar o'z samarasini berib, kurash bo'yicha jahon chempionatini tashkil etish va o'tkazish uchun ajoyib imkoniyat yaratilgan [2].

Mustaqillik yillarida kurashning rivojlanishi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar va an'analarni qayta tiklashga katta e'tibor qaratildi. Bu jarayonda milliy sport turlarini rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Kurashning zamonaviy sport turi sifatida rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishi muhim bosqich bo'ldi. 1998-yilda Toshkent shahrida Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi tashkil etildi. Shu davrdan boshlab o'zbek kurashining xalqaro miqyosda targ'ib qilinishi yanada kuchaydi [3].

Xulosa qilib aytganda, kurash o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismidir. U oddiy sport bellashuvi bo'lib qolmasdan, xalqimizning mardlik, jasorat, halollik, sabr-toqat va raqibga hurmat kabi qadriyatlarini o'zida mujassam etgan tarbiya maktabidir. Mustaqillik yillarida kurashning milliy sport sifatidagi mavqei yanada mustahkamlandi va uning xalqaro miqyosda ommalashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda kurash O'zbekistonning sport sohasidagi yutuqlarini namoyon etish bilan birga, milliy madaniyat va an'analarni xalqaro miqyosda targ'ib qiluvchi muhim vositaga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Farg'ona VDA. 227-fond, 1-ro'yxat, 1245-yig'majild, 1-varaq.

2. Sport in Central Asia: Central Asian Games, Sport in Uzbekistan, Uzbekistan at the Olympics, Tashkent Open, Kurash / by Books Group. – UAE: Books LLC, 2010.

3. https://olamsport.com/uz/news/2111

4. Ачилов А. Дастлабки одимлар, режалар натижалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

UO'K 94(5):316.7

TURKIY XALQLAR TARIXIY-MADANIY MEROSI VA MILLATLARARO HAMJIHATLIK: "TURK DUNYOSI KELAJAGI" FORUMI MISOLIDA

X.R. Nafiddinova, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turkiy davlatlar va xalqlarning tarixiy taraqqiyot davomida umumiy makon, mushtarak madaniy qadriyatlar, an'analar va ma'naviy g'oyalar asosida shakllangan etnomadaniy aloqalari tahlil qilinadi. Turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlik mintaqada millatlararo munosabatlarning rivojlanishi, o'zaro anglashuv va hamjihatlik muhitining mustahkamlanishida muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada bugungi globallashuv sharoitida turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlikning kengayib borayotgani millatlararo munosabatlar integratsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, 2024-yildan buyon Istanbuldagi Ibn Haldun universitetida yuqori saviyada tashkil etilayotgan yozgi maktab mashg'ulotlari hamda "Turk dunyosi kelajagi" forumining turkiy xalqlar o'rtasidagi ilmiy-ma'rifiy muloqot, tarixiy xotira va madaniy merosni anglash, turkiy dunyo*

xalqlarini birlashtirish, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashdagi o'rni ochib beriladi. Muallif dala kuzatuvlari va amaliy ma'lumotlar asosida bunday seminar, o'quv mashg'ulotlari va forumlarning zamonaviy millatlararo munosabatlar tizimidagi ahamiyatini tarixiy-etnografik nuqtai nazardan asoslab beradi.

Kalit so'zlar: *Forum, Turk dunyosi kelajagi, millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik, migratsiya, ijtimoiy birdamlik, madaniy integratsiya, tizimli tadqiqotlar, ko'pmillatlilik, madaniyat kuni.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этнокультурные связи тюркских государств и народов, сформировавшиеся в процессе исторического развития на основе общего пространства, общих культурных ценностей, традиций и духовных идей. Историко-культурная близость тюркских народов рассматривается как важный фактор развития межнациональных отношений, укрепления взаимопонимания и атмосферы согласия в регионе. В статье научно освещается положительное влияние расширения экономического, политического, социального и культурного сотрудничества между тюркскими государствами в условиях современной глобализации на интеграцию межнациональных отношений. Также раскрывается значение летних школ, организуемых с 2024 года на высоком уровне в Университете Ибн Халдуна в Стамбуле, а также форума «Будущее тюркского мира» в развитии научно-просветительского диалога между тюркскими народами, осмыслении исторической памяти и культурного наследия, а также укреплении межнационального согласия. На основе полевых наблюдений и практических данных автор обосновывает значение подобных семинаров, учебных занятий и форумов в современной системе межнациональных отношений с историко-этнографической точки зрения.*

Ключевые слова: *форум, Будущее тюркского мира, межнациональные отношения, толерантность, миграция, социальная солидарность, культурная интеграция, системные исследования, многонациональность, день культуры.*

Abstract. *This article analyzes the ethnocultural relations of Turkic states and peoples that were formed throughout historical development on the basis of a common space, shared cultural values, traditions, and spiritual ideas. The historical and cultural affinity among Turkic peoples is regarded as an important factor in the development of interethnic relations, mutual understanding, and the strengthening of an atmosphere of harmony in the region. The article scientifically examines how the expansion of economic, political, social, and cultural cooperation among Turkic states in the context of contemporary globalization positively influences the integration of interethnic relations. It also highlights the significance of the summer school programs organized at a high academic level since 2024 at Ibn Haldun University in Istanbul, as well as the "Future of the Turkic World" Forum, in fostering scholarly and educational dialogue among Turkic peoples, understanding historical memory and cultural heritage, and strengthening interethnic harmony. Drawing on field observations and practical data, the author substantiates the importance of such seminars, training sessions, and forums in the modern system of interethnic relations from a historical and ethnographic perspective.*

Key words: *forum, Future of the Turkic World, interethnic relations, tolerance, migration, social solidarity, cultural integration, systematic research, multinationality, culture day.*\

Kirish. Turkiy xalqlar o'rtasidagi til, urf-odat, qadriyat, an'ana, turmush tarzi va tarixiy xotira mushtarakligi ularning o'zaro madaniy yaqinlashuvi hamda mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, tarixiy jarayonlarda shakllangan etnomadaniy aloqalar, ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, savdo yo'llari, diniy-ma'rifiy muhit hamda umumiy sivilizatsion makon turkiy xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy merosi nafaqat o'tmishdagi etnik va madaniy birlikni anglashda, balki bugungi globallashuv sharoitida millatlararo hamjihatlik va o'zaro ishonch muhitini rivojlantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning izchil kengayib borishi mintaqada millatlararo munosabatlar integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar xalqlar o'rtasida

o‘zaro hurmat, madaniyatlararo muloqot, ilmiy-ma’rifiy almashinuv va hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini turkiy xalqlarning etnomadaniy yaqinligi, tarixiy xotira, madaniyatlararo muloqot, millatlararo hamjihatlik va integratsiya jarayonlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tarixiylik metodi orqali turkiy xalqlar o‘rtasidagi qadimiy aloqalar, umumiy madaniy makon va mushtarak ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarning shakllanish jarayonlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida turkiy davlatlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar bilan bugungi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlik jarayonlari o‘zaro solishtirildi.

Maqolada etnografik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Turk dunyosi kelajagi” forumi va Istanbuldagi Ibn Haldun universitetida tashkil etilayotgan yozgi maktab mashg‘ulotlari jarayonida kuzatuv, muloqot, suhbat va dala ma’lumotlarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Mazkur tadbirlar davomida turli turkiy davlatlar vakillari o‘rtasidagi ilmiy-ma’rifiy muloqot, madaniy almashinuv, o‘zaro anglashuv va hamjihatlik muhitining shakllanishi bevosita kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqotda kontent-tahlil metodidan foydalanilib, forum va yozgi maktab doirasida ilgari surilgan g‘oyalar, ma’ruzalar, muhokamalar hamda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari millatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Dala kuzatuvlari asosida to‘plangan ma’lumotlar tarixiy-etnografik manbalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirildi. Bu esa turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlikning bugungi millatlararo hamjihatlik va integratsiya jarayonlaridagi ahamiyatini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Asosiy qism. Turkiy xalqlar tarixiy taraqqiyot davomida umumiy geografik makon, mushtarak madaniy qadriyatlar, til yaqinligi, diniy-ma’naviy qarashlar va o‘xshash turmush tarzi asosida shakllangan etnomadaniy birlikka ega bo‘lgan xalqlar sifatida ajralib turadi. Ularning tarixiy-madaniy merosi nafaqat alohida xalqlarning o‘ziga xosligini belgilaydi, balki turkiy dunyo doirasida umumiylik, hamkorlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tarixiy jarayonlarda turkiy xalqlar o‘rtasidagi savdo-sotiq, migratsiya, madaniy almashinuv, ilmiy-ma’rifiy aloqalar va ijtimoiy hamkorlik millatlararo munosabatlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Bugungi globallashuv sharoitida turkiy davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu jarayonlar turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik, ijtimoiy birdamlik va madaniy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, turkiy davlatlar vakillari ishtirokida tashkil etilayotgan xalqaro forumlar, yozgi maktablar, ilmiy seminarlar va madaniyat kunlari millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim amaliy maydon vazifasini bajarmoqda.

Istanbuldagi Ibn Haldun universitetida 2024-yildan buyon tashkil etib kelinayotgan yozgi maktab mashg‘ulotlari hamda “Turk dunyosi kelajagi” forumi ana shunday muhim ilmiy-ma’rifiy tashabbuslardan biridir. Mazkur forum turkiy xalqlar vakillarini yagona ilmiy va madaniy muloqot maydonida birlashtirib, ularning tarixiy xotira, umumiy meros, millatlararo hamjihatlik va zamonaviy taraqqiyot masalalari yuzasidan fikr almashishiga imkon yaratmoqda. Forum doirasida o‘tkaziladigan ma’ruzalar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar va madaniy tadbirlar yosh tadqiqotchilar va ishtirokchilarda turkiy xalqlar tarixiga, madaniyatiga va umumiy qadriyatlariga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Dala kuzatuvlari va amaliy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday xalqaro ilmiy-ma’rifiy tadbirlar turli millat vakillari o‘rtasida bevosita muloqotni kuchaytiradi. Ishtirokchilar o‘z mamlakatlari madaniyati, urf-odatlari, ilmiy qarashlari va ijtimoiy tajribalari bilan o‘rtoqlashish orqali o‘zaro tushunish va hurmat muhitini mustahkamlaydi. Bu esa millatlararo munosabatlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan madaniy masofani qisqartirishga, umumiy manfaatlar va mushtarak qadriyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xalqaro munosabatlardagi so‘nggi o‘zgarishlar va ziddiyatlar an’anaviy siyosiy hamda iqtisodiy tuzilmalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu noaniqlik davlatlarni umumiy o‘zlik va kollektiv xavfsizlik asosida mintaqaviy hukumatlararo tashkilotlar orqali hamkorlik qilishga

undamoqda. Bugungi xalqaro tizim global jamiyatning turli ehtiyojlariga javob bera oladigan samarali va hamkorlikka asoslangan strategiyalarga bo‘lgan zaruratni ko‘rsatmoqda. Mintaqaviy subyektlar tinchlikni targ‘ib etuvchi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Turli turkiy xalqlarni qamrab olgan Turk dunyosi global hamjihatlikni rivojlantirish uchun istiqbolli platformani taqdim etadi.

Turk dunyosi boy madaniy, siyosiy va iqtisodiy tarixga ega bo‘lgan dinamik mintaqadir. Ushbu mintaqaning mohiyatini anglash uchun fanlararo yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Turk dunyosi yozgi maktabi ham aynan shu tushunchani turli akademik qarashlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi.

2009-yilda tashkil etilgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi — Turk kengashi turkiy xalqlarni birlashtiruvchi til va madaniyat omillariga tayangan holda a’zo davlatlar o‘rtasida mustahkam hamkorlik asosini yaratdi. Ushbu hamkorlik 2021-yil noyabr oyida Turk davlatlari tashkiloti — TDT tashkil etilishi bilan institutsional tus oldi.

Ibn Haldun universiteti turkiy davlatlar va xalqlarning birligini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu doirada 2024-yilda birinchi Turk dunyosi yozgi maktabini yo‘lga qo‘ydi. 2025-yilgi yozgi maktab mavzusi “Turk dunyosining yuksalishi” deb belgilangan bo‘lib, dastur doirasida tashkilotchilik, jamiyat va madaniyat masalalari turli yo‘nalishlarda ko‘rib chiqiladi.

Quyidagi yo‘nalishlarda panellar tashkil etilgan.

- Turk dunyosining boy tarixini o‘rganish
- Turk dunyosi geografiyasi
- Turk dunyosidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini anglash
- Turk dunyosining madaniy, tarixiy va lisoniy jihatlari
- Turk dunyosining mintaqaviy va global kontekstdagi ahamiyati
- 2040-yil Vizioni: Turk dunyosi uchun yorqin kelajak tasavvuri
- Energetika va transport yo‘laklarini o‘rganish
- Turk dunyosidagi ekologik muammolarga yechim izlash
- Turk dunyosining kelajagini shakllantirish: imkoniyatlardan foydalanish[1].

Yozgi maktab Markaziy Yevropadan Markaziy Osiyogacha bo‘lgan hududni qamrab oluvchi hamda TDTga a’zo davlatlarni o‘z ichiga olgan Turk dunyosi duch kelayotgan muammolarni fanlararo yondashuv asosida muhokama qilish uchun akademiklar va talabalarni birlashtirdi. Ishtirokchilar orasida hukumat vakillari, akademiklar va xalqaro siyosat bo‘yicha mutaxassislar ham bo‘lgan. Ushbu dastur ishtirokchilarga o‘z bilim va malakalarini oshirish, soha mutaxassislaridan o‘rganish hamda turli kasbiy doira vakillari bilan muloqot qilish uchun muhim o‘quv va kasbiy rivojlanish imkoniyatini taqdim etdi. Yozgi maktabning maqsadlari:

1. Ishtirokchilarga Turk dunyosi haqida turli yo‘nalishlar bo‘yicha keng qamrovli tushuncha berish.
2. Turk dunyosi bo‘yicha chuqur bilimga ega malakali professional va mutaxassis kadrlarni tayyorlash.
3. Hukumat va fuqarolik jamiyati yetakchilari, akademiklar, xalqaro siyosat ishlab chiquvchilar va ekspertlarni Turk dunyosiga qiziqish bildirgan shaxslar bilan birlashtiruvchi platforma yaratish.
4. Ishtirokchilar va jamoatchilikni TDTning maqsadlari haqida xabardor qilish hamda a’zo davlatlar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish.

Keyingi yil esa “Turk dunyosi kelajagi” nomli yoz Forumi 2026-yil 6-15 iyul kunlari tashkil etildi. Ibn Haldun universiteti tomonidan tashkil etilgan Birinchi va Ikkinchi Turk dunyosi maktablarining muvaffaqiyatidan so‘ng, bu yilgi Forum Turk davlatlari tashkiloti (TDT) va boshqa mintaqaviy mexanizmlar doirasida barqaror hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan akademik almashinuvni mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot tarmoqlarini shakllantirish hamda amaliy siyosatga yo‘naltirilgan muhokamalarni ilgari surishni maqsad qilgan. Global jarayonlar o‘zgarib borayotgan hozirgi davrda mintaqaviy hamkorlik va o‘zlikka asoslangan sheriklik munosabatlari barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashning muhim mexanizmlaridan biriga aylandi. Bolqonlardan Markaziy Osiyogacha bo‘lgan hududlardagi turli davlatlar va jamiyatlarni birlashtirgan Turk dunyosi

bugungi kunda global tinchlik, o‘zaro bog‘liqlik va rivojlanishga hissa qo‘shayotgan muhim mintaqaviy subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda[2].

So‘nggi geosiyosiy muammolar turkiy davlatlar o‘rtasida umumiy institutlar va madaniy aloqalar orqali yanada chuqurroq hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zaruratini ko‘rsatdi. Ana shu qarashga tayangan holda, “Turk dunyosining kelajagi” mavzusidagi Uchinchi Turk dunyosi yozgi forumi olimlar, amaliyotchi mutaxassislar va talabalarni turkiy mintaqaning o‘zgarib borayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik manzarasi yuzasidan fanlararo muloqotga chorladi. Forumda besh yo‘nalish bo‘yicha ma’ruzalar, simulyatsiyalar, munozaralar, seminarlar, davra suhbatlari va panel muhokamalari tashkil etildi. Bular: Tarixiy va sivilizatsion yondashuvlar, Siyosat, boshqaruv va xavfsizlik, Iqtisodiyot, energetika va o‘zaro bog‘liqlik, Jamiyat, madaniyat va yumshoq kuch, Kelajak tasavvurlari va global istiqbol yo‘nalishlaridir. Ularda Turkiy sivilizatsiyalarda davomiylik va transformatsiya jarayonlari davlatchilik an’analari va boshqaruv modellarining qiyosiy tahlili, xotira, o‘zlik va zamonaviy millat qurilishi, meros diplomatiyasi va tarixiy narrativ siyosati, siyosiy institutlar, boshqaruv va demokratik taraqqiyot, mintaqaviy nizolarni boshqarish va tinchlikni barpo etish mexanizmlari, Yevropa Ittifoqi – Turkiya – Markaziy Osiyo munosabatlari: manfaatlar va ta’sir muvozanati, Turkiy mintaqada iqtisodiy integratsiya va savdo yo‘laklari, o‘rta yo‘lak: geoiqtisodiyot, transport va energetika xavfsizligi, Markaziy Yevrosiyoda yashil o‘tish va barqaror rivojlanish, madaniy uyg‘onish, alifbo va til siyosati, Turk dunyosida ta’lim, yoshlar va raqamli transformatsiya, media, kommunikatsiya va madaniy diplomatiya, diasporalar va transmilliy turkiy o‘zlik, “Vision 2040” va Turk davlatlari tashkilotining kelajagi, Turk dunyosida sun’iy intellekt, algoritmlar va siyosat ishlab chiqish, strategiya, birdamlik va barqarorlik: umumiy kelajak istiqbollari kabi masalalar qizg‘in muhokama qilindi[3]. Forumda 30 dan ortiq mamlakatdan 200 ga yaqin olimlar ishtirok etdi. Shuningdek, forum doirasida madaniyat kuni ham tashkil etildi. Madaniyat kunida ham turli davlatlardan kelgan ishtirokchilar o‘z milliy mamlakati va madaniyatini ifodalovchi an’anaviy-milliy kiyimlar, kichik madaniy buyumlar yoki ramziy materiallarni olib kelib ishtirok etdi. Bu esa Forum qatnashchilari o‘rtasida madaniy almashinuv, do‘stlik va o‘zaro anglashuvning samimiy hamda mazmunli muhitini yaratishga yordam berdi[4].

Shu jihatdan “Turk dunyosi kelajagi” forumi faqat ilmiy anjuman emas, balki turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni zamonaviy sharoitda rivojlantirish, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash va madaniy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-madaniy institut sifatida baholanishi mumkin. Mazkur forum turkiy dunyoning kelajak taraqqiyotida ilmiy hamkorlik, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy birdamlikning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy merosi va mushtarak etnomadaniy qadriyatlari millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Qadimdan shakllangan umumiy tarixiy xotira, madaniy yaqinlik, an’ana va qadriyatlar turkiy xalqlar o‘rtasida o‘zaro anglashuv, hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilib kelgan.

Bugungi kunda turkiy davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlikning kengayib borishi millatlararo munosabatlar integratsiyasini yanada jadallashtirmoqda. Bu jarayonda xalqaro forumlar, yozgi maktablar, ilmiy seminarlar va madaniy tadbirlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Istanbuldagi Ibn Haldun universitetida tashkil etilayotgan yozgi maktab mashg‘ulotlari hamda “Turk dunyosi kelajagi” forumi turkiy xalqlar o‘rtasida ilmiy-ma’rifiy muloqotni rivojlantirish, tarixiy xotirani anglash va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda samarali platforma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dala kuzatuvlari asosida aytish mumkinki, mazkur forum va unga aloqador tadbirlar ishtirokchilarda umumiy tarixiy-madaniy merosga hurmat, bag‘rikenglik, ijtimoiy birdamlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli “Turk dunyosi kelajagi” forumi turkiy xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bilan birga, zamonaviy millatlararo munosabatlar tizimida ijobiy integratsion jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. İkinci Türk Dünyası Yaz Okulu 'Türk Devletlerinin Yükselişi' — İHÜ

2. Программа 3rd Turkic World Summer Forum 2026 / ПРАКТИКУМА
3. Third Turkic World Summer Forum “The Future of the Turkic World’ Overview — IHU
4. Dala ma’lumotlari. Buxoro shahri, 2026-yil.

UO’K 902:674.5(575.1)

FARG‘ONA VODIYSIDAGI AYRIM YOG’OCHDAN YASALGAN IDISHLAR

A.Najmiddinov, kichik ilmiy xodim, O’zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlardagi Munchoqtepa II, G‘arbiy Farg‘ona qabristonlari, Isfara, Qorabuloq, Kenkol hamda Talas vodiysi yodgorliklaridan topilgan yog‘och idishlar qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan. Idishlarning turlari, tayyorlanish va ta’mirlanish xususiyatlari, kundalik hamda marosimiy hayotdagi vazifalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari yog‘ochga ishlov berish hunarmandchiligining yuqori darajada rivojlanganini va vodiyning qo‘shni hududlar bilan madaniy aloqalarini ko‘rsatadi.*

Kalit so’zlar: *Farg‘ona vodiysi, Munchoqtepa II, yog‘och idishlar, Kenkol qabristoni, Qorabuloq qabristoni.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительно-типологический анализ деревянных сосудов, обнаруженных на памятниках Ферганской долины и сопредельных территорий – Мунчактепа II, могильниках Западной Ферганы, Исфары, Карабулака, Кенкола и Таласской долины. Рассматриваются типы сосудов, особенности их изготовления и ремонта, а также функции в повседневной и ритуальной жизни. Результаты исследования свидетельствуют о высоком уровне развития деревообработки и о культурных связях долины с соседними регионами.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, Мунчоктепа II, деревянные сосуды, Кенкольский могильник, Карабулакский могильник.*

Abstract. *The article presents a comparative typological analysis of wooden vessels found at sites of the Fergana Valley and adjacent territories, including Munchaktepa II, the cemeteries of Western Fergana, Isfara, Karabulak, Kenkol and the Talas Valley. The types of vessels, features of their manufacture and repair, and their functions in everyday and ritual life are examined. The results demonstrate the high level of woodworking craftsmanship and the cultural ties of the valley with neighbouring regions.*

Keywords: *Fergana Valley, Munchoqtepa II, wooden vessels, Kenkol cemetery, Karabulak cemetery.*

Kirish. Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yog‘och buyumlar, ayniqsa yog‘och idishlar qadimgi aholi turmushida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. G‘arbiy Farg‘ona qabristonlari, Kenkol, Qorabuloq, Isfara, Talas vodiysi, Noin-Ula, Paziriq hamda Sharqiy Turkiston yodgorliklaridan aniqlangan yog‘och buyumlar qadimgi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining moddiy madaniyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Yog‘och idishlar yengilligi, mustahkamligi va foydalanishga qulayligi tufayli ko‘chmanchi hamda yarim ko‘chmanchi aholi orasida keng tarqalgan. Shu bilan birga, ular sopol idishlarga nisbatan mustahkamroq bo‘lgani hamda kundalik turmushda foydalanish uchun qulayligi bilan qadrlangan. Ushbu maqolaning maqsadi Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlardagi yodgorliklardan topilgan yog‘och idishlarni turi, ishlanish xususiyatlari va vazifasiga ko‘ra qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi. Farg’ona vodiysi qadim zamonlardan buyon turli xalqlar va madaniyatlarning kesishgan nuqtasi bo‘lib kelgan, shu sababli bu hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Markaziy Osiyoning qadimgi moddiy madaniyatini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarda asosan sopol, metall va tosh buyumlarga ko’proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, yog‘ochdan yasalgan idishlar masalasi nisbatan kam o‘rganilgan yo‘nalish hisoblanadi. Aynan shu sababli, yer osti sag‘analari va katakomb qabrlarining noyob saqlanish

sharoiti tufayli bizgacha yetib kelgan yog‘och buyumlarni ilmiy muomalaga kiritish va ularni qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mintaqadagi yog‘och buyumlar turli yillarda bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.N. Bernshtam Kenkol mozorqo‘rg‘onlaridagi topilmalarni [3], B.A. Litvinskiy G‘arbiy Farg‘ona qabristonlaridan topilgan mehnat qurollari va ro‘zg‘or buyumlarini [4], N.G. Gorbunova ilk ko‘chmanchilarning podboy-katakomba qabrlaridagi dafn inventarini [6] tadqiq etgan. Munchoqtepa II yer osti sag‘analari materiallari A.A. Anarbayev va B.X. Matbabayev tomonidan e’lon qilingan [1; 2], Kenkol qabristonining yangi materiallari esa E.V. Stepanova va A.I. Torgoyev ishlarida yoritilgan [7].

Tadqiqot qismi. Tadqiqotda Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlardagi yodgorliklardan topilgan, ilmiy adabiyotlarda e’lon qilingan yog‘och idishlar hamda etnografik ma’lumotlar asos qilib olindi.

Munchoqtepa II yer osti sag‘analaridan ko‘plab artefaktlar qatori yog‘ochdan yasalgan buyumlar ham topilgan bo‘lib, ular orasida pichoq dastasi, taroqlar, munchoqlar, kamon o‘qi qismlari, yog‘och qoshiq, tarozi pallasi, o‘t chiqarish asbobi, qamchi, yog‘och idishlar va turli maishiy buyumlar uchraydi [1; 2]. Shuningdek, Munchoqtepa II sag‘analaridan noksimon shakldagi kichik qovoq idishlar ham topilgan bo‘lib, ularda osib qo‘yish uchun maxsus teshikchalar mavjud [1]. Bunga o‘xshash idish Kenkol mozorqo‘rg‘onlaridan ham topilgan. Uning ham ikki yon tomonida osib qo‘yish uchun teshiklari bo‘lgan. Idishchaning balandligi 8,5 sm, eng katta diametri 5,5 sm, eng kichik diametri esa 2,6 smni tashkil etgan. Ichida jigarrang kukun saqlangan. Tadqiqotchilar bunday qovoq idishchalar O‘rta Osiyoda tamaki saqlash uchun ishlatilganini qayd etadilar [3].

B.A. Litvinskiy tomonidan o‘rganilgan G‘arbiy Farg‘ona qabristonlarida yog‘och buyumlarning ko‘plab namunalari aniqlangan bo‘lib, ular orasida kosa, lagan, krujka, stolcha, tog‘ora, quticha va turli xo‘jalik buyumlari uchraydi [4]. Isfara qabristonlaridan topilgan yog‘och idishlar orasida sharsimon tanali cho‘michlar, noksimon krujkalar, ikki konusli kosalar, baland oyoqli laganlar va to‘rt oyoqli stolchalar mavjud bo‘lgan. Ayrim krujkalarning dastalari zoomorf shaklda ishlangan.

Qorabuloq qabristonidan topilgan yog‘och buyumlar son va shakl jihatidan ayniqsa boydir. Bu yerda ilmoqsimon dastali krujkalar, chuqur kosalar, baland taglikli laganlar va bochkasimon idishlar aniqlangan. Qorabuloq materiallari asosida tadqiqotchilar yog‘och buyumlarni tayyorlashning butun texnologik jarayonini tiklash imkoniga ega bo‘lganlar. M.E. Vorones va V.I. Sprishevskiy qazigan qo‘rg‘onlarda 26 ta yog‘och idish, jumladan 13 ta kosa, 5 ta lagan va 9 ta krujka aniqlangan.

Kenkol qabristonidan topilgan yog‘och buyumlar orasida yog‘och idishlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular ko‘chmanchi aholining kundalik va marosimiy hayotida keng qo‘llanilgan. Tadqiqotlarda yog‘ochdan ishlangan kosalar, qadahlar, laganlar va turli hajmdagi idishlar aniqlangan. Ushbu idishlar asosan archa yog‘ochidan tayyorlangan bo‘lib, ayrim hollarda Tyanshan qoraqarag‘ayi ham ishlatilgan. Yog‘och idishlarning muhim qismi Kenkol mozorqo‘rg‘onining 5-, 6-, 9- va 10-katakombalaridan topilgan. Xususan, 9-qo‘rg‘on katakombasidan yog‘och lagan, 9- va 10-qo‘rg‘onlardan yog‘och kosalar hamda qadahlar aniqlangan [3]. Shuningdek, Kenkol mozorqo‘rg‘onining 2-qo‘rg‘onidan topilgan topilmalar orasida yog‘och idishlar va turli maishiy anjomlar ham aniqlanib, ular qabr inventarining muhim qismini tashkil etgan [7].

Arxeologik materiallar yog‘och buyumlarning maishiy hayotda juda keng qo‘llanganini ko‘rsatadi. Yog‘och stolchalar asosan un qorish, lapsha tayyorlash va xamir yoyishda ishlatilgan. Ayrim tog‘oralar sut mahsulotlari yoki xamir saqlash uchun xizmat qilgan. Krujkalar esa qimiz, sariyog‘ va boshqa suyuqliklarni saqlash hamda iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Qorabuloq tipidagi krujkalar zamonaviy qirg‘iz charm idishlariga o‘xshash bo‘lib, ular qimiz va “tegan” saqlash uchun ishlatilgan [4].

Yog‘och idishlar asosan ovqat va ichimlik iste’moli uchun ishlatilgan. Laganlar taom tortish uchun, kosalar va qadahlar esa ichimliklar uchun xizmat qilgan. Ayrim stolchalar va laganlarda xamir izlari saqlanib qolganligi ularning oziq-ovqat tayyorlash jarayonida ham qo‘llanganini ko‘rsatadi [3]. N.G. Gorbunova ma’lumotlariga ko‘ra, ilk ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining dafn yodgorliklarida sopol idishlar bilan bir qatorda yog‘ochdan tayyorlangan maishiy buyumlar ham

uchraydi. Yog‘och buyumlar orasida krujka, kosa, lagan, stolcha va dastali idishlar mavjud bo‘lgan. Xorazm, Sug‘d, Qovunchi madaniyati va Baqtriyada dafn marosimlarida qo‘y go‘shti qo‘yish odati keng tarqalgan bo‘lib, ayrim hollarda go‘sht yog‘och lagan, stolcha yoki savat ichiga joylashtirilgan [6]. Yog‘och buyumlarning qadri baland bo‘lganini ularning ta’mirlangan holati ham tasdiqlaydi. Ko‘plab idishlarda yoriqlar mis sim bilan tikilgan, metall plastinkalar bilan mustahkamlangan yoki bronza qavslar yordamida ta’mirlangan [4]. Bu holat yog‘och buyumlardan uzoq muddat foydalanilganini va ular xo‘jalikda qimmatbaho buyum sifatida qadrlanganini ko‘rsatadi.

Yog‘och idishlardan foydalanish an’anasi keyingi davrlarda ham turli xalqlar orasida saqlanib qolgan. Xususan, qimiz tayyorlash va iste’mol qilishda qo‘llanilgan marosimiy yog‘och kosa – “chor” (“chora”) saxa chorvadorlari madaniyatida uzoq vaqt saqlanib qolgan. Mazkur idish asosan qimiz quyish hamda marosimiy ichimlik idishi sifatida foydalanilgan [5]. Afg‘on Turkistonida yashovchi pomirliklar orasida ham ko‘plab yog‘och idishlar tayyorlanadi. Yog‘och buyumlar ishlab chiqarish markazlari sifatida Afg‘onistonning Vaxon va Shug‘non viloyatlari, shuningdek Munjon qayd etiladi. Ko‘plab buyumlar Qofiriston (Nuriston)dan ham keltiriladi, u yerda yog‘och buyumlar tayyorlashning o‘ziga xos an’analari mavjud [4].

Xulosa. Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlardan topilgan yog‘och buyumlar, ayniqsa yog‘och idishlar qadimgi aholi moddiy madaniyatining muhim qismini tashkil etgan hamda uning kundalik turmushi, xo‘jaligi va marosimiy an’analarida muhim o‘rin tutgan. Ularning shakli, ishlov texnikasi va vazifasi ko‘chmanchi hamda o‘troq aholining xo‘jalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yog‘ochga ishlov berish hunarmandchiligi qadimgi davrlardayoq yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Yog‘och idishlar yengilligi, mustahkamligi va amaliy qulayligi tufayli keng qo‘llanilgan, ularning ta’mirlab ishlatilgani esa xo‘jalikda yuqori qadrlanganidan dalolat beradi. Shuningdek, bu topilmalar Farg‘ona vodiysining Talas, Tyanshan, Sharqiy Turkiston va Sibir hududlari bilan mavjud madaniy aloqalarini ham aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anarbaev A.A., Matbabaev B.Kh. An Early Medieval Urban Necropolis in Ferghana // Silk Road Art and Archaeology. – Kamakura: Institute of Silk Road Studies, 1993/1994. – Vol. 3. – P. 223–237.

2. Анарбаев А., Кораева З.А. Индийская куркума в древнем некрополе ферганцев // Археология Узбекистана. – 2025. – С. 173–175.

3. Бернштам А.Н. Кенкольский могильник // Археологические экспедиции Государственного Эрмитажа. – Вып. II. – Л.: Изд-во Гос. Эрмитажа, 1940. – С. 18–21.

4. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. – Л.: Наука, 1963. – С. 62–71.

5. Бакаева Э.П. К проблеме изучения состава ойратских этнических групп и тюрко-монгольских взаимосвязей // Монголоведение в начале XXI века: современное состояние и перспективы развития: материалы Международной научной конференции, посвященной 100-летию Б.Х. Тодаевой (г. Элиста, 23–26 апреля 2015 г.). – Элиста, 2015. – Ч. II. – С. 117–118.

6. Горбунова Н.Г. О подбойно-катакомбных погребениях ранних кочевников Средней Азии // Советская археология. – 1991. – № 3. – С. 22–25.

7. Степанова Е.В., Торгоев А.И. Комплекс с полужестким седлом из Кенкольского могильника // Археологические вести. – СПб., 2022. – Вып. 34. – С. 181–200.

UO’K 908

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONGA KO‘CHIRILGAN XALQLAR (POLYAKLAR MISOLIDA)

N.M.Nuralova, o‘qituvchi, Abu Rayhon Beruniy universiteti, Toshkent tumani

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 1939–1946-yillarda polyak xalqining boshiga tushgan mudhish voqealar, ularning o‘z vatanlaridan zo‘ravonlik bilan ko‘chirilishi, butun sobiq sho‘rolar tuzumida avj olgan stalincha totalitar tuzumning mudhish zo‘rovonligiga uchrashi, surgun qilinganlarning uzoq yurtlarda kechgan azoblari, ushbu kechinmalarda ularga mardonavor o‘zbek xalqining ko‘rsatgan yordamlari haqida bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sovet Ittifoqi, Polsha, SSSR, Polyaklar, NKVD, deportatsiya, totalitar tuzum, surgun, qizil armiya, maxsus ko‘chirilganlar.*

Аннотация. *В статье описываются ужасные события, выпавшие на долю польского народа в 1939-1946 годах, его насильственная депортация с Родины, ужасающее насилие сталинского тоталитарного режима, распространившегося на весь бывший Советский Союз, страдания ссыльных в далеких странах и помощь, которую они получили от мужественного узбекского народа во время этих испытаний.*

Ключевые слова: *Советский Союз, Польша, СССР, поляки, НКВД, депортация, тоталитарный режим, ссылка, Красная Армия, спецпереселенцы.*

Abstract. *The article describes the terrible events that befell the Polish people in 1939-1946, their forced deportation from their homeland, the horrific violence of the Stalinist totalitarian regime that spread throughout the former Soviet Union, the suffering of exiles in distant countries and the help they received from the courageous Uzbek people during these trials.*

Keywords: *Soviet Union, Poland, USSR, Poles, NKVD, deportation, totalitarian regime, exile, Red Army, special deportees.*

1937–1953-yillar oralig‘ida Sovet Ittifoqida (SSSR) 100 mingdan ziyod inson qatag‘on qilinib, turli hududlarga majburiy ravishda surgun etilgan. Ularning 13 mingdan ortig‘i qatl qilingan [1]. Mazkur davrda ko‘plab xalqlar siyosiy ta’qib va tazyiqlarga duchor bo‘ldi. Stalin davridagi totalitar tuzumning eng keskin siyosatlaridan biri ayrim xalqlarni o‘z tarixiy yashash hududlaridan ommaviy tarzda ko‘chirish bo‘lib, keyinchalik bunday jarayonlar deportatsiya va maxsus ko‘chirish kabi atamalar bilan ifodalangan. Ushbu siyosat muayyan xalqlarga nisbatan zo‘ravonlik hamda qonunga zid choralar qo‘llanilishining yaqqol ko‘rinishi edi. Ana shunday ta’qib va surgunlarga uchragan xalqlardan biri polyaklar hisoblanadi.

Polyak aholisining majburiy surgun qilinishi, avvalo, 1939-yilda Sovet Ittifoqi va Polsha o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan. 1939-yil 17-sentabrda Polshaning sharqiy hududlari — G‘arbiy Ukraina va G‘arbiy Belorussiya hududlariga Sovet armiyasi kiritildi. Ushbu harakatga 1939-yil avgust oyida SSSR va Germaniya o‘rtasida tuzilgan kelishuv asos bo‘lgan. Mazkur hujjat ikki davlat tashqi ishlar vazirlari Ribbentrop va Molotov tomonidan imzolangan edi [2].

Polsha hukumati polyak harbiylarini sovet qo‘shinlari tomonidan majburan qurolsizlantirishga bo‘lgan urinishlarga qarshilik ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ularga Qizil Armiya askarlariga qarshi faol qarshilik qilmaslik haqida ko‘rsatma berilgan. Natijada harbiy to‘qnashuvlar jarayonida ko‘plab polyak askarlari jiddiy qarshiliksiz Qizil Armiya tomonidan asirga olingan. Turli ma’lumotlarga ko‘ra, ularning umumiy soni 200–250 ming kishini tashkil etgan [3]. Keyinchalik asirlarning bir qismi ozod qilingan bo‘lsa, boshqalari harbiy lagerlarda saqlangan. 1940-yil aprel–iyun oylarida esa Smolensk yaqinidagi Katyn o‘rmonida qariyb 15 ming polyak harbiysi Beriyaning ko‘rsatmasi asosida qatl etilgan [4]. Yuqoridagi repressiv choralar davom ettirilib, 1940-yil 2-noyabrga kelib NKVDga qarashli lagerlarda 18 297 nafar polyak harbiy asiri saqlanayotgan edi [5].

Polyak aholisining deportatsiyasi 1940-yil 10-apreldan boshlanib, 1941-yil sentabrigacha davom etgan [6]. Turli tarixiy manbalarda surgun qilingan polyaklar soni turlicha ko‘rsatiladi. Polyak tarixchilarining tadqiqotlarida ularning soni 1 million 500 mingdan 1 million 600 ming nafargacha bo‘lgan deb qayd etilgan bo‘lsa, rus tarixchilari asarlarida 1 173 170 kishi yoki 312 800 oila deportatsiya qilingani ko‘rsatiladi [7]. 1939–1941-yillar davomida Stalin siyosati natijasida polyak aholisi keng ko‘lamli siyosiy ta’qib va majburiy ko‘chirishlarga duchor bo‘lgan.

Hududlardan fashistlar zulmidan qochib kelgan aholining bir qismi ham keyinchalik “sovet ittifoqi aholisi” maqomiga ega bo‘ldi [8]. 1940-yildan boshlab G‘arbiy Ukraina va G‘arbiy Belorussiya hududlaridagi “Polsha burjua hukumatining tarafdorlari, xayrixohlari”, “shubhali elementlar” kabi guruhlar turli ayblovlar asosida o‘z yashash joylaridan Rossiyaning shimoli-sharqiy hududlari hamda Qozog‘istonning shimoliy viloyatlariga majburiy ravishda deportatsiya qilina boshlandi. Mazkur choralar “ishonchsiz” deb topilgan shaxslarni hamda sovet hokimiyatining “sinfiy dushmanlari”ni chegara hududlaridan chiqarib yuborish zarurati bilan izohlandi. Deportatsiya qilinganlar orasida polyaklardan tashqari yahudiylar, ukrainlar, belaruslar va boshqa millat vakillari

ham mavjud edi. Polyak aholisini majburiy ko‘chirish jarayoni 1940-yil 10-apreldan boshlanib, 1941-yil sentabr oyigacha davom etgan [9].

Yangi joylarda yashash sharoitlarining og‘irligi va mavjud muammolarni bartaraf etishning murakkabligi sababli urushdan avvalgi hamda urush yillarida 80 mingdan ziyod polyak fuqarosi O‘zbekistonga majburan ko‘chirib keltirildi. 1941-yil 1-oktabrda hukumat rahbariyati tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq, dastlab O‘zbekiston hududiga 100 ming polyak fuqarosini joylashtirish rejalashtirildi [10]. Markazning maxsus topshirig‘iga asosan respublikaning turli viloyatlariga ko‘chirib keltirilayotgan polyaklarni qabul qilish va joylashtirish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Samarqand viloyati ijroiya qo‘mitasining 1941-yil 3-oktabrdagi 30-raqamli “mutlaqo maxfiy” qarorida viloyat tumanlarida 25 000 nafar “evakuatsiya qilingan polyak fuqarolarini” joylashtirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berildi. Tuman rahbarlariga ko‘chirilayotgan polyaklarning yashash va moddiy sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, ularni mehnat faoliyatiga jalb etish vazifalari yuklatildi.

1941-yil 8-dekabrda SSSR Davlat Mudofaa qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston hududida 35 ming polyak fuqarosini joylashtirish va ularni ish bilan ta’minlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi [11]. Biroq mavjud imkoniyatlar yetarli darajada hisobga olinmagani sababli ko‘plab polyak fuqarolarini turli hududlarga joylashtirish va ular bilan bog‘liq masalalarni hal etishda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Kelgan aholini uy-joy bilan ta’minlash, oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash hamda ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish masalalarida muammolar kuzatildi. Bunga respublikaning ko‘plab viloyat va tumanlarida tibbiy xizmatning o‘zi ham og‘ir ahvolda bo‘lgani, shuningdek, malakali tibbiyot xodimlari yetishmagani sabab bo‘ldi. Ko‘chirilgan polyak fuqarolarining O‘zbekiston iqlimiga moslashish jarayoni ham murakkab kechib, ular orasidagi talafotlar sonining ortishiga olib keldi. 1941-yil yakuniga kelib, polyak fuqarolarining ayrim qismi Janubiy Qozog‘iston hududlariga ko‘chirildi [12].

Polsha elchixonasi hamda sobiq Ittifoq hududida tashkil etilgan Polsha armiyasining, ayrim tarixiy manbalarda “Anders armiyasi” nomi bilan qayd etiladigan, shtabi tomonidan ham muayyan faoliyatlar amalga oshirildi. 1942-yil boshlarida “Anders” armiyasiga qo‘shilish maqsadida kelgan fuqarolar hisobiga O‘zbekiston hududiga ko‘chib kelayotgan polyaklar soni yanada ortdi. Xususan, 1942-yilning o‘zida Buxoro viloyatiga 12 mingdan ortiq polyak fuqarosi kelib joylashgan bo‘lib, respublika miqyosida bu ko‘rsatkich qariyb 100 ming kishiga yetgan [13]. Sobiq ittifoq davriga oid hujjatlarda O‘zbekiston hududiga majburiy ravishda ko‘chirilgan polyaklarga nisbatan “evakuatsiya qilib kelingan aholi” yoki “polyak qochqinlari” kabi atamalar ishlatilgan. Biroq mazkur fuqarolar aslida xavf mavjud bo‘lgan hududdan o‘z xohishiga ko‘ra ko‘chirilmagan. Ular siyosiy jihatdan ayblanib, doimiy yashash joylarini tark etishga majbur qilingan, ya’ni deportatsiya qilingan. Urush davrida o‘z mamlakatida og‘ir sinovlarni boshdan kechirayotgan o‘zbek aholisi ham O‘zbekistonga majburiy ko‘chirilgan polyaklarga katta ko‘mak ko‘rsatdi. Mahalliy aholi ularni uy-joy bilan ta’minlashga harakat qildi, mavjud imkoniyatlarini ular bilan bo‘lishdi va og‘ir sharoitlarda qo‘llab-quvvatladi.

Polyak fuqarolarining O‘zbekistonga yetib kelishi jarayonida temiryo‘l vagonlarining 20–25 kunlab yo‘l bosishi ularning og‘ir ahvolini yanada murakkablashtirdi. Uzoq davom etgan safar va og‘ir sharoitlar natijasida ko‘plab insonlar hayotdan ko‘z yumdi. O‘zbekistonga ko‘chirilish jarayonining o‘zidayoq 300 dan ortiq polyak fuqarosi vafot etgani qayd etilgan [14]. 1941-yil oktabr oyida Rossiyaning Kirov viloyatidan 1700 nafar polyak dastlab Toshkentga, keyinchalik esa Samarqandga olib kelindi. Samarqandda ularni joylashtirish uchun yetarli imkoniyat bo‘lmagani sababli Qoraqalpog‘istonga yuborildi.

Ko‘chirilgan polyak fuqarolarini temiryo‘l vokzallari va shahar avtobus bekatlaridan tuman markazlari hamda kolxozlarga yetkazib berishda ham sezilarli qiyinchiliklar yuzaga keldi. Markaz tomonidan berilgan ko‘rsatmalarda polyak fuqarolarini asosan kolxoz va sovxozlarga joylashtirish nazarda tutilgan edi. Shu asosda Respublika Ichki Ishlar Xalq Komissariyati (NKVD), viloyat va tuman militsiya bo‘limlariga o‘z hududlaridagi polyak fuqarolarini ro‘yxatga olish, hisobini yuritish, ularni kolxoz va sovxozlarga mutanosib ravishda taqsimlash, ish va yashash joylari bilan ta’minlash hamda ularning holatini nazorat qilish vazifalari yuklatildi [15].

1942–1945-yillarga oid ma'lumotlarda polyak fuqarolarining O‘zbekistonning turli hududlarida joylashtirilgani ko‘rsatiladi. Jumladan, Namangan va Xorazm viloyatlarining 7 tumanida, Qashqadaryoning 9, Andijonning 10, Buxoro va Farg‘onaning 11, Toshkentning 13 hamda Samarqandning 20 tumanida ular istiqomat qilgan [16].

Ikkinchi jahon urushi yillarida front hududlarining Yevropa qismidan ozod etilgan aholini sharqiy hududlarga ko‘chirish jarayoni natijasida O‘zbekistondagi shaharlarda yashayotgan polyak fuqarolari soni sezilarli ravishda ortgan. 1945-yilga kelib Andijon viloyatida yashagan 2800 nafar polyakning 1600 nafari, Buxoro viloyatidagi 5431 kishining 3415 nafari, Namangan viloyatidagi 1922 kishining 1264 nafari, Samarqand viloyatidagi 12945 kishining 6000 nafari, Toshkentdagi 5510 kishining 3035 nafari, Qashqadaryodagi 799 kishining 110 nafari hamda Farg‘ona viloyatidagi 5379 kishining 3759 nafari shaharlarda istiqomat qilgan. 1944–1945-yillarda O‘zbekiston hududida jami 21592 nafar polyak fuqarosi shaharlarda yashagan [17].

Polyak fuqarolarining katta qismini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil qilgan. 1942-yilda "Anders" armiyasining Eronga chiqib ketishi arafasida G‘uzor tumanida istiqomat qilgan polyak aholisi tarkibining 38,8 foizini harbiy xizmatchilardan tashqari bolalar va o‘smirlar tashkil etgan [18]. Manbalarda qayd etilishicha, O‘zbekistonning 7 ta viloyatida 16 yoshgacha bo‘lgan polyak bolalarining umumiy soni 5389 nafarni tashkil qilgan.

O‘zbekiston hududida istiqomat qilgan polyak fuqarolarini tashkiliy ravishda vataniga qaytarish jarayoni 1946-yil aprel oyidan boshlangan. Dastlab bolalar uylarida tarbiyalanayotgan polyak bolalari o‘z yurtlariga jo‘natilgan. 1946-yil 1-may kuni Toshkentdan maxsus yumshoq o‘rindiqli vagonlardan tashkil topgan birinchi eshelon Andijon, Namangan va Qo‘qon bolalar uylari tarbiyalanuvchilari — 280 nafar bola hamda 27 nafar xizmatchini o‘z ichiga olgan holda yo‘lga chiqqan. 1946-yil 9-mayda Toshkentdan Buxoro, Samarqand, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida faoliyat yuritgan 11 ta bolalar uyining 667 nafar tarbiyalanuvchisi, 1 nafar xizmatchisi va ularning oila a'zolaridan iborat 332 kishi ikkinchi eshelon tarkibida Polshaga jo‘nab ketgan [19]. 1946-yil iyun oyiga kelib, O‘zbekistondagi polyak fuqarolarini o‘z vatanlariga qaytarish jarayoni yakunlangan bo‘lib, jami 27159 kishi Polshaga qaytarilgan [20].

Mahalliy aholi vakillarining ko‘chirilgan polyak fuqarolariga boshpana berishi, ularni imkon qadar o‘z xonadonlariga taklif qilishi, kattaroq va issiqroq uy-joylarini bo‘shatib berishi tasodifiy holat emas edi. Aksincha, bunday amaliyot ommaviy tus olgan bo‘lib, o‘zbek xalqining polyak fuqarolariga nisbatan samimiy va insonparvar munosabatini namoyon etgan. Polyak fuqarolari vatanlariga qaytishdan avval istiqomat qilgan joylarida xayrlashuv kechalarini tashkil etganlar. O‘z yurtiga yo‘l olayotgan polyaklar esa o‘zbek xalqiga ko‘rsatgan samimiy yordami va mehmondo‘stligi uchun minnatdorliklarini bildirganlar.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 30–40-yillarida aholining 60 dan ortiq milliy guruhiga nisbatan repressiya choralari ko‘rilgan bo‘lsa, ularning 15 tasi to‘la-to‘kis deportatsiya qilingan edi. O‘sha yillarda hammasi bo‘lib 3,5 million kishi deportatsiya qilindi. Ular orasida polyaklar ham bor edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wielhorski W.Los Polakow w niewoli sowieckiej(1939-1956)Londyn 1956.
2. Katinskaya drama. M. 1991. S.34.
3. Jurnal "Novaya i noveyshaya istoriya"№2.1993.S.60.
4. Polyan Pavel. Ne svoiy vole. Istoriya i geografiya prinuditelnykh migratsiy v SSSR. M. 2001. S.90-91.
5. Deportacje i przemieszczenia ludnosci polskiej w glqb ZSRR 1939-1945/ Warszawa.1989.S24;Wlelhorski W. Loc Polakow...S.12-17 Dokumenti i materiali T. VII.1973.S.264.
6. Zaron P.Ludnosc Polska w Zwiqzku Radzieckim...S 185.
7. O‘zbekiston MDA.F.314.R.1.YJ.122,V52.
8. O‘zbekiston Prezidenti devoni arxivi. F.74,R.18,YJ.272,V.138.
9. AAN.ZPP.Sygn.1731.K.36; Sygn.36.K.2.
10. Bugaj T.Dzieci polskie w ZSRR i ich repatriacja 1939-1952,Jelenia. Gora.1982.S.14.
11. Alimova.D.A.,Golavanova.A.A.Uzbekistan v 1917-1990 godi: protivoborstva idey i ideologiy.-Toshkent,2002.S.59.
12. Jurnal "Novaya i noveyshaya istoriya"№2.1993.S.63.
13. W.Los Polakow w niewoli sowieckiej(1939-1956)Londyn 1956.
14. Katinskaya drama. M. 1991. S.34.

15. Parasadanova V.A. Deportatsiya naselini iz Zapadnoy Ukraini i Zapadnoy Belorussii v 1939-1941 gg// “Novaya i novishaya istoriya”.№2.1989.S 36-41.
16. Zaron P.Ludnosc Polska w Zwiqzku Radzieckim...S 170.
17. AAN.ZPP.Sygn.158.K.41; Sygn.33.K.78; Sygn.1831.K.120; Sygn.36.K.2-3.

UO’K 94(575.1)"1941/1945"

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA EVAKUATSIYA QILINGAN AHOLINING JOYLASHUVI VA UY-JOY BILAN TA’MINLANISHI

N.O‘.Nurmatov, tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonga front hududlaridan evakuatsiya qilingan aholining ko‘chirilish va uy-joy bilan ta’minlanish jarayoni tarixiy dalillar asosida yoritiladi. Shuningdek, ko‘chirish jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar, ko‘chirilgan aholini uy-joy bilan ta’minlash qiyinchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Eng asosiysi, maqolada o‘zbek xalqining naqadar yuksak insonparvarlik, bag‘rikenglik fazilatlari hamda millatlararo totuvlikning ahamiyati arxiv hujjatlari va aniq faktlar asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *1941-yil 13-noyabr, rayon markazlari, qish fasli, uy-joy va ish, oziq-ovqat tanqisligi, baraklar, madrasa, T.Matviyenko, 135 500 kv.metr, mehmondo‘stlik.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических фактов освещается процесс переселения и обеспечения жильем населения, эвакуированного в Узбекистан из прифронтовых территорий в годы Второй мировой войны. Также показаны экономические проблемы, возникшие в процессе переселения, и трудности с обеспечением жильем эвакуированного населения. Самое главное, в статье на основе архивных документов и конкретных фактов раскрываются высокие качества гуманизма и толерантности узбекского народа, а также значение межнационального согласия.*

Ключевые слова: *13 ноября 1941 года, районные центры, зимний сезон, жилье и работа, нехватка продовольствия, бараки, медресе, Т. Матвиенко, 135 500 кв. метров, гостеприимство.*

Abstract. *This article highlights the process of relocation and housing provision for the population evacuated to Uzbekistan from the frontline areas during the Second World War, based on historical evidence. Furthermore, it illustrates the economic problems that arose during the relocation process and the difficulties in providing housing for the evacuated population. Most importantly, the article reveals the high qualities of humanism and tolerance of the Uzbek people, as well as the significance of interethnic harmony, based on archival documents and concrete facts.*

Keywords: *November 13, 1941, district centers, winter season, housing and work, food shortage, barracks, madrasah, T. Matviyenko, 135 500 sq. meters, hospitality.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin egallaydi. Urush yillarida O‘zbekiston ko‘plab xalqlar uchun najot maskani bo‘lib xizmat qildi, ko‘plab oilalarni o‘z bag‘riga oldi. Ko‘chirib keltirilganlarning joylashuvi va uy-joy bilan ta’minlanishi uchun bor imkoniyatini safarbar qildi. Shuningdek, respublika iqtisodiyoti to‘liq urush ehtiyojlariga yo‘naltirildi.

Asosiy qism. O‘zbekiston XKS va O‘zbekiston KP(b) MQ 1941-yil 22-oktabrdagi qarori bilan evakuatsiya qilingan aholidan 55 ming kishini respublikaga joylashtirish, korxona va idoralarda ish bilan ta’minlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi [2;32-varaq]. O‘zbekiston XKS 1941-yil 13-noyabrda 1687-sonli Qarorini qabul qiladi. Unga ko‘ra Respublika viloyatlari va shaharlariga evakuatsiya qilingan 250 ming aholini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha reja belgilanadi [2;270-varaq].

1941-yil 24-noyabrdan 1-dekabrgacha bo‘lgan holatga ko‘ra, respublikaga ko‘chirib kelinganlar quyidagicha joylashtirilgan: Toshkent shahri – 45 167, Toshkent viloyati – 43 209, Samarqand viloyati – 54 741, Andijon viloyati – 101 226, Farg‘ona viloyati – 76 931, Namangan viloyati – 78 170, Buxoro viloyati – 114 414, Xorazm viloyati – 2 330, Surxondaryo viloyati –

12 569, Qoraqalpog‘iston – 51 662 [3;19-varaq]. 1942-yil bahorga kelib O‘zbekistonga 716 000 kishi joylashtiriladi [13;296-bet].

1941-yil avgust oyidan boshlab Xorazm viloyatiga front hududlaridan aholi evakuatsiya qilina boshlanadi. Viloyatning shahar va tumanlariga 1942-yil yanvar holatiga ko‘ra 4618 kishi joylashtiriladi. Shundan, Urganch shahriga – 682, Xiva shahriga – 267, Gurlan tumaniga – 1300, Qo‘shko‘pir tumaniga – 0, Mang‘it tumaniga – 1121, Urganch tumani – 51, Xiva tumani – 146, Hazorasp tumani – 506, Xonqa tumani – 80, Shovot tumani – 252, Yangariq tumani – 213 kishi joylashtiriladi [4;21-varaq]. Viloyatga joylashtirilgan 4618 nafar aholining 2836 nafari mehnatga layoqatli bo‘lib, shundan 1638 nafari – ayollar, 1198 nafari erkaklar, jumladan, 15 yoshdan oshgan o‘smirlar bo‘lgan. 1977 kishi kolxozlarda, 859 kishi sanoat korxonalarida ish bilan ta’minlandi. Shunday qilib evakuatsiya qilinganlarning aksariyati kolxozlarga joylashtirildi [4;21-varaq].

Surxondaryoga evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish va joylashtirish bo‘yicha barcha ishlar Viloyat ijroiya qo‘mitalari tomonidan amalga oshirildi. Qo‘mondonlik — siyosiy xodimlar tarkibi oilalari va frontdan evakuatsiya qilingan mutaxassislar rayon markazlarida, qolganlari esa paxtachilik kolxozlariga joylashtirilgan, ular kolxoz a’zosi sifatida ishlaganlar [4;187-varaq].

Andijon viloyatiga evakuatsiya qilinganlar 1941-yil 28-oktabr holatiga ko‘ra quyidagicha joylashtirildi: Andijon – 4000, Oltinko‘l – 4000, Aim – 2000, Baliqchi – 3484, Voroshilov – 8537, Jalolquduq – 5026, Izboskan – 7773, Leninsk – 8405, Marhamat – 2500, Paxtaobod – 2522, Stalin – 10000, Xo‘jaobod – 3500, Andijon shahri – 1100, Leninsk shahri – 1000, jami – 73847 kishi [6;313-varaq].

Natija va muhokamalar. Xorazmga evakuatsiya qilinganlar qish faslida kolxozlarga joylashtirilganligi va ko‘pchiligi shahar aholisi bo‘lganligi sababli, ularning aksariyati ishlamaydi. Bu esa evakuatsiya qilinganlardan qishloq xo‘jaligida foydalanishda vaqtinchalik qiyinchiliklar tug‘diradi [4;22-varaq]. Shu sababli 1942-yil yanvar oyida Xorazmda 800 ga yaqin kishi ishsiz bo‘lib, asosan, ular uy bekalari, o‘smirlar va ma’lum malakaga ega bo‘lmaganlarni tashkil qilgan. 1942-yil 1-yanvargacha Xorazm viloyatida evakuatsiya bo‘limi xodimlari bir kishidan iborat bo‘lib, u asosan evakuatsiya qilingan aholi bo‘yicha statistik materiallarni ishlab chiqish bilan shug‘ullangan va ma’lumot tayyorlash ishlarini olib borgan [4;23-varaq].

Ko‘chirib kelganlarni qabul qilish, uy-joy va ish bilan ta’minlash g‘oyatda murakkab jarayon bo‘lgan. Bu mahalliy hukumat rahbarlaridan kuchli tashkilotchilik mahoratini talab qilar edi. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ko‘chirib kelinganlarni asosan katta va kichik shaharlarga joylashtirishga harakat qilingan. Masalan, Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumanidagi “Qizil kuch” kolxoziga ko‘chirib kelinganlar 90 nafar bo‘lib, yetarli sharoit yaratilmagani va oziq-ovqat tanqisligi tufayli 1942-yil oxiriga kelib bu yerda 7 kishi qolgan [11;58-bet]. Shuni hisobga oladigan bo‘lsak, ayrim hududlar ko‘chirib keltirilganlar uchun yordam ko‘rsatishga qodir bo‘lmagan.

1941-yil 17-noyabr holatiga ko‘ra Toshkent viloyati Orjonikidze tumani (hozirgi Qibray tumani)ga 430 nafar aholi evakuatsiya qilingan va 250 nafar Polsha fuqarolari kelgan. Tumanda bo‘sh xonadonlar qolmagan, klublar bo‘lgan. Kolxozchilarning zich joylashuvi tufayli tuman yana 300 nafargacha odam qabul qilishi mumkin bo‘lgan [6;337-varaq]. Viloyat ijroiya qo‘mitalari tomonidan viloyatga evakuatsiya qilingan aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar yuborilgan ma’lumotlardan quyidagi sabablarga ko‘ra keskin farq qiladi: Viloyat ijroiya qo‘mitalari evakuatsiya punktlarining ro‘yxatga olish ma’lumotlaridan ortda qolgan hududlardan kelgan evakuatsiya qilinganlar ro‘yxati asosida ma’lumotlarni taqdim etgan, bu esa kelganlar soni va ro‘yxatga olingan evakuatsiya qilingan aholi o‘rtasida tafovut hosil qiladi. Bundan tashqari, evakuatsiya qilingan aholining bir qismi rejalashtirilgan yo‘nalishga borishdan bosh tortgan [5;164-varaq].

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashi 1941-yil 11-noyabrdagi “Ko‘chirilgan aholini uy-joy bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 1665-son qarorini qabul qiladi va unga 1941-yil 8-dekabrda 1884-sonli qaror qo‘shimcha tarzda kiritiladi. Bu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida Buxoro viloyati 1942-yil 14-yanvarda 41-sonli bayonnomani qabul qiladi. Unga ko‘ra: a) Buxoro shahar ijroiya qo‘mitasiga evakuatsiya qilingan aholini uy-joy bilan ta’minlash, Buxoro shahrida 4 ta barak qurish va 1942-yil 7-yanvardagi 47-son telegrammaga asosan O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari

Soveti ruxsat bergan uchta madrasani uy-joy qurishga moslashtirish vazifasi yuklatiladi; b) Ko‘chirilgan aholini uy-joy bilan ta’minlash uchun Buxoro viloyatining “Kitob-2”, “Shahrisabz-2”, “Chiroqchi-1” va “Yakkabog‘-1” tumanlarida 6 ta yerdan qazilma binosi (zemlyanka) qurilishi belgilanadi [9;30-varaq].

Buxoro viloyatida evakuatsiya qilingan aholi uchun uy-joy va baraklar qurish ishlarida ba’zi kamchiliklar ham kuzatilgan. Jumladan, Buxoro 9-qurilish boshqarmasi boshlig‘i Matviyenko o‘rmon materiallari (20 kub metr), qamish, g‘isht bilan real yordam ko‘rsatilishiga shahar xo‘jaliklari va artellaridan transportlar ajratilishiga qaramay, qurilish idorasiga materiallar shahar Kengashi tomonidan taqdim etilishi kerakligini bahona qilib, Buxoro tumanlari yaqin atrofidagi hududlardan, kolxozlardan, uy xo‘jaliklaridan o‘rmon materiallarini xarid qilishni tashkil etishda yetarlicha tashabbuskorlik ko‘rsatmagan va shuning uchun barak qurilishini yakunlash bo‘yicha hukumat topshirig‘ida ko‘rsatilgan barcha muddatlar o‘tkazib yuborilgan [8;29-varaq]. Shundan keyin 1942-yilning 10-apreligacha 4 ta barakni ishga tushirish majburiyati yuklangan.

1942-yili O‘zbekistonning yirik shaharlari va viloyat markazlarida 10 000 kishiga mo‘ljallangan 300-350 ta uy tezkorlik bilan quriladi. Bundan tashqari uy-joylarni ta’mirlash uchun ham katta mablag‘ yo‘naltiriladi. Natijada, urushning ilk davrida ko‘chirib kelinganlarni joylashtirish uchun 135 500 kv. metr yashash maydoni ajratiladi [7;4-15-varaqlar].

1940-yil 24-oktabrda Andijon shahriga frontoldi hududidan Ichki Ishlar Xalq Komissariati rahbar qo‘mondonlik xodimlarining 100 nafar oilasini joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan va ularga muassasa, korxonalarning idoralari egallab turgan turarjoy binolari ajratilgan [10;100-varaq]. 653 ming aholisi bo‘lgan birgina Andijon viloyatiga 100 mingdan ortiq kishi, jumladan, 10 ming bola joylashtirilgan. Bu raqam Andijonda 5 kishilik har bir oila bittadan odamni qabul qilganini anglatadi [12;101-bet].

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, respublika hukumati evakuatsiya qilingan aholini hududlarga joylashtirish va uy-joy bilan ta’minlashni ustuvor vazifa qilib qo‘ygan. Ko‘chirib keltirilganlarni, asosan, iqtisodiy imkoniyati yaxshi bo‘lgan shahar va kolxozlarga joylashtirishga harakat qilgan. Lekin ba’zi hududlarda ko‘chirilgan aholini joylashtirishda kamchiliklar ham kuzatilgan. Respublikaning imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ko‘pchilik o‘zbek xonadonlari ko‘chirib keltirilganlarni o‘z bag‘riga oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston - najot yurti. - Toshkent: «ILM-ZIYO-ZAKOVAT», 2025, - 448 b.
2. O‘zMA. R-314-fond, 1-ro‘yxat, 37-yig‘majild.
3. O‘zMA. R-314-fond, 1-ro‘yxat, 38-yig‘majild
4. O‘zMA. R-314-fond, 1-ro‘yxat, 57-yig‘majild.
5. O‘zMA. R-314-fond, 1-ro‘yxat, 60-yig‘majild.
6. O‘zMA. R-314-fond, 1-ro‘yxat, 61-yig‘majild.
7. O‘zMA. R-314-fond, 1-ro‘yxat, 107-yig‘majild.
8. Buxoro viloyati davlat arxivi. 37-fond, 1-ro‘yxat, 938-yig‘majild.
9. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 1-ro‘yxat, 123-yig‘majild.
10. Andijon viloyati davlat arxivi. 608-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild.
11. Mustafoyeva N. Ikkinchi jahon urushi va o‘zbek insonsevarligi // O‘zbekiston tarixi. – 2020. – № 2. B. 58
12. Д.М. Ли. Укрепление сплоченности народа Узбекистана в период войны с германским фашизмом (1941 – 1945 гг.): Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1997.
13. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941 – 1945). Том 1. Ташкент, 1981, С. 296.

UO’K 908

O‘ZBEKISTON SSR HUKUMATI RAISI ABDUJABBOR ABDURAHMONOVNING FAOLIYATI

A.O‘.Panjiyev, o‘qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSR hukumati rahbari Abdujabbor Abdurahmonov faoliyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston hukumati, front, hukumat rahbari, fashizm, partiya, sanoat, evakuatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается деятельность Абдуджаббора Абдурахманова, главы правительства Узбекской ССР во время Второй мировой войны.*

Ключевые слова: *Вторая мировая война, правительство Узбекистана, фронт, глава правительства, фашизм, партия, промышленность, эвакуация.*

Abstract. *This article covers the activities of Abdujabbor Abdurakhmanov, the head of the government of the Uzbek SSR during World War II.*

Keywords: *World War II, Uzbek government, front, head of government, fascism, party, industry, evacuation.*

XX asrning 40-yillarida amalga oshirilgan katta qatag‘onlik siyosatidan keyin O‘zbekiston SSRning davlat boshqaruvi tizimi ham yangicha ko‘rinishda shakllantirildi. Aynan shu davrda o‘zbek siyosiy elitasining yangi avlodi yetishib chiqa boshladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston SSRning davlat boshqaruvi tarixi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston SSRning boshqaruv tizimi, respublikadagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayot hamda davlat va hukumat rahbarlarining faoliyatiga oid tadqiqotlar ko‘paydi [1].

Sovet davlatining yuqori bo‘g‘inlarida hokimiyat partiya qo‘lida to‘plangan bo‘lsa-da, ijro etuvchi davlat vakolatlari tufayli Xalq Komissarlari Soveti haqida gapirib o‘tish zarur. O‘zbekiston SSRning oliy qonun chiqaruvchi organi – Oliy Sovet tomonidan saylangan va unga mas’ul bo‘lgan Xalq Komissarlari Soveti O‘zbekiston SSR hukumati edi. Hukumat komissarlarining tez-tez o‘zgarib turishi tufayli a’zolik sezilarli darajada o‘zgarib turardi. Rais va sakkiz nafargacha o‘rinbosarlari atrofida joylashgan kengash tarkibiga barcha respublika miqyosidagi komissarliklar va Davlat reja qo‘mitasi kirardi [2].

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi sifatida Abdujabbor Abdurahmonov boshchilik qildi. Abdujabbor Abdurahmonov 31 yoshida 1938-yil 23-iyulda O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi etib tayinlandi. U 1937–1938-yillardagi ommaviy terror so‘nggida lavozimga kirishgan, o‘sha davrda o‘zidan oldingi uch kishi: Fayzulla Xo‘jaev, Abdulla Karimov va Sulton Segizboyev qatag‘on qilingan. Bu davr SSSR NKVDning 1937-yil iyuldagi 00447-sonli buyrug‘i bilan tuzilgan maxsus uchlikka qo‘shilish va Stalin qatag‘onlarida faol ishtirok etish bilan belgilandi.

Abdujabbor Abdurahmonov (1907-yil, Toshkent — 1975-yil 3-oktabr) – davlat arbobi. Abdujabbor hunarmand o‘zbek oilasida tavallud topgan. 1924–1925-yillarda Moskva viloyatidagi yigiruv fabrikasida ishchi, so‘ngra shogird bo‘lib ishlagan, O‘zbekistonning rivojlanayotgan to‘qimachilik sanoati uchun kadrlar tayyorlanardi. 1928-yilda respublikaning to‘qimachilik sanoatining birinchisi bo‘lgan Farg‘ona to‘qimachilik kombinati qurilishida qatnashgan. 1929-yildan xo‘jalik va partiya tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan: Marg‘ilon shahar komiteti kotibi, Farg‘ona shahar komiteti kotibi, Yangiyo‘l raykom kotibi, Qo‘qon shahar komiteti kotibi, O‘zbekiston KP Buxoro viloyat komiteti kotibi. Marg‘ilon, Farg‘ona, Yangiyo‘l va Qo‘qon shaharlari, Buxoro viloyatida rahbarlik lavozimlarida ishlagan (1929–1937). O‘zbekiston XKS raisi (1938–1950). 1946-yil 15-martdan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisi. 1948-yil 3-fevralda SSSR Kommunistik partiyasi MK Siyosiy byurosining qarori bilan 1947-yilda paxta tayyorlashda muvaffaqiyatsizlikka uchragani uchun unga “qattiq tanbeh” berildi. 1950-yilning aprelida esa O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining plenumi bo‘lib, Markaziy Komitet byurosidagi ahvol muhokama qilindi. Uch kun mobaynida byuro a’zolari bir-birini qattiq tanqid qilishdi. Hammadan ko‘p tanqidga uchragan Usmon Yusupov bo‘ldi. Plenum U. Yusupovni Markaziy Komitetning birinchi kotibi, A. Abdurahmonovni esa Ministrlar Soveti Raisi lavozimlaridan ozod qildi. 1954–1957-yillarda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisining o‘rinbosari va O‘zbekiston SSR Davlat reja komissiyasining raisi. Vyetnamdagi elchixonada iqtisodiy masalalar yuzasidan maslahatchi (1960–1964), O‘zbekiston SSR Mahalliy sanoat ministri (1965–1971), O‘zbekiston hukumatining SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi doimiy vakili (1971–1975) lavozimlarida ishlagan.

N.Norling o‘zining tadqiqotlarida har bir davlat va siyosat arbobining siyosiy portretiga batafsil to‘xtalishga harakat qilgan. Abdujabbor Abdurahmonov haqida shunday deydi: “Abdurahmonov ko‘plab sovet rahbarlari singari quyi bo‘g‘indan chiqqan bo‘lib, Marg‘ilon, Farg‘ona, Qo‘qon,

Yangiyo‘l rayon partiya tashkilotlari, Buxoro obkomi lavozimlarida ishlagan. Respublikaning 3 ta iqtisodiy-tarixiy markazlarida ishlab tajriba to‘plagan Abdurahmonov, Stalinning “tozalash” siyosatidan omon qolgan kamsonli rahbarlar elitasidan edi” [3].

O‘sha yillardagi O‘zbekiston partiyasi rahbari “farg‘onalik” Usmon Yusupovdan farqli o‘laroq, A. Abdurahmonov “Toshkent” urug‘idan chiqqan hisoblanadi. Bu davrda partiya qatag‘onidan omon chiqqan O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi Yuldosh Oxunboboyev o‘z atrofiga “farg‘onalik” kadrlarni to‘pladi. Bundan farqli o‘laroq, U. Yusupovning hokimiyati ikki hududni birlashtirib harakat qilishi bilan muvozanatni saqlab qoldi. Bunga bir qancha omillar sabab bo‘ldi. Birinchidan, U. Yusupov Farg‘onada tug‘ilib, Toshkentda ish faoliyatini olib borganligi bilan izohlansa, ikkinchidan, yangi yetishib chiqayotgan kadrlar komsomol tashkilotlarida, partiya organlarida o‘zlarining yetakchilik qobiliyatini namoyish etayotgan edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSR XKS rahbari A. Abdurahmonov boshchiligidagi hukumatda P.Kabanov, Y. Aliyev, F. Qo‘qonboyev, R.Gluxov, S.Rodichev, K.Yefimov, H.Abdullayev singari komissar o‘rinbosarlari, Davlat reja qo‘mitasida Zayko faoliyat yuritgan [4].

O‘zbekiston SSR XKS raisi A. Abdurahmonov faoliyatining dastlabki yillari sug‘orish tizimidagi islohotlar bilan boshlandi. Aholi eng ko‘p istiqomat qiladigan Farg‘ona vodiysida kanallar qurish avj oldirildi. Usmon Yusupovning tashabbusi va A. Abdurahmonovning harakati bilan 1939-yil avgust–sentabr oylarida 1,5 oy mobaynida umumxalq hashari yo‘li bilan 270 km uzunlikdagi Katta Farg‘ona kanali bunyod etildi.

O‘zbekiston SSR XKS raisi A.Abdurahmonov 1939-yilda “Qishloq xo‘jaligidagi yuksak yutuqlari va ayniqsa paxtachilik rejasini ortig‘i bilan bajargani uchun” Mehnat Qizil Bayroq ordeniga sazovor bo‘ldi [5].

Respublika hukumatining aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan siyosatida xalqning oziq-ovqat va sanoat xomashyosiga bo‘lgan talabini qondirishda ishchi va dehqonlarning shaxsiy tomorqalari muhim o‘rin tutishi ta’kidlandi. 1939–1941-yillarda hukumat qarorlarida tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish ko‘zda tutildi.

Yana bir ahamiyatga molik jihat shuki, O‘zbekistonga ko‘chirilgan koreyslarni joylashtirishda ham A. Abdurahmonov katta xizmat qildi. 1940-yilga kelib ko‘chirilgan koreyslarning iqtisodiy ta’minoti uchun har yili 5050 ming rubl dotatsiya, budjetdan 865 ming rubl va qishloq xo‘jaligi krediti orqali 4,185 ming rubl ajratilishi belgilangan. SSSR Davlat reja qo‘mitasi tomonidan 2785 metr kub dumaloq yog‘och va 6000 metr kesilgan yog‘och yetkazib berilishi ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi jahon urushi arafasi va urush yillarida xalq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan ko‘mir hamda neft sohasida katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu sohalarning rivojlanishida Usmon Yusupov va Abdujabbor Abdurahmonov boshchiligidagi O‘zbekiston hukumati katta tadbirlarni amalga oshirdi. Urushdan oldin O‘zbekistonga boshqa o‘lkalardan keltirilgan ko‘mir bu davrga kelib dastlab Ohangaron hududidan qazib olina boshlandi. 1940-yilda bo‘lgan O‘zbekiston Kommunistik partiyasining yig‘ilishida Usmon Yusupov so‘zlagan nutqida mahalliy ko‘mir ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yamiz deb ta’kidladi. Keyingi yillarda Surxondaryo viloyatidagi Boysun va Sharg‘un ko‘mir konlari topilishi O‘zbekistonning mustaqil ko‘mir sanoatining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston siyosiy elitasida ikkita yirik, bir-biriga qarama-qarshi kuch mavjud edi. U.Yusupov va A. Abdurahmonov boshchiligidagi mahalliy siyosiy elitaga Kremldan yuborilgan N.Lomakin va A.Kobulov boshchiligidagi yevropalik qism qarshi turdi. Bularning orasida A. Kobulov o‘zining mustamlakchilik siyosati va keskin qarashlari bilan ajralib turardi.

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi A. Abdurahmonov boshchiligidagi hukumat 1943-yilgi Yangi yil bayramini o‘tkazish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, Qoraqalpog‘iston ASSR Xalq Komissarlari Soveti, viloyat ijroiya qo‘mitalari, Maorif xalq komissarligi va Boshlang‘ich va o‘rta maktablar ittifoqi bilan birgalikda 31-dekabrgacha bo‘lgan muddatda tashkil etish topshirildi [6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Abdujabbor Abdurahmonov o‘zining siyosiy faoliyatini yosh davrdan boshladi. Hukumatga kelishidan oldin partiya tashkilotlarida o‘zining kerakli kadr ekanligini rahbarlar ko‘z oldida isbotlab keldi. Uning Ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirgan ishlari juda mazmunli bo‘ldi. Partiyaga sodiq shaxs sifatida davlat va xalq manfaati yo‘lida xizmat qildi. Katta sug‘orish inshootlari qurilishida, yirik korxonalarning ishga tushirilishida xizmat qildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatni urush sharoitiga moslashda jonbozlik ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қ.Ражабов. Нуритдин Муҳитдинов. – Тошкент: ilm-ziyo-zakovat, 2019; Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945–1983 й.). Тошкент: Фан, 2020; Рашидов Ш. Ўзбекистон ССР бошқарув тарихи (XX аср 50-йиллари). Тошкент: Фан, 2023 ва б.

2. Claus Bech Hansen. The Ambivalent Empire: Soviet Rule in the Uzbek Soviet Socialist Republic, 1945–1964 Florensiya. 2013. –P.130.

3. Nicklas Norling. Party Problems and Factionalism in Soviet Uzbekistan: Evidence from the Communist Party Archives. Central Asia-Caucasus Institute and Silk Road Studies Program, 2017.–P.49.

4. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-837-fond, 32-ro‘yxat, 3545-ish, 50-varaq.

5. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилд. Биринчи жилд (1900–1939 й.). –Б.693.

6. Qashqadaryo VDA, 133-fond, 1-ro‘yxat, 207-ish, 11-varaq.

UO’K 908

QASHQADARYO VOHASIDA 1920–1930-YILLARDA ISTIQLOLCHILARNING SOVET REJIMIGA QARSHI QUROLLI HARAKATI

A.A.Pardayev, prof., Turon universiteti, Qarshi
N.A.Raimova, magistrant, Turon universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning birinchi choragida Sharqiy Buxoro (xususan, zamonaviy Qashqadaryo) hududida sovet rejimining zulmi va adolatsizligiga qarshi ko‘tarilgan milliy ozodlik hamda istiqlol harakati atroflicha tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Sharqiy Buxoro, istiqlolchilik harakati, qurolli qarshilik, Mulla Ibrohimbek Laqay, Anvar Posho, Buxoro amirligi, Said Olimxon, jadidlar, qadimchilar, sovet rejimi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR).*

Аннотация. *В данной статье всесторонне анализируется национально-освободительное движение за независимость, возникшее против гнета и несправедливости советского режима в Восточной Бухаре (в частности, в современной Кашкадарье) в первой четверти XX века.*

Ключевые слова: *Восточная Бухара, движение за независимость, вооруженное сопротивление, Ибрагим-бек Лакай, Энвер-паша, Бухарский эмират, Саид Алим-хан, Джадиды, Кадимисты, советский режим, Бухарская Народная Советская Республика (БНСР).*

Abstract. *This article comprehensively analyzes the national liberation and independence movement that arose against the oppression and injustice of the Soviet regime in Eastern Bukhara (specifically, modern Kashkadarya) during the first quarter of the 20th century.*

Keywords: *Eastern Bukhara, independence movement, armed resistance, Ibrahim Beg Lakai, Enver Pasha, Emirate of Bukhara, Said Alim Khan, Jadids, Qadims, Soviet regime, Bukhara People’s Soviet Republic (BPSR).*

Qashqadaryo viloyati 1924-yil 1-noyabrda rasman tashkil etilgan bo‘lsa-da, ushbu voha XX asrning 20 va 30-yillarida sovet rejimiga qarshi milliy istiqlolchilik harakatining eng yirik va shiddatli qarshilik markazlaridan biriga aylangan edi. Buxoro amirligi tugatilib, o‘rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) o‘rnatilishi hamda keyinchalik amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayonlari mahalliy aholining keskin qarshiligiga sabab bo‘ldi. Sovet hokimiyatining majburiy jamoalashtirish, din va milliy qadriyatlarga tajovuz hamda iqtisodiy tazyiq siyosati xalqning qurolli harakatga o‘tishini tezlashtirdi. Ushbu strategik hududda bir qator yirik qo‘rboshilar va ularning harbiy dastalari faoliyat olib bordi. Qarshilik ko‘rsatish harakatiga, albatta, "Islom lashkarboshi"

unvoniga ega bo‘lgan Mulla Ibrohimbek Laqay umumiy rahbarlik qildi. Shuningdek, sobiq Usmonli harbiy arbobi Anvar Poshoning Turkistonga kelishi va uning izchil tashkiliy harakatlari tufayli ko‘plab tarqoq qo‘rboshilik dastalari yagona harbiylashtirilgan markaz ostiga birlashtirildi. Anvar Posho Sharqiy Buxoro va Qashqadaryo hududidagi istiqlolchi kuchlarni yagona g‘oya va qo‘mondonlik atrofida jipslashtirishga erishdi.

Ibrohimbek va Anvar Poshodan tashqari, Qashqadaryo vohasi hamda unga tutash tog‘li hududlarda istiqlolchilik bayrog‘ini baland ko‘targan bir qator taniqli qo‘rboshilar faoliyat yuritdi. Ular sirasiga: Mulla Abdulqahhor (G‘ijduvon va Qarshi atrofida harakat qilgan yirik yetakchi), Ostonali qo‘rboshi (Qashqadaryo va Surxondaryo chegaralaridagi harbiy amaliyotlar rahbari), Anvarbek (O‘tanbek), Tog‘aybek, Eshon Sulton, Sultonbek hamda Ismoil qo‘rboshi kabi xalq ichidan chiqqan harbiy sarkardalarni kiritish mumkin. Ushbu qo‘rboshilar Qashqadaryoning geografik joylashuvi — tog‘li va adir hududlarining qulayligidan unumli foydalanib, sovet Qizil Armiyasining doimiy va muntazam qismlariga qarshi uzoq yillar davomida kichik guruhlar va partizanlik taktikasi asosida samarali zarbalar berib keldilar.

1920-yilning kuzida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va Qizil armiya harbiy harakatlari natijasida hududda sovet rejimiga qarshi qurolli qarshilik harakati avj oldi [1]. Buxoroda mustaqillik va an’anaviy davlatchilikni qayta tiklash yo‘lida kurashgan kuchlar, asosan, amirlik tarafdorlari hamda sovet tuzumiga qarshi mahalliy qatlamlardan iborat edi. Ushbu harakatning Sharqiy Buxoro hamda unga tutash hududlardagi eng yirik va markaziy siymosi "Islom lashkarboshi" unvoniga ega bo‘lgan Mulla Ibrohimbek Laqay bo‘ldi.

Mulla Muhammad Ibrohimbek (1889–1932) Dushanbe yaqinidagi Ko‘ktosh qishlog‘ida amir amaldori Chaqaboy toqsoba xonadonida tavallud topgan. U Buxoro amiri tomonidan mir devonbegi, to‘pchiboshi va lashkarboshi kabi yuqori unvonlarga ko‘tarilgan. 1920-yil sentyabrida amirlik tuzumi ag‘darilgach, u Sharqiy Buxorodagi qurolli dastalarga rahbarlik qilib, sovet tuzumiga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. 1921-yil sentyabrida o‘tkazilgan Buxoro qo‘rboshilarining qurultoyida Ibrohimbekka "Islom lashkarboshi" unvoni berildi hamda u mintaqadagi asosiy harbiy-siyosiy rahbar sifatida tan olindi [2].

1921-yilning oxirida Buxoro amiri Said Olimxon qarshilik harakatlarini yagona markazga biriktirish va harbiy harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida Buxoroga sobiq Usmonli harbiy vaziri Ismoil Anvar Poshoni yubordi. Anvar Posho Turkistondagi barcha qurolli dastalarni yagona qo‘mondonlik ostiga birlashtirishga intildi. Biroq Sharqiy Buxoroda amirga sadoqatli mahalliy kuchlarni boshqarayotgan Ibrohimbek Anvar Poshoning kelishiga dastlab g‘oyat ehtiyotkorlik va shubha bilan qaradi. Ibrohimbek uni mahalliy sharoit va amirlik tuzumiga yot bo‘lgan tashqi kuch sifatida baholab, hatto ma’lum muddat hibsda ham tutdi. Anvar Posho keyinchalik muayyan muvaffaqiyatlarga erishib, harbiy kuchlarni muvofiqlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa-da, Ibrohimbek bilan o‘rtasidagi taktik va siyosiy kelishmovchiliklar sababli to‘liq harbiy birlikni ta’minlay olmadi [4]. Anvar Posho 1922-yil avgustida halok bo‘lgach, qarshilik harakati yana tarqoq va mahalliy qo‘rboshilar rahbarligidagi dastalarga bo‘linib ketdi.

Sharqiy Buxoro va Qashqadaryo hududida Ibrohimbekdan tashqari Mulla Abdulqahhor, Ostonali qo‘rboshi, Mulla Odina va Husaynbek kabi nufuzli qo‘rboshilar ham o‘z yo‘nalishlarida sovet qo‘shinlariga qarshi keskin janglar olib bordilar. Ibrohimbek o‘z dastasida qat’iy harbiy intizom o‘rnatgani bilan ajralib turardi. U tinch aholini talagan yoki unga tazyiq o‘tkazgan askarlarni shafqatsiz jazolagan. Uning o‘z qo‘rboshilari Abdurahmonboy va Abdulazizga yozgan maktublarida ta’kidlanishicha, qishloqlarga askarlarni maxsus ruxsatnomasiz qurolli holda yuborish qat’iyan man etilgan. Ibrohimbek nazorati ostidagi hududlarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi idoralari tugatilib, an’anaviy boshqaruv tartiblari o‘rnatildi [3]. 1925–1926-yillardagi shiddatli janglar va Qizil armiyaning harbiy ustunligi sababli Ibrohimbek 1926-yil 21-iyunda o‘z dastalari bilan Afg‘oniston hududiga o‘tishga majbur bo‘ldi. Afg‘oniston shimolidagi Xonobod, Aliobod va Toluqon hududlarida o‘n minglab o‘zbek, tojik va turkman muhojirlari joylashib, bu maskanlar yirik qarshilik bazalariga aylandi. 1928–1930-yillarda Afg‘onistonda yuz bergan ichki siyosiy inqiroz va toj-taxt kurashlari jarayonida Ibrohimbek dastalari shimoliy viloyatlarda mustaqil harbiy omil sifatida harakat qildi. Biroq hokimiyatga kelgan Nodirshoh hukumati Ibrohimbek kuchlarini mamlakat yaxlitligiga

tahdid deb bilib, unga qarshi afg‘on qo‘shinlari va pushtun qabilalari safarbarligini e’lon qildi. Shu bilan birga, 1930-yil iyun oyida sovet Qizil armiyasining Yakov Melkumov qo‘mondonligidagi maxsus otryadi Afg‘oniston hududiga kirib, istiqlolchilarning asosiy bazalariga zarba berdi. 1931-yil mart oyining oxirida u 1500 ga yaqin jangchisi bilan SSSR chegarasini kesib o‘tdi. Qashqadaryo, Surxondaryo va Tojikiston hududlarida uning saflari qisqa fursatda 2500 kishidan oshib ketdi. Sovet rahbariyati bu harakatni bostirish uchun O‘rta Osiyo harbiy okrugining bir nechta diviziyalarini safarbar qildi.

1931-yilning may-iyun oylaridagi tengsiz janglarda Ibrohimbek dastalari ketma-ket mag‘lubiyatga uchradi. 1931-yil 23-iyunda Kofirnihon daryosidan o‘tish chog‘ida Ibrohimbek OGPU maxsus otryadi tomonidan asirga olindi. U Toshkentga olib kelinib, favqulodda sud hukmi bilan 1931-yil 31-avgustda qatl etildi.

Uzoq yillar davomida sovet tarixshunosligida biryoqlama va mafkuraviylashtirilgan holda yoritib kelingan Ibrohimbek Laqay va uning safdoshlari faoliyatiga mustaqillik yillarida adolatli ilmiy baho berildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2021-yil 25-avgustdagi qarori bilan Mulla Ibrohimbek Chaqaboy o‘g‘li va uning safdoshlari to‘liq reabilitatsiya qilinib [5], ularning nomi milliy ozodlik va istiqlol uchun kurashgan shaxslar sifatida oqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1920–1930-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hamda butun Turkiston hududida kechgan murakkab harbiy-siyosiy jarayonlar O‘rta Osiyo xalqlarining milliy davlatchilik va ozodlik yo‘lidagi ziddiyatli, ammo g‘oyat g‘oyaviy kurashini aks ettiradi. Ushbu davrdagi umumiy vaziyat bir tomondan bosqinchi Qizil armiyaning tazyiqi va sovet rejimining zo‘ravonlik bilan o‘rnatilishi, ikkinchi tomondan esa ichki jamiyatning g‘oyaviy va siyosiy jihatdan bo‘linib ketganligi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. To‘rayev, H. O‘zbekiston tarixi (Buxoro tarixi) [Matn] X jild. O‘zbekiston tarixi va manbalari. / H. To‘rayev, B. Mirzaqulov. — Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2023. 632 b. 334-335 betlar

2. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M. Juvayev, R. Nurullin, S. Kamolov va boshq.; Tahrir hay’ati: A. Azizxo‘jayev (rais) va boshq. /. — T.: «Sharq», 2000. — 688 b. 253-254 betlar

3. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., «FAN» NASHRIYOTI, 1991. 14-15 betlar

4. Hatunoğlu, N. Hainlik ve kahramanlık gölgesinde yakın dönem Türkistan tarihinde bir fenomen: Molla İbrahim Beg (Lakai). Dokuz Eylül Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi - 2022. 24(2), 521–550. https://doi.org/10.16953/deusosbil.1036473

5. Kun.uz elektron nashri. (2021, 29-avgust). Oliy sud Ibrohimbek qo‘rboshini oqladi: laqaylik Robin Gud tarixi. https://kun.uz/news/2021/08/29/oliy-sud-ibrohimbek-qorboshini-oqladi-laqaylik-robin-gud-tarixi

UO’K 908

XIX ASR OXIRI — XX ASRDA O‘ZBEKLAR DEHQONCHILIGI VA SUV XO‘JALIGINING ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI (Janubiy O‘zbekiston misolida)

D.Pardayev, tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri — XX asrda Janubiy O‘zbekiston dehqonchiligi va suv xo‘jaligining etnohududiy xususiyatlari mavjud manba va adabiyotlar hamda dala etnografik ma’lumotlari asosida ilmiy tarzda ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Janubiy O‘zbekiston, Qashqadaryo, Surxondaryo, voha, dehqon, kuzgi ekin (oq), bahorgi ekin (ko‘k), dehqonchilik, bog‘dorchilik, poliz, sabzavot ekinlari.*

Аннотация. *В данной статье на основе доступных источников и литературы, а также полевых этнографических данных научно раскрываются этнотерриториальные особенности земледелия и водного хозяйства Южного Узбекистана в конце XIX — XX вв.*

Ключевые слова: *Южный Узбекистан, Кашкадарья, Сурхандарья, оазис, земледелец, озимые культуры (белые), яровые культуры (зелёные), земледелие, садоводство, дыня, овощные культуры.*

Abstract. *This article examines the ethnoterritorial features of agriculture and water management in southern Uzbekistan from the late nineteenth through the twentieth century, drawing on available sources, literature, and field ethnographic data.*

Keywords: *Southern Uzbekistan, Kashkadarya, Surkhandarya, oasis, farmer, autumn crop (white), spring crop (green), crop farming, horticulture, melon cultivation, vegetable crops.*

Dehqonchilik turlari mahalliy sug‘orish xususiyatiga ko‘ra ham, ekilgan ekinlarga qarab ham bir-biridan farq qilgan. Sug‘orma dehqonchilik mahalliy aholi orasida "suvli yer", tojikcha-forscha "obikor" yoki "obi" termini bilan, sug‘orilmaydigan yerlar esa "lalmi" yoki "bahori" deb atalgan. Hududda yerlarga ishlov berishda ikki usuldan foydalanilgan. Birinchi usulda, asosan, hosildan bo‘shagan ekin maydonlariga dam berilib, bo‘sh qoldirilgan, ikkinchisida esa ekin maydoni shudgor qilingan. Har ikki usul vohaning turli joylarida turli nomlar bilan yuritilgan. Chunonchi, mintaqaning tog‘ oldi hududlarida yerga dam berish usuli "Dam dodan", yerlarni shudgorlash usuli esa, "Qora shudgor" deb yuritilgan. Shudgorlash ishlari quyosh taqvimi bo‘yicha "hamal" oyining kirib kelishi bilan boshlangan bo‘lib, hozirgi milodiy taqvim bo‘yicha bu 21-martdan 21-aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi [1:92].

Qishloq jamoasi an’analari mintaqadagi paykal tizimi misolida o‘zini yaqqol namoyon etadi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va qo‘shni mamlakatlarda yer-suvdan foydalanishda paykal tizimi mavjud bo‘lgan. "Paykal" so‘zi turkcha "pay"-qism, joy, "kal"-tojikcha qazimoq degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, paykalga marza, ariq, yo‘l va shu kabilar bilan ajratilgan katta ekin maydoni, pol, chek deb ham ta’rif berilgan [2:201].

Akademik K.Shoniyozovning ma’lumot berishicha, o‘tmishda paykal tizimi faqat Janubiy O‘zbekistonning Qarshi va Sherobod vohalarida hamda Shimoliy Afg‘onistonda ancha barqaror saqlanib qolgan edi. Janubiy O‘zbekiston aholisi an’anaviy xo‘jalik mashg‘ulotlarida dehqonchilik eng qadimiy turlardan biri bo‘lib, oila daromadining katta qismini tashkil etadi va etnoiqtisodiyotda ham muhim o‘ringa egadir. O‘rta Osiyoda qadim zamonlardan boshlab g‘allachilik mavjud bo‘lib, ko‘plab bug‘doy va arpa navlari yetishtirilib kelingan. Bug‘doy ekishning ikki mavsumi mavjud: kuzgi (ba’zi hududlarda tiromoyi, qishki deb ham atalgan) va bahorgi bug‘doy ekini [3:271]. Mintaqada kuzgi hosillar yig‘ishtirib olinishi bilan (noyabrning boshida) o‘rniga kuzgi bug‘doy ekilgan. Bug‘doy erta (iyunning boshida) pishib yetilgan va u yig‘ishtirib olingach, o‘rniga yana boshqa ekinlar (qovun, tarvuz va boshq.) ekilgan. Arpani ekish texnologiyasi bug‘doyga o‘xshash bo‘lib, mollarga yem sifatida berilgan, ba’zan ro‘zg‘orda non tayyorlashda ham foydalanilgan. Janubiy O‘zbekiston hududlarida 1930-yillargacha donli ekinlar yetishtirish qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i hisoblangan. Masalan, 1920-yillarning o‘rtalaridagi ma’lumotga ko‘ra, mintaqada o‘simliklar ekini nisbatida 60 % donli ekinlar, 16,3 % paxta, 8,5% yog‘li o‘simliklar, 6,5 % poliz va sabzavot, 4,9 % sholi, 3,6 % beda va boshqa ekinlar esa 0,2 % ni tashkil etgan. Keyinchalik, uzoq davom etgan paxta yakkahokimligi davrida donli ekinlar, ayniqsa bug‘doy, arpa yetishtirish ikkinchi darajali sohaga tushib ketgan [4:59].

Istiqlolning dastlabki yillarida mintaqa aholisi bug‘doy yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirish, uning yalpi hosilini ko‘paytirishga e’tibor berdi. Iqlim sharoiti bo‘yicha janubiy viloyatlar O‘rta Osiyoning qadimdan paxta yetishtiriladigan asosiy maydoni hisoblanadi va bu yerda g‘o‘zaning "oq g‘o‘za", "qora po‘choq", "mavri g‘o‘za" [5], ko‘k, malla va qora chigitli navlari ekilgan [6].

Bog‘dorchilik va uzumchilik o‘zbek xalqining eng qadimiy kasblaridan biridir. Mintaqaning tog‘oldi qismlarida sug‘oriladigan yerlar kamligi uchun mahalliy yashovchi o‘troq aholi bog‘dorchilikka ixtisoslashgan. Mintaqada olma, o‘rik, behi, nok, olxo‘ri, gilos, shaftoli, tut, anjir va boshqa mevali daraxtlar ekilgan. Masalan, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Boysun, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo tumanlarining tog‘li mintaqalarida istiqomat qiluvchi aholi danakli meva daraxtlari, ayniqsa, o‘rik, anor, jiyda hamda shaftolini ko‘proq ekishgan. Shuningdek, o‘rik bargagi va kishmishning oliy navlarini yetishtirganlar [7].

Mintaqaning eng baland tog‘ oldi hududida joylashgan G‘ilon (Shahrisabz) va Sangardak (Sariosiyo) qishloqlari ham bog‘dorchilikda katta tajribaga ega bo‘lgan. Bahor kelishi bilan aholi

qishloqdan soylarda o‘z chorbog‘lariga ko‘chib o‘tishgan. Bunday chorbog‘lar jumlasiga Munavvar, Pistamozor, Ommog‘on, Totumdara, Oqqon, Tovkon, Bog‘xoyibolo, Cholokon, Terak, Katta ko‘l, Kichik ko‘l, hamda Archamozor kabilarni kiritish mumkin [8]. Hududning asosan tog‘oldi qishloqlari aholisi uzum yetishtirish bilan shug‘ullangan. Hisor tog‘ etaklaridagi Shahrisabz tumanining Miraki, Chorshanbe, Shanba, Qamashi tumanining Oqrabot, Denov tumanining Hovuz, Sina, Vaxshivor, Boysun tumanidagi Pasurxi, Sherobod tumanidagi Qorabog‘ Zarabog‘ va Novbog‘ qishloqlari qadimdan uzumchilikning markazi sifatida mashhur bo‘lgan. Mintaqada keng tarqalgan sabzavot ekinlaridan biri pomidor hisoblanadi. Pomidor ancha vaqtgacha mahalliy xalq tomonidan o‘zlashtirilmagan, biroq keyinchalik, ushbu ekin turining bir qancha navlari yetishtirila boshlangan. Poliz ekinlaridan tarvuz aprel oyida ekilib, avgust oyida yig‘ishtirib olingan. Voha aholisi tarvuzning "qoratarvuz", "olachipor tarvuz" va "chini tarvuz" kabi navlarini yetishtirishgan [9:37]. Mazkur tarvuz navlari mintaqa tabiiy iqlimiga mosligi, hosildorligi, ertapisharligi va xushta’mligi bilan ajralib turadi.

Hududda poliz ekinlaridan qovun ham yetishtirilib, qovun urug‘i kamida ikki yillik bo‘lishi kerak bo‘lgan. Mintaqada ertachi qovunlar hamal oyining boshidan 15 kun davomida ekilgan, boshqa navlar esa savr oyida ekilgan. Qovunning qishda asrab iste’mol qilinadigan turlari — "Obi-novvot", "Zarmiton", "Qora-qo‘tir", "Chorjo‘yi", "Qoraqiz" va "Shakarpora" navlaridan katta hosil olingan [10:13-14].

Sabzining esa mintaqada uch xil navi yetishtirilib, ular "qizil sabzi", "oq sabzi" va "sariq sabzi" deb yuritilgan. Sabzi urug‘ini ekishdan avval, u mayin tuproq bilan yaxshilab aralashtirilgan va bir-biriga yopishib qolmasligi uchun ozroq o‘simlik moyi ham qo‘shilgan [11]. Sholg‘omning mintaqada ikki xil — "oq sholg‘om" va "qizil sholg‘om" navlari mavjud bo‘lib, voha dehqonlari ko‘proq "qizil sholg‘om" navini yetishtirgan [12]. Kartoshkaning "oq kartoshka", "nimrang kartoshka", "qaychi barg","qalmoqi", "qora qizil" va "nenets" kartoshka kabi 23 turdan ortiq navlari yetishtirila boshlangan [13].

XIX asr oxiri — XX asrda biz o‘rganayotgan hududda sug‘orish tizimlari faoliyatini yaxshilashga alohida e’tibor berilgan. Mintaqada qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish uchun sug‘orish tizimini rivojlantirish talab etilardi. Muntazam tarzda eski ariqlarni sozlash, yangi kanallar qazish, suv chiqarish muammolari bilan bog‘liq masalalarni hal etish talab qilingan. Hudud dehqonchiligida yerlar obi (sug‘orma) va lalmi yerlarga bo‘linib, mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida uch mintaqaga: ya’ni to‘la sug‘oriladigan (daryo mintaqasi), shartli sug‘oriladigan (tog‘ oldi), lalmikor (cho‘l hududlar)ga bo‘linadi. Mintaqani suv bilan ta’minlanishiga ko‘ra ikki hududga (shimoliy va janubiy) ajratish mumkin. Shimoliy hududdagi daryolar sersuv, ularga asosan Oqsuv, Qoradaryo, Qashqadaryo, To‘palang, Sangardak, Xo‘jaipok va boshqalar kiradi. Noyob suv inshooti hisoblangan korizlarni qazish sermashaqqat ish hisoblanib, O‘rta Osiyoda jumladan, Janubiy O‘zbekistonda tog‘ oldi hududlarida ham suv manbai sifatida katta ahamiyat kasb etganligi dissertatsiyada yoritilgan. Sun’iy sug‘orish tizimida xizmat qiluvchi xodimlar vazifasiga ko‘ra turlicha nomlar bilan atalgan. XI asrda malakali miroblarni "obishikanda-tuzun" deb atalishi, yirik sug‘orish tarmoqlariga "panjabegi" yoki "ariq oqsoqollari" boshchilik qilgani buning isbotidir [14:42-44]. Shu bilan birga, daryo va irmoqlar o‘zaniga to‘g‘on-bandlar o‘rnatuvchi "varqbon" yoki "bandibon" lar, boshariqlarning miroblari-"jo‘ybon"lar, suvni daryoning yuqori oqimidan quyi tomonga oqizuvchi-"obandoz", "obron", "mankuvat"lar, qishloq ariqlarining miroblari "arbob" va "poykor" kabi terminlar bilan atalgan.

Xulosada shuni alohida ta’kidlash joizki, Janubiy O‘zbekiston dehqonchilik madaniyatining qadimiy ildizlari shakllangan hududlardan biri bo‘lib, ziroatchilik qadriyatlari va ekin ekish usullari rivojlanishi natijasida asrlar davomida mintaqaga xos bo‘lgan an’anaviy xo‘jalik tizimi yaratilgan. Aholi xo‘jaligida dehqonchilikning donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, polizchilik va sabzavotchilik kabi turlari muhim ahamiyat kasb etgan. Sun’iy sug‘orish tarmoqlarining takomillashib borishi, yangi ariqlarning qazilishi, koriz va buloq suvlaridan samarali foydalanish bo‘yicha to‘plagan tajribalari dehqonchilikning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Узбеки. -М.: "Наука", 2011.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-j, -T., 2007.

3. Современный кишлак Средней Азии: соц.-экон. очерк. Вып. 3. Китабская волость Кашка-Дарьинской области Узбекской ССР. 1926.

4. Ro‘ziyev A.N. Surxondaryo viloyati. - T.: Jayxun, 1996.

5. Dala yozuvlari. G‘uzor tumani Qovchin va Oltinsoy tumani Qoratepa qishloqlari. 2020-yil.

6. O‘zbekiston Milliy Arxivi (bundan keyin O‘zMA). 96-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 6-varaq.

7. Yangiboyev M. Qashqadaryo viloyati. -Qarshi: Nasaf, 1993. - 67 b; Qobulov E. Surxon vohasi xo‘jaligi. - Toshkent: Akademnashr, 2012. - 167 b.

8. Dala yozuvlari. Shahrisabz tumani G‘ilon va Sariosiyo tumani Xuffor qishloqlari. 2021-yil.

9. Пивоваров В.Ф., Аромов М.Х., Турдикулов Б.Х. и др. Овощные и бахчевые культуры в Узбекистане, М., 2001.

10. Логофет Д.А. Бухарское ханство под русским протекторатом. т. I. - СПб., 1911.

11. Dala yozuvlari. Koson tumani Esaboy va Qumqo‘rg‘on tumani Achamayli qishloqlari. 2020-yil.

12. Dala yozuvlari. Kasbi tumani Oqjangal va Mesit qishloqlari. 2020-yil.

13. Балашев Н.Н. Картофель //Труды Узбекистанской опытной станции садоводство и огородничество имени Р.Р.Шредерь. Ташкент.: 1930. Вып. 11. -С. 83-86; Балашев Н.Н., Лучинина Е.Г. Вопросы семеноводства картофеля в Узбекистане. Ташкент., Фан, 1978. С. 43-48.

14. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk). /3 tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. - Toshkent: Fan, 1960.

UO'K 349.4:711(575.1)

O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY SHAHAR INFRATUZILMALARI RIVOJLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI (FARG‘ONA VA QO‘QON SHAHARLARI MISOLIDA)

M.M. Qodirov, PhD, Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-7463-856X

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda zamonaviy shahar infratuzilmasining huquqiy asoslari Farg‘ona va Qo‘qon shaharlari misolida tahlil qilinadi. Prezident va hukumat qarorlari, mahalliy hokimlik hujjatlari asosida 1991–2022-yillardagi shaharsozlik, transport, kommunal xizmatlar va ijtimoiy obyektlar rivoji yoritiladi. Huquqiy tartibga solish va maqsadli dasturlarning infratuzilma yangilanishidagi o‘rni asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *shahar infratuzilmasi, huquqiy asos, Farg‘ona, Qo‘qon, shaharsozlik, transport, kommunal xizmatlar.*

Аннотация. *В статье анализируются правовые основы развития современной городской инфраструктуры Узбекистана на примере Ферганы и Коканда. На основе актов Президента, Правительства и местных органов власти рассматриваются изменения в градостроительстве, транспорте, коммунальном хозяйстве и социальной сфере в 1991–2022 годах. Определяется роль правового регулирования и целевых программ в модернизации городов.*

Ключевые слова: *городская инфраструктура, правовые основы, Фергана, Коканд, градостроительство, транспорт, коммунальные услуги.*

Abstract. *The article examines the legal foundations of modern urban infrastructure development in Uzbekistan using Fergana and Kokand as case studies. Presidential and governmental acts, together with local administrative decisions, are used to discuss urban planning, transport, utilities, and social infrastructure during 1991–2022. The role of legal regulation and targeted programs in urban modernization is highlighted.*

Keywords: *urban infrastructure, legal framework, Fergana, Kokand, urban planning, transport, public utilities.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi normativ-huquqiy hujjatlar hamda maqsadli davlat dasturlari bilan tartibga solindi. Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarida transport, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, uy-joy qurilishi, sog‘liqni saqlash va xizmat ko‘rsatish obyektlarini takomillashtirish jarayonlari mazkur huquqiy asoslar bilan uzviy bog‘liq. Tadqiqotning maqsadi ushbu shaharlarda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatgan asosiy hujjatlar va ularning amaliy yo‘nalishlarini umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqot usuli va manbalari. Tadqiqotda tarixiy-xronologik va hujjatli tahlil usullaridan foydalanildi. Manbalar Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, hududiy hokimlik qarorlari hamda arxiv materiallaridan iborat. O‘rganilayotgan davr shartli ravishda ikki bosqichga ajratildi: 1991–2016-yillar va 2017–2022-yillar. Huquqiy hujjatlar qabul qiluvchi organiga ko‘ra respublika, viloyat va shahar darajalarida guruhlandi [1].

Tahlil va natijalar. Manba matnida 1991–2022-yillarda Qo‘qon shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik rivojiga bevosita tegishli 24 ta respublika darajasidagi hujjat qabul qilingani qayd etiladi [1]. Bu shahar infratuzilmasini takomillashtirish bosqichma-bosqich huquqiy mexanizmlar asosida amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2000-yillardan boshlab kompleks obodonlashtirish va modernizatsiya dasturlariga urg‘u kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 5-maydagi PQ-860-son qarori bilan Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarini 2008–2012-yillarda rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish hamda ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi [2]. Dastur doirasida umumiy 33 882,0 million so‘m moliyalashtirish nazarda tutilgan. Shundan sog‘liqni saqlash obyektlariga 4 944,1 million so‘m, qurilish yo‘nalishidagi tadbirlarga 13 480,0 million so‘m belgilangan. Moliyaviy manbalar respublika va mahalliy byudjetlar, bank kreditlari, xalqaro grantlar, idora va korxonalar mablag‘lari hamda homiylikdan shakllantirilgan.

Sog‘liqni saqlash yo‘nalishida shoshilinch tibbiy yordam va perinatal markazlarni jihozlash, qon quyish markazini qayta qurish, sanitariya-epidemiologiya xizmatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilandi. Qurilish tadbirlari Farg‘ona aeroporti binolarini yangilash, uy-joylar, ijtimoiy va ta’lim obyektlarini barpo etish hamda dam olish maskanlarini rekonstruksiya qilishni qamrab oldi [2]. Bunday kompleks yondashuv infratuzilmaning ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liqligini namoyish etadi.

Prezidentning 2009-yil 15-dekabrdagi PQ-1239-son qarori Qo‘qon shahrining me’moriy qiyofasi va infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirildi [3]. Unda bosh rejani ishlab chiqish, sanoat va turar-joy hududlarini hisobga olish, ko‘chalar va transport-kommunikatsiya tizimini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratildi. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 26-noyabrdagi 272-son qarori savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq vazifalarni belgiladi [4].

Transport infratuzilmasining muhim yo‘nalishi Angren–Pop temir yo‘li va Pop–Qo‘qon–Andijon uchastkasini elektrlashtirish bo‘ldi. Bu ishlarning huquqiy asosi tegishli Prezident va hukumat qarorlarida, jumladan, 2015-yil 17-sentabrdagi 269-son qarorda aks etgan [5]. Manbaga ko‘ra, 2013–2016-yillarda qurilgan 123,1 kilometrli Angren–Pop temir yo‘li Farg‘ona vodiysi va mamlakatning boshqa hududlari o‘rtasidagi tashish aloqalarini mustahkamlashga xizmat qildi [6].

Qo‘qonning hududiy rivojlanishi shahar chegaralarini kengaytirish va geografik obyektlarni nomlashga doir hujjatlar bilan ham bog‘liq. Viloyat davlat arxivi materiallari va mahalliy qarorlar ushbu jarayonning hujjatli asosini tashkil etadi [7–9]. Shahar hokimiyati komissiyasi ma’lumotlarida 696 ta mahalla, ko‘cha, xiyobon va boshqa geografik obyekt nomlari qayta ko‘rib chiqilgani keltirilgan [10]. Bu shahar hududini boshqarishda huquqiy va tashkiliy tartibga solishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xulosa. Farg‘ona va Qo‘qon shaharlari misolida ko‘rinadiki, zamonaviy shahar infratuzilmasining rivojlanishi Prezident va hukumat qarorlari, mahalliy boshqaruv hujjatlari hamda maqsadli dasturlar bilan ta’minlangan. 2008–2012-yillardagi kompleks dasturlar ijtimoiy, kommunal va qurilish sohalarini birgalikda yangilashga xizmat qilgan; transportga oid qarorlar esa hududlararo aloqalarni rivojlantirishga sharoit yaratgan. Shaharlarni barqaror rivojlantirishda huquqiy me’yorlarni hududiy ehtiyojlar va infratuzilma ustuvorliklari bilan uyg‘unlashtirish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Qo‘qon bo‘yicha hujjatlar qidiruvi. URL: https://lex.uz/uz/search/nat?query=QO%27QON

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 5-maydagi PQ-860-son “Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarini 2008–2012-yillarda rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/uz/docs/-1400710

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-dekabrdagi PQ-1239-son “Qo‘qon shahrining arxitektura qiyofasi va shahar infratuzilmasini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/uz/docs/-1579035

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 26-noyabrdagi 272-son “Qo‘qon va Namangan shaharlarida qurilgan dehqon bozorlari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlaridan maqsadli va samarali foydalanish to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/uz/docs/-2284052

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-sentabrdagi 269-son “Pop–Qo‘qon–Andijon uchastkasini elektrlashtirgan holda Angren–Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasini qurish loyihasini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/uz/docs/-2756028

6. Angren–Pop temiryo‘li ochiladi // Kun.uz. URL: https://kun.uz/113160?q=%2F113160

7. Farg‘ona viloyati davlat arxivi. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 122-yig‘majild. – 193–194-varaqlar.

8. Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashining 2023-yil 9-avgustdagi VI-65-75-11-166-K/23-son qarori. URL: https://e-qaror.gov.uz/doc/1396524

9. Farg‘ona viloyati davlat arxivi. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 122-yig‘majild. – 193–195-varaqlar.

10. Qo‘qon shahar hokimiyati joriy arxivi. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiya ma’lumotnomasi: Qo‘qon shahar ko‘cha nomlari. – Qo‘qon, 2023. – B. 12.

UO’K 94(575.1)"10/12":001.89

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR BO‘LIMI FAOLIYATIDA AKADEMIK ISLOHOTLAR

D.Sh. Rajabova, dots., Osiyo xalqaro universiteti Urganch kampusi, Urganch
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-4748-7488

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 dekabrdagi PQ-390-son qarori ijrosi doirasida hududiy ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini modernizatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi misolida voha tarixi, moddiy-madaniy merosini o‘rganish, ilmiy kadrlar tayyorlash hamda tadqiqot natijalarini xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm Ma’mun akademiyasi, PQ-390-son qaror, Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi, moddiy madaniyat, manbashunoslik.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы модернизации деятельности региональных научно-исследовательских учреждений в контексте реализации нормативно-правовых актов, направленных на совершенствование системы Академии наук Республики Узбекистан, в частности постановления Президента Республики Узбекистан от 27 декабря 2025 года № ПП-390. На примере Отдела социально-гуманитарных наук Хорезмской академии Маъмуна освещены ключевые направления исследования истории и материально-культурного наследия оазиса, подготовки научных кадров и адаптации результатов исследований к международным стандартам.*

Ключевые слова: *Хорезмская академия Маъмуна, постановление № ПП-390, отдел социально-гуманитарных наук, материальная культура, источниковедение.*

Abstract. *The article analyzes the issues of modernizing the activities of regional research institutions within the framework of implementing regulatory legal acts aimed at improving the system of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, particularly the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. RP-390 dated December 27, 2025. Using the Department of Social Sciences and Humanities of the Khwarazm Mamun Academy as a case study, the paper highlights the key directions for studying the history and material-cultural heritage of the oasis, training academic personnel, and adapting research outputs to international standards.*

Keywords: *Khwarazm Mamun Academy, Resolution No. RP-390, Department of Social Sciences and Humanities, material culture, source studies.*

Kirish: Akademik ilm-fan sohasini me’yoriy-huquqiy jihatdan mustahkamlash va tadqiqotlar faoliyatini samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash zamonaviy ilm-fan tizimining muhim shartlaridan biri hisoblanadi [1, b. 12-15]. Hududiy ilmiy markazlar, jumladan Xorazm vohasining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va arxeologik merosini fundamental tadqiq etishda yetakchi tuzilma sanalgan Xorazm Ma’mun akademiyasining ilmiy salohiyatini oshirish hamda hudud tarixining

dolzarb muammolarini yangicha metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [2, b. 45].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-390-son qarori akademik tadqiqotlar sifatini oshirish, ilmiy muassasalarning tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish hamda hududiy bo‘linmalar faoliyatini yangi akademik standartlarga moslashtirish uchun muhim huquqiy zamin yaratdi [3].

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, manbashunoslik hamda tarixiy-xronologik metodlardan foydalanildi [1, b. 18]. Akademik ilm-fan tizimini tubdan isloh qilish va soha faoliyatini natijadorlikka yo‘naltirishning institusional asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-390-son qarorida belgilangan strategik vazifalarni ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda hududiy akademik bo‘linmalar kontekstida tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy indikatorlar va KPI (eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimi shakllantirilgan [3]:

Ilmiy maqolalar va iqtiboslik ko‘rsatkichlari: Tadqiqot natijalarining xalqaro e’tirofini ta’minlash maqsadida Scopus va Web of Science kabi nufuzli ilmiy-metrika bazalariga kiritilgan jurnallarda chop etiluvchi maqolalar hajmini belgilangan istiqbolli davrda 4 baravarga oshirish va iqtiboslik indeksini (h-index) tizimli o‘stirish [3];

Kadrlar tarkibini yoshartirish va akademik salohiyat: Akademik tadqiqotlarga yosh mutaxassislar, PhD va DSc izlanuvchilarini keng jalb etish orqali ularning ilmiy tarkibdagı ulushini 60 foizga yetkazish hamda ustoz-shogird an’analarini tizimlashtirish [3];

Xalqaro integratsiya va internasionallashuv: Xorijiy yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari, arxivlar va markazlar bilan hamkorlikdagi qo‘shma tadqiqot loyihalari hamda arxeologik ekspedisiyalar hajmini 3 baravarga oshirish [3; 5, b. 114];

Ilmiy faoliyatni reyting baholash: Ilmiy xodimlar va muassasa bo‘linmalari ish samaradorligini xalqaro standartlarga mos reyting tizimi asosida xolis baholab borish mexanizmini amaliyotga tatbiq etish [3].

PQ-390-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar va strategiyadan kelib chiqib, Xorazm Ma’mun akademiyasining Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limida ilmiy-tadqiqot faoliyatini maqbullashtirish hamda tadqiqotlar sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olingan va amaliyotga joriy etilmoqda:

Raqamli gumanitar fanlar va moddiy madaniyatni tadqiq etish: Xorazm vohasining qadimgi va o‘rta asrlarga oid shaharsozlik, me’morchilik hamda hunarmandchilik yodgorliklarini o‘rganishda an’anaviy arxeologik va etnografik usullar bilan bir qatorda raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) vositalarini keng qo‘llash talab etiladi. Xususan, tarixiy ob’yektlar va yodgorliklarning 3D-modellarini yaratish, landshaftlarni virtual rekonstruksiya qilish va aerofotosuratlar yordamida stratigrafik tahlil o‘tkazish orqali manbaviy bazani raqamlashtirish va muhofaza qilish ko‘lami kengaytirilmoqda [4, b. 88-92].

Arxiv manbalari va konseptual ilmiy nashrlar устида ishlash: Markaziy Osiyo va xorijiy mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiya, Eron va b.) arxiv fondlari hamda qo‘lyozma markazlarida saqlanayotgan Xorazm tarixi va etnografiyasiga oid birlamchi noyob manbalarni aniqlash, ularni ilmiy muomalaga kiritish hamda transliteratsiya va tarjimalarini fundamental nashr ettirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [5, b. 112-115].

Mazkur yo‘nalishdagi tizimli tadqiqotlarning amaliy natijasi sifatida bo‘lim tomonidan «Xorazm tarixidagi jarayonlar (1925–1941-yillar)» nomli fundamental monografik tadqiqot va kitob loyihasi ustida faol ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu kitob loyihasi arxiv hujjatlari, davriy matbuot va yangi manbaviy ma’lumotlar asosida quyidagi to‘rtta asosiy akademik blok (bob) bo‘yicha tadqiq etilmoqda:

Xorazm okrugida ma’muriy boshqaruv tuzilmasining shakllanishi (respublikaning tugatilishi, okrug va rayon ma’muriy tizimining tashkil etilishi, xususiy yer egaligining tugatilib, kolxoz-sovxoz tizimiga majburiy o‘tkazilishi);

Xorazm okrugi va oblastida ta’lim, matbuot va madaniyat sohasidagi jarayonlar (ma’rifiy islohotlar, matbaa sohasining jamiyatdagi o‘rni, teatr, muzey va madaniyat uylari faoliyati);

Kollektivlashtirish, surgun va qatag‘on siyosati davri (sovetlarning quloqlashtirish siyosati hamda «Katta terror» davri fojialari);

Xorazmda sanoat, iqtisodiyot va suv xo‘jaligi tizimidagi jarayonlar (yangi kanallarning ishga tushirilishi, gidrotexnik inshootlar qurilishi hamda iqtisodiy-sanoat o‘zgarishlari).

Ta’kidlash joizki, 1925–1941 yillarda Xorazm vohasida yuz bergan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jumladan, majburiy kollektivlashtirish, "quloqlashtirish", ma’muriy-hududiy qayta qurishlar hamda 1937–1938 yillardagi "Katta terror" davri fojialari manbashunoslik nuqtai nazaridan alohida tadqiqot ob’yektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda bo‘lim olimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hamda Xorazm viloyati davlat arxivining noyob fonlari (xususan, Xorazm okrug va oblast ijroiya komitetlari, sud-huquq hamda partiya organlarining maxfiy hujjatlari) ilmiy muomalaga kiritildi [6, b. 15–20].

U.Bekimmetovning fundamental monografik va ilmiy-ommabop tadqiqotlarida 1920–1930-yillarda Xorazmda amalga oshirilgan sovet islohotlarining mahalliy aholi turmush tarziga ko‘rsatgan Salbiy ta’siri, deportatsiyaga uchragan oilalar taqdiri hamda surgun qilingan "quloq"lar geografyasi kompleks tahlil qilingan [6, b. 45–50]. Muallifning ilmiy maqolalarida 1937–1938 yillarda otishmaga hukm qilingan va mehnat-tuzatish lagerlariga yuborilgan Xorazm ziyolilari, davlat va jamoat arboblari, maorif xodimlari hamda matbuot vakillarining shaxsiy va tergov hujjatlari asosida ularning nohaq qatag‘on qilinish mexanizmlari ochib berilgan [7, b. 22–27].

Shu bilan birga, Bo‘lim olimlarining tadqiqotlarida mazkur davrdagi madaniy va ma’rifiy jarayonlar – vohada vaqtli matbuot tizimining shakllanishi, savodsizlikni tugatish jamiyatlari faoliyati, teatr va muzey ishining yo‘lga qo‘yilishi kabi jarayonlar g‘oyaviy cheklovlar va siyosiy syenzura kontekstida xolis baholandi [5, b. 112; 8, b. 48]. Ushbu to‘plangan boy arxiv manbalari va e’lon qilingan monografik ishlar Bo‘lim tomonidan tayyorlanayotgan "Xorazm tarixidagi jarayonlar (1925–1941-yillar)" fundamental kitob-loyihasining manbaviy va metodologik bazasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bo‘lim tadqiqotchilari va mustaqil izlanuvchilari tomonidan tayyorlanayotgan doktorlik (DSc) va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini shakllantirishda Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan belgilangan amaldagi nizom va qoidalarga qat’iy rioya etilishi ta’minlanmoqda [1, b. 22]. Dissertatsiya tadqiqotlarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshirish, tadqiqot natijalarini OAK tomonidan e’tirof etilgan milliy va xalqaro (Scopus, Web of Science) jurnallarda e’lon qilishni tizimli muvofiqlashtirish hamda antiplagiat talablari bo‘yicha nazoratni kuchaytirish nazarda tutilgan [1, b. 30; 3].

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 dekabrdagi PQ-390-son qarori mamlakatimizda akademik ilm-fan tizimini tubdan modernizatsiya qilish, xususan, Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam tashkiliy-huquqiy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [3]. Ushbu me’yoriy hujjat ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida fundamental tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, tadqiqotlarni raqamlashtirish hamda hududiy ilmiy salohiyatni xalqaro integratsiya jarayonlariga faol jalb etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси. Диссертация ва диссертация авторефератини расмийлаштириш қоидалари. – Тошкент: ОАК, 2023. – 48 б.

2. Садуллаев А., Мадраҳимов А. Хоразм воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар моддий ва маънавий маданияти тадқиқоти. – Тошкент: Фан, 2021. – 240 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. «Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-390-сон қарори. – Тошкент, 2025 йил 27 декабрь.

4. Matqurbanov F. 3D visualization and practical reconstruction of a Neolithic settlement. – Urgench: Khorezm Mamun Academy, 2026. – 120 p.

5. Маҳмудов М. Марказий Осиё тарихий манбашунослиги ва археологияси масалалари. – Урганч: Хоразм, 2024. – 180 б.

6. Бекмуҳаммад У. Хоразмдаги қатағонлар: фожиалар ва тақдирлар. – Тошкент: Navro'z, 2017. – 180 б.

7. Бекмуҳаммад У. 1937 йилнинг Хоразмдаги акс-садоси: сургун ва отишмалар тарихидан // Гулистон. – Тошкент, 2019. – № 4. – Б. 22–27.

8. Матёқубов Ҳ., Абдуллаев Ў. 1925–1930 йилларда Хоразм округида маъмурий-ҳудудий ислоҳотлар ва уларнинг оқибатлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2024. – № 3. – Б. 45–51.

UO'K: 94:299

QADIMGI TURON XALQLARI HAYOTIDA MITRANING DINIY VA IJTIMOIY-SIYOSIY MAVQEI

M.J. Rahmonberdiyeva, tadqiqotchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zardushtiylik diniy tizimida Mitraning tutgan o'rni, uning diniy, axloqiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalari tahlil qilinadi. Mitra obrazi* ***Avesta*** *manbalari, xususan,* ***Mitr Yasht*** *asosida o'rganilib, uning ahd va shartnomalarning homiysi, adolat va haqiqat timsoli, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ilohiy kuch sifatidagi xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, Mitraning Ahura Mazda bilan o'zaro munosabati, zardushtiylikning monoteistik-diniy tizimida tutgan mavqei hamda ezgulik, axloqiy tartib va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi funksional ahamiyati tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: Mitra, zardushtiylik, Ahura Mazda, ***Avesta****,* ***Mitr Yasht****, yazata, Mitra kulti, ahd, shartnoma, adolat, haqiqat, axloqiy tartib, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, qadimgi Turon.*

Аннотация. *В статье анализируется место Митры в религиозной системе зороастризма, а также его религиозные, нравственные, социальные и политические функции. Образ Митры рассматривается на основе источников Авесты, в частности Митр-Яшта, с освещением его особенностей как покровителя клятв и договоров, воплощения справедливости и истины, а также божественной силы, регулирующей социальные отношения между людьми. Кроме того, анализируются взаимоотношения Митры с Ахура Маздой, его статус в монотеистической религиозной системе зороастризма, а также функциональное значение в обеспечении добра, нравственного порядка и социальной стабильности.*

Ключевые слова: *Митра, зороастризм, Ахура Мазда, Авеста, Митр-Яшт, язата, культ Митры, клятва, договор, справедливость, истина, нравственный порядок, социальная стабильность, социально-политические отношения, Древний Туран.*

Abstract. *This article analyzes the position of Mithra within the religious system of Zoroastrianism, as well as his religious, moral, social, and political functions. The image of Mithra is examined on the basis of the sources of the Avesta, particularly the Mithra Yasht, highlighting his characteristics as the patron of oaths and contracts, the embodiment of justice and truth, and a divine power regulating social relations among people. The article also examines Mithra's relationship with Ahura Mazda, his status within the monotheistic religious system of Zoroastrianism, and his functional significance in ensuring goodness, moral order, and social stability.*

Keywords: *Mithra, Zoroastrianism, Ahura Mazda, Avesta, Mithra Yasht, yazata, cult of Mithra, oath, contract, justice, truth, moral order, social stability, socio-political relations, Ancient Turan.*

Zardushtiylik diniy ta'limotida Mitra ilohiy mavjudotlar orasida alohida va muhim mavqega ega bo'lib, ijtimoiy, axloqiy hamda kosmik tartibni ta'minlashda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. U yazatalar qatoriga kiruvchi ilohiy mavjudotlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Avesta an'anasida Mitra ahd, kelishuv, adolat va haqiqat tamoyillarining timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning nomi etimologik jihatdan ahd, shartnoma va kelishuv tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, insonlar o'rtasidagi bitim va majburiyatlarning bajarilishini nazorat qiluvchi ilohiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Mitraning vazifasi faqat axloqiy munosabatlar doirasi bilan cheklanmaydi. U jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Zardushtiylik shakllangan davrda turli qabila va urug'larning o'ziga xos mahalliy ilohlarga e'tiqod qilishi hamda ko'pxudolik an'analarining mavjudligi ijtimoiy parokandalikni kuchaytirgan. Shu sharoitda umumiy diniy-axloqiy me'yorlarning shakllantirilishi jamiyatni birlashtirishning muhim vositasiga aylangan. Mitra, Ahura Mazda va Anahita singari ilohiy kuchlar bilan bir qatorda, insonlar o'rtasida o'zaro ishonch, sadoqat, hamkorlik va mas'uliyatni mustahkamlovchi diniy asosni shakllantirgan[1].

Ritual-diniy jihatdan Mitraga Avesta tarkibidagi Mitr Yashtda alohida e’tibor qaratiladi. Unda Mitra haqiqat himoyachisi, ahd va shartnomalar nazoratchisi hamda dindorlarning homiysi sifatida tasvirlanadi. U quyosh va yorug‘lik bilan ham bog‘lanib, ravshanlik, hushyorlik va axloqiy poklikning ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu jihat Mitraning inson xatti-harakatlarining ilohiy guvohi sifatidagi funksiyasini ham ko‘rsatadi. Ya’ni insonning qilgan ishlari nazoratsiz qolmaydi, balki ilohiy adolat mezoni asosida baholanadi. Shuningdek, Mitra ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kosmik kurashda ham muhim vazifani bajaradi. Zardushtiylik kosmologiyasida ezgulik kuchlariga Ahura Mazda, yovuzlik kuchlariga esa Angra Mainyu (Ahriman) boshchilik qiladi. Mazkur qarama-qarshilik sharoitida Mitra ilohiy qonun va tartibning insonlar hayotida amaliy tarzda namoyon bo‘lishini ta’minlovchi vositachi sifatida qaraladi. U qasamlar va ahdlarning bajarilishini nazorat qilish, adolatni qaror toptirish orqali jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlaydi[2].

Zardushtiylik (mazdaparastlik yoki olovga sig‘inish dini sifatida ham ataladi) qadimgi davrda Amudaryoning quyi oqimi va Marg‘iyona hududlarida miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda shakllangan diniy tizim sifatida talqin qilinadi. Uning asosiy targ‘ibotchisi va tizimlashtiruvchisi Zarathustra (Zardusht) bo‘lib, u avvalgi ko‘pxudolik tasavvurlarini isloh qilishga hamda yagona, izchil diniy-axloqiy ta’limotni shakllantirishga intilgan. Zardushtiylikning shakllanishi Aryonshohlar davlatida siyosiy va ijtimoiy inqiroz kuchaygan davr bilan bog‘lanadi. Turli urug‘ va qabilalarning turli ilohlarga sig‘inishi ular o‘rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklarning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Natijada jamiyatning ichki birligi va davlat barqarorligiga tahdid yuzaga kelgan. Zardushtiylik ana shunday sharoitda qabila va urug‘lar manfaatlarini umumlashtirish, ularni yagona diniy-axloqiy g‘oya atrofida birlashtirishga xizmat qiluvchi mafkuraviy tizim sifatida namoyon bo‘lgan. Uning ijtimoiy-siyosiy funksiyalarini bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Birinchidan, qabila manfaatlaridan ustun turuvchi yagona axloqiy me’yorlar tizimi orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga intilgan. Ikkinchidan, alohida qabilalarning mahalliy kultlaridan yuqori turuvchi umumiy diniy qadriyatlarni shakllantirish orqali yagona ma’naviy makon yaratgan. Uchinchidan, tinchlikni targ‘ib qilib, ichki nizolar, qonli qasos va qabilalararo adovatni cheklashga intilgan. To‘rtinchidan, tashqi xavf-xatarlarga qarshi kurashishda ichki resurslarni safarbar etish va davlatning siyosiy-harbiy birligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu ma’noda, zardushtiylikni faqat diniy ta’limot sifatida tushunish yetarli emas. U ayni vaqtda jamiyatni birlashtirish, qabilalararo munosabatlarni tartibga solish va davlatning siyosiy-hududiy yaxlitligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy mafkuraviy tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi[3].

Zardushtiylikning monoteistik yo‘nalishida Ahura Mazda oliy iloh, olamning yaratuvchisi, oliy donishmandlik va adolat manbai sifatida talqin qilinadi. Zarathustra diniy islohot orqali turli mahalliy ilohlar o‘rtasidagi raqobatni bartaraf etib, diniy e’tiqodni yagona oliy iloh – Ahura Mazda atrofida birlashtirishga intilgan. Biroq bu holat Mitraning diniy ahamiyatini butunlay yo‘qqa chiqarmagan. Aksincha, Mitra zardushtiylik tizimida Ahura Mazda tomonidan belgilangan ilohiy tartibni insonlar va jamiyat hayotida amalga oshiruvchi muhim ilohiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ahd, shartnoma, adolat, haqiqat va ijtimoiy majburiyatlar bilan bog‘liq vazifalar uning alohida mavqeini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, Mitraning Ahura Mazda bilan munosabatini oddiy “quyi darajadagi iloh” va “oliy iloh” munosabati sifatida izohlash masalani to‘liq ochib bermaydi. Mitra Ahura Mazda hokimiyatining ijtimoiy-huquqiy va axloqiy mexanizmlarini hayotga tatbiq etuvchi ilohiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uning zardushtiylik panteonidagi mavqeini nihoyatda yuksaltiradi[4].

Zardushtiylik kosmologiyasida olam ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, haqiqat va yolg‘on, hayot va o‘lim, donishmandlik va jaholat kabi qarama-qarshi kuchlarning kurashi sifatida tasavvur qilinadi. Ahura Mazda ezgulik, yorug‘lik va tartibning oliy manbai bo‘lsa, Angra Mainyu vayronkorlik, yolg‘on va tartibsizlik kuchlarini ifodalaydi. Inson esa ushbu ikki kuch o‘rtasidagi kurashda o‘z tanloviga ega mavjudot sifatida ko‘rsatiladi. Insonning ezgulik tomonini tanlashi “ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” tamoyili bilan bog‘lanadi. Bu tamoyil zardushtiylik axloqining asosiy mezonlaridan biridir. Mazkur tizimda Mitraning vazifasi ayniqsa muhim: u insonlarning o‘zaro munosabatlarida haqiqat, adolat, ahdga sodiqlik va ishonchni ta’minlaydi. Mitraning asosiy xususiyatlaridan biri uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ilohiy kuch sifatidagi faoliyatidir. U shartnomalar, qasamlar va kelishuvlarning bajarilishini kafolatlaydi. Shu sababli Mitra

nafaqat diniy, balki huquqiy va siyosiy mazmunga ham ega bo‘lgan timsol sifatida namoyon bo‘ladi[5].

Qabila va urug‘lar o‘rtasidagi ittifoqlar, savdo munosabatlari, o‘zaro majburiyatlar va siyosiy kelishuvlarning mustahkamligi ishonch va ahdga sodiqlikka bog‘liq bo‘lgan. Ana shu munosabatlarda Mitra ilohiy kafolatchi sifatida tasavvur qilingan. Uning nomi bilan bog‘liq ahdni buzish nafaqat insoniy majburiyatning buzilishi, balki ilohiy tartibga qarshi chiqish sifatida ham baholangan. Shu jihatdan, Mitra Ahura Mazda ta’limotining amaliy-ijtimoiy ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ahura Mazda oliy kosmik va axloqiy tartibning manbai bo‘lsa, Mitra ushbu tartibning insonlar o‘rtasidagi kundalik munosabatlarda qaror topishini ta’minlaydi. Mitraga berilgan ushbu vazifalar uning siyosiy ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Jamiyatda adolat, qonuniylik, ahdga sodiqlik va o‘zaro ishonchning qaror topishi davlat barqarorligi uchun muhim bo‘lgan. Demak, Mitra kulti diniy e’tiqod bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy integratsiya vositasi vazifasini ham bajargan[6].

Mitra faqat ijtimoiy tartibni saqlovchi iloh emas, balki kosmik tartib bilan inson hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi kuch sifatida ham tasavvur qilinadi. Uning yorug‘lik, quyosh, hushyorlik va haqiqat bilan bog‘lanishi bejiz emas. Yorug‘lik ramzi orqali Mitra haqiqatning ochiqligi, yolg‘onning fosh etilishi va adolatning qaror topishini ifodalaydi[7].

Umuman olganda, zardushtiylikdagi Mitra obrazini faqat Ahura Mazda yordamchisi yoki ikkilamchi iloh sifatida baholash uning diniy-tarixiy mazmunini toraytirib yuboradi. Mitra haqiqat, adolat, ahdga sodiqlik, ijtimoiy tartib va kosmik muvozanatni ta’minlovchi yuksak ilohiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ahura Mazda zardushtiylik ta’limotida oliy yaratuvchi va ilohiy tartibning manbai sifatida ko‘rsatilsa, Mitra ushbu tartibning ijtimoiy, axloqiy va huquqiy munosabatlarda amaliy ro‘yobga chiqishini ta’minlovchi vosita vazifasini bajaradi. Shu sababli Mitraning mavqei oddiy yazata maqomidan ancha kengroq mazmunga ega bo‘lib, uning kulti qadimgi jamiyatda diniy e’tiqod, siyosiy hokimiyat, huquqiy munosabatlar va ijtimoiy birdamlikning o‘zaro bog‘lanishida muhim o‘rin tutgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boyce Mary. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. London & New York:Routledge, 979.–252 p.

2. Humbach, Helmut. “The Problem of Classifying Zoroastrianism” History of Religions Vol. 24, No. 3. 1984, – Pp. 211–230.

3. Humbach Helmut. The Gathas of Zarathustra and the Other Old Avestan Texts. Translated by J. H. Moulton. Leiden – Boston: Brill, 1991. – 412 p.

4. Kellens Jean. The Hymns of the Ratu (Yasht 17–19): A Critical Edition with Translation, Commentary, and Glossary. Wiesbaden: Reichert Verlag, 1988. 420 pp.

5. Kellens Jean. “Mithra,” Encyclopaedia Iranica, Vol. XIV, Fasc. 4, New York: Encyclopaedia Iranica Foundation, 2008. – Pp. 383–389.

6. Gnoli Gherardo. Zoroaster’s Time and Homeland: A Study on the Origins of Mazdeism and Related Traditions. New York: I.B. Tauris, 2015. – 256 p.

7. Hoffmann Karl. “Zur Theorie des Zoroastrismus,” Acta Iranica, Vol. 7 (1977), – Pp. 117–129.

8. Grenet Frantz. Religions in Ancient Central Asia. In The Cambridge History of Iran, Vol. 3(2): The Seleucid, Parthian and Sasanian Periods, edited by Ehsan Yarshater. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – Pp. 1–57.

UO’K 94:636.1(575)"1923"

TURKISTON ASSRDA YILQICHILIK SOHASIDAGI DAVLAT NAZORATI VA OT SAVDOSINING SHAKLLANISH TARIXI (1923-YIL)

A.Y.Raimov, tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 1923-yilda Turkiston ASSRda yilqichilik sohasida yuzaga kelgan davlat nazorati, boshqaruv tizimidagi muammolar va ot savdosining tartibga solinishi arxiv hujjatlari asosida tahlil etilgan. Kichik Xalq Komissarlari Kengashining qarori, telefonogramma, harbiy kengashga yo‘llangan raport, ish moli savdosi haqidagi ma’ruza va ot tayyorlash shartnomalari o‘rganilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bozor erkinligi sharoitida respublika ish molini yo‘qotib borgan, boshqarma moliyaviy jihatdan markazga qaram bo‘lgan, naslchilik ishi esa rejasiz, tasodifga bog‘liq holda yuritilgan. Yettisuv va G‘ulja (Ili viloyati) bo‘yicha ma’lumotlar qiyosiy material sifatida berilgan. Maqola yilqichilik sohasi tarixini o‘rganishda 1923-yil hujjatlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *yilqichilik, Turkiston ASSR, davlat nazorati, ot savdosi, naslchilik, ot zavodlari.*

Аннотация. *В статье на основе архивных документов анализируются государственный контроль в коневодстве Туркестанской АССР в 1923 году, проблемы системы управления и регулирование торговли лошадьми. Изучены постановление Малого Совнаркома, телефонограмма, рапорт, адресованный Революционному военному совету, доклад о регулировании торговли рабочим скотом и договорные условия заготовки лошадей. Исследование показывает, что в условиях свободного рынка республика теряла рабочий скот, управление зависело от центра в финансовом отношении, а племенная работа велась без плана и зависела от случайности. Сведения по Семиречью и Кульдже (Илийский край) даны как сравнительный материал. Статья показывает значение документов 1923 года для изучения истории коневодства.*

Ключевые слова: *коневодство, Туркестанская АССР, государственный контроль, торговля лошадьми, племенное дело, конные заводы.*

Abstract. *This article analyzes, on the basis of archival documents, state control over horse breeding in the Turkestan ASSR in 1923, the problems of the management system, and the regulation of the horse trade. The study examines a resolution of the Small Council of People’s Commissars, a telephone message, a report addressed to the Revolutionary Military Council, a report on regulating the trade in draft animals, and contract terms for horse procurement. It shows that under free-market conditions the republic was losing its working stock, the administration was financially dependent on the center, and breeding work was conducted without a plan and left to chance. Data on Semirechye and Kulja (Ili region) are given as comparative material. The article demonstrates the value of 1923 documents for the history of horse breeding.*

Keywords: *horse breeding, Turkestan ASSR, state control, horse trade, breeding, stud farms.*

Kirish. 1923-yilda Toshkentda tuzilgan hujjatlarda xalq yilqichiligi masalasi respublika uchun ham qishloq xo‘jaligi, ham davlat mudofaasi ehtiyojlari jihatidan kechiktirib bo‘lmas muammo sifatida ko‘rsatilgan. Povoljye (Volga bo‘yi) ocharchiligi oqibatida mol nobudgarchiligi yuz bergan, tayyorlovchilarning e’tibori esa Turkistonga qaratilgan, respublikaning o‘zida ham, ayniqsa paxtachilikdagi jonlanish tufayli, ish moliga ehtiyoj ortgan. Shu sababli yilqichilik oddiy idoraviy masaladan hukumat nazoratini talab qiluvchi muammoga aylangan. Maqolaning maqsadi 1923-yil arxiv hujjatlari asosida shu davrda Turkiston ASSRda yilqichilik sohasidagi davlat nazorati, boshqaruv muammolari va ot savdosining tartibga solinishini aniqlashdir [1]. Buning uchun nazorat va boshqaruv tizimidagi muammolar, naslchilik hamda yem-xashak bazasining ahvoli, ot savdosi va tayyorlovning hududiy xususiyatlari tahlil qilindi.

Metodologiya. Tadqiqotning manbaviy asosini 1923-yilda Toshkent, Yettisuv va G‘ulja (Ili viloyati) bilan bog‘liq arxiv hujjatlari tashkil etadi: Kichik Xalq Komissarlari Kengashining qarori, Turkiston iqtisodiy kengashi raisining telefonogrammasi, Turkiston fronti Inqilobiy harbiy kengashiga raport, «Turkistonda yilqichilik» ma’lumoti, ish moli savdosi haqidagi ma’ruza hamda G‘ulja bo‘yicha xarid va tayyorlovga oid hujjatlar [2]. Tarixiy-tahliliy usul voqealarni davr va joy bo‘yicha aniqlash, problem-xronologik usul hujjatlarni mazmuniga ko‘ra guruhlash, qiyosiy usul esa Turkiston ahvolini Povoljye, Ukraina, Sibir, Qirg‘iz respublikasi, Yettisuv va Ili viloyati ma’lumotlari bilan solishtirish uchun qo‘llandi.

Natijalar. 1922-yil noyabrdan 1923-yil aprelgacha Toshkentda Turkiston fronti Inqilobiy harbiy kengashiga yo‘llangan raportda muallif besh oylik kuzatuvi asosida xalq yilqichiligi ahvoli xavotirli ekanini va kechiktirib bo‘lmaydigan choralar kerakligini yozgan. Raportda boshqarma tuzilmasi va vazifalari belgilanmagani, shtatlar asoslanmagan raqam bilan tayinlangani, sohani Yer ishlari komissarligining ma’muriy boshqarmasi tarkibiga kiritish loyihasigacha yo‘l ochilgani, prinsipial masalalar texnika kengashida muhokama qilinmay hal etilgani va boshqarma ishi tashkilotni qayta qurish bilan cheklanib qolgani aytilgan [3]. Sohani ma’muriy boshqarma tarkibiga qo‘shish loyihasi yilqichilik mustaqil muassasa maqomini yo‘qotish xavfi ostida qolganini, texnika kengashining chetlab o‘tilishi esa qarorlarni ilmiy asosdan ayirganini bildiradi.

1923-yilda Toshkentda Yer ishlari xalq komissarligining Axborot statistika bo‘limiga yo‘llangan «Turkistonda yilqichilik» ma’lumotida qish va bahor davomida Moskvaga Turkiston yilqichiligi ehtiyojlarini oydinlashtiruvchi ko‘p sonli iltimosnomalar yuborilgani va ularga boshqarmaning ma’lumotlari hamda smetalari ilova qilingani qayd etilgan, markazdan to‘liq pul bilan ta’minlash masalasi ko‘tarilgan [4]. Shu ma’lumotda davlat zavodlarini naslli ayg‘ir (erkak ot) bilan ta’minlash shoshilinch masala sifatida ko‘rsatilgan: Avliyo ota davlat zavodi uchun 3 bosh qirg‘iz ayg‘iri, Iskandar davlat zavodi uchun 6 bosh qorabayir ayg‘iri, yangi zavod uchun 2 bosh yo‘mut ayg‘iri va 10–15 bosh yo‘mut biyasi (urg‘ochi ot) kerak bo‘lgan; a’lo darajadagi biyalar esa o‘rtachadan past ayg‘irlar bilan qochirilayotgani ta’kidlangan. Pul yo‘qligidan ekin kampaniyasi amalga oshmagani, hozirning o‘zida beda bilan ta’minlanish, shuningdek suli va arpa g‘amlash zarurligi ham qayd etilgan [5]. Iltimosnomalarning Moskvaga yo‘naltirilishi mahalliy boshqarmaning moliyaviy mustaqilligi deyarli bo‘lmaganini, yaxshi biyalarning past ayg‘irlar bilan qochirilishi esa genofond (zotning irsiy zaxirasi) buzilishi xavfini ko‘rsatadi; ekin kampaniyasining uzilishi yilqichilik muassasalarini o‘z yem bazasidan mahrum qilib, keyingi qish uchun xavf tug‘dirgan.

1923-yilda Toshkentda raportning keyingi bandlarida ot bosh sonini ommaviy yaxshilash, asosan tabun (boqiladigan ot galasi) yilqichiligini yaxshilash bo‘yicha chora va tizim yo‘qligi, qochirish kampaniyasi (biyalarni ayg‘ir bilan juftlash mavsumi) rejasi mavjud emasligi qayd etilgan. Kampaniya joylardagi rahbarlarning g‘ayrati va bilimiga, ya’ni tasodifga bog‘liq bo‘lishini, bu yil xalq yilqichiligi uchun sezilarli yo‘qotish yili bo‘lishini aytgan; naslli ayg‘irlar yetishmasligi va tashqaridan yordamga umid qilib bo‘lmasligi ta’kidlangan [6]. «Tasodifga bog‘liq» degan baho markaziy rejalashtirishning yo‘qligini, xususiy yilqilarning alohida tilga olinishi esa naslchilik ishining asosiy obyekti hali aholi qo‘lidagi mol ekanini ko‘rsatadi.

Turkistonning nisbiy boyligi asosan Yettisuv hisobiga ekani, paxtachilikdagi jonlanish tufayli zaxiradan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerakligi, ot savdosi me’yorlanmagani sababli narxlar o‘ta notekis ekani qayd etilgan. Uzoq tumanlar tayyorlovchilar tomonidan ishlatilmagan, barcha yuk temir yo‘lga yaqin Avliyo ota – Pishpek hududiga tushgan va bu joylar molsiz qolgan, Lepsinsk, Prjevalsk kabi tumanlar esa ortiqcha molni o‘ta past narxda topshirishga majbur bo‘lgan [7]. Bu ma’lumotlar qo‘shni hududlar zaxirasi tugagach Turkiston butun mamlakat uchun ish moli manbaiga aylanganini va tayyorlov tizimining bosh nuqsoni transport yaqinligiga qarab hudud tanlash bo‘lganini ko‘rsatadi.

1921–1923-yillarda G‘ulja shahrida (Ili viloyati) otlar sotib olishga oid hujjatlar qiyosiy material sifatida Turkiston yilqichiligi tashqi manbaga bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Tashqi savdo idorasining 1921-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra G‘uljadan 10 000 boshgacha ot sotib olish mumkin bo‘lgan, 1922-yilda esa Turkiston tashkilotlari kontragentlar orqali 3000 boshgacha ot sotib olgan [8]. 1923-yilda G‘uljada ikki xususiy eganing podalaridan 3000 boshgacha ot sotib olish mumkin edi, yana 1000 bosh Ili viloyati harbiy gubernatori qo‘lida turgan. Shartnomaga ko‘ra to‘lovning 25 foizi chegaradan o‘tganda, 25 foizi Olmaotadan o‘tishda, 50 foizi Avliyo otada komissiya qabul qilganda to‘langan, Xorgos chegarasidan Avliyo otagacha 1100 chaqirimni 40 kunda bosib o‘tish hisoblangan. Qo‘mondonlik tarkibi uchun «torg‘aut» otlari 350–500 teuzdan, faqat quyma kumushga sotilishi qayd etilgan [9]. 1923-yilda Turkiston ASSRda tayyorlanadigan 10 000 bosh otni taqsimlash tartibi belgilangan: Samarqand viloyati va Zakaspiy hududidan 400 bosh otliq qo‘shin turidagi ot, Yettisuv viloyatining Qorako‘l, Olmaota tumanlari va Jarkent uyezdidan 600 bosh artilleriya va minish turidagi ot olinishi ko‘zda tutilgan. Turkiston ichida tayyorlanadigan otlar sovet pul belgilari bilan, taxminan 5000 so‘mdan to‘lanishi, tayyorlov Yettisuvda 2,5 oyda, Samarqand va Zakaspiyda 2 oyda tugatilishi hisoblangan. Tayyorlov Savdo byurosiga yuklatilgan va uning tarkibiga manfaatdor idoralardan nazoratchi shaxslar kiritilishi lozim bo‘lgan. Samarqand viloyatining otliq qo‘shin uchun ot beruvchi hudud sifatida ajratilishi O‘zbekiston hududidagi yilqichilikning harbiy ahamiyatini, nazoratchilarni kiritish qoidasi esa yirik xaridlardagi suiiste’molning oldini olish zarurati bo‘lganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Yilqichilikning moliyaviy, naslchilik va yem-xashak jihatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birining kamchiligi boshqalariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Tayyorlovning harbiy maqsadi ham hujjatlarda ochiq ko‘rinadi. Qo‘mondonlik tarkibi va tez harakat talab qiladigan qismlar uchun otlar tanlangan, 10 000 bosh otning taqsimotida esa Samarqand viloyati va Zakaspiy hududi otliq qo‘shin

turidagi ot beruvchi hudud sifatida ajratilgan. Bu O‘zbekiston hududidagi yilqichilikning mudofaa ahamiyatini ko‘rsatadi. Tayyorlovni Savdo byurosiga yuklab, uning tarkibiga manfaatdor idoralardan nazoratchilar kiritish qoidasi esa yirik xaridlarda nazoratni kuchaytirish zarurati sezilganini bildiradi [10]. Biroq bu xulosa hujjatdagi tartibga asoslangan va uning amalda qanchalik ishlagani manbalardan ko‘rinmaydi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, manbalar asosan idoralarning o‘z baholarini aks ettiradi va faqat 1923-yil, qisman 1921–1922-yillar ma’lumotlarini qamrab oladi.

Xulosa. 1923-yil hujjatlari Turkiston ASSRda yilqichilik hukumat nazoratidagi muammoga aylanganini va ot savdosini tartibga solish zarurati rasman tan olinganini ko‘rsatadi. Boshqarma prinsiplarsiz qayta qurishlar, moliyaviy qaramlik va naslchilik rejasining yo‘qligi bilan kurashgan, naslli ayg‘irlar yetishmagan, yem-xashak bazasi esa ekin kampaniyasining uzilishi tufayli xavf ostida qolgan. Ot savdosida hududiy notekislik, narx tebranishi va chegara ortidagi natural ayirboshlash yetakchi bo‘lgan. Ma’lumotlar Turkistonning qo‘shni hududlar zaxirasi tugagach ish moli manbaiga aylanganini, shu bilan birga G‘ulja bozoriga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ot tayyorlash harbiy ehtiyojga yo‘naltirilgan va Samarqand viloyati hamda Zakaspiy hududi bu jarayonda alohida o‘rin tutgan. Olingan natijalar 1923-yilni Turkiston ASSRda yilqichilik sohasi tarixini o‘rganishda boshlang‘ich nuqta sifatida ko‘rsatadi, keyingi yillar hujjatlari esa bu muammolarning qanday hal etilganini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 258, 304-betlar.
2. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 271, 290-betlar.
3. История крестьянства СССР. История Советского крестьянства. В 5 томах. Том 1. Крестьянство в первое десятилетие Советской власти, 1917–1927. – Москва: Наука, 1986.
4. Икромов А. Чорвачилик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
5. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 258-bet.
6. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 304-bet.
7. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент: Фан, 1957.
8. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 272-bet.
9. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 276-bet.
10. O‘zMA, R-25, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 1292, 288-bet.
11. Щекин В.А., Вихрев В.С. Карабаир. – Ташкент, 1947.
12. Лихов К.А. Государственная племенная книга карабаирской породы. Том IV. – Ташкент: Узбекистан, 1982.
13. Книга о лошади / Под ред. С.М. Буденного. Т. 1. – Москва, 1952.
14. Демин В.А., Хотов А.В. Коневодство. – «Лань», 2023.

UO‘K 94(575.1):625.1

CHOR ROSSIYASU DAVRIDA TERMIZ YO‘LLARI: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA TARIXIY AHAMIYATI

D. Rasulova, tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqola Chor Rossiyasi davri (1870-1917-yy) da Termizning harbiy chegara manzilgohi sifatida paydo bo‘lishi uchun rus sayyohlari va muhandislari tomonidan Surxon vohasiga olib boradigan yo‘llarning ochilishi tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur yo‘llar nafaqat harbiy balki vohaning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga, savdo aloqalarining rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’sirini ochib bergan.*

Kalit so‘zlar: *Chor Rossiyasi, Buxoro xonligi, Surxondaryo, Termiz, Pattakesar, Sherobod, Boysun, Denov, G‘uzor, Afg‘oniston, Amudaryo, Samarqand.*

Аннотация. *В данной статье с исторической точки зрения анализируется прокладка российскими путешественниками и инженерами дорог, ведущих в Сурханский оазис, что послужило основой для возникновения Термеза как военного пограничного поселения в период царской России (1870–1917 гг.). Кроме того, в ней раскрывается влияние, которое эти пути оказали не только на военную сферу, но и на социально-экономическую и культурную жизнь оазиса, а также на развитие торговых связей.*

Ключевые слова: *Царская Россия, Бухарское ханство, Сурхандарья, Термез, Паттакесар, Шерабад, Байсун, Денау, Гузар, Афганистан, Амударья, Самарканд.*

Abstract. *This article provides a historical analysis of the opening of roads leading to the Surkhan oasis by Russian travelers and engineers during the Tsarist Russian period (1870-1917), which facilitated the emergence of Termez as a military border settlement. Furthermore, it reveals the impact these roads had not only on military affairs but also on the socio-economic and cultural life of the oasis, as well as the development of trade relations.*

Key words: *Tsarist Russia, Bukhara Khanate, Surkhandarya, Termez, Pattakesar, Sherabad, Boysun, Denau, Guzar, Afghanistan, Amu Darya, Samarkand.*

XIX asr ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi tomonidan Surxon vohasidagi yo‘llar, tog‘lar va tekisliklar o‘rganila boshlandi. Bundan ko‘zlangan maqsad harbiy yurishlarda qulay joylarni topish va undan harbiy maqsadlarda foydalanish bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Maev, Petrov, Vasilev, Karaulshchikov, Galkin va boshqalar Surxon vohasidagi yo‘llarni o‘rganib uning geografik tavsifini keltirgan. Bundan ko‘zlangan maqsad Surxon vohasining strategik ahamiyatini aniqlash bo‘lgan[2].

Chor Rossiyasi va Afg‘oniston o‘rtasida chegara vazifasini bajargan Amudaryo bo‘yida rus bojxonalari va chegara qo‘riqlash postlarining tashkil etilishi bilan tovarlar va savdo karvonlari o‘tish joylari chegara qo‘riqlash xizmati nazorati ostida o‘tgan. 1904-yil ruslarning Kalif, Cho‘chqa-G‘uzor, Pattakesar, Saroy, Chubek, Ayvajv va Bogorakda uzunligi 600 mil masofaga yetadigan rus bojxona idoralarining o‘tish joylari tashkil etilgan[6]. Bundan ko‘zlangan maqsad esa, Buxoroga ingliz-hind tovarlarining (asosan choy) import qilishini oldini olishdan iborat bo‘lgan[6]. Afg‘oniston bilan savdoni rivojlantirishga qaratilgan ushbu o‘tish joylari mahalliy aholi ehtiyojlari uchun ham xizmat qilgan. Buxoro amirligi tomonidan ichki shaharlarda savdo-tijorat ishlarini rivojlantirish uchun Termizdan Chubekkacha yo‘l qurilgan.

Samarqand – Kitob – Shahrisabz – G‘uzor – Sherobod – Termiz yo‘nalishida jami 15 ta mustahkamlangan post stansiyalari mavjud bo‘lib bular quyidagilarni tashkil etadi: Qaracha, Qaynar Buloq, Kitob, Shahrisabz, Qizil Daryo, Yartete, Guzar, Kalta Minor, Qora Xoval, Abdullaxon Rabot, Sayrob, Igorchi Sherobod, Angor va Termiz[5]. Shuningdek aholi tomonidan XIX asr oxirida foydalanilgan yo‘llardan Darband – Boysun – Denov – Regar – Hisor – Kofirnihon – Garm yo‘nalishi ham mavjud bo‘lgan. Bu yo‘l bir nechta tog‘ dovonlarida o‘tadi Kofirnihongacha bo‘lgan yo‘l ikki qismga bo‘linib, ba’zi joylarida faqat ot – ulov bilan harakatlanish mumkin bo‘lgan. Surxondaryoda eng gavjum yo‘llardan Termiz – Denov – Termiz yo‘li bo‘lib, unda Termiz, Jarqo‘rg‘on, Arpapoya, Qumqo‘rg‘on, Kaltepa, Denov yo‘nalishlari mavjud bo‘lgan[5]. Chorjo‘y – Kerki – Kalif – Termiz – Ayvaj – Saray – Chubek – Anjeray – Zigar – Kalaxumb — Kala – Vamar yo‘li daryo va qum tutashgan joylardan o‘tgan[5].

Buxoro xonligi Rossiya imperiyasiga qo‘shib olingandan so‘ng asosiy yo‘llar quyidagi yo‘nalishda rivojlangan:

1. Buxoro – Qorako‘l – Chorjo‘y;
2. Chorjo‘y – Kerki;
3. Samarqand – Shahrisabz – Termiz.

Termiz yo‘nalishidagi yo‘llar Buxoro ma’muriyati tomonidan Rossiya hukumatining iltimosiga ko‘ra qurilgan tuproqli yo‘llar bo‘lib, yo‘l bo‘yidagi qishloqlarda maxsus mahalliy tipdagi karvonsaroylar tashkil etilgan. 1888-yil Chorjo‘ydan Kerkiga, keyinchalik Termizga paroxod liniyasini ochilishi bilan bu yo‘nalish o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Faqat qishda Amudaryo suvining muzlashi va kemalar qatnovi to‘xtashi sababli mahalliy aholi zaruratda foydalangan. Buxoro amiri bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra Termiz va Samarqandni bog‘lovchi yo‘l 15 ta pochta stansiyasiga bo‘lindi. Yo‘l qurilishida Buxoro aholisi, rus harbiy muhandislari, ofitserlar, Turkiston sapyor batalyoni askarlari rahbarligida amalga oshirildi. Yo‘l 1902-yil foydalanishga topshirilgan bo‘lib, umumiy 400 ming rubl sarf qilingan[5]. Pochta yo‘nalishidagi bu yo‘lning ba’zi joylarigina asfaltlangan. 1900-yil Buxoro – Afg‘oniston o‘rtasida imzolangan chegara shartnomadan so‘ng, Kerkidan Chubek qishlog‘igacha yo‘l qurilish ishlari boshlandi. Yo‘l Buxoro aholisi tomonidan qurilgan bo‘lib, faqat zaruratda foydalanishga yaroqli bo‘lgan.

Buxoro amirligining muhim savdo liniyalaridan biri Samarqand – Termiz yo‘nalishi bo‘lib, amirlik pochta stansiyalarini ta’mirlash, pochta otlari va hujjatlarni tashiydigan aravachilar uchun Rossiyadan har yili 6 000 rubl pul olgan. Shuningdek, “Pochta va telegraf boshqarmasi” tashkil etilgan bo‘lib, maxsus tadbirkorlar yo‘lni ta’mirlashni o‘z zimmasiga oladi va har bir pochta stansiyasiga har uch ot uchun yillik belgilangan summa to‘lanadi. Buxoroning yirik Kitob, G‘uzor va Sherobod shaharlarini Samarqand bilan bog‘laydigan bu yo‘l yirik tadbirkorlar va mahalliy aholi tomonidan serqatnov yo‘l sifatida foydalanilgan. Samarqanddan Shahrisabz orqali Surxon vohasiga o‘tuvchi tog‘ yo‘llaridan foydalanish qadimgi davrlardan boshlangan. XIX asr o‘rtalarida esa bu yo‘llar uch yo‘nalishga bo‘lingan:

Samarqand-Shahrisabz-Yakkabog‘-Toshqo‘rg‘on-Shotrud dovoni Sarijo‘y-Yurchi-Denov-Termiz-Balx yo‘nalishi;

Samarqand-Jom-Chiyaliquduq-G‘uzor-Oqrabod-Temir darvoza-Termiz-Balx yo‘nalishi;

Samarqand-Shahrisabz-Kaltaminor-Oqrabod-Temir darvoza-Termiz-Balx yo‘nalishi[3].

Kerkidan Termiz, Ayvadas, Saray, Chubek va Ko‘lob orqali o‘tadiga yo‘l ham mavjud bo‘lib, Amudaryo brigadasi Termizdan Saraygacha va Saraydan Ko‘lob shahrigacha bo‘lgan qismini ta’mirlash uchun har yili mablag‘ ajratgan. Chunki bu yo‘nalish Chor Rossiyasi uchun alohida harbiy – strategik ahamiyat kasb etgan[5]. Mahalliy aholi orasida baland tog‘ dovonlaridan o‘tadigan yo‘llar ham bo‘lib, yuk tashishda faqat ot, tuya va eshaklardan foydalanish mumkin. Bu yo‘llarda noyabrdan martgacha barcha harakatlanish butunlay to‘xtagan.

Surxon vohasining asosiy harakatlanuvchi yo‘llarida baland g‘ildirakli shinalari juda yupqa temirdan yasalgan diametri bir sajgacha bo‘lgan ikki g‘ildirakli aravalardan foydalanilgan. Ot aravaga bog‘langan bo‘lib, haydovchi maxsus egarda o‘tirib uzun arqondan tayyorlangan jilov bilan boshqargan. Bunday aravalarga tekis yo‘llarda 30 – 100 funtgacha yuk ortilgan. Yo‘lovchi tashiydigan aravalar ustiga maxsus kanvas chodir o‘rnatilgan bo‘lib, yo‘lovchini yomg‘ir va quyosh nuridan himoya qilgan. Mahalliy aholida rus tipidagi to‘rt g‘ildirakli aravalar mavjud bo‘lmagan. Shuningdek, Termiz va Chorjo‘y aholisi ikki g‘ildirakli fors aravalaridan ham foydalangan. Umuman olganda, asosiy transport vositasi tuyalar bo‘lib, ular 16 pud (350 kg) gacha og‘irlikdagi maxsus kigiz yostiqchalari bo‘lgan yog‘och yuk egarga ortilgan. Tuyalar topilmaydigan joylarda otlar uning o‘rnini egallab, kigiz gilamchada qamishdan yasalgan yuk egar yordamida 8 pud (250 kg) gacha yuk tashigan. Surxon vohasining tog‘li hududlarida esa, faqat eshaklardan foydalanilgan bo‘lib, ular 5 pud (120 kg) gacha yuk tashigan[5].

Harbiy maslahatchi Petrov Qashqadaryo, Surxondaryo va hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan bekliklarni o‘zaro bog‘lovchi yo‘llarni aniqlagan. Boysun bekligidan Machaydan quyiga qarab ikkita tog‘ yo‘li o‘tgan bo‘lib, chuqur dara bo‘ylab Darbandga kelgan. U yerdan Boysun, Sherobod va G‘uzorga boruvchi yo‘llar tutashib ketgan. Surxon vohasidagi asosiy yo‘llar ikki taraflama bo‘lib, Denovdan Surxon daryosi bo‘ylab o‘tuvchi yo‘l Termiz (Pattakesar) gacha, ikkinchisi esa Mirshodi orqali Sherobodga olib borgan[2].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chor Rossiyasining Surxon vohasidagi harbiy-strategik va iqtisodiy manfaatlari natijasida Termiz va uning atrofidagi hududlarda transport – kommunikatsiya tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim bosqich bo‘ldi. Surxon vohasidagi yo‘llarning ochilishida dastlab harbiy maqsadlar ko‘zlangan bo‘lsa-da, yakuniy natijada vohaning o‘zaro iqtisodiy integratsiyalashuvida savdo aloqalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Botirov I.T. Eski Termiz tarixiy manbalarda – Toshkent, 2010.

2. Ochildiyev F. Surxon vohasi bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) / mas’ul muharrir. Sagdullayev A., Rajabov Q. – Toshkent: Abu matbuot – konsalt, 2008. – B. 23-26.

3. Termiz buyuk yo‘llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. – Toshkent, 2001. – 108 b.

4. Тухтаметов Т.Г. Русско – Бухарские отношение в конце XIX – начале XX в. Победа Бухарской народной революции. / ответ редактор. Ишанов А.И. – Т: Фан, 1966. – С. 117-121.

5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство том I. / ответ редактор. Березовский В. — СП: Русская Окоропечатия, СПб: 1911. – С. 207.

6. Логофет Д.Н.Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. СПб: 1909. – С. 136.

UO'K 94(575.1)(091):930.2

MARKAZIY O'ZBEKISTON HUDUDIGA KO'HNA YODGORLIKLAR YOZMA MANBALARDA

F.U. Samarov, PhD, v.b. dots., Qarshi xalqaro universitet, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Markaziy O'zbekiston hududidagi ko'hna tarixiy-me'moriy yodgorliklarning yozma manbalarda aks etishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Tohirxoja Samarqandiy, Rui Gonsales de Klavixo va boshqa mualliflarning asarlarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlardan foydalanildi. Yozma manbalardagi yodgorliklarning joylashuvi, bunyod etilish tarixi, qurdirgan shaxslar, me'moriy tuzilishi, tarixiy vazifasi hamda tarixiy voqealar bilan bog'liqligiga oid ma'lumotlar manbashunoslik va tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy O'zbekiston, tarixiy-me'moriy yodgorliklar, yozma manbalar, tahlil, Buxoro, Samarqand, tarixiy shaharlar, me'moriy meros.*

Аннотация. *В данной статье анализируется отражение древних историко-архитектурных памятников Центрального Узбекистана в письменных источниках. В исследовании использованы исторические сведения, содержащиеся в трудах Абу Бакра Мухаммада ибн Джафара Наршахи, Шараф ад-Дина Али Йазди, Мирзо Улугбека, Захириддина Мухаммада Бабура, Абу Тахирходжи Самаркандий, Руи Гонсалеса де Клавихо и других авторов. Сведения письменных источников о местонахождении памятников, истории их строительства, заказчиках и создателях, архитектурной структуре, исторических функциях, а также их связи с историческими событиями проанализированы на основе источниковедческого и историко-сравнительного подходов.*

Ключевые слова: *Центральный Узбекистан, историко-архитектурные памятники, письменные источники, анализ, Бухара, Самарканд, исторические города, архитектурное наследие.*

Abstract. *This article analyzes the representation of ancient historical and architectural monuments of Central Uzbekistan in written sources. The study draws on historical information contained in the works of Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshakhi, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Muhammad Babur, Abu Tahir Khoja Samarkandi, Rui Gonzalez de Clavijo, and other authors. Information from written sources concerning the location of monuments, their construction history, patrons and builders, architectural structure, historical functions, and connections with historical events is analyzed using source-critical and historical-comparative approaches.*

Keywords: *Central Uzbekistan, historical and architectural monuments, written sources, analysis, Bukhara, Samarkand, historical cities, architectural heritage.*

Kirish. Markaziy O'zbekiston, xususan, Samarqand va Buxoro hududlari qadimdan siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning muhim markazlari bo'lib kelgan. Mazkur hududda turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar, qadimiy manzilgohlar, shahar xarobalari, mudofaa inshootlari va me'moriy obidalar mavjud. Ularni o'rganishda arxeologik dalillar bilan bir qatorda yozma manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Yozma manbalarda shaharlar, ularning joylashuvi, siyosiy-madaniy ahamiyati va tarixiy obyektlari haqida qimmatli ma'lumotlar saqlangan. Shu bois yozma va arxeologik manbalarni qiyosiy tahlil qilish Markaziy O'zbekiston tarixiy-madaniy merosini tadqiq etishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Markaziy O'zbekiston hududidagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarning yozma manbalarda aks etishini o'rganishda Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403—1406)", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" hamda Abu Tohirxoja Samarqandiyning "Samariya" asarlari muhim manbaviy ahamiyatga ega. Mazkur asarlarda Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa tarixiy markazlari, ularning shaharsozlik muhiti, saroy, masjid, madrasa, maqbara va boshqa me'moriy obyektlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, Ibn Battuta, Seydi Ali Rais, Herman Vamberi va Yevgeniy Skayler asarlarida Markaziy Osiyo shaharlari va tarixiy obidalarning turli davrlardagi holati sayohatchilar va mualliflarning kuzatuvlari asosida yoritilgan. Ushbu manbalar yodgorliklarning tarixiy nomi, joylashuvi, vazifasi va davriy o‘zgarishlarini aniqlash hamda mahalliy manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiylik, xolislik, tizimlilik va manbalarga tanqidiy yondashuv tamoyillariga asoslandi. Tadqiqotda manbashunoslik, tarixiy-qiyosiy, xronologik, retrospektiv va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida Markaziy O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy yodgorliklarning shakllanishi, joylashuvi, funksiyasi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek, turli mualliflarning ma’lumotlari o‘zaro qiyoslanib, tarixiy toponimlar va me’moriy obyektlar tavsifi arxeologik hamda me’moriy tadqiqotlar natijalari bilan solishtirildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga qadar O‘zbekistonning markaziy hududlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi ko‘plab yozma manbalar saqlanib qolgan bo‘lib, ular tarixiy jarayonlarni tadqiq etishda muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ana shundan manbalardan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari hisoblanadi. Asarda muallif mazkur hudud to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Bu borada qadimiy Arkning bunyod etilish tarixi haqidagi qaydlari ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Narshaxiy bu haqida quyidagicha to‘xtalib o‘tgan: “Buxoro kuhandizining, ya’ni Buxoro arki hisorinnng bino etilishiga mana shu voqea sabab bo‘lgan: Siyovush ibn Kaykovus o‘z otasidan qochib Jayhun daryosidan o‘tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o‘z qizini unga -xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o‘ziga vaqtincha berib qo‘yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shundan qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko‘proq vaqt o‘sha joyda turar edn. U bilan Afrosiyob o‘rtasida yomon gap yurgizdi va natijada Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishda «Darvozayi g‘uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navruz kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar. Qo‘shiqchilar uni «otashparastlar yig‘isi» deydilar. Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko‘ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba’zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. So‘ng bu hisor buzilib ketib, ko‘p yillar vayronligicha qoldn”[1.28].

Narshaxiyning mazkur qaydlari Buxoro Arkiga oid qadimiy tarixiy tasavvurlarni o‘rganishda muhim manbalardan biridir. Muallif Arkning bunyod etilishini Siyovush nomi bilan bog‘lab, uning Afrosiyob bilan munosabatlari, Siyovushning fojiali taqdiri va uning dafn etilgan joyi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi. Ushbu rivoyatda tarixiy voqealar bilan afsonaviy-mifologik tasavvurlar o‘zaro qorishib ketgan bo‘lsa-da, u Buxoro shahrining qadimiy urbanistik markazi — Arkning mahalliy tarixiy xotiradagi o‘rnini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Narshaxiyning Arkning dastlab qurilgani, keyinchalik vayronaga aylangani va uzoq vaqt xaroba holida qolganligi haqidagi ma’lumotlari mazkur inshootning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda e’tiborga loyiqdir. Shu jihatdan, “Buxoro tarixi”dagi Siyovush haqidagi rivoyatni Arkning aynan qachon va kim tomonidan bunyod etilganini tasdiqlovchi aniq tarixiy dalil sifatida emas, balki Buxoro Arkiga doir qadimiy tarixiy xotira va rivoyatlarning yozma manbadagi aks-sadosi sifatida baholash maqsadga muvofdir.

Samarqand hududidagi Temuriylar davri me’moriy obidalarining bunyod etilish tarixiga oid muhim ma’lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ham o‘z aksini topgan. Muallif Amir Temur tomonidan Samarqandning shimoliy qismida bunyod ettirilgan Bog‘i Shimol majmuasi va undagi ko‘shkning qurilishi haqida quyidagicha to‘xtalib o‘tgan: “Bas, avval bahordakim, oftobi olamtob Hamal burjida keldi, ustakorlar yaxshi soatda Bog‘i Shimol tarhini soldilar. Va shaharning shimoli sorida erdi. Ul jihatdin ani Bog‘i Shimol ot qo‘ydilar. Aning ichida bir ko‘shk soldurdi,

bag‘oyat/takallufluq va zebo va har yerdakim, ustakorlarni sohibqiron viloyatlardin — Iroq va Fors va Bag‘dod va Sherozdin yibarib erdi, barcha munda jam’ bo‘lub, ishg‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Jumada al-oxir oyida, torix yetti yuz to‘qson to‘qqizda, ut (sig‘ir) yilda (mart 1397) farxunda soatda imorat ishig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Va to‘rt hissa qilib, har bir hissa ustig‘a bir jamoat ustakorlarni mashg‘ul qildurdi va ular ustig‘a bir bekni muhassil qo‘ydi. Beklar ihtimom qilib, kecha-kunduz ishlatur erdilar. Sohibqiron bir oy yarim o‘zi turub jahd etar erdilar. Andoq imorati oliy soldurdilarkim, biyiklik jihatidin ko‘k bila hamroz bo‘lub erdi. Va har burjida marmar toshidinkim, Tabrizdin kelturub erdilar, sutunlar qo‘ydurdilar va tomlarini oltun va lojuvard bila naqsh qildilar, va farshi (sahni) tamom marmar toshidin soldurdi” [2.187].

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridagi mazkur ma’lumotlar Amir Temur davrida Samarqandning shimoliy qismida Bog‘i Shimol majmuasi tarkibidagi hashamatli imoratning bunyod etilgani, uning qurilishiga turli viloyatlardan mohir ustalar jalb qilingani hamda inshootda marmar, oltin va lojuvard kabi qimmatbaho materiallardan foydalanilganini ko‘rsatib, Temuriylar davri me’morchiligining yuksak darajasi haqida muhim dalillar beradi.

Shu bilan birga mavzuga doir yana bir muhim manba, Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqand Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar)” asari hisoblanib, ushbu manbada ham Samarqanddagi ko‘plab yodgorliklar quyidagicha tavsiflab o‘tilgan: “Samarqand shahri tekislikda joylashgan bo‘lib, atrofi tuproq qal’a va chuqur handaq bilan o‘ralgan. Samarqand (ya’ni uning tuproq qal’a ichkarisidagi qismi) Sevilya shahridan xiyol kattaroqdir. Tuproq qal’adan tashqarida qurilgan ko‘p uylar shahar atrofidagi turar-joylar hisoblanadi. Butun shahar atrofi ba’zi joylari bir yarim, ba’zan ikki liga1* masofaga cho‘zilgan bog‘lar va tokzorlar bilan o‘ralgan. Bog‘lar oralig‘idagi ko‘cha va maydonlarda aholi istiqomat qiladi, non, go‘sht va boshqa ko‘plab narsalar bilan savdo qiladilar. Xullas, tuproq qal’adan tashqarida qurilgan binolar shahar ichkarisidagidan xiyla ko‘p edi. Shahardan tashqaridagi bog‘larda e’tiborli yirik xonadonlar, podshoҳ saroylari va bosh omborxonalar joylashgan”[3.198].

Klavixoning mazkur qaydlari XIV–XV asrlar bo‘sag‘asidagi Samarqandning tarixiy-topografik qiyofasini tasavvur qilish uchun muhim manbalardan biridir. Muallif shaharni nafaqat mudofaa inshootlari — tuproq qal’a va handaq bilan o‘ralgan markaziy qism, balki uning tashqarisida shakllangan keng turar-joylar, bog‘ va tokzorlar, savdo maydonlari hamda yirik xonadonlar va saroylar bilan birgalikda tasvirlaydi. Ayniqsa, shahar tashqarisidagi hududlarda me’moriy majmualar va xo‘jalik inshootlarining ko‘pligi Samarqandning faqat qal’a ichidagi shahardan iborat bo‘lmagan, balki keng va murakkab shahar atrofi hududlariga ega bo‘lgan yirik siyosiy-ma’muriy va iqtisodiy markaz sifatida rivojlanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Klavixoning ma’lumotlari Samarqandning Amir Temur davridagi shaharsozlik tuzilishi, aholi joylashuvi va shahar atrofi landshaftini o‘rganishda muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, muallif o‘z qaydlarida ayrim tarixiy-me’moriy yodgorliklar to‘g‘risida quyidagi aniq ma’limotlarni keltirib o‘tgan: “Yigirma to‘qqizinchi sentyabr, dushanba kuni podshoh Samarqandga jo‘nadi (va) shaharga kiraverishdagi bir saroyga kelib tushdi. Mazkur saroyni o‘z xotini Saroy Mulkxonim (Bibixonim)ning volidasi sharafiga qurdirgan edi. Qaynona shu saroy ichkarisidagi maqbaraga dafn etilgan. Bu yerlik odamlarda o‘z uylarini haddan oshiq bezash odat emas. Biroq, mazkur saroy har jihatdan mukammal bezatilgan, serhasham edi. Saroy qurilishi hali tugaganicha yo‘q, (shuning uchun) unda har kuni ustalar ishlab turardi”[3.165]. Klavixoning mazkur qaydlari Amir Temur davrida Samarqand atrofida bunyod etilgan saroy-me’moriy majmualar haqida muhim ma’lumot beradi. Muallif saroyning Saroy Mulkxonimning onasi sharafiga qurilganini qayd etish orqali uning nafaqat me’moriy, balki sulolaviy-xotira ahamiyatiga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Saroy hududida maqbaraning mavjudligi majmuaning memorial xususiyatini ham namoyon etadi. Klavixoning saroyni “serhasham” va “har jihatdan mukammal bezatilgan” deb tavsiflashi Temuriylar davri saroy me’morchiligida badiiy bezak va monumental me’moriy yechimlarga katta e’tibor berilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, qurilish ishlarining Klavixo tashrif

1* Bu yerda “liga” (league) — qadimgi Yevropa va Yaqin Sharq manbalarida uchraydigan masofa o‘lchov birligi. muhimi, liga yagona, qat’iy uzunlikka ega bo‘lmagan: mamlakat va davrga qarab uning qiymati o‘zgarib turgan. Ayrim ma’lumotlarda Klavixo keltirgan 1 liga = 4,82 km bo‘lganligi qayd etilgan.

buyurgan paytda ham davom etayotgani Samarqanddagi bunyodkorlik jarayonlari keng ko‘lamda olib borilganidan dalolat beradi.

Tadqiq etilayotgan mavzuni yanada aniq ochib berishda Amerikalik elchi Yujin Skaylerning “Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari” asari ham katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur qaydlarda muallif sayohatlari davomida mamlakatimizning qadimgi Samarqand, Kitob, Shahrisabz, Qarshi va Buxoro kabi shahar va tumanlari hududida joylashgan tarixiy-me’moriy yodgorliklar to‘g‘risida ham qimmatli va aniq ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

Jumladan, Y.Skayler o‘z qaydlarida Buxoro viloyatida joylashgan ko‘hna yodgorliklarni quyidagicha tavsiflab o‘tgan: “Arkdan o‘ngga aylanib, baland devorli, tor ko‘cha bo‘ylab tushib, Masjidi Balandga keldik. Bu juma masjidi bo‘lib, jamoat namozini ado etishga mo‘ljallangan. Aslini olganda bu kabi masjid yirik bo‘lib, shaharning butun ahlini sig‘dirishi kerak. Bu yerda esa atigi o‘n ming odamning ibodat tovushini eshitasiz. Masjid Buxoroning eng yirik va mustahkam inshootlaridan biri sanaladi. Ichkarisi katta ochiq sahndan iborat bo‘lib, kengligi bo‘ylab ikki, ba’zan uchta g‘ishtdan qubbasimon qanotli ravoqlar bilan o‘ralgan. Ayniqsa, yon va ort devorlari barchasi g‘ishtdan qurilgan va haybatli ustunlar bilan mustahkamlangan. Old qismi uncha yaxshi ta’mirlanmagan bo‘lib, ulkan arkali kirish qismi koshinlangan, arabeskalar bilan qoplangan va tomiga toj kabi qo‘ndirilgan koshinli gumbazlar o‘rnatilgan. Bu masjidga qarama-qarshi, juda baland, Minorai Kalon yoxud Katta minora deb atalgan doiraviy minora joylashgan. Ust qismi g‘oyat go‘zal va lol qoldiruvchi naqshinkor g‘ishtlar bilan qoplangan hamda tepasida ulkan laylak uyasi bor. Minora ba’zan jazoni qo‘llash joyi sifatida ham foydalanilib, buzg‘unchi jinoyatchilar uning yuqorisidan tashlab yuborilib, yerparchin qilingan. Ana shunday jazo berilgan so‘nggi odam Samarqandda boshpana topgan Bobon qaroqchi bo‘lib, 1871-yilda general Abramov tomonidan ortga qaytarilgan. Uncha katta bo‘lmagan maydonning ikkinchi tomonida mahobatli va ajoyib bino – Mir Arab madrasasi joylashgan. Bir yuz o‘n talabaga mo‘ljallangan hujralar yo‘laklari bo‘ylab ochilib, ayvonlari hovlini qoplagan. Yo‘laklarning qubbalari juda yaxshi qilingan hamda naqshinkor va rangli g‘ishtlar bilan bezalgan”[4.299-300].

Markaziy O‘zbekiston hududidagi ko‘hna tarixiy-me’moriy yodgorliklarning yozma manbalarda aks etishini tahlil qilish natijasida mazkur manbalar yodgorliklarning tarixiy shakllanishi, bunyod etilishi, asosiy vazifasi va o‘z davridagi holatini o‘rganishda muhim tarixiy dalil sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, Samarqand va Buxoro kabi qadimiy shaharlarga oid ma’lumotlar hududning tarixiy-madaniy taraqqiyoti hamda me’moriy muhitining shakllanish jarayonlarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi ma’lumotlar Buxoro shahrining qadimgi tarixi, uning topografik tuzilishi, mudofaa inshootlari va ayrim me’moriy obyektlarning shakllanish jarayonlarini o‘rganish imkonini beradi. Manbadagi ma’lumotlarni tahlil qilish Buxoro shahrining me’moriy qiyofasi bir necha tarixiy bosqichlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Narshaxiy ma’lumotlari Buxoroning keyingi davrlardagi me’moriy taraqqiyotini tarixiy jihatdan tushuntirish uchun muhim manbashunoslik asosini tashkil etadi.

Temuriylar davriga oid yozma manbalar esa Samarqanddagi bunyodkorlik jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Hofiz Abru va Ibn Arabshoh asarlaridagi ma’lumotlar hukmdorlar faoliyati, shaharlarning rivojlanishi hamda me’moriy inshootlarning bunyod etilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur ma’lumotlar orqali me’moriy yodgorliklarning faqat moddiy obyekt sifatidagi emas, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyatini ham kuzatish mumkin.

Rui Gonsales de Klavixoning Samarqandga oid qaydlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki muallif ayrim me’moriy obyektlar va shahar muhitini bevosita kuzatgan holda tasvirlagan. Uning qaydlarida saroylar, masjidlar, bog‘lar, shahar inshootlari va hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish XV asr boshlarida Samarqandning me’moriy qiyofasi va bunyodkorlik ko‘lamini tarixiy jihatdan tasavvur qilish imkonini beradi.

Yozma manbalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish natijasida bir xil tarixiy obyekt haqida turli mualliflarning ma’lumotlari mazmun va tafsilot darajasiga ko‘ra farqlanishi aniqlandi. Bunday

farqlar, avvalo, mualliflarning yashagan davri, manbadan foydalanish imkoniyati, voqealarga munosabati va asarning yaratilish maqsadi bilan bog‘liq.

Xulosa. Tadqiqot natijasida Markaziy O‘zbekiston, xususan, Samarqand va Buxoro hududlaridagi ko‘hna tarixiy-me’moriy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlar turli davrlarga oid yozma manbalarda keng aks etgani aniqlandi. Manbalarni tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik jihatdan tahlil qilish orqali ayrim yodgorliklarning qurilish tarixi, joylashuvi, bunyodkorlari, me’moriy xususiyatlari va tarixiy-madaniy ahamiyati haqida ma’lumotlar aniqlashtirildi. Shu bilan birga, sayohatnomalar va bevosita kuzatuvlarga asoslangan asarlar yodgorliklarning muayyan davrdagi holatini o‘rganishda muhim manba ekani aniqlandi. Yozma manbalarni arxeologik va me’moriy tadqiqotlar bilan qiyoslash esa yodgorliklarning tarixiy qiyofasi, funksiyasi va vaqt davomida yuz bergan o‘zgarishlarini yanada to‘liqroq yoritish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Bakr Muhammad Ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors-tojik tilndan tarj., A. Rasulevniki. Mas’ul muharrir A. Urinboyev. —T., «Fan» 1966. —108 bet.

2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. So‘z boshi, tadbil, izohlar va ko‘rsatgichlar A.Ahmad, H.Bobobekov. Mas’ul moharrir B.Eshpo‘latov. —T., «Sharq» 1997. — bet.

3. Rui Gonsales de Klavixo Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403—1406).; mas’ul muharrir: Muhammad Ali; so‘zboshi va izohlar muallifi M. Safarov; tarj. O. Tog‘ayev. — T.: «O‘zbekiston», 2010. — 264 bet.

4. Skayler Y. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari. —Toshkent: O‘zbekiston. (2019). — 336 bet.

5. Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya (Abdulmo‘min Sattoriy tarjimasi asosida.) – Toshkent: “Kamalak”, 1991. -81 b.

6. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018. -252 b.

7. Vamberi Herman. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 1990. -221 b.

8. Ибн Баттута. Сайёҳатнома (Путешествия по Золотой Орде и Средней Азии). Публикасия, 1841 г.

9. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородних. Введение, перевод примечания, указатели Б.А.Ахмедова. – Ташкент: “Фан”, 1977. – 168 с.

10. Seydi Ali Rais. “Mir’otul mamolik” (Mamlakatlar ko‘zgusi). Tarj. Sh.Zunnunov, so‘zboshi S.Azimjonova. – Toshkent: “Fan”, 1963. -160 b.

UO'K 94:37

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING “O‘ZBEKISTONNING YANGI TARIXI”DA YANGI MAKTAB-MAORIF BORASIDAGI XIZMATLARI HAQIDA

Sh.J. Sattorov, PhD, katta o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Munavvarqorining “O‘zbekistonning yangi tarixi”dagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati, yangi maktab-maorif borasidagi xizmatlari haqida atroflicha fikr yuritildi va tahlil etildi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston, Mustafo Cho‘qayev, maqola, Adibi avval, Adibi soniy, madrasa, Qur’on, Qrim, maktab, Turon, ilm, ma’rifat, Rusiya, qori, darslik.*

Аннотация. *В данной статье представлен всесторонний обзор и анализ общественно-политической деятельности Мунаввар-кори в контексте «Новой истории Узбекистана», а также его вклада в развитие новометодных школ и сферы образования.*

Ключевые слова: *Туркестан, Мустафа Чокаев, статья, Адиби первый, Адиби второй, медресе, Коран, Крым, школа, Туран, наука, просвещение, Россия, кари, учебник.*

Abstract. *This article provides a comprehensive reflection and analysis of Munavvarkori’s socio-political activities in the “New History of Uzbekistan” and his contributions to the new school and education.*

Key words: *Turkestan, Mustafa Choqaev, article, Adibi first, Adibi second, madrasa, Qur’an, Crimea, school, Turan, science, enlightenment, Russia, qari, textbook.*

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkentning Shayx Hovandi Tahur dahasi, Darxon mahallasida tug‘ilgan. Otasi Abdurashidxon (Abdulmajidxon) Sotiboldixon Olimxon o‘g‘li (1885-yili vafot etgan) zamonasining ma’rifatparvarlaridan bo‘lib, mahallasidagi Eshonquli dodxoh

madrasasi va o‘z hovlisida maktab ochib, 40 o‘quvchiga dars bergan. Onasi – Toshkentning mashhur olimlaridan Xonxo‘ja Shorahimxo‘jaevning (1841–1941) qizi Xosiyat otin (1845–1931) ham o‘z hovlisida xotin-qizlarni o‘qitgan. Munavvarqorining A’zamxon, Muslimxon kabi akalari bor edi.

Bu nomni 30-yillarda Turkiyadagi Mustafo Rashid Posho, Ozarbayjondagi Mirzo Fathali Oxundzoda, Qrimdagi Ismoilbek Gasprali qatoriga qo‘ygan edilar. U tufayli Germaniyada o‘qishga muvaffaq bo‘lgan shogirdlaridan biri yozadi: “Tarixni shaxslar yaratadi, tarix tarjimayi hollardan, ayniqsa, atoqli kishilarning tarjimayi hollaridan iboratdir, deydilar. Menimcha, biz ham Turkiston tarixining o‘tgan asr so‘ngidan boshlangan uyg‘onish davrini boshlab Munavvarqori yaratdi va Turkiston tarixining jadidchilar davri boshdan oxirigacha Munavvarqorining tarjimayi holidan iboratdir, desak yanglishmaymiz” [1].

1929-yilda “Munavvarqori to‘dasi” degan ish ochildi va 87 kishi tergovga tortildi. 1931-yilning aprelida OGPU qarori bilan shulardan 15 kishi otib o‘ldirishga, 31 kishi o‘n yil, 19 kishi besh yil, 14 kishi uch yil qamoqqa hukm qilinadi, 1 kishi 1 yilga Omskka surgunga yuboriladi, 3 kishi yurtidan badarg‘a etiladi [2].

Munavvarqori, Salimxon Tillaxonov, Said Ahroriy, Tangriqul xoji Maqsudov, Najmiddin Shermuhamedovlar bilan birga 1931-yilning 23-mayida Moskvaning mashhur Butirkasida otilib, Vagankovo qabristoniga pinhona ko‘mildi. Va bu ma’lumotlar Rusiya matbuotida 1992-yilning 25-mayida, rosa 61 yildan keyin oshkor qilindi. O‘zbekistonda bundan ham keyinroq – 1997-yilda ma’lum bo‘ldi [3]. Holbuki uning qatli haqidagi xabar dunyoga 1933-yildayoq tarqalgan edi. Mustafo Cho‘qayevning Parijda nashr qilib turgan “Yosh Turkiston” jurnali o‘zining 1934-yil yanvar sonida Turkiston ziyolilari boshiga tushgan bu musibatdan jahon jamoatchiligini xabardor qildi. U haqda maqola va xotiralar chop etdi [4].

Munavvarqori boshqa jadidchilarimizga qaraganda juda kech, 1999-yilning aprelida oqlandi. Oradan o‘tgan 60 yildan ko‘proq vaqt davomida u haqda xorijda maqolalar, tadqiqotlar yozilgan bo‘lsa-da, [5] hammamizga ma’lum sabablarga ko‘ra, tadqiqotchilarimiz ulardan bexabar keldilar.

Munavvarqori asarlaridan namunalar, u haqdagi maqolalar istiqloldan keyingina matbuotda ko‘rina boshladi. “O‘zbekistonning yangi tarixi”da esa, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, yangi maktab-maorif borasidagi xizmatlari haqida birinchi marotaba jiddiy va atroflicha fikr yuritildi [6].

“Munavvar” – nur olgan, nurli degani. Turkiyada hozir ham bu so‘zni ziyoli o‘rnida qo‘llaydilar. “Qori” deb Qur’onni maromiga yetkazib o‘qiydiganni aytganlar. U Toshkentning ma’rifatli bir xonadonida tug‘ilib, ismiga munosib o‘sdi.

O‘zRMXX hujjatlaridan uning 1878-yilda Shayhontohur daha, Darxon mahallasida tug‘ilib o‘sgani ma’lum bo‘ladi. Bobosi Sotiboldixon, otasi Abdurashidxon mudarrislik qilganlar. Onasi Xosiyatxon otin bo‘lgan. Otasi erta vafot etganligidan Munavvarqori onasi qo‘lida savod chiqargan. Toshkentdagi Shayhontohur maqbarasi yonida istiqomat qiluvchi Usmon qori qo‘lida “Hofizi Qur’on” bo‘ladi, Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so‘ng 1898-yilda Buxoroda o‘qiydi. Tafsir va hadis o‘rganadi, kelib mahalla masjidida imomlik qiladi. Zamondoshlari ta’kidlaganidek, Mustafo Rashid Posho singari Parij, Londondagi elchixonalarda ishlab malakasini oshirgan emas. Oxundzoda singari sinchiklab rus va Ovrupo madaniyatini egallagani yo‘q. Ismoilbekday Sorbonnada o‘qimagan. U yangilanish zaruratini tutqun turmushdan, hech narsa o‘rgata olmagan madrasalardan, Ismoilbekdan o‘rgangan. 90-yillarning oxirlarida yangi shakllana boshlagan jadidlarga kelib qo‘shilgan. 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo‘lib, “usuli jadid” maktabini ochadi. Bu maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi alifbo va xrestomatiyalar, “Tajvid al-qur’on”, “Yer yuzi” singari qo‘llanmalar tuzib, nashr etadi. Bu darsliklar 1901-1917-yillar oralig‘ida eng kami ikki-uch, ko‘pi to‘qqiz-o‘n martagacha alohida-alohida holda nashr etilgan [7].

O‘zbek matbuotining maydonga kelishida ham Munavvarqorining xizmatlari katta bo‘ldi. U o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunasi 1906-yilda chiqqan “Taraqqiy” gazetasining tashkilotchilaridan va mualliflaridan edi. O‘sha yili Munavvarqorining o‘zi “Xurshid” gazetasini chiqaradi. Gazetaning eng yaqin mualliflaridan biri Xudoyorxonning o‘g‘li Fansurullohbek edi. Behbudiyning “Ishtirokiyun mazhabi” (sotsialistik partiya)ni keskin rad etgan mashhur “Xayrul umuri avsatuxo” (“Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidur”) maqolasi mana shu gazetada bosilgan (1906, №6) edi. So‘ng Munavvarqori “Sadoyi Turkiston” (1914)ni maydonga chiqarishda jonbozlik

ko‘rsatdi. 1917-yilning martidan esa o‘z muharrirligida “Najot” gazetasini chiqara boshladi. Shu yilning iyunidan Toshkentda Zaki Validiy tomonidan “Kengash” jurnali o‘rtaga chiqdi. Ko‘p o‘tmay, uning muharrirligini Munavvarqori olib bora boshladi. Umuman, o‘zbek matbuotining maydonga kelishini ham, tarixiy taraqqiyotini ham Munavvarqorisiz, uning yuzlab ehtirosli maqolalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Munavvarqori XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy harakatchilikning, milliy ozodlik ko‘tarilishining eng e’tiborli namoyandalaridandir. 1921-yilda uning nomzodi yashirin “Turkiston milliy birligi” harakatining raisligiga qo‘yilgani bejiz emas edi. Biroq gap shundaki, u hech qachon isyonga, qo‘zg‘olonga da’vat qilgan emas. To‘g‘ri, u “Haq olinur, berilmas” [8] deb yozdi. Lekin u bu haqni ilm-ma’rifatni, fan-texnikani egallash, ma’rifiy-madaniy vositalarni ishga solish orqaligina qo‘lga kiritishni aqlga muvofiq topdi.

Abdulla Avloniy tarjimayi hollaridan ma’lum bo‘lishicha, 1901-yillardan boshlab Toshkentda mahalliy yoshlardan iborat “jadidlar to‘dasi” tashkil topgan edi. 1914–1915-yillarda “Sadoyi Turkiston”da muharrirlik qilgan, 1909-yilda Lev Tolstoy bilan xat yozishgan advokat Ubaydulla Asatullaxo‘jayev, shoir Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo‘jayev kabilar bu guruhning faollari bo‘lib tanildilar. Avloniy unga 1904-yili a’zo bo‘lganini ma’lum qiladi. Munavvarqori uning asoschilaridan edi. 1909-yilda u bir qator do‘stlari hamkorligida “Jamiyati xayriya” tuzadi. 1913-yilda “Turon” jamiyatini ta’sis etadi. “Maktab”, “Nashriyot” kabi shirkatlar ochadi. “Turon” jamiyatining qoshida “Turon” kutubxonasi, “Turon” klubi, “Turon” gazetasi (1917) tashkil topgan edi. Jamiyatning maqsadi yerli musulmon aholisi orasida maorif-madaniyatga rag‘bat uyg‘otish, ularga moddiy-ma’naviy yordam berish, ular uchun sahna asarlari tayyorlash va ko‘rsatish edi.

Munavvarqori yoshlarni rivojlangan mamlakatlarda o‘qitish, shu orqali millat va vatanni farzandlariga tanitish, dunyoni anglatish ishlariga alohida e’tibor berdi. 1908-yildan 1923-yilga qadar uning g‘ayrat va tashabbusi bilan yuzdan ortiq turkistonlik chetda o‘qib keldi. 1920-1923-yillarda bu tashabbusni Buxoroda Fitrat va Fayzulla Xo‘jayev qo‘llab chiqdilar. Ma’lumotlarga qaraganda, birgina 1922-yilda Germaniyada o‘qiyotganlarning soni 60 taga yetgan. Shulardan beshtasi – Abdulvahob Murodiy, Sattor Jabbor, Saidali Xo‘jayev, Ahmad Shukuriy, Vali Qayumxonlar toshkentlik bo‘lganlar.

Nihoyat, 1918-1920-yillarda Fitrat bilan Munavvarqori o‘rtasida turkchilikka munosabat masalasida yaxshigina bahs ketgani ham ma’lum. Fitrat biz avvalo o‘zbekmiz, turkligimiz, musulmonligimiz, insonligimiz undan keyingi xalqlardir. Binobarin, chig‘atoy tili va adabiyotining bevosita vorislarimiz degan nuqtayi nazarda turdi va bu g‘oyalarni “Chig‘atoy gurungi” faoliyatida o‘tkazishga harakat qildi [9].

Yoki “Ittihod va taraqqiy”ni olaylik. Uning bosh maqsadi Laziz Azizzoda fikricha, mustaqil Turkiston g‘oyasi edi. Lekin uning tashkil topilishida Birinchi jahon urushida asir tushgan va 1917-yil voqealaridan keyin ozod qilingan usmonli turklarning xizmati katta edi. Buni nomi ham ko‘rsatib turibdi. Mazkur tashkilot 1919-yilning yanvarida Munavvarqori va Turkiya harbiy qo‘shini polkovnigi Ziyobeylar tashabbusi bilan Toshkentda tashkil topgan va Ergash (Qo‘qon), Rahmonqul (Toshkent viloyati), Ochilbek (Samarqand) kabi qo‘rboshilar bilan yaqin aloqada ish olib borgan [10].

“Milliy ittihod” 1926-yilda “Milliy istiqlol” nomini oldi va 1929-yilgacha davom etdi [11].

Munavvarqorining faoliyati mazkur tashkilotlar bilan chegaralanib qolgan emas, albatta. Uning sho‘ro matbuotida keng muhokama qilingan “Nashri maorif” (1923-1926)dagi ishlari, Anvar Poshshodan Muso Begiyevgacha, Afg‘on amiri Omonulloxondan Zaki Validiy, Qozi Abdurashidgacha bo‘lgan shaxsiy aloqalari bunga dalil.

Munavvarqorining qatl qilinishi Stalin qatag‘onining birinchi to‘lqinini boshlab berdi. U qamoqxona azoblariga mardona chidadi. E’tiqodiga xiyonat qilmadi. Buning guvohi OGPU hujjatlari. Shular orasida adibning oybolta ostida yozgan “Xotiralari” ham bor [12]. “Xotira” vaqti kelib, asl nusxasiga solishtirib, qayta nashr qilinar, zora oldingi qismlari ham topilsa. Chunki u jadidchilik tarixining benihoya qimmatli hujjatidir. Ayni paytda, ushbu hujjat xalqimizning g‘oyat iste’dodli va fidoyi farzandining iztirobga to‘la e’tiroflaridir. Munavvarqori publitsistikasi, darsliklari XX asr boshi o‘zbek ijtimoiy-siyosiy tafakkurining madaniyati, ma’rifatining mumtoz va betakror sahifasi desak yanglishmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Yosh Turkiston” j., 1934-y., yanvar, 50-son, 1909.
2. Munavvarqori dr. 19 tomov, 19 t. – O‘zRMX arxivi, P-33391
3. “Sharq yulduzi” j., 1997-y., 1-son
4. Munavvarqori “Yosh Turkiston” j., 1934-y., 50-son, 1887.
5. I.Yorqin. “Munavvarqori – vatanparvar va islohotchi. “Turkiston usuli jadid maktablari asoschisi va milliyatchi rahbar Munavvarqori” “Turk kulturi arashtirmalari” to‘plami. 1965-y. 1-2-son.
6. O‘zbekistonning yangi tarixi, Birinchi kitob, Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., “Sharq” 2000; Ikkinchi kitob. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. T., “Sharq”, 2000.
7. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2002.
8. Ahmad Hamdi Tanpinar, XIX asr Turk adabiyoti tarixi. 7-nashri. Istanbul, 1988.
9. A.Murodiyning 1930-yil sentabr ko‘rsatmasidan. 13-jild.
10. L.Azizzodaning “O‘zbekistonda millatchilik harakati tarixidan” nomli o‘z qo‘li bilan yozib bergan ko‘rsatmalaridan (Munavvarqori. 19-jild).
11. L.Azizzodaning 1943-yil 18-mart tergov bayonnomasidan. (Munavvarqori.19-jild.)
12. Munavvarqori Abdurashidxonov “Xotiralarim”dan. Jadidchilik tarixidan lavhalar. “Sharq”, 2001.

UO’K 330.2

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING FAOL IJTIMOIY POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT MADANIYATINING ROLI

S.S.Sodiqov, katta o‘qituvchi, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda mehnat madaniyatining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Mehnat madaniyati yoshlarda mas’uliyat, intizom, faol fuqarolik munosabati hamda ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat an’analari, faol pozitsiya, ijtimoiy pozitsiya, raqamli texnologiyalar, mehnat madaniyati, ijtimoiy hayot, shaxs madaniyati, iqtisodiy madaniyat, yoshlar faolligi.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль и значение трудовой культуры в формировании активной социальной позиции молодежи. Трудовая культура анализируется как важный фактор развития ответственности, дисциплины, активной гражданственности и социальной активности у молодежи.*

Ключевые слова: *Трудовые традиции, активная позиция, социальная позиция, цифровые технологии, культура труда, социальная жизнь, личная культура, экономическая культура, молодежный активизм.*

Abstract. *The article discusses the role and importance of labor culture in shaping the active social position of young people. Labor culture is analyzed as an important factor in developing responsibility, discipline, active citizenship, and social activity in young people.*

Keywords: *labor traditions, active position, social position, digital technologies, work culture, social life, personal culture, economic culture, youth activism.*

Mehnat madaniyati shaxsning egallab turgan lavozimi va ijtimoiy maqomidan qat’i nazar, o‘z xizmat vazifalarini vijdonan va mas’uliyat bilan bajarishida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy talablaridan biri har bir xodimning mehnat intizomiga qat’iy rioya etgan holda yuqori samaradorlikka erishishidir. Shu bilan birga, mehnat madaniyati jamoa manfaatlari yo‘lida hamjihatlikda faoliyat yuritish, mehnat axloqiga oid rasmiy va norasmiy qoidalarga amal qilish, shuningdek, mehnat munosabatlarini ichki me’yoriy hujjatlar hamda amaldagi mehnat qonunchiligi asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Shaxsning mehnat madaniyati uning bilim saviyasi, amaliy tajribasi hamda insoniy fazilatlarida ifodalanadi. Mehnat madaniyati faqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi omil sifatida emas, balki inson ma’naviy kamoloti va shaxsiy rivojlanishining muhim asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, mehnat madaniyatining shakllanishi shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va ijtimoiy faollik ko‘rsatishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Mehnat madaniyatiga xos ayrim fazilatlar insonda tug‘ma yoki tabiiy tarzda mavjud bo‘lishi mumkin. Biroq ular amaliy tajriba va kasbiy mahorat asosida yanada takomillashib, izchil rivojlanib boradi. Mazkur jarayonda shaxsning ongli faoliyati va amaliy harakatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb

etadi. Shu bilan birga, mehnat madaniyati iqtisodiy madaniyat bilan o‘zaro uyg‘un holda rivojlanib, yaxlit tizimni tashkil etadi.

Yaponiyalik professor Noriyuki Takayamaning ta’kidlashicha, “Yaponiya jamiyati o‘zaro ishonch tamoyiliga asoslangan bo‘lib, ishonch yo‘q jamiyat ma’naviy jihatdan qashshoq va ijtimoiy totuvlikdan yiroq bo‘ladi. Yapon jamiyatida jamoa bilan uyg‘un yashash va mansublik hissi yuksak darajada shakllangan. Shu sababli, nazorat mavjud yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, mehnatga mas’uliyat bilan yondashish yaponlarga xos xususiyat hisoblanadi. Ishonchni yo‘qotgan shaxs insoniy munosabatlarga asoslangan jamoaga qayta qo‘shilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Shu bilan birga, ishonch saqlangan holda shaxs o‘z ijtimoiy ehtiyojlari hamda shaxsiy nufuzini ta’minlashi mumkin.

Yaponiyada kundalik mehnat faoliyati jarayonida samarali izlanishlar olib borish orqali yuqori bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar salmoqli o‘rinni egallaydi. Bunda boshqaruv qarorlari quyi bo‘g‘inlardan yuqori pog‘onalarga tomon shakllanadi, xodimlarning faqat yuqoridan ko‘rsatma kutib faoliyat yuritishi kam hollarda uchraydi. Yirik korxonalarda ishga qabul qilinayotgan har bir xodim, qobiliyatidan qat’i nazar, faoliyatini quyi lavozimdan boshlab, ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng pog‘onama-pog‘ona o‘sish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, kadrlar almashinuvi 2–3 yillik davrda amalga oshirilib, yangi rahbarlar tomonidan mavjud xodimlarni ishdan bo‘shatish amaliyoti deyarli qo‘llanilmaydi.”[1].

Ken Xayashibara rahbarlik qilayotgan 17 ta kompaniya farmasevtika, kimyo va oziq-ovqat sanoati uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarish, bu borada ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda ilg‘or texnologiyalar sotishga ixtisoslashgan. “Bugungi kunda, - deydi u, - biz 10 yoki 20 yildan keyingina samara beradigan loyihalar bo‘yicha tadqiqotlar olib boryapmiz. To‘rt-besh yilda tezkor natija beradigan ilmiy-izlanishlar bizni qiziqtirmaydi. Agar boshqa bir kompaniya biror yo‘nalishdagi tadqiqotlarda yaxshiroq natijalarga erishsa, biz bu boradagi ishlarimizni darhol to‘xtatamiz. Chunki bizning maqsadimiz faqatgina foyda olish emas. Boshqa birov muayyan yo‘nalishda sendan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyat qozonsa, unga halal berish noto‘g‘ri. Bundan anglashiladiki, mumtoz mehnat madaniyati ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Inson o‘zida ikki xususiyat mavjud bo‘lmaguncha ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqara olmaydi. Birinchidan, boshqalardan farq qilishga qattiq urinishingiz kerak. Ikkinchidan, siz juda sezgir bo‘lishingiz shart. Bu o‘rinda sezgirlik — biror narsani ko‘rganingizda uning yaxshiligini bilish yoki go‘zallik zohir bo‘lmagan narsada go‘zallikni ilg‘ay olish. Ijodiy salohiyat o‘zingizdagi mavjud bilim va tajribani turli uslublarda birlashtira olish qobiliyatidir”[2].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida mehnat faoliyatida tezkor rejalar afzal hisoblanadi. Ularning 10-20 yilga mo‘ljallangan loyihalarga toqati yo‘q. Xodimlar va ishchilarning o‘z korxonasiga sadoqati ma’lum shaxsiy manfaatlar bilan bog‘langan. Bunday sharoitda ayrim korxonalarning sinishi, ishsizlikning ortib borishi, kadrlar qo‘nimsizligining kuchayishi tabiiy holdir.

Ta’kidlash lozimki, mehnat madaniyati insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o‘ziga xos o‘rin tutib kelgan, binobarin, bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishni uningsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu tufayli O‘rta Osiyo xalqlarining butun iqtisodiy tafakkuri tizimida mehnat madaniyatiga doir g‘oyalar alohida o‘rin tutganligiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, “Qobusnoma”da qayd etilganki, “hunarsiz, g‘ayratsiz kishi bilan do‘stlik qilmagil... Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ yetkurmas”[3]. “Tuzuklar”da yozilishicha, buyuk Amir Temur odamlarga kasb berish, ularni ish bilan ta’minlashga alohida ahamiyat bergan, tadbirkorlik faoliyati bilan, tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘luvchilarga yetarli sarmoya, uy-joylar qurib berish haqida qayg‘urgan[4]. Bundan anglash mumkinki, ushbu unsurlar mehnat madaniyati shakllanishida muhim o‘ringa ega.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning jamoat ishlariga qiziqishi, zimmasiga yuklangan topshiriqlarni bajarishda mas’uliyat, ishchanlik va tashabbuskorlik, o‘zi va safdoshlariga nisbatan talabchanlik, jamoat topshiriqlarini bajarishda boshqalarga yordam berishga tayyor turishi ijtimoiy faollikning zamonaviy ko‘rinishlari hisoblanadi. Xalqimizning mehnat an’analari o‘zining zamirida omilkorlik, tashabbuskorlik, shaxsiy namuna, mehnatga oqilona munosabat, mehnat natijalarining jamoa manfaatlariga mos kelishi kabi xususiyatlari bilan yoshlarning ijtimoiy faolligini

yuksaltiruvchi muhim omil sanaladi. Jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichi ajdodlarimiz bosib o'tgan madaniy taraqqiyot yo'lini chuqur tahlil qilish, tafakkur tarzini o'zgartirish, yoshlar faolligini ta'minlashda mehnat an'analari mezonlariga yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va joriy etish shu bilan birga barqarorlikni ta'minlovchi kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Takayama Noriyuki. O'zbekiston haqida o'ylaganlarim //Jahon adabiyoti, -№1, 1997. – B.197
2. Xayashibara Ken. Erkinlik va xavfsizlik-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy sharti //Xalq so'zi, 2000 yil 20 iyun.
3. Kaykovus. Qobusnoma. -Toshkent: Meros, 1992,- B.21
4. Temur tuzuklari. - Toshkent: Fan, 1993,- B.67
5. Sodiqov, S. (2024). Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari. Farg'ona davlat universiteti, (2), 45-45.

UO'K 792(575.1-191.2)(091)

ZAMONAVIY O'ZBEK TEATRINING SHAKLLANISHI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

U.U.Tojiboyev, PhD, Farg'ona davlat texnika universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkistonda zamonaviy teatr san'atining shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy teatrning shakllanishida katta rol o'ynagan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Akobir Samarqandiy, Mirzohid Miroqilov, Mayorova Valya, Kuznetsova Marusya va Fotiha Xananova (Zohidova) kabi milliy ziyolilarning faoliyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *spektakl, milliy teatr, Padarkush, sahna, Guliston, havaskorlar truppasi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется формирование современного театрального искусства в Туркестане. Также освещена деятельность таких национальных интеллектуалов, как Хамза Хакимзаде Ниязи, Акобир Самарканди, Мирзохид Мирокилов, Майорова Валя, Кузнецова Маруся и Фатиха Хананова (Зохидова), сыгравших большую роль в формировании современного театра.*

Ключевые слова: *спектакль, национальный театр, Падаркуш, сцена, Гулистан, самодеятельная труппа.*

Abstract. *This article analyzes the formation of the modern theatrical art in Turkestan. It also highlights the activities of national intellectuals such as Hamza Hakimzoda Niyoziy, Akobir Samarkandi, Mirzokhid Mirokilov, Mayorova Valya, Kuznetsova Marusya, and Fotiha Khananova (Zohidova), who played a major role in the formation of modern theater.*

Keywords: *performance, national theater, Padarkush, stage, Gulistan, amateur troupe.*

Bugungi kunda xalqaro maydonda qolaversa yurtimizda ham milliy qadriyatlarning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Istiqlol sharofati bilan xalqning asriy orzusi ushalib, mustaqillik tufayli urf-odatlari, qadriyatlari o'z o'rniga qaytdi. Boy madaniyati va ma'naviyatini e'zozlash, xalq istiqboliga qaratilgan milliy istiqlol mafkurasini targ'ib etish, Vatan tarixini xolisona o'rganish va tadqiq etishni hayotiy zaruriyat darajasiga ko'tardi. Zero, asrlar mobaynida shakllangan bebaho ma'naviy merosimiz, milliy san'at va an'analarimiz xalqning milliy mentaliteti shakllanishidagi o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Yangi o'zbek teatrining yaratilishi va rivojlanishida rus, ozarbayjon va tatar teatri ta'siri bilan bir qatorda umuman xalqning badiiy madaniyati, og'zaki ijodiyoti, jumladan qadimgi teatrning asrlar osha toblangan boy merosi, sinalgan an'analari, ajoyib obrazlari va tasviriy vositalari zarur omil va manba vazifasini bajargan. Masxaraboz va qiziqlar tajribasi ayniqsa yangi teatrning dastlabki qadamlarida katta rol o'ynadi[1]. Qo'qonda ham, butun Turkiston shaharlaridagi kabi, 1910-yillarning o'rtalarida o'z milliy teatr san'atini yaratish orzusi paydo bo'lgan ediki, bu ilk bor samarqandliklar bilan hamkorlikdagi "Padarkush" spektakli namoyishida yaqqol namoyon bo'ldi[2].

"Oyina" jurnalining 1914-yil 19-fevral 7-sonida Qo'qonda qo'yilishi rejalashtirilayotgan spektakl haqida o'z an'anasi bo'yicha oldindan shunday xabarni bosadi: "Ho'qandda maktablar naf'iga "Padarkush" fojiasini 24 fevralda sahnada qo'ymoq uchun Ho'qand

taraqqiyparvar yoshlari g‘ayrat etibdurlar. Ho‘qandda turg‘uchi janob Akobir Samarqandiy Shomansur o‘g‘li baland darajalik Farg‘ona volisidan ruxsat olibdur. Samarqand ko‘ngullilaridan bir nechasi Ho‘qandda borib yetmagon keraklik shaxslarni Ho‘qandiy birodarlardan tayyorlab “Padarkush” fojiasini sahnada qo‘ymoqchidurlar”. Darhaqiqat, fevral o‘rtalarida Behbudiy boshliq o‘n chog‘li samarqandlik havaskorlar Abdulla Badriy, Xoji Mu’in, Xoshimqul, Rabbimqul, Abdusalom boyvachcha, Mardonqul kabilar Qo‘qonga kelib, mahalliy yoshlar va ziyolilardan Mirzohid Miroqilov, Ashurali Zohiriy, Xodixo‘ja Yoqubxo‘ja o‘g‘li, Sharifjon xoji Solih o‘g‘li, Mulla Mahmudjon qori, Mulla Xakimjon muallimlar yordami bilan “Padarkush” spektaklini namoyish etadilar[3]. Bu haqda Mirzohid Miroqilov o‘z xotiralarida “1914 – 15-yillarda Mahmudxo‘ja Behbudiy Qo‘qonga borib “Padarkush”, “To‘y” asarlarini qo‘yganda vaqtda Hamza bunga yaqindan ishtirok qilgan. U muallimlik, shoirlikdan tashqari shu pesalarini qo‘ygan vaqtda san’atkorlik qilgan. Hamza komediya rollarida, undan keyin sevguvchi qahramonlik rollarida o‘ynab xalqqa juda zo‘r ta’sir qildirar edi”[4]. Bu spektakllarga yerli ziyolilarning yaqindan yordam berayotganligi, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda ayrim yoshlar kichikroq rollarga ham jalb etilganligi bayon qilinadi[5]. Bundan ma’lumki, Hamzaning teatr va dramaturgiyaga qiziqishining ortishida va bu sohada faoliyatining rivojlanishida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’siri katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, «Padarkush» asarining sahnada qo‘yilishi, 1914-yil boshlaridayoq, Qo‘qon havaskor yoshlari orasida muayyan harakatlar boshlanishiga turtki bo‘ldi.

Hamza 1915-yilning iyul oyida Qo‘qon shahrida birinchi havaskorlar truppasini tashkil qildi. Truppa tayyorlagan sahna ko‘rinishlari “Военное собрание” binosida qo‘yilardi. Hamza “Ilim hidoyati”, “Mulla Normuhammad domlaning kufr hatosi” nomli bir pardali komediyasini 1916-yilning may-iyun oylarida ana shu truppa a’zolari bilan sahnaga qo‘ygan. Farg‘ona vodiysining markaziy shaharlari hisoblangan Skobelev, Andijon, Namangan va Qo‘qonda sovet idoralari tashabbusi bilan yangi maorif, madaniy-maishiy muassasalar tashkil etildi. Buning natijasida ushbu hududlarda istiqomat qilgan aholining turmush tarzida qator ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

1918-yildan boshlab madaniyat va san’at ishlarini davlat o‘z ixtiyoriga oldi. Milliy madaniyat va san’atni yuksaltirish sohasida hokimiyat turli qarorlar qabul qildi va ularni amalda joriy etishga astoydil kirishdi. Turkistonning markaziy shaharlari va aholi zich joylashgan hududlarida siyosiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida sovet hokimiyati tomonidan 1918-yil avgust oyidan boshlab san’atkorlarni targ‘ibot ishlariga jalb qilish va targ‘ibot poyezdlarini tashkil etish ishlari boshlab yuborildi[6].

Shunday targ‘ibot truppalaridan biri 1918-yili Hamza tomonidan Farg‘onada tashkil qilingan. Ayni vaqtda u Qo‘qon havaskor yoshlaridan “Qo‘qon dratruppasini” tuzgan. Truppani tuzishda Mirshoxid Miroqilov Hamzaga faol yordam beradi. Qo‘qon Revolyutsion sovetining a’zosi maxsus bo‘limning xodimi Badriddin Baxtiyorov 1920-yil 10-noyabrda Shtab qo‘mondoni M.V.Frunze huzurida bo‘lib Farg‘ona vodiysidagi aholi o‘rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlar saviyasini ko‘tarish o‘zbek milliy teatri tashkil qilish haqida maxsus topshiriq olgan. Yangi tuzilgan truppaga xotin-qizlardan Mayorova Valya, Kuznetsova Marusya va Fotiha Xananova (Zohidova)lar jalb qilingan. Teatr kollektiviga repetitsiya qilish uchun shahar mahalliy hukumati tomonidan alohida bir joy ajratilgan. Uzoq tayyorgarlikdan so‘ng “Boy ila xizmatchi” tayyor bo‘ladi. Spektaklni namoyish qilish uchun Hamza va Baxtiyorovlarning iltimosiga ko‘ra manufaktura ombori beriladi (Bu bino inqilobdan avval Kox ismli nemis kommersantining skladi bo‘lgan. 1918-yili bu binoning yarmi kuyib ketgan edi. Hozir bu bino Hamza nomidagi teatr binosi). Hamza teatrning bosh rejissyori va umumiy rahbari, Sherxon Muhammadiyev va Toshxo‘ja Eshonovlar yordamchi rejissyorlar bo‘lgan[7].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek teatrining shakllanishi va rivojlanishida Farg‘ona vodiysi muhim tarixiy-madaniy o‘rin egallaydi. Mintaqada teatr san’atining vujudga kelishi xalqning boy og‘zaki ijodiy an’analari, milliy tomosha madaniyati, jadidchilik harakati hamda ijtimoiy-ma’rifiy yangilanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, XX asr boshlarida jadid ma’rifatparvarlarining teatrni jamiyatni ma’naviy yuksaltirish, aholining madaniy saviyasini oshirish

va milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida talqin etishi professional teatr san’atining shakllanishiga muhim zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қодиров М. Юсуффжон қизиқ ижоди. – Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг Бирлашган нашриёти, 1969. – Б. 3.
2. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Б. 43.
3. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Б. 71.
4. O‘zbekiston Milliy Arxivi. R –2454 - fond, 1-ro‘yxat, 199-ish.
5. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Б. 66.
6. Корпинский В. Агитпарпоезда. – Москва: Государственное издательство, 1920. – С. 7.
7. Усмонов Ж. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий қадамжолари. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 79.

UO'K 94:327

BUXORO VA SAMARQAND — BIRODARLASHGAN SHAHARLAR HAMKORLIGIDA (1980–2026 YILLAR)

Z.T. Tog‘ayev, PhD, dots., Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Maqolada Buxoro va Samarqand shaharlarining 1980–2026-yillardagi birodarlik aloqalari shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Shaharlarning xorijiy hamkorlari bilan madaniy, iqtisodiy, ta’limiy va turistik aloqalari, shuningdek, xalqaro hamkorlikdagi o‘rni tarixiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro, Samarqand, birodarlik aloqalari, shaharlararo hamkorlik, xalq diplomatiyasi, madaniy hamkorlik, xalqaro aloqalar.*

Аннотация. *В статье анализируется становление и развитие побратимских связей городов Бухары и Самарканда в 1980–2026 годах. Рассматриваются культурные, экономические, образовательные и туристические связи городов с зарубежными партнёрами, а также их роль в развитии международного сотрудничества.*

Ключевые слова: *Бухара, Самарканд, побратимские связи, межгородское сотрудничество, народная дипломатия, культурное сотрудничество, международные связи.*

Abstract. *The article analyzes the formation and development of sister-city relations of Bukhara and Samarkand during 1980–2026. It examines the cities’ cultural, economic, educational, and tourism cooperation with foreign partners and highlights their role in developing international cooperation.*

Keywords: *Bukhara, Samarkand, sister-city relations, intercity cooperation, people-to-people diplomacy, cultural cooperation, international relations.*

Kirish. Bugungi xalqaro munosabatlarda davlatlararo diplomatiya bilan bir qatorda shaharlar va jamoalar o‘rtasidagi bevosita aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birodarlashgan shaharlar hamkorligi xalqlar o‘rtasida do‘stlik, madaniy almashinuv va o‘zaro tajriba almashish imkonini yaratadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekiston shaharlarining xalqaro birodarlik aloqalari rivojlana boshladi. Mustaqillik yillarida esa bu munosabatlar yanada kengayib, madaniyat, ta’lim, turizm, iqtisodiyot va shaharsozlik kabi sohalarni qamrab oldi. Mazkur maqolada Buxoro va Samarqand shaharlarining 1980–2026-yillardagi birodarlik aloqalarining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O‘zbekistonda birodarlashgan shaharlar harakatining tarixiy ildizlari XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. N.X. Tulyaganovaning «Становление и развитие движения породнённых городов в Узбекистане (1961–1985 гг.)» tadqiqotida ushbu jarayonning shakllanishi yoritilgan bo‘lib, u Buxoro va Samarqandning keyingi xalqaro aloqalarini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. [1:23] Buxoroning birodarlik aloqalari 1980-yillarning oxiridan aniq ko‘rina boshlaydi. Jumladan, Kordova (Ispaniya) bilan 1988-yilda, Santa-Fe (AQSh) bilan 1989-yilda, Tsitsikar (Xitoy) bilan 1990-yilda va Bratsk (Rossiya) bilan 1991-yilda birodarlik aloqalari o‘rnatilgan. Bu Buxoroning xalqaro shaharlararo hamkorligi mustaqillik arafasidayoq shakllanganini ko‘rsatadi. [2:1]

Buxoroning xalqaro birodarlik aloqalarida shaharning tarixiy-madaniy merosi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Buxoro qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lagan savdo, ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgani sababli, uning xorijiy shaharlar bilan aloqalarida tarixiy meros, madaniy almashinuv va turizm yo‘nalishlari tabiiy ravishda ustuvor o‘rin egallagan. Bu jihat birodarlik munosabatlarini faqat rasmiy delegatsiyalar almashinuvi emas, balki xalqlar o‘rtasidagi bevosita madaniy muloqot vositasiga aylantirgan. [3:12–13] Mustaqillikdan keyingi davrda Buxoroning xorijiy shaharlar bilan aloqalari yangi mazmun kasb etdi. 2025-yil 1-iyulda Buxoro va Rossiya Federatsiyasining Chechenіston Respublikasi poytaxti Grozniy shahri o‘rtasida birodarlashgan shaharlar maqomini belgilovchi hamkorlik bitimi imzolandi. Bitim doirasida madaniy-gumanitar, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik, tajriba almashish, qo‘shma loyihalar, madaniy tadbirlar, yoshlar va talabalar almashinuvi, turizm, shaharsozlik hamda ekologiya yo‘nalishlari belgilangan. Rasmiy ma’lumotda o‘sha paytda Buxoroning dunyoning 16 ta shahri bilan birodarlik munosabatlari mavjudligi qayd etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali) [4:1]

Bu holat Buxoroning birodarlik aloqalari vaqt o‘tishi bilan madaniy aloqalar doirasidan chiqib, amaliy hamkorlikning boshqa yo‘nalishlarini ham qamrab olganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, turizm, shaharsozlik, ekologiya va yoshlar almashinuvi kabi yo‘nalishlarning bitimlarda alohida qayd etilishi birodarlik munosabatlarining zamonaviy mazmunini ochib beradi. [4:1] Samarqandning xorijiy shaharlar bilan birodarlik aloqalari ham bosqichma-bosqich shakllangan. Samarqand viloyati hokimligining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, Laxor bilan birodarlik aloqasi 1995-yilda, Krasnoyarsk bilan 2003-yilda, Plovdiv bilan 2008-yilda, Mexiko bilan 2010-yilda, Florensiya va Xitoyning Shensi provinsiyasi bilan 2013-yilda, So‘g‘d bilan 2018-yilda o‘rnatilgan. Bundan tashqari, Samarqand Yurmala, Kenju, Samara, Rio-de-Janeyro, Lvov, Lej, Banda-Achex, Lion, Bremen va Kayruan kabi shaharlar bilan ham birodarlik aloqalariga ega. (Samarkand) [5:1]

Ushbu ma’lumotlar Samarqandning birodarlik aloqalari geografik jihatdan keng ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Osiyo va Yevropa shaharlari bilan o‘rnatilgan munosabatlar Samarqandning tarixiy-madaniy salohiyatini xalqaro hamkorlik bilan bog‘lash imkonini bergan. Laxor, Florensiya, Lion va boshqa tarixiy shaharlar bilan munosabatlarda madaniy meros, turizm va xalqlar o‘rtasidagi muloqot muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. [5:1] Samarqandning birodarlik aloqalari zamonaviy davrda ham kengayib bormoqda. 2025-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Nara shahri meri Gen Nakagava bilan uchrashuvida Samarqand va Yaponiyaning Nara shahri o‘rtasida birodarlik munosabatlari o‘rnatilgani qayd etilgan. Rasmiy xabarda ikki shaharning Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq tarixiy jihatlari, madaniy-gumanitar hamkorlik, turizm, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. (president.uz) [6:1]

Samarqand–Nara munosabatlari birodarlik aloqalarining yangi mazmunini ko‘rsatadigan muhim misoldir. Chunki ikki shahar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlik zamonaviy iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalar bilan to‘ldirilmoqda. Qishloq xo‘jaligi, turizm, to‘qimachilik, transport, logistika va shaharsozlik kabi yo‘nalishlarning muhokama qilinishi birodarlik aloqalarining amaliy ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. (president.uz) [6:1] Buxoro va Samarqandning birodarlik aloqalarini qiyosiy o‘rganish ularning xalqaro hamkorligida umumiy va farqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Umumiy jihat sifatida har ikki shaharning tarixiy-madaniy merosi xorijiy hamkorlikni rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qilganini qayd etish mumkin. Farqli jihati esa birodarlik aloqalarining shakllanish vaqti hamda xorijiy hamkorlar geografiyasida ko‘rinadi. Buxoro bo‘yicha 1988-yildan Kordova bilan aloqaning mavjudligi qayd etilsa, Samarqandning rasmiy ro‘yxatida eng aniq sanalangan aloqalardan biri 1995-yilda Laxor bilan o‘rnatilgan munosabatdir. [2:1; 5:1]

Mazkur jarayonni O‘zbekistonning xalqaro aloqalari umumiy rivojlanishidan ajratib ko‘rib bo‘lmaydi. A.M. Qosimovning «Советский Узбекистан на международной арене» asari O‘zbekistonning xalqaro maydondagi munosabatlarini o‘rganish uchun tarixiy kontekst beradi. Sh.M. Mirsaidovning «Наши отношения — образец партнёрских связей» maqolasida esa sheriklik munosabatlarining mazmuni va xalqaro aloqalardagi ahamiyati yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar birodarlashgan shaharlar aloqalarini O‘zbekistonning xalqaro munosabatlari tarixining mahalliy va

jamoatchilik darajasidagi ko‘rinishi sifatida tushunishga yordam beradi. [3:12–13; 7:82–88] 2025-yil 7-mayda O‘zbekistonda “Birodar shaharlar alyansi” o‘z faoliyatini rasman boshladi. Rasmiy ma’lumotda alyansning asosiy vazifalari O‘zbekiston va xorijiy shaharlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni xalq diplomatiyasi asosida mustahkamlash, madaniyat, ta’lim, iqtisodiyot, turizm, ekologiya va innovatsiyalar sohalarida amaliy hamkorlikni rivojlantirish ekani qayd etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali) [8:1]

Mazkur tashabbus Buxoro va Samarqand kabi tarixiy shaharlarning xalqaro aloqalarini yagona va tizimli platformada rivojlantirish uchun yangi imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, qo‘shma madaniy va ta’lim loyihalari, turizm va hunarmandchilikni rivojlantirish, yoshlar hamda mutaxassislar almashinuvi kabi yo‘nalishlar birodarlik aloqalarining ijtimoiy mazmunini kuchaytiradi. 2025-yil oktabr oyida “O‘zarxiv” agentligi va “Birodar shaharlar alyansi” o‘rtasida ham memorandum imzolanib, birodar shaharlar, muzeylar va arxivlar o‘rtasidagi ilmiy-tadqiqot hamda madaniy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik belgilangan. (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali) 2026-yil 24–25-iyul kunlari Samarqand shahrida O‘zbekistonda ilk bor “Birodar shaharlar” xalqaro forumi o‘tkazildi. Forumning asosiy maqsadlari shaharlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, xalq diplomatiyasini rivojlantirish hamda o‘zaro ishonch va do‘stlikni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan. Forum doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, B2B va B2G uchrashuvlari, investitsiya taqdimotlari, ko‘rgazmalar va hamkorlik bitimlarini imzolash tadbirlari tashkil etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali) [9:1]

Shunday qilib, 1980–2026-yillar davomida Buxoro va Samarqandning birodarlik aloqalari oddiy madaniy almashinuvdan ko‘p yo‘nalishli xalqaro shaharlararo hamkorlikka qadar rivojlanganini ko‘rish mumkin. Buxoroning Kordova va boshqa xorijiy shaharlar bilan 1980-yillarning oxiridan boshlangan aloqalari, Samarqandning 1995-yildan Laxor va keyingi yillarda boshqa shaharlar bilan kengaygan munosabatlari, shuningdek, 2025–2026-yillardagi yangi tashabbuslar ushbu jarayonning tarixiy izchilligini ko‘rsatadi. (Samarkand) Eng muhimi, hozirgi bosqichda birodarlik aloqalarining mazmuni kengayib, madaniyat va turizm bilan bir qatorda ta’lim, investitsiya, innovatsiya, ekologiya, yoshlar almashinuvi va shaharsozlikni ham qamrab olmoqda.

Xulosa. Buxoro va Samarqand shaharlarining 1980–2026-yillardagi birodarlik aloqalari vaqt o‘tishi bilan kengayib, madaniyat, ta’lim, turizm, iqtisodiyot va investitsiya kabi yo‘nalishlarni qamrab oldi. Buxoroning 1980-yillarning oxiridan, Samarqandning esa 1995-yildan boshlangan xalqaro birodarlik aloqalari bu jarayonning izchil rivojlanganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, har ikki shaharning tarixiy-madaniy merosi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq tarixiy meros madaniy almashinuv va turizm aloqalarini rivojlantirishga zamin yaratgan. 2025–2026-yillardagi Buxoro–Grozniy va Samarqand–Nara aloqalari, shuningdek, Samarqandda o‘tkazilgan “Birodar shaharlar” xalqaro forumi shaharlararo hamkorlikning yangi bosqichini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Туляганова Н.Х. Становление и развитие движения породнённых городов в Узбекистане (1961–1985 гг.): Автореф. дисс.... на соиск. канд. ист. наук. – Ташкент, 1988. – 24 с.

2. Бухара // Википедия. Материалы о городах-побратимах Бухары. https://ru.wikipedia.org/wiki/Бухара

3. Мирсаидов Ш.М. Наши отношения — образец партнёрских связей // Культура и жизнь. – Москва, 1988. – №7. – С. 12–13.

4. Бухоро ва Грозный шаҳарлари ўртасида биродарлик муносабатлари ўрнатилди // Бухоро шаҳар ҳокимлиги. – 1.07.2025.

5. Birodarlashgan shaharlar // Samarqand viloyati hokimligi. Samarqand viloyati hokimligining rasmiy sahifasi

6. Samarqand va Nara shaharlari o‘rtasidagi birodarlik aloqalari rivojlantiriladi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – 20.12.2025.

7. Касымов А.М. Советский Узбекистан на международной арене // Общественные науки в Узбекистане. – 1984. – №10. – С. 82–88.

8. O‘zbekistonda “Birodar shaharlar alyansi” o‘z faoliyatini boshladi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi. – 7.05.2025.

9. Samarqandda “Birodar shaharlar” xalqaro forumi o‘tkazildi // Samarqand viloyati hokimligi / O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. – 24–25.07.2026.

10. "Birodar shaharlar" alyansi va "O'zarxiv" agentligi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi // O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi. – 2025.

UO'K 2-42:316.74

DINNING INSON E'TIQODI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

A.Umrzaqov, PhD, Farg'ona davlat texnika universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada diniy e'tiqodning inson dunyoqarashi va ijtimoiy ong shakllanishidagi o'rni, uning jamiyat ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *diniy e'tiqod, ijtimoiy ong, diniy dunyoqarash, ma'naviy qadriyatlar, islom ta'limoti, dunyoviylik, mafkuraviy bo'shliq, diniy bag'rikenglik.*

Аннотация. *В статье с социально-философской точки зрения анализируются роль религиозных убеждений в формировании мировоззрения человека и общественного сознания, а также их влияние на духовно-культурное развитие общества.*

Ключевые слова: *религиозные убеждения, общественное сознание, религиозное мировоззрение, духовные ценности, исламское вероучение, светскость, идеологический вакуум, религиозная толерантность.*

Abstract. *This article provides a socio-philosophical analysis of the role of religious beliefs in shaping human worldview and social consciousness, as well as their influence on the spiritual and cultural development of society.*

Keywords: *religious beliefs, social consciousness, religious worldview, spiritual values, Islamic teachings, secularism, ideological vacuum, religious tolerance.*

Ma'lumki, diniy e'tiqod inson e'tiqodi tarkibida juda katta o'rin egallaydi. Diniy e'tiqod butun bashariyat tarixi davomida muntazam ravishda unga hamrohlik qilib kelayotgan ijtimoiy ong shakli bo'lib, uning ma'naviy-madaniy takomillashuvi ko'p hollarda ana shu muhim omil ta'siri bilan uzviy va chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Shuning uchun, alohida ta'kidlash mumkinki, xalqlar va davlatlar taraqqiyoti barcha davrlarda ko'p jihatdan muayyan diniy e'tiqod shakllari bilan uzviy bog'liq bo'lib kelganligi uchun har qanday madaniyat zaminida, shubhasiz, muayyan diniy dunyoqarash turadi, deyishga asos bo'la oladi. Xuddi shu bois har birimiz uchun din faqat nazariy ta'limotgina emas, balki muayyan darajadagi turmush va hayot tarzi hamdir. Masalan, odamlar faqat "...Islom qonun-qoidalariga to'la rioya qilganliklari uchun musulmon deb atalmaydi, balki ular Islom tarqalgan davlatlarda tug'ilib o'sganliklari, o'sha mamlakatlarning madaniy va tarixiy o'tmishi Islom bilan bog'langanligi, oilaviy va ijtimoiy hayotda yuz berayotgan ko'plab voqealar Islom diniy qonun-qoidalari asosida olib borilishi tufayli musulmon deb ataladi" [1]. Boshqacharoq qilib aytganda, barchamiz bu din yordamida dunyoga kelamiz, unga xos ahkomlar ichra umrguzaronlik qilamiz va vaqti-soati yetganda yana shu din yordamida bandalikni bajo keltirib, o'tkinchi dunyoni tark etamiz. Shu bois har birimiz o'z hayotimizni dinsiz tasavvur etishimiz qiyin. Bunday holatning bosh sababchisi diniy e'tiqodning ijtimoiy ong tarkibidan ajralmas joy egallaganligidir.

Tarixiy voqelik rivoji shundan dalolat beradiki, mazkur tamoyil bilan hisoblashmaslik ijtimoiy turmushni tashkil etish va boshqarishda demokratik qadriyatlardan uzoqlashish bilan bog'liq bo'lgan muayyan noqulayliklarga sabab bo'ladi. Bunga misol qilib sobiq ittifoq tuzumi davrida diniy e'tiqodga nisbatan "o'gay" munosabat oqibatida yuzaga kelgan murakkab vaziyatni keltirish mumkin. Ya'ni bu davrda odamlar diniy e'tiqoddan voz kechishga majbur qilinib, ularning ongiga kommunistik mafkura zo'ravonlik bilan singdirildi. Tuzum va tizim aybi bilan hayotga tatbiq etilgan noinsoniy o'ch olishlar, turli shafqatsiz ta'qib va taqiqlarga qarshi kurashish uchun diniy e'tiqodi butun odamlarning jur'ati yetmadi. Buning o'rniga odamlarning ongi va e'tiqodida diniy e'tiqodga o'rin bo'lmagan dinsiz jamiyat qurish g'oyalari tinmay targ'ib qilindi. Natijada umuminsoniy e'tiqodning shakllanish qonunlariga zid bo'lgan bunday boshqaruvga nisbatan norozilik va o'ziga xos isyon sifatida ko'pgina kishilar mamlakatni tashlab chiqib ketdilar. E'tiqodning butunligini diniy e'tiqodsiz tasavvur eta olmaydiganlar orasida, hattoki, istiqomat qilib turgan makondan bosh olib, butun oila a'zolari bilan birgalikda Sibirning kimsasiz tayga o'rmonlariga qarab yo'l olganlar ham

bo‘ldi. (Bu to‘g‘rida mashhur telejurnalist V. Listyev 80-yillarda maxsus hujjatli xronikal mualliflik ko‘rsatuvini efirga uzatgan edi.) Dahriylikni birlamchi deb bilgan kommunistik jamiyatning inson e’tiqodini shakllantirishda diniy omilning roliga barham berish maqsadi aksilnatija berdi, ya’ni bu omil pinhona va yashirin faoliyat yo‘liga o‘tib, ushbu siyosiylashgan jamiyatga qarshi bo‘lgan jiddiy muxolifat kuchga aylandi.

Biroq inson e’tiqodining tarixiy taraqqiyot jarayonlari shundan dalolat beradiki, “...uzoq davrlar xudosizlik g‘oyalari targ‘ib etilgan mamlakatlar taraqqiyotida tub burilishlar sodir bo‘lgan bosqichlarda, ularda yillar davomida zo‘r berib tashviqot qilingan mafkuraning asossizligi amalda o‘z isbotini topgan paytlarda, buning natijasida jamiyat hayotida mafkuraviy bo‘shliq holati vujudga kelgan davrlarda, deyarli barcha jamiyatlarda mazkur bo‘shliqni, odatda, muayyan diniy dunyoqarashga tayangan g‘oyaviy oqimlar egallashi uchun qulay imkoniyat tug‘iladi” [2]. Ushbu fikrni mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining dastlabki o‘n yillari tajribasi ham yaqqol tasdiqladi.

Ma’lumki, diniy e’tiqod ham dunyoning o‘ziga xos diniy manzarasi sifatida bir qancha omillar ta’sirida shakllanadi. Bu holatning turli dinlarda turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, islomiy e’tiqodning qaror topishi birinchi navbatda muqaddas Qur’oni Karimga borib taqalsa, mutaxassislarning ta’kidlashicha [3], undan keyingi o‘rinlarda Hadis (lug‘aviy ma’nosi “suhbat”, “hikoya”, “rivoyat” bo‘lib, Muhammad payg‘ambarimizning faoliyati davomidagi so‘zlari hamda o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlari), Ijmo (Qur’on va hadis matnlarida aniq ko‘zda tutilmagan masalalar yuzasidan islom ulamolarining mazkur manbalarga zid bo‘lmagan bir umumiy fikrga kelish) va Qiyos (muammolar haqida Islomning asosiy manbalarida dalil keltirilmagan hollarda shunga o‘xshash muammolarning qanday hal etilganligiga qarab hukm chiqarish) turadi. Bugungi kunda islomiy e’tiqodga ega bo‘lgan aholi dunyoda 1,5 milliarddan ziyod kishini tashkil etsa, ularning 93 foizi sunniylik, 7 foizi esa shialik e’tiqodiga moyil musulmonlardir. Sunniylik e’tiqodiga mansub musulmonlarning yarmiga yaqini hanafiylik mazhabiga mansub bo‘lib, o‘z qonunlari va qoidalarining nisbatan yumshoqligi, murosasozligi hamda mo‘tadilligi, turli xalqlarga xos milliy an’analar, urf-odat va marosimlar kabilarni imkon qadar ko‘proq e’tiborga olganligi bois dunyoda keng tarqalgan.

Biroq kezi kelganda shuni ta’kidlash o‘rinliki, sobiq sovet tuzumi davrida inson e’tiqodining shakllanishida diniy omilning roli ochiqdan-ochiq inkor etildi, o‘sib kelayotgan yoshlar e’tiqodini shakllantirish jarayonlarida dinlar tarixi, payg‘ambarlar tarixi, islomdagi sunniylik va shialik oqimlari va ularning mohiyati, sunniylikdagi to‘rt mazhab kabilar to‘g‘risida yosh avlod vakillariga yetarli darajadagi ma’lumotlar berilmadi. Sanab o‘tganimiz Qur’oni Karim, payg‘ambarimiz hadislari, ijmo va qiyosning Islom ta’limotining manbalari ekanligi haqidagi bilimlardan deyarli bexabar bo‘lib o‘sdik. Dunyoviylik siyosiylashtirilgan holda birlamchi hisoblangan jamiyatda inson e’tiqodining tarkibiy qismi bo‘lgan diniy e’tiqod mavjudligini bilib bilmaslikka olish, ataylab inkor etish yoshlarimiz e’tiqodini ma’rifiy kemtik va nobutun etib shakllantirdi.

Xulosa qilib aytganda, din inson e’tiqodining shakllanishi va rivojlanishida muhim ijtimoiy-ma’naviy omillardan biri hisoblanadi. Diniy e’tiqod insonning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, hayotiy maqsadlari va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatib, uning ma’naviy kamolotida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida diniy qarashlar xalqlarning madaniy merosi, urf-odatlari, an’analari va ijtimoiy ongining shakllanishi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Shu jihatdan dinni faqat e’tiqodiy ta’limot sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy-madaniy hayotiga ta’sir etuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. Т.: “Шарқ”, 2005. 6-бет.

2. Мунавваров З.И. Ислом: бағрикенглик ва мутаассиблик. Тошкент, 1998. 5-бет.

3. Очилдиев А., Нажмиддинов Ж. Миссионерлик: моҳият, мақсадлар, оқибатлар ва олдини олиш йўллари (юз саволга – юз жавоб). Тошкент, 2009. 16-17-бетлар.

UO'K 2:316.74:17.022

ZAMONAVIY JAMIYATDA DINIY QADRIYATLARNING SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTIGA TA’SIRI

M. S.Urunbayeva, katta o‘qituvchi, Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda diniy qadriyatlarning shaxs ma’naviy kamolotiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Diniy qadriyatlarning axloqiy ong, shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy tarbiya jarayonlari bilan o‘zaro aloqadorligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *diniy qadriyatlar, ma’naviy kamolot, shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy falsafa, axloqiy ong, globallashuv, ma’naviy tarbiya, diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat.*

Аннотация. *В статье проводится социально-философский анализ влияния религиозных ценностей на духовное развитие личности в современном обществе. Рассматривается взаимосвязь религиозных ценностей с нравственным сознанием, мировоззрением личности, социальной ответственностью и духовно-нравственным воспитанием.*

Ключевые слова: *религиозные ценности, духовное развитие, мировоззрение личности, социальная философия, нравственное сознание, глобализация, духовно-нравственное воспитание, религиозная толерантность, социальная ответственность.*

Abstract. *This article provides a socio-philosophical analysis of the influence of religious values on personal spiritual development in modern society. It examines the relationship between religious values, moral consciousness, individual worldview, social responsibility, and spiritual and moral education.*

Keywords: *religious values, spiritual development, individual worldview, social philosophy, moral consciousness, globalization, spiritual and moral education, religious tolerance, social responsibility.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining murakkab va ko‘p qirrali jarayonlari insonning ma’naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, madaniyatlararo munosabatlarning kengayishi hamda ijtimoiy hayotning jadallashuvi shaxs ma’naviy kamolotining yangi shart-sharoitlarini shakllantirmoqda. Bunday vaziyatda insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi omillar, xususan, diniy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va shaxs dunyoqarashiga ta’sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Diniy qadriyatlar insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma’naviy-madaniy merosning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ular insonning hayot mazmuni, ezgulik va yovuzlik, adolat va mas’uliyat, vijdon va burch haqidagi tasavvurlariga ta’sir etuvchi axloqiy-me’yoriy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Diniy qadriyatlarning mazmunida insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat kabi axloqiy tamoyillar muhim o‘rin tutadi. Mazkur qadriyatlar turli diniy an’analarda o‘ziga xos talqinlarga ega bo‘lsa-da, ularning ayrim jihatlari umuminsoniy axloqiy me’yorlar bilan mushtarakdir.

Shaxsning ma’naviy kamoloti murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni insonning axloqiy ongini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ijtimoiy mas’uliyatni anglash va hayotiy faoliyatini muayyan qadriyatlar asosida tashkil etish bilan belgilanadi. Bu jarayonda diniy qadriyatlar bilan bir qatorda dunyoviy ta’lim, ilmiy tafakkur, oilaviy tarbiya, madaniy muhit va shaxsiy hayotiy tajriba ham muhim ahamiyatga ega.

Diniy qadriyatlarning shaxs ma’naviy kamolotiga ta’siri bir xil yoki avtomatik tarzda namoyon bo‘lmaydi. Ularning tarbiyaviy imkoniyatlari shaxsning diniy bilim darajasi, ijtimoiy muhiti, qadriyatlarni talqin qilish usuli hamda boshqa insonlarning huquq va erkinliklariga munosabati bilan bog‘liq. Shu sababli diniy qadriyatlarni ilmiy tahlil qilishda ularning ijobiy axloqiy imkoniyatlari bilan birga, noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki murosasizlikni oqlash uchun ishlatilishi ehtimolini ham hisobga olish zarur.

O‘zbekiston jamiyatida diniy qadriyatlar milliy madaniyat, tarixiy xotira, oilaviy an’analar va ma’naviy tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Mustaqillik davrida vijdon erkinligining huquqiy kafolatlanishi, diniy-ma’rifiy merosni o‘rganish imkoniyatlarining kengayishi va diniy bag‘rikenglik tamoyillariga e’tibor kuchayishi ushbu masalani yangi ijtimoiy sharoitda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Diniy qadriyatlarning jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni falsafa, sotsiologiya, dinshunoslik, axloqshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlarida keng o‘rganilgan. Mazkur muammoning nazariy asoslarini tahlil qilishda klassik sotsiologik konsepsiyalar, aksiologik yondashuvlar va zamonaviy diniy-madaniy tadqiqotlar muhim metodologik ahamiyatga ega.

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym o‘zining «Diniy hayotning elementar shakllari» asarida dinni ijtimoiy hayot bilan bog‘liq hodisa sifatida tadqiq etib, diniy tasavvurlar va marosimlarning jamoaviy birdamlikni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [1]. Uning yondashuvi diniy qadriyatlarning shaxs ongiga ta’sirini ijtimoiy muhit va jamoaviy tasavvurlar bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi.

Nemis sotsiologi Maks Veber «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asarida diniy-axloqiy qarashlar bilan iqtisodiy xulq-atvor o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni tahlil qilgan [2]. Mazkur tadqiqot diniy qadriyatlarning shaxsning mehnatga munosabati, mas’uliyat hissi va kundalik faoliyatiga ta’sirini o‘rganishda muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi.

Piter Berger diniy tasavvurlarning ijtimoiy voqelikni mazmunan tushuntirish va inson hayotiga ma’no berishdagi o‘rnini tahlil qiladi [3]. Ushbu yondashuv diniy qadriyatlarning shaxsning hayotiy maqsadlari, dunyoqarashi va ma’naviy identikligini shakllantirishdagi funksiyalarini o‘rganishga yordam beradi.

Charlz Teylorning zamonaviy dunyoviylikka oid tadqiqotlarida esa diniy e’tiqod va dunyoviy dunyoqarashlarning bir jamiyat doirasida mavjud bo‘lishi, shaxsiy tanlov hamda zamonaviy ma’naviy tajribaning murakkabligi tahlil etiladi [4]. Bu diniy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini ko‘p qirrali jarayon sifatida tushunish imkonini beradi.

Nazariy tahlil asosida diniy qadriyatlarning shaxs ma’naviy kamolotiga ta’siri aksiologik, ijtimoiy-regulyativ va ma’naviy-identifikatsion yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Aksiologik jihatdan ular halollik, adolat, mehr-oqibat va mas’uliyat kabi qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ijtimoiy-regulyativ jihatdan shaxslararo munosabatlarda axloqiy me’yorlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy-identifikatsion jihatdan esa shaxsning tarixiy xotira, madaniy meros va ijtimoiy an’analar bilan bog‘liqligini anglashiga yordam beradi.

Globallashuv va raqamli sivilizatsiya sharoitida diniy qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari o‘zgarib, ularning yangi kommunikativ va ijtimoiy imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, diniy axborotlarning turlicha talqin qilinishi, stereotiplar va murosasizlik xavfi diniy-ma’rifiy bilimlarni tanqidiy tafakkur hamda axborot savodxonligi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shaxs ma’naviy kamolotida diniy qadriyatlarning ijobiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ularni umuminsoniy qadriyatlar, vijdon erkinligi, inson huquqlari va diniy bag‘rikenglik tamoyillari bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish muhimdir. Bunday yondashuv diniy va dunyoviy dunyoqarashlar o‘rtasidagi konstruktiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, diniy qadriyatlar shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘lib, ularning tarbiyaviy ahamiyati insonparvarlik, erkin tanlov, ijtimoiy mas’uliyat va bag‘rikenglik tamoyillari bilan uyg‘unlashganda yanada to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda diniy qadriyatlarning ma’naviy kamolotga ta’sirini o‘rganish ijtimoiy falsafa, aksiologiya va ma’naviyatshunoslikning istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Durkheim É. The Elementary Forms of Religious Life. — New York: Free Press, 1995.

2. Weber M. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. — London: Routledge, 2001.

3. Berger P. L. The Sacred Canopy: Elements of a Sociological Theory of Religion. — Garden City, NY: Doubleday, 1967.

4. Taylor C. A Secular Age. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2007.

UO'K 908

O'ZBEKISTON TIBBIYOT XODIMLARINING YAMAN, SURIYA VA AFG'ONISTONDAGI FAOLIYATI (1970–1980-YILLAR)

G'.J.Xoliqov, dotsent, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada 1970–1980-yillarda O'zbekiston SSR vrachlarining Yaman Arab Respublikasi, Suriya Arab Respublikasi va Afg'onistondagi ish tajribasi o'rganiladi. Asosiy manba sifatida S. S. Ag'zamxo'jayevning 1988-yilgi nomzodlik dissertatsiyasi va unda keltirilgan arxiv hamda matbuot ma'lumotlaridan foydalanildi. Vabo epidemiyasiga qarshi kurash, mahalliy tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ikki tomonlama bitimlar asosidagi hamkorlik misolida o'zbekistonlik mutaxassislar hissasi ochib beriladi, sovet davri manbalariga tanqidiy yondashuv zarurligi ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston SSR, Yaman, Suriya, Afg'oniston, sog'liqni saqlash, vabo, tibbiyot kadrlari, xalqaro hamkorlik.*

Аннотация. *В статье исследуется опыт работы врачей Узбекской ССР в Йеменской Арабской Республике, Сирийской Арабской Республике и Афганистане в 1970–1980-е годы. Основным источником послужила кандидатская диссертация С. С. Агзамходжаева (1988) и приведённые в ней архивные и газетные материалы. На примерах борьбы с эпидемией холеры, подготовки местного медицинского персонала и межгосударственных соглашений раскрывается вклад узбекистанских специалистов и подчёркивается необходимость критического прочтения источников советского периода.*

Ключевые слова: *Узбекская ССР, Йемен, Сирия, Афганистан, здравоохранение, холера, медицинские кадры, международное сотрудничество.*

Abstract. *The article studies the experience of doctors from the Uzbek SSR in the Yemen Arab Republic, the Syrian Arab Republic and Afghanistan in the 1970s–1980s. The main source is S.S. Agzamkhodjaev's 1988 candidate dissertation together with the archival and press materials it cites. Using the examples of the fight against a cholera epidemic, training of local medical staff and bilateral agreements, the paper shows the contribution of Uzbek specialists and stresses the need for a critical reading of Soviet-era sources.*

Keywords: *Uzbek SSR, Yemen, Syria, Afghanistan, health care, cholera, medical personnel, international cooperation.*

Kirish. Sovet Ittifoqining Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan aloqalarida tibbiy hamkorlik alohida o'rin tutgan. Bu mintaqa davlatlari bilan madaniy va diniy yaqinlik tufayli Markaziy Osiyo respublikalari, ayniqsa O'zbekiston mutaxassislari bunday aloqalarda ko'proq jalb qilingan. O'zbekistonlik vrachlarning mahalliy aholi urf-odatlari va iqlim sharoitiga moslashishi osonroq bo'lgani ularni bu hududga yuborishda muhim omil bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mavzu bo'yicha eng keng faktik material S. S. Ag'zamxo'jayevning O'zSSR FA Tarix institutida tayyorlangan nomzodlik dissertatsiyasida jamlangan [1]. Ushbu maqolada dissertatsiyaning Yaman, Suriya va Afg'onistonga oid ma'lumotlari umumlashtirilib, o'zbekistonlik shifokorlar faoliyatining asosiy shakllari va natijalari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodlari va manbalari. Ish tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. S. S. Ag'zamxo'jayev dissertatsiyasi [1] asosiy manba bo'lib, unda keltirilgan O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash vazirligi joriy arxivi va davriy nashrlar ma'lumotlari shu dissertatsiya orqali iqtibos qilinadi. Shuningdek, A.A.Isoqxo'jayev, A.A.Qodirov va Ch.A.Abutalipov asarlaridan ham foydalanildi [2; 3; 4].

Asosiy qism. Yaman Arab Respublikasi: epidemiyaga qarshi kurash. O'zbekistonlik tibbiyot xodimlari F.Aliyev, K.Aliyeva, S.Solihov va boshqalar San'adagi sovet gospitalida ishlab, profilaktika tadbirlari, mahalliy kasalliklarni o'rganish va o'rta tibbiyot xodimlarini o'qitishda qatnashishgan [1, B. 103; 3, B. 122]. Toshkentdagi 6-tug'ruqxona bosh vrachi Ye. N. Osipova Yamanda bir yarim yil ishlab, mamlakat bo'ylab feldsher va hamshiralar uchun mashg'ulotlar

o‘tkazgan; mahalliy aholi uni "toshkentlik hakima" deb atagan, Yaman hukumati esa yorliq bilan taqdirlagan [1, B. 103; 4, B. 284].

Hamkorlikning eng ko‘zga ko‘ringan sahifasi 1972-yilda Yamanda tarqalgan vabo epidemiyasiga qarshi kurash bo‘ldi. Yaman hukumatining so‘roviga ko‘ra professor Sh.Xo‘jayev boshchiligida vrachlar guruhi yuborilgan. Dissertatsiya ma’lumotlariga ko‘ra, guruh o‘zi bilan 500 ming doza vaksina va 50 mingdan ortiq dori-darmon olib kelgan, uch oy davomida bemorlarni davolash bilan birga vazirlik uchun kasallikni tugatish dasturini ishlab chiqqan, San’adagi gospitalda epidemiologiya bo‘limini ochgan va mahalliy xodimlarni o‘qitgan [1, B. 104]. Sh.Xo‘jayev aholi uchun vaboning oldini olish haqida ommabop risola ham yozgan. Yamanlik hamkasbi Ahmad al-Kibsi uning faoliyatini yuqori baholab, professorning bo‘sh vaqtida ham mahalliy vrachlarga qo‘shimcha bilim berganini ta’kidlagan [1, B. 104; 2, B. 85].

Stomatolog A.A.Po‘latov 1975–1977-yillarda Hudayda shahridagi gospitalda ishlab, yamanlik hamkasblari bilan operatsiyadan keyingi parvarish bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazgan, mahalliy arab tilidagi gazetada sog‘liq mavzusida maqolalar e’lon qilgan [1, B. 105]. Bu faoliyat vrachlarning ma’rifiy ishga ham e’tibor berganini ko‘rsatadi.

Suriya: shartnomaviy asosdagi hamkorlik. 1975-yil fevralida SSSR va Suriya o‘rtasida sog‘liqni saqlash va tibbiyot fani sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolangan. Bitim profilaktika, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va sanitariya-maorif sohasida tajriba almashishni, mutaxassislarning bir-birini ilmiy anjumanlarga taklif etishini nazarda tutgan [1, B. 105–106]. Hamkorlikning asosiy amaliy shakli sovet vrachlarining Suriya tibbiyot muassasalaridagi ishi bo‘lgan; bu yerda o‘zbekistonlik terapevt Z.Irg‘ashev, stomatolog A.K.Umarov, pediatr E.F.Zubkov, akusher-ginekolog L.R.Makarova va boshqalar faoliyat yuritgan [1, B. 106].

Suriya gazetasi ma’lumotlariga tayanib, mamlakatda vrachlar soni 1963-yilda 978 nafardan 1982-yilda 4633 nafargacha o‘sgani, hamshiralar va doyalar soni esa 7940 nafarga yetgani keltiriladi [1, B. 106]. Biroq bu o‘sishni faqat sovet yordami bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi: unga Suriya hukumatining o‘z siyosati va boshqa davlatlar bilan aloqalar ham ta’sir ko‘rsatgan.

Afg‘oniston: eng uzoq davom etgan hamkorlik. Tibbiyot sohasidagi sovet-afg‘on hamkorligi 1960-yillar oxirida boshlangan va 1970–1980-yillarda ayniqsa kengaygan. 1977-yilning o‘zida Afg‘onistonda O‘zbekistonning 10 dan ortiq tibbiyot xodimi ishlagani qayd etiladi [1, B. 107]. Hamkorlik moddiy-texnik bazani mustahkamlash, malakali yordam ko‘rsatish, yangi davolash usullarini joriy etish, vaksina va dori-darmon yetkazib berish hamda milliy kadrlar tayyorlashni qamrab olgan.

O‘zbekistonlik vrachlar asosan sovet ko‘magida qurilayotgan inshootlar tibbiyot punktlarida ishlagan. Masalan, X.Xalilxo‘jayev 1973–1976-yillarda Jalolobod irrigatsiya majmuasining tibbiy-sanitariya qismida katta vrach, D.Rahimova esa ginekolog bo‘lib ishlagan va G‘aznobod posyolkasi aholisiga ham xizmat ko‘rsatgan. 1977–1979-yillarda R.Qosimov "Sarda" irrigatsiya tizimi, X.K.Farmonqulov esa Chashma-i Shafa suv ombori qurilishidagi tibbiyot punktlarida faoliyat yuritgan [1, B. 108].

1982–1985-yillarda Kobuldagi Markaziy harbiy gospitalda maslahatchi-fizioterapevt bo‘lib ishlagan M.T.Musayev massajchilar va davolash jismoniy tarbiyasi yo‘riqchilari uchun olti oylik kurs tashkil etishda qatnashgan. Kursga 30 kishi qabul qilingan, ular uchun o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar tuzilib, dariy tiliga tarjima qilingan [1, B. 108–109]. Dissertatsiyada 1977-yildan boshlab Afg‘onistonda ishlayotgan sovet mutaxassislarining mahalliy tilni, afg‘on vrachlarining esa rus tilini o‘rgangani ham qayd etiladi [1, B. 109]. Bu muloqotni yengillashtirib, kadrlar tayyorlashni tezlashtirgan.

Shuni ham aytish kerakki, 1979-yildan keyingi davrda Afg‘onistondagi tibbiy yordam sovet qo‘shinlarining kiritilishi va urush sharoiti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Dissertatsiyada bu masala o‘z davrining rasmiy nuqtai nazaridan yoritilgan, shu bois bu davrni o‘rganishda boshqa manbalarni ham jalb etish zarur.

Muhokama. Uch mamlakat misoli o‘zbekistonlik mutaxassislar faoliyatining turli shakllarini ko‘rsatadi. Yamanda bu tezkor epidemiyaga qarshi yordam, Suriyada davlatlararo bitim asosidagi muntazam hamkorlik, Afg‘onistonda esa yirik qurilish loyihalari bilan bog‘liq tibbiy xizmat va

kadrlar tayyorlash edi. Har uchala holda ham mahalliy xodimlarni o‘qitishga alohida e’tibor berilgan, bu esa yordamning uzoq muddatli ta’sirini ta’minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, manbaning 1988-yilda yozilgani uning xulosalariga ta’sir ko‘rsatgan: yordamning siyosiy maqsadlari, muammolari va mahalliy aholining turli munosabati deyarli yoritilmagan. Shu sababli dissertatsiya ma’lumotlarini arab va afg‘on manbalari, xalqaro tashkilotlar hujjatlari bilan qiyoslash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. 1970–1980-yillarda O‘zbekiston SSR vrachlari Yaman, Suriya va Afg‘onistonda davolash, epidemiyaga qarshi kurash, profilaktika va milliy tibbiyot kadrlarini tayyorlash ishlarida faol qatnashdi. Professor Sh.Xo‘jayevning Yamandagi vaboga qarshi faoliyati, Suriya bilan tuzilgan bitim asosidagi hamkorlik va Afg‘onistondagi kadrlar tayyorlash kurslari bu ishning eng muhim natijalaridandir. S. S. Ag‘zamxo‘jayevning dissertatsiyasi ushbu jarayonlar haqida qimmatli faktik ma’lumot beradi, biroq uni bugungi tarixshunoslik talablari asosida tanqidiy o‘rganish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Агзамходжаев С.С. Узбекистан в сотрудничестве СССР с развивающимися странами Азии и Африки в области здравоохранения (60–80-е годы): Дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АН УзССР, 1988. – 164 с.
2. Исаходжаев А.А. Узбекистан – страны Арабского Востока и Африки. – Ташкент: Узбекистан, 1980.
3. Кадыров А.А. Становление и развитие здравоохранения в Узбекистане. – Ташкент: Медицина, 1976.
4. Абуталипов Ч.А. Под ленинским знаменем дружбы и мира. – Ташкент: Узбекистан, 1970.

UO'K 94(575.1):338.43(091)

O‘ZBEKISTONDA KOLXOZLAR BO‘LINMAS FONDLARINING SHAKLLANISHI, IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA EVOLYUTSIYA BOSQICHLARI (1920–1980-YILLAR)

G.Sh.Yakubova, o‘qituvchi, Koson tumani 72-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Koson tumani

Annotatsiya. *Maqolada sovet davri agrar siyosatida kolxoz-kooperativ mulkining moddiy negizi bo‘lgan bo‘linmas fondlar institutining iqtisodiy-huquqiy tabiati tadqiq etiladi. Muallif bo‘linmas fondlar evolyutsiyasini 1920-yillardagi shakllanishdan to 1980-yillargacha bo‘lgan davrni qamrab oluvchi to‘rt bosqichga ajratib tahlil qiladi. Fondlarning kirish badallari, musodara qilingan boy-quloq mulki hamda sof daromad ajratmalari hisobiga kapitallashuv jarayoni arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Tadqiqotda bo‘linmas fondlarning jamoa xo‘jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va qishloq infratuzilmasini ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kolxoz, bo‘linmas fond, pay badali, kollektivlashtirish, Namunaviy ustav, MTS islohoti, aylanma fondlar, takror ishlab chiqarish, kapital qo‘yilmalar, sof foyda.*

Аннотация. *В статье исследуется экономико-правовая природа института неделимых фондов, являвшихся материальной основой колхозно-кооперативной собственности в аграрной политике советского периода. Автор анализирует эволюцию неделимых фондов, разделяя её на четыре этапа, охватывающих период от их формирования в 1920-е годы до 1980-х годов. На основе архивных документов раскрывается процесс капитализации фондов за счёт вступительных взносов, конфискованного имущества зажиточных крестьян и кулаков, а также отчислений от чистого дохода. В исследовании раскрывается роль неделимых фондов в обеспечении расширенного воспроизводства коллективных хозяйств и развитии сельской инфраструктуры.*

Ключевые слова: *колхоз, неделимый фонд, паевой взнос, коллективизация, Примерный устав, реформа МТС, оборотные фонды, воспроизводство, капитальные вложения, чистая прибыль.*

Abstract. *The article examines the economic and legal nature of the institution of indivisible funds, which served as the material foundation of collective farm and cooperative property within the agrarian policy of the Soviet period. The author analyzes the evolution of indivisible funds by dividing it into four stages covering the period from their formation in the 1920s to the 1980s. Based on archival documents, the process of capitalization of these funds through entrance contributions, confiscated property of wealthy peasants and kulaks, as well as allocations from net income is*

explored. The study reveals the role of indivisible funds in ensuring expanded reproduction of collective farms and supporting the development of rural infrastructure.

Keywords: *collective farm, indivisible fund, share contribution, collectivization, Model Charter, MTS reform, working capital funds, reproduction, capital investments, net profit.*

Kirish: Sovet davrida qaror topgan kolxoz tizimining iqtisodiy asosini taqsimlanmaydigan bo‘linmas fondlar tashkil etgan bo‘lib, ular xo‘jalikning moddiy-texnika negizini kengaytirish va ijtimoiy ehtiyojlarni ta’minlashga xizmat qilgan. Mazkur fondlar tayyor iqtisodiy-huquqiy institut sifatida bir vaqtning o‘zida vujudga kelmay, agrar siyosat va kooperatsiyaning rivojlanishi ta’sirida bosqichma-bosqich shakllangan. Tadqiqotda bo‘linmas fondlar evolyutsiyasini 1920-yillar — 1930-yillar boshidagi institutsional shakllanish, 1935–1955-yillardagi huquqiy mustahkamlanish, 1956–1968-yillardagi iqtisodiy mazmunning kengayishi hamda 1969–1980-yillardagi yetuklik bosqichlariga ajratish maqsadga muvofiq. Kooperativ sharoitda bo‘linmas fond davlat budjeti o‘rnini bosuvchi bosh ichki moliyaviy jamg‘arish manbasi va daxlsiz sarmoyaviy kategoriya vazifasini bajargan. Maqolada O‘zbekiston tajribasi misolida ushbu to‘rt bosqichning normativ-huquqiy va amaliy rivojlanish tadriji qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil etiladi.

Asosiy qism. 1-bosqich: 1920-yillar — 1930-yillar boshi: Institutsional shakllanish. Bo‘linmas fondlar tarixi 1920-yillardagi qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasining dastlabki shakllari (TOZ, artel, kommuna) faoliyatidan boshlanadi. SSSR MIK va XKSning 1927-yil 16 martdagi «Kollektiv xo‘jaliklar to‘g‘risida»gi qarori bilan davlat tomonidan jamoa xo‘jaliklariga berilgan bino va inventarlar «bo‘linmas kapital» maqomiga ega bo‘ldi [1]. O‘zbekistonda mazkur jarayon o‘ziga xos xususiyat bilan kechdi: 1928-yilda respublika kolxozlarining atigi 18,8 foizida bo‘linmas fond mavjud bo‘lib, ularning 94,6 foizi davlat kreditlari hisobiga shakllangan [2].

1930-yil 1 fevraldagi yalpi kollektivlashtirish qarori va 1930-yil 1 martdagi Namunaviy ustav bo‘linmas fondlar tuzilmasiga ma’muriy-majburiy tus berdi [3]. O‘zbekistonda 1930–1933-yillarda musodara qilingan 40 mingdan ortiq boy-quloq xo‘jaliklarining mol-mulki to‘g‘ridan-to‘g‘ri kolxozlarning bo‘linmas fondlariga kiritildi. Namunaviy ustav bo‘linmas fond manbalari sifatida kirish badallari (2–10%), umumlashtirilgan mulkning 25–50 foizi hamda sof daromaddan 10–30 foizli majburiy ajratmalarni qonunan mustahkamlab, kolxozdan chiqqan a’zoga bo‘linmas fond mablag‘larini qaytarib berishni qat’iyan taqiqladi.

2-bosqich: 1935–1955-yillar: Huquqiy mustahkamlanish va markazlashtirilgan tartibga solish. Ikkinchi bosqich 1935-yil 17 fevralda qabul qilingan Qishloq xo‘jaligi artelining Namunaviy ustavi bilan boshlandi. Unga ko‘ra, kirish badallari (20–40 rubl), umumlashtirilgan mulkning 25–50 foizi va kolxoz yillik pul daromadlarining 10–20 foizi bo‘linmas fondga ajratildi [4]. Ushbu mulk maqomi 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasining 7-moddasida davlat tomonidan jamoa-sotsialistik mulki sifatida kafolatlandi.

Biroq bo‘linmas fondga ajratmalarning sun’iy oshirilishi dehqonlarning mehnat haqi (trudoden) keskin qisqarishiga sabab bo‘ldi. Shu sababli SSSR XKS va VKP(b) MKning 1938-yil 19 apreldagi qarori bilan bo‘linmas fondga ajratmalarning yuqori chegarasi qat’iy 10 foiz etib belgilandi va pul daromadlarining kamida 60–70 foizini mehnat haqiga taqsimlash shart qilib qo‘yildi [5]. Urushdan keyingi davrda ham (1946-yil 19 sentabr qarori) fondlardan boshqa maqsadlarda foydalanishni cheklash va jamoa mulki daxlsizligini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lib qoldi.

3-bosqich: 1956–1968-yillar: Iqtisodiy mazmun va xo‘jalik mustaqilligining kengayishi. Uchinchi bosqichda kolxozlarning mustaqilligi va mulkiy javobgarligi sezilarli kengaydi. KPSS MKning 1958-yil 26 fevraldagi qarori bilan mashina-traktor stansiyalari (MTS) qayta tashkil etilib, ularning texnikasi kolxozlarga sotildi [6]. Bu tadbir kolxoz bo‘linmas fondlarining tarkibini keskin kengaytirib, jamoa xo‘jaliklarini murakkab texnikalarni xarid qilish va amortizatsiyani mustaqil yuritish zarurati bilan yuzlashtirdi.

Institutsional jihatdan muhim o‘zgarish 1966-yil 28 martda SSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligi va SSU tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya ko‘rsatmasi bilan sodir bo‘ldi. Unga asosan, bo‘linmas fondlar tarkibiga ilk bor aylanma fondlar (urug‘lik, furaj va b.) rasman kiritildi va fondga ajratmalar

yalpi pul tushumidan emas, balki kolxozning yakuniy sof foydasidan (pribil) ajratiladigan tartibga o‘tkazildi [7].

4-bosqich: 1969–1980-yillar: Bo‘linmas fond institutining yetuk shaklga o‘tishi. To‘rtinchi bosqich 1969-yilgi Namunaviy ustav bilan tavsiflanadi. Ustavning 11–13-bandlariga asosan, bo‘linmaslik mulkni shakllantirish usuli emas, balki kolxoz ishlab chiqarish (asosiy va aylanma) hamda noishlab chiqarish fondlarining taqsimlanmaydigan yagona huquqiy rejimiga aylandi [8].

Bu davrga kelib dastlabki pay badallari o‘z ahamiyatini butunlay yo‘qotdi va jamoa mulkining mutlaq bazasi bo‘linmas fondlar hisobiga shakllandi. SSSR bo‘yicha bo‘linmas fondlar hajmi 1960-yildagi 25,9 mlrd rubldan 1972-yilga kelib 69,2 mlrd rublgacha yetdi (2,7 barobar o‘sish) [9]. Shuningdek, 1969-yilgi Ustav asosida kolxozlar o‘z bo‘linmas fondlari mablag‘larini birlashtirib, kolxozlararo qurilish va qayta ishlash tashkilotlarini («Mejkolxozstroy», yirik chorvachilik komplekslari) barpo etish amaliyotini kengaytirdilar.

Xulosa: 1920–1980-yillarda bo‘linmas fondlar davlat krediti va musodara mulkidan iborat oddiy yordam jamg‘armasidan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlovchi murakkab institutsional mulkiy tizim darajasigacha evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi. Fondlarning taqsimlanmaslik va qaytarilmaslik tamoyillari sovet davlatiga qishloq aholisining ichki moliyaviy resurslarini markazlashgan tarzda kapitallashtirish imkoniyatini yaratdi. Amaliyotda fondlarni sun’iy ravishda oshirib borish uzoq vaqt davomida kolxozchilarga mehnat haqi to‘lashni cheklash hisobidan kechgan bo‘lsa-da, 1960–1970-yillarda mazkur mablag‘lar qishloqda yirik infratuzilmani shakllantiruvchi bosh manba bo‘lib xizmat qildi. 1969-yilgi Namunaviy ustav bo‘linmas fondlarni kolxoz asosiy, aylanma va ijtimoiy-maishiy obyektlarining yaxlit huquqiy maqomi sifatida mustahkamlab, institutning nisbatan yetuk rivojlanish bosqichini yakunladi. O‘zbekiston kolxozlarida mazkur fondlar yangi yerlarni o‘zlashtirish va qishloq ijtimoiy-ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etishning markaziy iqtisodiy poydevori bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Постановление ЦИК и СНК СССР от 16 марта 1927 г. «О коллективных хозяйствах» // Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. В 5 т. Т. 1. — М.: Политиздат, 1967. — С. 590–597.

2. Мусаев Х. К истории образования и развития общественных фондов колхозов Узбекистана (1929–1932) // Общественные науки в Узбекистане. — 1962. — № 9. — С. 34–35.

3. Примерный устав сельскохозяйственной артели. Утвержден СНК СССР и Президиумом ЦИК СССР 1 марта 1930 г. // Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР. — 1930. — № 24. — Ст. 255. — С. 459–464.

4. Примерный устав сельскохозяйственной артели от 17 февраля 1935 года // Важнейшие решения по сельскому хозяйству. — Л.: Лениздат, 1944. — С. 231–240.

5. Постановление СНК СССР и ЦК ВКП(б) от 19 апреля 1938 г. «О неправильном распределении доходов в колхозах» // Собрание постановлений и распоряжений Правительства СССР. — 1938. — № 18. — С. 42–44.

6. Постановление Пленума ЦК КПСС от 26 февраля 1958 г. «О дальнейшем развитии колхозного строя и реорганизации машинно-тракторных станций» // Правда. — 1958. — 28 февраля. — № 59.

7. Костюк П. А. Бухгалтерский словарь. — Минск: Вышэйшая школа, 1971. — С. 78–79.

8. Примерный Устав колхоза от 28 ноября 1969 г. // КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 11. — М.: Политиздат, 1986. — С. 447–465.

9. Гумеров Р. М. Неделимые фонды колхозов // Большая советская энциклопедия. Т. 17. — 3-е изд. — М.: Советская энциклопедия, 1974. — С. 403.

UO’K: 94(575.1)"1960/1980":316.7

XX ASRNING 60–80-YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MADANIY HAYOT VA MILLIY O‘ZLIKNI SAQLASH MASALALARI

S.O.Yaxshiyeva, o‘qituvchi, Qarshi shahridagi 9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 1960–1980-yillarda O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan madaniy siyosat va uning milliy o‘zlikni saqlash jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet mafkurasi sharoitida adabiyot, teatr, kino, televideniye, tarixiy-madaniy meros va ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi hamda ushbu sohalarning milliy ongni saqlashdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston SSR, madaniy siyosat, milliy o‘zlik, milliy ong, sovet mafkurasi, tarixiy xotira, madaniy meros, adabiyot, kino, teatr, televideniye.*

Аннотация. *В статье анализируется культурная политика, проводившаяся в Узбекской ССР в 1960–1980-е годы, и её влияние на процессы сохранения национальной идентичности. В исследовании рассматриваются развитие литературы, театра, кино, телевидения и научных исследований, сохранение историко-культурного наследия в условиях советской идеологии, а также роль этих сфер в сохранении национального самосознания.*

Ключевые слова: *Узбекская ССР, культурная политика, национальная идентичность, национальное самосознание, советская идеология, историческая память, культурное наследие, литература, кино, театр, телевидение.*

Abstract. *This article analyzes the cultural policy implemented in the Uzbek SSR during the 1960s–1980s and its impact on the preservation of national identity. The study examines the development of literature, theater, cinema, television, historical and cultural heritage, and scientific research under Soviet ideology, as well as the role of these fields in preserving national consciousness.*

Keywords: *Uzbek SSR, cultural policy, national identity, national consciousness, Soviet ideology, historical memory, cultural heritage, literature, cinema, theater, television.*

Kirish. XX asrning 60–80-yillari O‘zbekiston tarixida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o‘zaro murakkab munosabatlari bilan ajralib turadi. Bu davrda O‘zbekiston Sovet Ittifoqining tarkibiy qismi sifatida yagona siyosiy va mafkuraviy tizim doirasida rivojlandi. Madaniyat sohasi ham ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, undan sovet jamiyatining mafkuraviy qadriyatlarini targ‘ib qilish, aholining dunyoqarashini shakllantirish va “sovet xalqi” tushunchasini mustahkamlash vositasi sifatida foydalanildi. Shu bilan birga, sovet milliy siyosati mahalliy xalqlarning madaniy shakllarini butunlay yo‘q qilish emas, balki ularni sotsialistik mazmun bilan uyg‘unlashtirishga intildi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham sovet madaniyatining Markaziy Osiyodagi rivoji aynan shu ziddiyat — sovetlashtirish va mahalliy milliy-madaniy shakllarning davomiyligi — orqali izohlanadi. 1960-yillardan boshlab O‘zbekistonda madaniy hayotning institutsional bazasi kengaydi. Biroq mazkur jarayonni faqat madaniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Chunki ijodiy faoliyat “sotsialistik realizm”, kommunistik mafkura va davlat senzurasining umumiy talablari bilan chegaralangan edi. Shunga qaramay, milliy til, tarix, adabiyot va san’at doirasidagi faoliyat milliy o‘zlikning uzluksizligini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib qoldi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 1960–1980-yillardagi O‘zbekiston madaniy siyosatini faqat “sovetlashtirish siyosati” sifatida baholash ushbu davrning ichki ziddiyatlarini to‘liq ochib bermaydi. Zamonaviy tarixshunoslikda sovet madaniy institutlari ayrim milliy madaniyatlarni cheklagan bo‘lsa-da, ularning ayrim elementlarini institutsional jihatdan rivojlantirgani ham ta’kidlanmoqda. Shu sababli mazkur maqolada madaniy siyosat va milliy o‘zlik o‘rtasidagi munosabat kompleks tarixiy jarayon sifatida tadqiq qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. 1960–1980-yillarda O‘zbekiston madaniy siyosati va milliy o‘zlik masalalarini o‘rganishda sovet davri hamda mustaqillikdan keyingi tadqiqotlar muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Laura L. Adamsning 2010-yilda nashr etilgan tadqiqotida sovet madaniy siyosati milliy madaniyatni faqat bostirishdan iborat bo‘lmaganligi, ayrim milliy madaniy shakllar sovet institutsional tizimi doirasida rivojlanganligi ko‘rsatiladi [1]. O‘zbek tarixshunosligida I. Mo‘minovning 1960–1970-yillardagi ilmiy faoliyati alohida ahamiyatga ega [2]. Xususan, 1969–1970-yillarda “Samarqand tarixi”ning ikki jildda nashr etilishi va 1970-yilda Samarqandning 2500 yilligi munosabati bilan tarixiy-madaniy obyektlarning rivojlantirilishi milliy tarixiy xotirani ilmiy va madaniy makonda mustahkamlash jarayonini ko‘rsatadi [3]. 1967–1970-yillarda o‘zbek va rus tillarida to‘rt jildlik “O‘zbekiston tarixi”ning yaratilishi ham ushbu davr tarixshunosligining muhim natijalaridan biridir. 1973-yilda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi nishonlanishi, 1974-yilda “Abu Rayhon Beruniy” filmining yaratilishi tarixiy shaxslar va ilmiy merosning sovet davri madaniy siyosatida ham muayyan o‘rin egallaganini ko‘rsatadi [5]. Adabiyotshunoslik tadqiqotlarida

esa 1960–1980-yillar “turg‘unlik davri” adabiyoti sifatida o‘rganilib, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi ijodkorlar asarlarida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil qilingan [7]. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu davrni mafkuraviy nazorat va milliy madaniyatning rivojlanishi bir vaqtda kechgan murakkab jarayon sifatida baholaydi.

1960–1980-yillarda O‘zbekistonda madaniy siyosatning adabiyot, tarixshunoslik, kino, teatr va tarixiy meros kabi yo‘nalishlari hamda ularning milliy o‘zlikni saqlash bilan bog‘liqligi davlat mafkurasi va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar asosida kompleks tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan tarixiy-xronologik, qiyosiy-tarixiy, manbashunoslik va tarixiy-madaniy tahlil metodlari qo‘llanildi. 1960–1980-yillardagi madaniy jarayonlar Erkin Vohidovning “Tong nafasi” to‘plami, Toshkent zilzilasi, O‘zbekiston va Samarqand tarixiga oid asarlar, Samarqandning yubileyi hamda Beruniy tavalludining nishonlanishi kabi muhim tarixiy-madaniy voqealar asosida xronologik tartibda o‘rganildi. Adabiyot, kino, teatr, tarixshunoslik va muzeylar faoliyati qiyosiy tahlil qilinib, sovet mafkuraviy nazorati bilan milliy tarix, adabiyot va madaniy merosning saqlanishi o‘rtasidagi munosabat aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari 1960–1980-yillardagi O‘zbekiston madaniy siyosatining ikki asosiy yo‘nalishda kechganini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalish — sovet mafkurasi asosida yagona madaniy makonni shakllantirish bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish — respublikaning milliy madaniy shakllarini sovet tizimi doirasida rivojlantirishdan iborat bo‘lgan. Zamonaviy tadqiqotlarda bu jarayon “milliy shakl, sotsialistik mazmun” tamoyili bilan bog‘lanadi. Ya’ni milliy madaniyatning til, adabiyot, musiqa, folklor va tarixiy obrazlar kabi shakllari mavjud bo‘lishi mumkin edi, biroq ularning mazmuni sovet mafkuraviy talablariga moslashtirilishi kutilgan.

Milliy o‘zlikni saqlashda tarixiy merosga bo‘lgan munosabat alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. 1970-yilda Samarqandning 2500 yilligi nishonlanishi bu boradagi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi. Yubiley doirasida Samarqand tarix muzeyi va Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan memorial muzey kabi muassasalar tashkil etildi, shaharning tarixini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlar kuchaydi. 1969–1970-yillarda Samarqand tarixiga bag‘ishlangan ikki jildlik ilmiy asar ham nashr etilgan. Tadqiqotlarda 1966–1970-yillar Samarqandning tarixiy xotirasi va shahar identitetining shakllanishida muhim davr sifatida baholanadi.

Shuningdek, 1967–1970-yillarda “O‘zbekiston tarixi”ning to‘rt jildlik nashrining o‘zbek va rus tillarida tayyorlanishi tarixiy bilimlarni tizimlashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Biroq tarix fanining rivoji ham sovet tarixshunosligining umumiy metodologik chegaralaridan tashqarida bo‘la olmagan. Shuning uchun tarixiy merosning ayrim jihatlari ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, ularning talqinida sovet mafkuraviy yondashuvlari saqlanib qoldi. Olingan natijalar 1960–1980-yillardagi madaniy siyosatni oddiy “milliy madaniyatga qarshi siyosat” yoki aksincha, “milliy madaniyatni rivojlantirish davri” sifatida bir tomonlama baholash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Asosiy ziddiyat shundan iborat ediki, davlat milliy madaniyatning tashqi shakllarini — til, adabiyot, folklor, milliy san’at, tarixiy obidalar va an’analarni — ma’lum darajada qo‘llab-quvvatlagan, biroq ularning mazmunini sovet mafkuraviy tizimi bilan uyg‘unlashtirishga intilgan.

Laura Adamsning tadqiqotida ham sovet davrida O‘zbekistonda ayrim milliy madaniyat shakllari institutsional jihatdan rivojlantirilgani, ayni paytda boshqa elementlar cheklangani qayd etiladi. Muallif shu sababli sovet davrini milliy madaniyatning “butunlay bostirilishi” va mustaqillikdan keyingi davrni esa “birdaniga uyg‘onish” sifatida tasvirlash biryoqlama ekanini ko‘rsatadi. Bu fikrni O‘zbekiston misolida adabiyot va tarixiy meros orqali ko‘rish mumkin. Masalan, Mirzo Ulug‘bek, Beruniy, Navoiy va Bobur kabi tarixiy shaxslarning asarlarda va san’atda aks etishi sovet mafkurasi sharoitida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning nomi, ilmiy va ijodiy merosi jamiyatning tarixiy xotirasida saqlanib qoldi. Ayniqsa, Samarqand yubileyi doirasida tarixiy shahar, arxeologik meros va Temuriylar davriga oid ilmiy tadqiqotlarning faollashuvi tarixiy xotiraning institutsional shaklda davom etishiga xizmat qildi. Shu ma’noda madaniy siyosatning kutilmagan natijalaridan biri shundan iborat bo‘ldiki, sovet davlatining institutsional imkoniyatlari — nashriyotlar, teatrlar, kinostudiyalar, muzeylar, ilmiy institutlar va televideniye — milliy

madaniyatning ayrim elementlarini keng auditoriyaga yetkazish uchun ham xizmat qildi. 2026-yilda Oxford University Press tomonidan chop etilgan Claire Roosien tadqiqotida ham Sovet Markaziy Osiyosida madaniyatning sovetlashtirilishi mahalliy madaniyatni qayta shakllantirish jarayoni bilan bir vaqtda kechgani, bu jarayonda ko‘plab ichki ziddiyatlar va kutilmagan imkoniyatlar mavjud bo‘lgani ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga, mazkur jarayonni ideallashtirish ham mumkin emas. Adabiyot, teatr va kino davlat mafkuraviy nazorati ostida bo‘lib, ijodkorlar sotsialistik realizm talablari bilan hisoblashishga majbur edilar. 1970–1980-yillarga kelib “turg‘unlik” davrining siyosiy va ijtimoiy muammolari adabiyotda ham o‘z aksini topdi. Zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotlarida ushbu davr o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, begonalashuv, jamiyatdagi ziddiyatlar va tarixiy xotira bilan bog‘liq masalalar alohida o‘rganilmoqda. Demak, 1960–1980-yillarda milliy o‘zlikning saqlanishi uch asosiy mexanizm orqali amalga oshganini ko‘rish mumkin: birinchidan, o‘zbek tilidagi adabiyot va san’at orqali; ikkinchidan, tarixiy shaxslar va madaniy merosni ilmiy va badiiy jihatdan ommalashtirish orqali; uchinchidan, kundalik madaniy amaliyotlar — mahalla, oila, urf-odat va an’analar orqali. Bu mexanizmlar sovet mafkurasi bilan bir makonda mavjud bo‘lib, milliy madaniyatning to‘liq yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymadi.

Xulosa. 1960–1980-yillarda O‘zbekistonda madaniy siyosat sovet mafkurasi talablariga asoslangan bo‘lsa-da, uning amaliy natijalari bir xil va bir yo‘nalishli bo‘lmagan. Madaniyat davlat tomonidan mafkuraviy ta’sir vositasi sifatida boshqarildi, biroq ayni vaqtda adabiyot, teatr, kino, televideniye, muzey va ilmiy muassasalar milliy madaniyatning ayrim shakllarini saqlash va ommalashtirish uchun muhim institutsional maydon vazifasini bajardi. Shunday qilib, 1960–1980-yillardagi O‘zbekiston madaniy hayotini “sovetlashtirish va milliy o‘zlikning saqlanishi bir vaqtning o‘zida kechgan murakkab tarixiy jarayon” sifatida baholash maqsadga muvofiq. Milliy o‘zlik mazkur davrda faqat siyosiy qarshilik orqali emas, balki adabiyot, san’at, tarixiy xotira, ilmiy tadqiqot va kundalik madaniy an’analar orqali ham saqlanib qoldi. Keyinchalik 1980-yillarning ikkinchi yarmida “qayta qurish” va “oshkoralik” jarayonlari kuchayishi bilan ushbu madaniy tajriba milliy tarix va o‘zlik masalalarining yanada ochiq muhokama qilinishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adams L.L. The Spectacular State: Culture and National Identity in Uzbekistan. Durham: Duke University Press, 2010.
2. Mo‘minov I.M. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. Toshkent: Fan, 1993.
3. Samarqand tarixi. 2 jildlik. Toshkent: Fan, 1969–1970.
4. O‘zbekiston tarixi. 4 jildlik. Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1967–1970.
5. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1973.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
7. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.
8. Qodirov P. Yulduzli tunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
9. Roosien C. Socialism Mediated: The Making of Soviet Culture in Central Asia. Oxford: Oxford University Press, 2026.
10. O‘zbekiston sovet ensiklopediyasi. 14 jildlik. Toshkent: O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyati, 1976–1980.

UDC: 94(575.1)"1980/1990":316.64

THE RESTORATION OF NATIONAL HISTORICAL MEMORY AND THE TRANSFORMATION OF NATIONAL CONSCIOUSNESS IN UZBEKISTAN IN THE 1980s–1990s

S.O.Yaxshiyeva, teacher, General Secondary School No. 9, Karshi

Annotatsiya. *Maqolada 1980–1990-yillarda O‘zbekistonda milliy tarixiy xotiraning tiklanishi va milliy ongning o‘zgarishi tahlil qilinadi. Sovet davrining so‘nggi bosqichidagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning tarixiy meros, milliy o‘zlik va tilga bo‘lgan munosabatga ta’siri yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy xotira, milliy ong, O‘zbekiston, sovet davri, milliy o‘zlik, o‘zbek tili, madaniy meros, mustaqillik.*

Аннотация. *В статье анализируются восстановление национальной исторической памяти и трансформация национального самосознания в Узбекистане в 1980–1990-е годы.*

Рассматривается влияние политических, социальных и культурных изменений позднесоветского периода на отношение к историческому наследию, национальной идентичности и языку.

Ключевые слова: *историческая память, национальное самосознание, Узбекистан, советский период, национальная идентичность, узбекский язык, культурное наследие, независимость.*

Abstract. *This article analyzes the restoration of national historical memory and the transformation of national consciousness in Uzbekistan during the 1980s–1990s. It examines the impact of political, social, and cultural changes in the late Soviet period on attitudes toward historical heritage, national identity, and language.*

Keywords: *historical memory, national consciousness, Uzbekistan, Soviet period, national identity, Uzbek language, cultural heritage, independence.*

Introduction. The transformation of national consciousness in Uzbekistan during the 1980s–1990s represents one of the most significant intellectual and socio-cultural processes in the contemporary history of the country. During the final decade of Soviet rule, the established ideological interpretation of history increasingly came into conflict with the growing public interest in national culture, language, historical personalities, and the historical experience of the Uzbek people. The weakening of ideological control associated with perestroika and glasnost created new opportunities for intellectual debate and encouraged a critical reassessment of the Soviet interpretation of the national past.

For several decades, historical research in Soviet Uzbekistan was largely conducted within the framework of Marxist-Leninist methodology. The history of Uzbekistan was commonly interpreted as part of a broader Soviet historical narrative, while certain periods, personalities, religious traditions, and intellectual movements received limited or ideologically determined treatment. This situation influenced not only academic historiography but also collective historical memory and the ways in which national identity was represented in public discourse.

The relevance of this research lies in the fact that historical memory plays an important role in the formation of national identity and social cohesion. Understanding the processes through which historical memory was reconstructed in Uzbekistan during the 1980s–1990s makes it possible to better understand the intellectual and cultural foundations of the post-Soviet transformation.

The purpose of this article is to analyze the major factors and stages of the restoration of national historical memory in Uzbekistan during the 1980s–1990s and to determine their influence on the transformation of national consciousness.

Literature review. The cultural development of Uzbekistan during the late Soviet period has been studied by scholars from the perspectives of national identity, Soviet cultural policy, modernization, historical memory, and social transformation. Edward Allworth's research on Uzbek cultural history emphasizes the continuity of cultural traditions, literature, historical consciousness, and social practices in the formation of Uzbek identity [1]. Adeeb Khalid's works, particularly The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia and Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR, demonstrate that national consciousness was shaped by long-term interactions between political institutions, intellectual movements, cultural practices, and local society [2, 3].

Research on Soviet cultural policy in Central Asia indicates that state modernization significantly influenced education, cultural institutions, artistic activities, public celebrations, and everyday social life. Studies of Central Asian communities therefore suggest that national identity was preserved not only through formal cultural institutions but also through informal social environments where cultural knowledge was transmitted between generations. This study addresses this gap by examining how state cultural policies interacted with local cultural practices and how family traditions, mahalla life, ceremonies, folklore, music, literature, handicrafts, and historical heritage contributed to the preservation and transformation of national historical memory. Such an

approach allows national consciousness to be understood as a process rooted not only in political changes but also in the cultural experiences of ordinary people.

Methodology. This study employs a historical-cultural and interdisciplinary approach, using historical-comparative and cultural-anthropological methods to examine the relationship between state cultural policy, everyday cultural life, and the transformation of national historical memory in Uzbekistan during the 1980s–1990s. Scholarly publications, historical documents, legislative materials, and cultural sources are analyzed to identify changes in cultural institutions, public celebrations, historical heritage, literature, art, folklore, family traditions, mahalla life, ceremonies, music, and handicrafts, as well as the role of collective memory in transmitting cultural knowledge and historical experience between generations and preserving and transforming national identity.

Results and discussion. The analysis demonstrates that the transformation of national historical memory in Uzbekistan during the 1980s–1990s was closely connected with changes in the cultural life of the local population. The results indicate that cultural identity was preserved through the interaction of state cultural institutions and informal community-based practices. During the late Soviet period, cultural policy influenced the development of theatres, museums, libraries, cultural centers, artistic organizations, literature, music, and public cultural events. At the same time, the local population continued to preserve many elements of traditional culture within families and communities. This combination of institutional cultural activity and everyday cultural practices created conditions for the gradual strengthening of interest in national heritage and historical continuity.

The family played an important role in preserving cultural traditions, including respect for elders, hospitality, wedding customs, and family ceremonies. These practices ensured the transmission of cultural memory and historical knowledge between generations. Thus, everyday social life contributed to the continuity of national identity. Another important result is related to the changing role of state cultural policy during the second half of the 1980s. The policies of perestroika and glasnost created a relatively broader public space for discussing cultural heritage, historical personalities, national traditions, and previously neglected aspects of the past. Cultural institutions increasingly became places where society could engage with literature, historical materials, artistic heritage, and traditional forms of culture. This process did not create national cultural consciousness from scratch; rather, it provided wider public and institutional opportunities for cultural practices that had already survived within families and communities.

The study also identifies a gradual reassessment of historical and cultural heritage. Interest in the history of ancient and medieval Central Asia, the intellectual heritage of scholars and writers, historical monuments, traditional architecture, folklore, and national artistic traditions increased during the late 1980s and became more pronounced in the 1990s. Historical personalities such as Amir Temur, Alisher Navoi, Mirzo Ulugbek, Abu Ali ibn Sina, Muhammad al-Khwarizmi, and representatives of the Jadid movement increasingly came to be regarded as important components of national cultural heritage. Their renewed representation contributed to the development of a broader understanding of the historical depth of Uzbek society. The results further demonstrate that independence in the early 1990s significantly expanded the institutional possibilities for cultural development. National cultural heritage received greater attention in education, museums, public commemorative activities, literature, art, and cultural programs.

Historical monuments and cultural traditions became increasingly associated with the construction of a new national narrative. However, the analysis shows that these developments had important roots in the preceding period. Many cultural traditions recognized and promoted more openly in the 1990s had already been preserved through family and community practices during the Soviet period.

An important finding is therefore the existence of a close relationship between cultural continuity and cultural revival. The cultural revival of the 1980s–1990s should not be interpreted solely as a consequence of political change. It was also the result of long-term cultural continuity maintained by local communities. State cultural policy provided institutional conditions for the public recognition and development of national heritage, while families, mahallas, cultural practitioners,

artists, writers, musicians, and craftspeople preserved and transmitted cultural values in everyday life. Overall, the results demonstrate that the transformation of national consciousness in Uzbekistan during the 1980s–1990s was a multidimensional cultural process. It involved not only changes in state policy and cultural institutions but also the preservation of traditions within ordinary social life. The interaction between institutional cultural policy and community-based cultural continuity strengthened historical consciousness and contributed to the preservation of national identity during a period of major social and political transformation.

Table 1.

The Relationship between State Cultural Policy and the Cultural Life of the Local Population in Uzbekistan, 1980s–1990s

Area of cultural life	State policy and institutional changes	Cultural practices of the local population	Impact on historical memory and national identity
Historical and cultural heritage	Greater attention to historical monuments, museums and cultural heritage during the late 1980s and especially after independence	Preservation of local historical sites, family stories and knowledge about ancestors	Strengthened awareness of historical continuity
Family traditions	Cultural institutions increasingly promoted national cultural values and traditions	Transmission of customs, etiquette, hospitality and family ceremonies between generations	Maintained cultural continuity within families
Mahalla life	Gradual recognition of traditional forms of community organization in the changing social environment	Collective celebrations, mutual assistance, ceremonies and community activities	Strengthened social cohesion and collective identity
Traditional ceremonies	Greater public recognition of national cultural traditions in the late 1980s–1990s	Weddings, circumcision ceremonies, family gatherings and other traditional events continued and adapted	Preserved cultural practices and intergenerational memory
Folklore and music	Development of cultural institutions, artistic organizations and public cultural programs	Folk songs, oral traditions, traditional music and performances remained part of community life	Preserved collective cultural memory and regional identity
Literature and arts	Increasing opportunities for cultural and literary discussion during perestroika and after independence	Interest in classical and modern writers, artists and national artistic heritage	Encouraged reassessment of cultural heritage and historical personalities
Traditional crafts	Cultural institutions increasingly promoted traditional artistic heritage	Embroidery, ceramics, wood carving, textile production and other crafts were transmitted through families and apprenticeships	Preserved material expressions of cultural identity
National celebrations and customs	Public cultural policy increasingly incorporated national cultural traditions during the transition period	Participation in traditional and community celebrations	Reinforced shared cultural symbols and collective memory
Cultural education	Museums, libraries, cultural centers and educational institutions expanded activities related to national heritage	Younger generations encountered national history and cultural traditions through both formal and informal education	Connected younger generations with historical and cultural heritage

Conclusion. The study concludes that the restoration of national historical memory and the transformation of national consciousness in Uzbekistan during the 1980s–1990s were closely connected with the cultural life of the local population. These processes were not limited to political changes or the achievement of independence in 1991, but developed through the preservation and transmission of family traditions, mahalla life, ceremonies, folklore, music, literature, handicrafts, national cuisine, and historical and cultural heritage. State cultural policy and cultural institutions created important conditions for the preservation and public recognition of cultural values, while families and local communities ensured their continuity in everyday life. The processes of perestroika and glasnost in the late 1980s further expanded opportunities for reassessing historical heritage and strengthening public interest in national culture. Following independence, these developments received broader institutional support, contributing to the formation of a stronger historical consciousness and national identity. Thus, the transformation of national consciousness in Uzbekistan should be understood as a gradual and multidimensional process in which state cultural policy, cultural continuity, collective memory, and everyday practices of local communities interacted to preserve and strengthen national identity.

REFERENCES:

1. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. Stanford: Hoover Institution Press, 1990, 410 p.

2. Khalid, A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 2007, 241 p.

3. Khalid, A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca: Cornell University Press, 2015, 444 p.

4. Bennigsen, A. A., & Wimbush, S. E. Muslim National Communism in the Soviet Union: A Revolutionary Strategy for the Colonial World. Chicago: University of Chicago Press, 1980, 267 p.

5. Keller, S. To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941. Westport: Praeger, 2001.

6. Northrop, D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. Ithaca: Cornell University Press, 2004, 392 p.

7. Roy, O. The New Central Asia: The Creation of Nations. New York: New York University Press, 2000, 222 p.

8. Ubiria, G. Soviet Nation-Building in Central Asia: The Making of the Kazakh and Uzbek Nations. London: Routledge, 2015.

9. Allworth, E. A. (Ed.). Central Asia: 130 Years of Russian Dominance: A Historical Overview. Durham: Duke University Press, 1994, 650 p.

УДК 902/904:628.1(575.121)

СИСТЕМА ВОДОСНАБЖЕНИЯ И ВОДООТВЕДЕНИЯ СРЕДНЕВЕКОВОГО АХСИКЕТА (ПО МАТЕРИАЛАМ ГОРОДИЩА ЭСКИ АХСИ)

Б.М. Арсланов, научный сотрудник, Институт антропологии Академии наук Республики Узбекистан, Ташкент

М.Т. Каримов, заместитель директора по научной работе, Наманганский областной государственный музей истории и культуры, Наманган

Annotatsiya. *Maqolada Farg'ona vodiysining o'rta asrlardagi poytaxti Axsikent (Eski Axsi yodgorligi) suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish tizimi arxeologik ma'lumotlar asosida qayta tiklanadi. Ilk bor VIII raskopdan (Axsi IA) tozalab olingan kubur quvurlarining dala fotolari va o'lchamlari (uzunligi 100-102 sm, diametri 14-16 sm dan 12 sm gacha) e'lon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Axsikent, Eski Axsi, suv ta'minoti, kubur, tazar, tashnov, hovuz, hammom, Farg'ona vodiysi, o'rta asr shahri.*

Аннотация. *В статье на основе археологических материалов реконструируется система водоснабжения и водоотведения Ахсикета (городище Эски Ахси) - столицы средневековой Ферганы. Впервые публикуются полевые фотографии и обмеры трёх звеньев кубурных труб водопровода X в. из раскопа VIII (Ахси IA): длина 100-102 см, диаметр от 14-16 до 12 см.*

Ключевые слова: *Ахсикент, Эски Ахси, водоснабжение, кубур, тазар, ташнау, хауз, баня, Ферганская долина, средневековый город.*

Abstract. *The article reconstructs the water supply and drainage system of Akhsikent (Eski Akhsi), the capital of medieval Fergana, on the basis of archaeological evidence. Field photographs and measurements of three kubur pipe segments from trench VIII (Akhsi IA) - length 100-102 cm, diameter from 14-16 to 12 cm - are published here for the first time.*

Keywords: *Akhsikent, Eski Akhsi, water supply, kubur pipes, tazar, tashnau, hauz, bathhouse, Fergana Valley, medieval city.*

Введение. Ахсикент - столица Ферганы IX-X вв. и один из крупнейших городов долины вплоть до первой четверти XIII в. Его руины - городище Эски Ахси - расположены на правом берегу р. Сырдарьи, в 25 км к юго-западу от Намангана, рядом с сёлами Гулкишлак и Шаханд. Городище состоит из цитадели, шахристана, разделённого на две части (Ахси IA и Ахси IБ), и рабада (Ахси II, Ахси III и Ахси IV) [1, с. 29].

По сообщениям Истахри и Ибн Хаукаля, Ахсикет имел цитадель, шахристан и обнесённый стеной рабад; в шахристане было пять ворот, а проточные воды и хаузы были и в шахристане, и в рабаде [2, с. 25-26; 3, с. 20, 30]. Раскопки 1980-х гг. показали, что в X в. застроенная площадь города достигала около 400 га [1, с. 25]. Такой город не мог существовать без организованной системы водоснабжения и водоотведения.

Актуальность и современное состояние проблемы. Водоснабжение Ахсикета до настоящего времени освещено значительно меньше, чем фортификация или планировка города: краткое обобщение вышло в виде тезисов [4], баня восточного рабада опубликована отдельно [5], остальные данные приведены в описательных главах монографии А.А. Анарбаева [1]. Между тем гидротехнические сооружения показывают уровень инженерной мысли горожан и участие городских властей в благоустройстве, а их изучение имеет прямое значение для сохранения и музеефикации археологического парка Эски Ахси. Цель настоящей статьи - реконструировать основные элементы системы водоснабжения и водоотведения средневекового Ахсикета по археологическим данным, включая новые полевые материалы авторов о кубурных трубах, и сопоставить их с аналогичными сооружениями других средневековых городов.

Материалы и методика исследования. Основой послужила монография А.А. Анарбаева «Ахсикет - столица древней Ферганы» [1], в которой опубликованы результаты раскопок Эски Ахси с конца 1950-х гг. Из отчётов по цитадели (раскоп III), шахристану (раскопы VII, VIII, IX, XVII, XVIII), восточному рабаду (раскоп I, баня) и шурфам Ахси IV были отобраны сооружения, связанные с водой. Дополнительно использованы неопубликованные полевые фотографии и обмеры кубурных труб водопровода, расчищенных на раскопе VIII в Ахси IA, полученные авторами в ходе работ на городище.

Каждое сооружение зафиксировано по функции (подача, хранение, бытовое использование, отведение), строительному материалу, размерам, положению в плане города и датировке; датировки следуют стратиграфии и керамической хронологии, установленным в [1]. Письменные источники использованы в опубликованных переводах [2; 3].

Анализ полученных результатов. Природные условия и источники воды. Ахсикент занимает высокую террасу правого берега р. Сырдарьи. Река была рядом с городом, но лежала значительно ниже уровня его улиц. Геоархеологические работы на раскопе VIII показывают, что город возник на землях, орошавшихся задолго до его появления. Под 7,5 м культурных отложений зафиксирован агроирригационный слой мощностью 0,75-0,80 м. В Ферганской долине ирригационные отложения нарастают приблизительно на 1 мм в год, следовательно, этот слой соответствует примерно 800 годам орошения [1, с. 113]. В Ахси IV агроирригационный слой достигает 2-3 м, а отложения X-XII вв. прослежены примерно на 1,5 км к северу от шахристана [1, с. 334-335]. По нашему мнению, именно эта сеть арыков на равнине к северу от города, а не река у подножия обрыва, питала городские водопроводы:

направление всех документированных водопроводных линий - с севера на юг - согласуется с таким предположением.

Хаузы. Обследование микрорельефа Ахси IБ выявило четыре магистральные улицы, двое городских ворот, большую базарную площадь и городские хаузы в девяти пунктах [1, с. 30]. Раскопки подтвердили часть из них. В Ахси IА хауз имелся во дворе Соборной мечети [1, с. 119], а в Ахси IБ хауз зафиксирован возле ремесленной мастерской в раскопе IV [1, с. 139]. Хаузы Ахсикета хорошо согласуются с сообщениями географов о проточных водах и хаузах и в шахристане, и в рабаде.

Подземные водопроводные линии. Важнейшим элементом системы является сеть подземных водопроводов из жжёного кирпича. Разведочные работы выявили две такие линии в Ахси IБ [1, с. 30]. Раскопки показали их устройство в Ахси IА. На раскопе VIII, в восьмом строительном периоде, залегающем ниже слоёв конца X-XI вв., проложена водопроводная линия север-юг, идущая в сторону цитадели. Она построена в виде сводчатой галереи из жжёного кирпича (26-28×14-16×3-4 см), внутри которой уложен трубопровод из больших керамических кубуров диаметром 26 см [1, с. 107].

Та же линия прослежена на раскопе XVIII. Здесь, у крепостной стены, лестница спускается сначала с юга на север, а затем, после небольшой площадки, поворачивает на восток и ведёт в небольшое подземное помещение. Через это помещение проходит водопровод - сводчатая галерея, внутри которой уложен трубопровод из кубуров диаметром 24-26 см. В центре помещения устроен отстойник размером 0,96×0,68 м и глубиной 0,40 м; вода текла с севера на юг через трубопровод и отстойник [1, с. 125]. Стратиграфия и находки показывают, что линия построена в X в. и функционировала более двухсот лет, почти до гибели города [1, с. 128]. А.А. Анарбаев определяет комплекс как подземный водопровод с наблюдательным пунктом [1, с. 75].

На публикуемых полевых фотографиях (рис. 1, 2) представлены три звена трубопровода, лежащих один за другим в положении, близком к первоначальному, и одно звено, вынутое из линии и сфотографированное с масштабной лентой. Обмеры, произведённые авторами, дали следующие размеры звеньев: длина 100, 101 и 102 см; диаметр широкого конца - 16, 16 и 14 см; диаметр узкого конца - 12 см у всех трёх звеньев. Таким образом, кубуры имеют форму усечённого конуса длиной около 1 м с сужением от 14-16 см до 12 см; узкий конец одного звена вставлялся в широкий конец следующего, образуя непрерывную линию. На поверхности отдельных сегментов заметны концентрические борозды от гончарного круга и следы притирки в местах стыков. Указанные размеры соответствуют параметрам, приведённым для водопроводных линий Ахси IА в [1, с. 107, 125]. Соединение труб «в раструб» широко использовалось в средневековых водопроводах Востока; в Габале XI-XIII вв., например, кубуры вставлялись друг в друга и герметизировались известковым раствором, что обеспечивало прочность и водонепроницаемость линии [6].



Рис. 1. Керамические кубуры водопроводной линии X в. в момент расчистки, раскоп VIII, Ахси IА (фото Б.М. Арсланова)



Рис. 2. Кубур водопроводной линии с масштабной лентой, раскоп VIII, Ахси IA. Длина звена 100-102 см, диаметр широкого конца 14-16 см, узкого 12 см (фото Б.М. Арсланова, обмеры Б.М. Арсланова и М.Т. Каримова)

Остатки ещё одной подземной линии выявлены в обрывах Ахси IБ в направлении Ахси II [1, с. 269], а следующий её участок зафиксирован в Ахси IV [1, с. 334]. Таким образом, водоснабжение выходило за пределы шахристана в рабад. Вода двигалась самотёком с более высокой северной части города к цитадели; керамический трубопровод укладывался не в грунт, а внутри кирпичной галереи, защищавшей его от давления заполнения и позволявшей вести ремонт. Помещение с лестницей давало доступ для чистки, а отстойник задерживал взвесь, приносимую канальной водой.

Колодцы, ташнау и водоотведение. На раскопе IX (Ахси IБ) в жилом комплексе начала VII - начала VIII в. был вырыт колодец диаметром 0,90 м и глубиной более 15 м [1, с. 194, 200]. Глубина шахты показывает, насколько далеко под поверхностью террасы залегали грунтовые воды, и объясняет, почему одни только глубокие колодцы не могли обеспечить водой большой город. Характерной чертой ахсикетских домов является ташнау - умывальник со сливом. В казарме цитадели XI-XII вв. он состоит из резервуара 32×32 см и поглощающего колодца, закрытого квадратным кирпичом со сливным отверстием [1, с. 47]. На раскопе VIII ташнау восьмого периода имеет глубину 2,8 м [1, с. 105]. Ташнау были и в подсобных помещениях Соборной мечети [1, с. 121]. В XI-XII вв. отдельные санитарные помещения с бадрабами и ташнау обычны в жилищах ремесленников [1, с. 366]. Использованная вода уходила на месте - в поглощающие колодцы под каждым домом или общественным зданием; общего коллектора, выводившего сточные воды за пределы города, раскопки не выявили.

Баня Ахси III. Баня расположена у восточной стены Ахси IБ вдоль края глубокого каньона. Она имеет три строительных периода: сооружена в XI в. и функционировала до начала XIII в. [1, с. 334]. Здесь функционировали две бани, восточная из которых была женской [1, с. 321; 5]. В помещении 7 над топочной камерой стоял котёл, по бокам - два резервуара; холодная вода поступала по кубурам с юго-востока в восточный резервуар и оттуда в котёл, горячая - через кубуры в помещение 4 [1, с. 326]. Стены и пол тщательно обмазаны киром - водостойким раствором (около 50 слоёв). Горячие газы из круглой топочной камеры (высота 2 м) шли по каналам шириной 0,32-0,60 м под полом всех помещений и уходили через вертикальные вытяжные трубопроводы в стенах [1, с. 328]. Вся вода из помещений поступала в сливной трубопровод под полом северных комнат, проходила через тазар длиной 3,16 м - сводчатую галерею из жжёного кирпича 0,50×0,92 м - и сливалась в облицованный кирпичом поглощающий колодец глубиной 3,2 м и диаметром 1,8-2,25 м [1, с. 329].

Заключение. В истории водной системы Ахсикета выделяются три этапа. В VII-VIII вв. горожане обходились глубокими колодцами внутри домов и открытыми арыками. В X в. были возведены кирпичные сводчатые водопроводы с крупными кубурами, наблюдательным пунктом и отстойником, а также сеть общественных хаузов; публикуемые здесь фотографии и обмеры трёх звеньев (длина 100-102 см, диаметр от 14-16 до 12 см) впервые дают наглядное представление о размерах и форме кубуров, соединявшихся «в раструб» в непрерывную

линию. Функционирование линии в раскопе XVIII более двух веков подтверждает наличие городской власти, способной её содержать. В XI - начале XIII в. система становится плотнее: в рабаде появляются бани, ташнау обычны в жилищах ремесленников, а сточные воды выводятся через кирпичные тазары в поглощающие колодцы. Значительная часть свидетельств уже утрачена - в 1930-х - 1960-х гг. с городища снимали грунт на удобрения, образовав в Ахси IA карьер длиной более 200 м [1, с. 29-30]; сохранившееся подземное помещение раскопа XVIII и баня Ахси III заслуживают консервации и включения в экспозицию археологического парка Эски Ахси.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Анарбаев А. Ахсикет - столица древней Ферганы. - Ташкент: Tafakkur, 2013. - 535 с.
2. Бетгер Е.К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абул Касыма Ибн Хаукаля // Труды САГУ. Археология Средней Азии. - Ташкент, 1957. - Вып. IV. - С. 13-39.
3. Материалы по истории киргизов и Киргизии. - М.: Наука, 1973. - Вып. 1. - 279 с.
4. Анарбаев А.А., Ахраров И.А. Водоснабжение средневекового города Ферганы (по материалам Ахсикета) // Тезисы докладов конференции, посвящённой 80-летию Я.Г. Гулямова. - Ташкент, 1988. - С. 19-20.
5. Анарбаев А.А., Ахраров И. Баня средневекового Ахсикета // История материальной культуры Узбекистана. - Ташкент, 1991. - Вып. 25. - С. 173-183.
6. Гасимзаде А. Строительная керамика Габалы XI-XIII веков // Грани. - 2021. - № 3. - С. 45-52.

УЎК 908

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИ ВА МИН СУЛОЛАСИ ЎРТАСИДАГИ САВДО-ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАР

Ж.Қ.Кўчаров, доцент, Қарши давлат университети, Қарши

Аннотация. *Мазкур мақолада Амир Темур давлати ва Хитойнинг Мин сулоласи ўртасидаги савдо-иқтисодий алоқаларнинг шаклланиши, ривожланиш хусусиятлари ҳамда тарихий аҳамияти таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *Амир Темур, Мин сулоласи, Хитой, Буюк ипак йўли, савдо-иқтисодий алоқалар, иқтисодий дипломатия.*

Аннотация. *В данной статье анализируются формирование, особенности развития и историческое значение торгово-экономических отношений между государством Амира Темура и китайской династией Мин.*

Ключевые слова: *Амир Темур, династия Мин, Китай, Великий шёлковый путь, торгово-экономические отношения, экономическая дипломатия.*

Abstract. *This article analyzes the formation, development characteristics, and historical significance of trade and economic relations between Amir Temur's state and China's Ming dynasty.*

Keywords: *Amir Temur, Ming dynasty, China, Great Silk Road, trade and economic relations, economic diplomacy.*

Қадим замонлардан турли мамлакат ва минтақаларда яшаган халқлар ўзаро иқтисодий ва маданий муносабатда бир-бирларига узвий боғлиқ бўлганлар. Бу эса, албатта, сиёсий ҳаётга ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмаган. Шарқ халқларининг ўзаро иқтисодий, маданий ва дипломатик алоқаларининг йўлга қўйилиши, шаклланиб ва ривож топиб боришида Хитойнинг қадимги пойтахти – Чанъан (ҳозирги Сиан) шаҳридан бошланиб, Ўртаер денгизининг шарқий соҳиллари минтақаси, Олд Осиё мамлакатларига қадар чўзилган Буюк ипак йўлининг аҳамияти каттадир. Бир ярим минг йилдан зиёд вақт давомида бир-биридан узоқда жойлашган турли халқларнинг мулоқот воситаси сифатида хизмат қилган бу йўл милоддан аввалги даврлардан бошлаб XVI асрда ўз аҳамиятини йўқотгунга қадар Хитой ва Марказий Осиёда яшаган халқлар ҳаётида муҳим ўрин тутган. Бу ҳудудда юз берган деярли барча ижтимоий ва сиёсий муносабатлар шу йўл орқали қўшни мамлакатларга ўз таъсирини ўтказган.

Ўрта асрларда Буюк ипак йўлининг қадимги даврдагига нисбатан серқатнов ва гавжум бўлиши эътиборга молик. Бунга эса Тан империяси (618-907 йй.), Араб халифалиги (632-1258 йй.), Сомонийлар давлати (865-999 йй.) каби Хитой, Марказий Осиё ва Яқин Шарқда ташкил топган йирик империяларнинг савдо-сотиқ ривожига ҳомийлик қилганлиги сабаб бўлган. Узоқ

асрлар давомида ҳаракатда бўлган Ипак йўли савдоси XIII асрга келиб Хитой ва Марказий Осиё мамлакатлари тараққиётига салбий таъсир кўрсатган мўғул истилоси натижасида бир муддат пасайиб, унинг фақатгина шимолий тармоғи тараққий этганлигини кўриш мумкин.

Академик В.В. Бартольд XIII асрдаги энг сўнгги йирик халқаро савдо карвони (албатта, Хоразмшоҳ ва Чингизхон ўртасида қисқа муддатда олиб борилган иқтисодий, дипломатик муносабатлар бундан мустасно) сифатида Саъдий Шерозийнинг "Гулистон" асарида тилга олинган, 1209-1210 йили Кошғарга борган Хоразм савдо карвонини эътироф этади[1, 462]. Бизнинг фикримизча, В.В. Бартольднинг фикрлари у қадар тўғри эмас. Чунки, мўғуллар истилосидан кейин Плано Карпини, Гильом де Рубрук, Марко Поло, Рикольдо де Монте Кроче, Иоанн де Монтекорвино, Фома Мангазола, Франциск ва Раймонд Руф ҳамда бошқа кўплаб европалик христиан элчилари, савдогар, миссионерлари айнан савдо карвонлари орқали Марказий Осиё, Хитой ҳудудларига кириб борганлар. Уларнинг айримлари қолдирган маълумотлардан савдо-иқтисодий алоқаларнинг умуман тўхтаб қолмаганлигини англаш қийин эмас[2, 14-16].

XIV асрга келиб Хитой ва Марказий Осиё мамлакатлари савдоси қайта авж олиб, янги шароитларда ривожлана бошлаган. Бундан, албатта, Олтин Ўрда ва Эрондаги Хулагу улуси (Элхонийлар давлати номи билан ҳам маълум, 1256-1358 йй.) ҳукмдорлари манфаатдор бўлганлар. Аста-секинлик билан қадимги Ипак йўлининг шимолий тармоғи асосий йўл сифатида юксала бориб, ушбу йўл бўйлаб XIV асрда Олтин Ўрда пойтахти – Сарой шаҳридан Устюрт ҳудуди, Урганч, Ўтрор, Тошкент, Олмалиқ орқали Хитойга томон савдо карвонлари доимий равишда қатнаб турган [3]. Айни пайтда бу йўлда Кавказ орқали Яқин Шарқ мамлакатлари билан, шимолда эса Рус князликлари ва Шарқий Европа давлатлари билан савдо-сотиқ ишлари олиб борилган.

Бироқ, XIV асрнинг 60-йилларига келиб халқаро вазият ўзгариши билан иқтисодий муносабатларда ҳам ўзгариш кузатилади. Энг аввало, шу даврда Олтин Ўрдада бошланган тож-тахт учун курашлар йигирма йил давом этган. Нисбатан кучсизроқ ҳисобланган Чиғатой улусида ҳам бундан илгарироқ бўлиниш юз берган бўлиб, мамлакатнинг ғарбий қисми – Мовароуннаҳрдаги сиёсий тарқоқлик ҳалокатли вайронагарчиликларга сабаб бўла бошлаган. Еттисув ва Шарқий Туркистондан иборат бўлган Мўғулистон (Шарқий Чиғатой улуси ёки Жета, 1347-1705 йй.)да бирмунча вақт мавжуд бўлган осойишталик муҳити 1363 йилда Туғлуқ Темурхон (1347-1363 йй.) вафоти муносабати билан якун топган [3, 88].

Мовароуннаҳр ва Хуросонда ўз даврининг йирик ва аҳолиси кўп шаҳарлари қад ростлаган бўлиб, Самарқанд, Бухоро, Тошкент, Балх, Ҳирот ва бошқа шаҳарлар шулар жумласидандир. Темурийлар давлатининг пойтахти – Самарқанд шаҳри ташкил топган даврдан бошлаб то ҳозирги кунгача Марказий Осиёда муҳим маъмурий ва иқтисодий марказ бўлиб келган. Бу шаҳар XIV-XV асрлар Ипак йўли чорраҳасида жойлашган энг йирик шаҳарлардан ҳисобланган. Амир Темур ва темурийлар даврида Самарқанд минтақанинг маъмурий марказига, буюк империянинг пойтахтига ва юқорида таъкидлаганимиздек, Хитой, Яқин Шарқ ва Марказий Осиёни ўзаро боғлайдиган савдо йўллари чорраҳасида жойлашган йирик савдо шаҳрига айланган. Самарқандга Хитой, Ҳиндистон, Дашти Қипчоқ, Эрон, Кавказорти ва Яқин Шарқ мамлакатларидан келган савдо карвонлари доимий равишда қатнаб турган [5, 257]. Савдо-сотиқ ҳажмининг ўсишидан темурий ҳукмдорлар ҳам манфаатдор бўлиб, хазинага асосий даромаднинг катта қисми ташқи савдо божидан келганлиги туфайли улар ташқи савдонинг ривожига ҳомийлик қилганлар. Шунингдек, хусусий тадбиркорлик фаолияти ҳам қўллаб-қувватланган ва бунинг натижаси ўлароқ, марказий осиёлик савдогарлар турли хорижий мамлакатларга бориб, савдо-сотиқ ишларини йўлга қўйганлар.

Амир Темур давлатининг ташкил этилиши билан айни бир пайтда Узоқ Шарқда ҳам сиёсий ўзгаришлар содир бўлган. 1351 йилда Хитойдаги мўғулларнинг Юань империяси зулмига қарши бошланиб кетган деҳқонлар уруши миллий-озодлик ҳаракатига айланиб, 1368 йилда хань (хитой) миллатининг ўз мустақил давлатини ташкил этиши ва Хитойдан мўғулларнинг қувиб чиқарилиши билан якунланган. Янги тузилган Мин давлати айни пайтда ғарбдаги мамлакатлар билан савдо алоқаларини йўлга қўйишга киришган. Жумладан, Шарқий

Туркистондаги Хами (Қумул), Турфон ва Бешбалиқда ташкил топган кичик давлатлар билан фаол иқтисодий муносабатлар йўлга қўйила бошланган [5]. Бу давлатларнинг шаклланиши Юань империясининг парчаланиши билан боғлиқ бўлиб, бу ҳудуддаги кичик давлатлар ҳукмдорлари Мин императорига шимоли-ғарбий вилоятларга хавф солиб турган ойратларга қарши иттифоқчи сифатида ҳам зарур эди. Хитойнинг шимолдаги мўғуллар билан кураши қийин кечиб, дашт, чўл ҳудудларида истиқомат қиладиган мўғуллар билан курашларда қўшин учун отлар зарур бўлган. Уруш ҳолатида мўғуллар ўз рақибларига отларни сотиши деярли имконсиз бўлган. Шу сабабли Мин сулоласи Шарқий Туркистондаги давлатлар ва улардан ғарброқда, Мовароуннаҳрда ташкил топган Амир Темур салтанати билан савдони рағбатлантириш ва отлар сотиб олишни қўллаб-қувватлаш йўлидан борган. Натижада Мин сулоласи даврида шимолда мўғуллар билан рақиблик давом этган бир даврда армияни отлар билан таъминлаш давлат аҳамиятидаги вазифа бўлиб қолган. Мовароуннаҳрда чой қадрланганлиги сабабли, "қўшниларга чой сотиш орқали уларни хурсанд қилиш" ва чойга от алмаштиришга оид тадбирлар белгиланган[6, 191]. Албатта, от савдоси муҳим даромад манбаи бўлган.

Хулоса қилиб айтганда, XIV асрнинг иккинчи ярмига келиб таназзулга юз тутган Мўғуллар империяси (1206-1368 йй.) ҳудудларида вужудга келган Мин империяси ва Амир Темур давлати ўртасида фаол савдо-иқтисодий алоқалар йўлга қўйилган. Ҳар икки томоннинг манфаатдорлигига асосланган бу муносабатларда ўрта асрлар Шарқининг йирик савдо ва ҳунармандчилик шаҳарлари муҳим рол ўйнаган. Икки минтақани ўзаро боғлайдиган савдо йўллари устидаги Шарқий Туркистон шаҳарлари ҳам халқаро тижоратда алоҳида аҳамият касб этган. Бу эса Хами, Турфон, Бешбалиқда ташкил топган кичик мустақил князликларнинг иқтисодий қувватини ошириб, уларнинг сиёсий нуфузини ҳам мустаҳкамланишига сабаб бўлган. Узоқ Шарқ ва Марказий Осиё минтақаларини боғлаган халқаро савдо йўлларида ўз даврининг моҳир ҳамда ҳар қандай таваккалчиликдан қайтмайдиган савдогарлари олис йўл босиб, фаол халқаро савдони ривожлантирар эдилар. Иқтисодий муносабатларни ривожлантириш орқали ҳар иккала давлат ҳукмдорлари ўз мамлакатларининг сиёсий нуфузини оширишга уринганлар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т.1. – М.: Издательство Восточной Литературы, 1963. – С.462.

2. Орзиев М.З., Латипов Ж.Л. Мўғуллар истилоси ва темурийлар даврида динлараро муносабат. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б.14-16.

3. Филанович М.И. Ташкент – город на северо-восточных границах империи Амира Темура // Общественные науки в Узбекистане. №7-10. – Т.: Издательство "Фан" Академии Наук Республики Узбекистан, 1996. – С. 88.

4. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати (тарихий очерк). – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. – Б. 20.

5. Chan, Hok-lam. The Chien-wen, Yung-lo, Hung-hsi, and Hsuan-te reigns, 1399-1435 // The Cambridge history of China. Vol.7: The Ming dynasty 1368-1644, part 1. / ed. by F.W. Mote and D.Twitchett. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P.257.

6. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007.

УЎК 908

ЖАЛОЛИДДИН ГУРЛАНИЙНИНГ "АЛ-ШОФИЙ ФИ-Л-УСУЛ" АСАРИ: МАНБАШУНОСЛИК ВА МАТНШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ

Н.С.Муратбаев, таянч докторант, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус

Аннотация. *Ушбу мақола XIV аср ҳанафий фақиҳи Жалолиддин ибн Шамсиддин ал-Хоразмий ал-Гурлонийнинг (ваф. 767/1365) Фахр ал-Ислом ал-Баздавийнинг (ваф. 482/1089) «Усул ал-Баздавий» номи билан машҳур бўлган «Канз ал-вусул ила маърифат ал-усул» номли усул ал-фиққа оид классик асарига ёзган «ал-Шофий фи-л-усул» асарининг кенг қамровли манбашунослик таҳлилига бағишланган.*

Калит сўзлар: *Жалолиддин Гурлоний; «al-Shofiy fi-l-usul»; «Усул ал-Баздавий»; Фахр ал-Ислом ал-Баздавий; ҳанафий мазҳаби; усул ал-фиқҳ; манбашунослик; қўлёзма; Хоразм.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена комплексному источниковедческому анализу труда «аль-Шафи фи-ль-усуль» («Исцеляющее в основах права») - комментария (шарх) ханафитского факиха XIV века Джалалиддина ибн Шамсиддина аль-Хорезми аль-Гурлани (ум. 767/1365) на классический труд по усуль аль-фикху Фахр аль-Ислама аль-Баздави (ум. 482/1089) «Канз аль-вусуль иля маърифат аль-усуль», известный как «Усуль аль-Баздави».*

Ключевые слова: *Джалалиддин Гурлани; «аль-Шафи фи-ль-усуль»; «Усуль аль-Баздави»; Фахр аль-Ислам аль-Баздави; ханафитский мазхаб; усуль аль-фикх; источниковедение; рукопись; Хорезм.*

Abstract. *This article is devoted to a comprehensive source analysis of the work «al-Shafi fi-l-usul» («Healing in the Fundamentals of Law») - a commentary by the 14th-century Hanafi jurist Jalaluddin ibn Shamsiddin al-Khwarizmi al-Gurlani (d. 767/1365) on the classical work on the methods of al-fiqh Fakhr al-Islam al-Bazdawi (d. 482/1089) «Kanz al-Vusul ila Ma'rifat al-Usul,» known as «Usul al-Bazdawi».*

Keywords: *Jalal al-Din al-Gurlani; al-Shafi fi al-Usul; Usul al-Bazdawi; Fakhr al-Islam al-Bazdawi; Hanafi school; usul al-fiqh; source studies; manuscript; Tankiziyya madrasa; Khwarazm.*

Кириш. Ҳанафий фиқҳ мактабининг усул ал-фиқҳ (фиқҳ методологияси) соҳасидаги энг муҳим ва нуфузли матнларидан бири шайх ул-ислом, Фахрул-Ислом Али ибн Муҳаммад ал-Паздавий (в. 482/1089) қаламига мансуб "Канз ал-вусул ила маърифат ал-усул" асаридир, у илм аҳли орасида қисқача "Усул ал-Паздавий" номи билан машҳурдир. Ибн Халдун бу асарни ҳанафий усул адабиётидаги энг мукаммал асар деб баҳолаб, шундай ёзган: "Ҳанафийлар усул соҳасида кўп асарлар ёзишган, аммо мутақаддимлар орасида энг яхшиси Абу Зайд ад-Дабусийники, мутаъаххирлар орасида эса шайх ул-ислом ал-Паздавийники бўлиб, у мукаммал ва қамровли асардир". Мазкур асарнинг услубий мураккаблиги ва ихчамлиги сабабли муаллифи "аби-л-уср" (қийинчилик отаси) лақаби билан ҳам аталган бўлиб, ундан кейинги асрларда ҳанафий уламолари томонидан ушбу матнга ўнлаб шарҳлар, ҳошиялар ва таълиқотлар битилган.

Ана шундай шориҳлардан бири - ҳижрий VIII (милодий XIV) асрда Хоразмда яшаб ижод этган ҳанафий фақиҳи, Саййид Жалолиддин ибн Шамсиддин ал-Хоразмий ал-Гурланий (в. 767/1365) бўлиб, у "Усул ал-Паздавий"га "ал-Шофий фи-л-усул" ("Усулда шифо берувчи") номли кенг ҳажмли шарҳ битган. Мазкур мақола худди шу асар - "ал-Шофий фи-л-усул" китобининг ўзига бағишланган бўлиб, унда китобнинг номи ва муаллифга нисбати, ёзилиш тарихи, муаллифнинг услуби ва атамалари, фойдаланилган манбалари, илмий қиймати ҳамда унинг ягона маълум қўлёзма нусхасининг тавсифи манбашунослик нуқтаи назаридан батафсил кўриб чиқилади.

Асосий қисм. Имом Паздавий ўз асарининг муқаддимасида унга махсус ном қўймаган, фақат уни "нусус (нассларни) маънолари билан баён қилиш ва усулни фаръларига боғлаб тушунтириш" мақсадида ёзганини айтган. Асарни таржима қилганлар унинг номини "Канз ал-вусул ила маърифат ал-усул" деб қайд этишган, шориҳларнинг аксарияти эса уни қисқача "Усул ал-Паздавий" деб атайдилар. Гурланийнинг шарҳига келсак, унинг номи борасида ихтилоф йўқ: қўлёзма нусхасининг биринчи саҳифасида китоб "Шарҳ ал-Паздавий ал-мусаммо би-ш-Шофий фи-л-усул" ("ал-Шофий фи-л-усул" деб номланган ал-Паздавий шарҳи) деб зикр этилган. Муаллифнинг ўзи ҳам шарҳининг муқаддимасида китобга шу номни қўйганини тасдиқлаб, шундай ёзади: "Аллоҳнинг тавфиқи билан, имконият даражасида кашфни ўз ичига олган, таҳқиқни кафолатловчи, шубҳаларни бартараф этувчи ва диллардаги ғубор-ю ғашни шифолантирувчи фойдаларни жамладим ва уни "ал-Шофий фи-л-усул" деб номладим".

Асарнинг Гурланийга нисбати ҳам икки жиҳатдан қатъий далилланган: биринчидан, муаллиф буни қўлёзманинг биринчи саҳифасида шахсан тасдиқлаган; иккинчидан, қўлёзманинг охирида муаллифнинг ўз қўли билан (ёки кўчирувчи томонидан унинг

сўзларидан) битилган якунловчи якуний қайд (колофон) мавжуд бўлиб, унда шундай дейилган: “Аллоҳ субҳанаҳудан тавфиқ ва тасдиқ ила, Аллоҳ таолога муҳтож бўлган фақир Жалолиддин ибн Шамсиддин ал-Гурланий томонидан бу китобнинг қорасини (қораламасини) ёзиш якунланди - жума куни, чошгоҳ вақтида, етти юз қирқ учинчи (743) йилнинг муҳаррам ойининг сўнгги куни”. Шунингдек, кейинги таржимаи ҳол манбаларида Гурланий кўпинча унинг иккинчи асари - “Кифоя шарҳ ал-Ҳидоя” соҳиби сифатида зикр этилса ҳам, ушбу ички далиллар “ал-Шофий фи-л-усул”нинг ҳам унга мансублигини шубҳасиз тасдиқлайди.

Юқорида келтирилган колофон маълумотига кўра, “ал-Шофий фи-л-усул” асари ҳижрий 743 (милодий 1342) йил муҳаррам ойининг охирги жумъа кунида якунланган. Бу сана Гурланийнинг вафоти (767/1365) йилидан тахминан йигирма тўрт йил олдинга тўғри келади - демак, асар муаллифнинг етук илмий фаолияти давомида, тахминан ўрта ёшларида ёзилган бўлиши эҳтимоли катта. Тадқиқ этилаётган қўлёзма нусхасининг кўчирилган санаси ҳам айнан шу 743 йил билан белгиланади - бу ҳолат мазкур нусханинг муаллиф даврига жуда яқин, эҳтимол унинг ҳаётлигидаёқ ёки вафотидан кўп ўтмай кўчирилган нусха эканини кўрсатади, бу эса унинг матншунослик нуқтаи назаридан қимматини янада оширади.

Жалолиддин Гурланий “ал-Шофий” асарида қўллаган услубининг энг муҳим жиҳатлари қуйидагилар:

- Гурланий одатда ал-Паздавийнинг ибораларини айнан ўз нусхаси билан келтиради ва ундан фақат зарур ҳолда фарқланади; шарҳини матнга сингдирган ҳолда, кўпинча “унинг сўзи” (“қавлуҳу”) ибораси билан бошлайди.

- Ал-Паздавийнинг матнини тўлиқ келтиришни шарт қилиб олмайди, балки ундан қисқа парча олиб, сўнг ўтмиш ва замондош уламолар фикрларини келтирган ҳолда шарҳ беришга ўтади.

- Аксарият ўринларда ихчамлик ва бир мавзудан бошқасига ортиқча чекинмаслик усулини танлайди, шу билан бирга турли манбалардан мисол ва иқтибослар келтиради - уларнинг кўпи ҳанафий китобларидандир.

- Шарҳида ал-Паздавийнинг ўз асаридаги тартиб ва тузилишига содиқ қолади.

- Масалаларда, одатда, аввал Қуръон ва суннатдан нақлий далилларни, сўнг ақлий далилларни келтиради - ҳадис ва оятларни одатда тахриж (санад кўрсатиш) қилмайди.

- “Усул ал-Паздавий”нинг айрим шарҳларидан - муаллифларини номлашга ишора қилмаган ҳолда - кўп нақл қилади; баъзан манбага ишора ҳам беради.

- Ал-Жассос, ат-Таҳовий, ал-Кархий, Зуфар каби илк ҳанафий алломаларининг қарашларини нақл қилишга алоҳида эътибор беради.

- Кўпинча эътирозларни зикр этиб, уларга жавоб қайтаради - бу унинг мустақил илмий фикр юритиш қобилиятидан далолат беради.

- “Ъиндана” (“бизнинг наздимизда”) сўзини ишлатганда ҳанафийларни, “аммату-л-уламо” дейилганда ҳанафий уламоларининг умумини, “асҳобуна” (“бизнинг соҳибларимиз”) дейилганда ҳам ҳанафийларни, “машойихуна” дейилганда эса ўтган ҳанафий шайхларини назарда тутади.

- “ал-Мабсут” дейилганда, одатда, Шамс ал-аимма ас-Сарахсийнинг “ал-Мабсут”ини, баъзан эса Муҳаммад ибн ал-Ҳасаннинг асарини назарда тутади; “ал-Муҳит” дейилганда ал-Муҳит ал-Бурҳонийни, “ал-Кашшоф” дейилганда аз-Замахшарийнинг тафсирини, “ал-Асрор” дейилганда Абу Зайд ад-Дабусийнинг “ал-Асрор фи-л-усул ва-л-фуруъ”ини, “аз-Зиёдот” дейилганда эса Муҳаммад ибн ал-Ҳасан аш-Шайбонийнинг “Зиёдат аз-зиёдот”ини назарда тутади.

Ушбу услубий хусусиятлар мажмуи Гурланийнинг ҳанафий шарҳчилик анъанасидаги ўзига хос ёндашувини - матнга содиқлик, ихчамлик, кенг манба базасидан фойдаланиш ва мустақил илмий баҳо бериш қобилиятининг уйғунлигини - намоён этади.

Хулоса қилиб айтганда, “ал-Шофий фи-л-усул” - нафақат Жалолиддин Гурланийнинг илмий меросини, балки умуман ўрта аср Хоразм ва Мовароуннаҳрдаги ҳанафий усул ал-фиқҳ анъанасининг бойлиги ва давомийлигини ўрганиш учун бирламчи аҳамиятга эга манбадир. Унинг илмий-танқидий нашри ва янада чуқур тадқиқ этилиши ҳанафий фиқҳ тарихи,

шунингдек Хоразм минтақасининг ўрта асрлардаги илмий ҳаёти ҳақидаги тасаввурларимизни бойитишда муҳим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мадина Ислом университети, Шариат факультети, Усул ал-фиқҳ кафедраси. "ал-Шофий фи-л-усул" (Жалолиддин ал-Кирлоний/Гурланий) номли қўлёзма асарнинг илмий таҳқиқ диссертацияси. - Мадина.

2. ал-Гурланий, Жалолиддин ибн Шамсиддин ал-Хоразмий. "ал-Шофий фи-л-усул" (Шарҳ Усул ал-Паздавий). Қўлёзма, 743ҳ. - Мадина Ислом университети Марказий кутубхонаси, Қўлёзмалар бўлими, микрофильм № 1670–1674.

3. ал-Паздавий, Фахрул-Ислом Али ибн Муҳаммад. Канз ал-вусул ила маърифат ал-усул (Усул ал-Паздавий).

4. ал-Бухорий, Алоуддин Абдулазиз ибн Аҳмад.Кашф ал-асрор ан Усул Фахрил-Ислом ал-Паздавий. Ж. 1.

5. ас-Сиғноқий, Ҳусомиддин Ҳусайн ибн Али. ал-Кофий шарҳ Усул ал-Паздавий.

УДК 94(575.1) «1917/1939»

ГИЖДУВАНСКИЙ КУРГАН: ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ГОРОДСКОГО ЯДРА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Н.З. Хаётова, PhD, доц., Бухарский Государственный Университет, Бухара
https://orcid.org/0000-0003-3803-4313

Annotatsiya. *Maqolada G'ijduvon Qo'rg'oni shaharning tarixiy yadrosi sifatida ko'rib chiqilib, uning sovet davridagi funksional o'zgarishlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor an'anaviy shahar muhiti transformatsiyasi, shahar funksiyalari tizimidagi o'zgarishlar hamda yangi ma'muriy, ijtimoiy va kommunal-maishiy unsurlarning shakllanishiga qaratilgan.*

Kalit so'zlar*: Qo'rg'on, sovet davri, Kishtuvon, shahar muhiti, himoya devori, hunarmandchilik, topografik o'zgarishlar.*

Аннотация. *В статье рассматривается Гиждуванский Курган как историческое ядро города и анализируются его функциональные изменения в советский период. Основное внимание уделено трансформации традиционной городской среды, изменениям в системе городских функций, а также формированию новых административных, социальных и коммунально-бытовых элементов.*

Ключевые слова*: Курган, советский период, Киштувон, городская среда, оборонительная стена, ремесленничество, топографические изменения.*

Abstract. *The article examines the Gijduvan Fortress as the historical core of the city and analyzes its functional changes during the Soviet period. Particular attention is paid to the transformation of the traditional urban environment, changes in the system of urban functions, and the emergence of new administrative, social, and communal-service elements.*

Key words: *Fortress, Soviet period, Kishtuvon, urban environment, defensive wall, craftsmanship, topographic changes.*

В системе древних городов, сформировавшихся в Бухарском оазисе, город Гиждуван занимает важное место. По своему географическому положению, историческим градостроительным традициям и социально-экономическим функциям Гиждуван развивался во взаимосвязи с такими городами, как Бухара и Вабкент. Город сформировался как торгово-экономический узел, центр ремесленного производства и религиозно-духовной жизни оазиса, занимая важное место в урбанистическом пространстве региона.

Существуют различные толкования лексического значения топонима «Гиждуван». В ряде исследований отмечается, что данное название образовано от слов «гиж» и «дувон» и означает «место, где много перевалов» или «местность с множеством проходов» [1;219]. В другом источнике высказывается предположение, что название Гиждуван восходит к форме «Киштувон», где таджикское «киш» означает «сеятель, земледелец», а «тувон» — «место, обитель», то есть «место проживания земледельцев»[2;554]. Также встречается версия «Гижидеҳон», где таджикское «гиж» означает «много», а «деҳон» — «деревни», то есть «место, где много селений». Данные объяснения рассматриваются в рамках топонимического анализа и указывают на связь территории с ее природно-рельефными особенностями, а также

с населением, специализировавшимся на земледелии. Вместе с тем название Гиждуван регулярно встречается в письменных источниках средневекового периода. В частности, упоминание данного топонима в таких исторических произведениях, как «История Бухары», «Китаб ал-ансаб», «Рашахат», «Бабур-наме» и «Абдулла-наме», подтверждает существование Гиждувана как сложившегося центра расселения уже в средние века [3;400].

По сообщению Абу Бакра Наршахи, в VIII–IX веках вопрос защиты городов и селений Бухарского оазиса от внезапных нападений тюркских племён имел важное значение. В источнике отмечается, что по инициативе амира Хорасана Абу-л-Аббаса ал-Фазла ибн Сулаймана ат-Туси была возведена масштабная оборонительная стена, охватывавшая всю область Бухары; эта стена включала в себя не только городской центр, но и окружающие его селения и населённые пункты[4;20]. Гиждуван, являвшийся одним из важных центров расселения Бухарского оазиса, также входил в систему этой общей обороны. Таким образом, по образцу Самарканда, наряду с Бухарским оазисом, оборонительной стеной были окружены и расположенные в его пределах сельские поселения.

Название Гиждуван с X века упоминается в письменных источниках как крупный населённый центр — город. Археологический облик Гиждуванского кургана — шахристан, расположенный на высоком холме, окружавшие его пахсовые, а позднее и сложенные из жжёного кирпича оборонительные стены, а также среда, укреплённая искусственными и природными защитными факторами, — свидетельствует о том, что уже в раннем средневековье он сформировался как город, имевший важное военно-стратегическое значение. Некоторые следы этих оборонительных сооружений сохранились до настоящего времени. В частности, в настоящее время в северной части ресторана «Шодлик» можно наблюдать отреставрированные остатки стены из жжёного кирпича, протянувшиеся на несколько сотен метров. Город с двух сторон был окружён двумя каналами шириной 5–8 метров, что ещё более усиливало оборонительные функции крепости.

В настоящее время сохранившаяся основная территория кургана составляет приблизительно 22 гектара. Это свидетельствует о том, что до наших дней дошла не вся территория кургана, а лишь его наиболее важное историко-археологическое ядро. Именно в пределах этого участка можно проследить раннюю систему обороны города, его внутреннюю структуру и процесс урбанистического развития. Прилегающие к кургану территории также имеют важное значение, поскольку сохраняют его историческую среду и выступают пространством, связанным с экономической, социальной и культурной жизнью города.



Отреставрированный участок стены Гиждуванского кургана. 2026 год.

Гиждуван, подобно Бухаре, первоначально сформировался как небольшой населённый пункт, а впоследствии — как крепость городского типа, застроенная сооружениями из сырцового и жжёного кирпича с деревянными конструктивными элементами. В частности, окружение Кургана арыком (каналом) Пирмаст являлось важным элементом жизненной

инфраструктуры города: он обеспечивал земледельческие работы и играл существенную роль в организации мельничного хозяйства за счёт водного потока. Ширина канала составляла приблизительно 8 метров, глубина — 6 метров; через него существовал ряд мостов, сооружённых из жжёного кирпича и камня.

Кроме того, в системе социальной и религиозной инфраструктуры города особое значение имели мечети и хаммам. Они не только удовлетворяли потребности в богослужении и повседневно-бытовом обслуживании, но и являлись одними из основных факторов, формировавших жизнь Кургана, структуру гузаров и городскую среду. В социальной и религиозной инфраструктуре Кургана важное место занимали мечети Арабон (710), Каймокон (1700), Чорсу (1620), Шайх Таджиддин (1800), Болои Кассобони (1800), а также Таш-хаммам (1435). Хотя большинство этих объектов в разные периоды претерпевало функциональные изменения, они в той или иной степени сохранились.

С начала XX века территория Гиждувана претерпела серьёзные изменения не только в культурно-архитектурном отношении, но и с точки зрения административного управления. В период Бухарской Народной Советской Республики Гиждуванский курган имел институциональный статус города, в его составе насчитывалось 11 гузаров. На территории Кургана функционировало более 50 пекарен, 38 мясных лавок, 24 джувоза (мастерские по производству масла), а также множество торговых лавок [5;27]. Это свидетельствует о развитом продовольственном обеспечении населения Кургана и сформировавшихся местных рыночных отношениях.

В 1935 году, в ходе советской топонимической политики, город Гиждуван был переименован в Акмалабад — в честь Акмаля Икрамова [6;13]. Однако после политических изменений, связанных с репрессированием Акмаля Икрамова, городу было возвращено его историческое название — Гиждуван.

В городе имелось 10 мастерских по ремонту обуви, более 10 мастерских жестянщиков, кузнецов, медников, литейщиков, мастеров по изготовлению ножен, ювелиров, а также 300 ткацких станков и кондитерские мастерские. Иными словами, Курган сформировался не только как административный или религиозный центр, но и как центр специализированного ремесленного производства и мелкотоварного хозяйства. Гиждуван предстает среди традиционных городов оазиса как урбанистический пример, ориентированный на ремесленную деятельность. Ремесло было одним из основных факторов, определявших градостроительный облик Гиждувана, а ядро Кургана развивалось как комплексное урбанистическое пространство, объединявшее производственные, торговые и сервисные функции.

К 1950-м годам в советский период частная торговля и производственная деятельность были ограничены, а обеспечение повседневных потребностей населения в основном осуществлялось через кооперативные и артельные формы организации. К числу таких экономических структур относились артели «Намуна» и «Красное ткачество», действовавшие на прилегающей к Кургану территории и специализировавшиеся на выпуске товаров для местных нужд. В частности, в артели «Намуна» производились товары повседневного спроса, а при самой артели был открыт магазин по реализации выпускаемой продукции. Артель «Красное ткачество» занималась изготовлением одежды и тканых бытовых изделий. Следовательно, в послевоенные годы в Гиждуване экономическая инфраструктура развивалась через систему местных артелей, торговых объектов и механизмов их административного регулирования, в результате чего в функциональной структуре городского пространства всё более укреплялась новая, централизованная система производства и распределения.

В советский период Гиждуванский курган был административно и идеологически переоформлен. Были изменены названия улиц: вместо местных и религиозных топонимов вводились наименования, характерные для советской идеологии. В частности, современная улица Шайх Таджиддин в советское время носила имя Ленина, улица Шокиробод — Батютина, улица Ибодулла Нарзуллаева — Будённого, а улица Пирмаст — Дзержинского.

В 1960–1980-х годах на районном уровне проводились мероприятия, направленные на улучшение водного хозяйства. В частности, с 1965 года осуществлялось бетонирование каналов и арыков, очистка и реконструкция дренажных сетей, с 1973 года началось строительство артезианских скважин, в 1976 году было введено в эксплуатацию Шуркульское водохранилище, а в последующие годы прокладывались новые каналы. Все это способствовало стабилизации водных ресурсов.

Начало работ по прокладке газопроводов в Гиждуване в октябре 1967 года стало одним из важных этапов модернизации коммунальной инфраструктуры города. В городе была создана газовая служба, и газификация осуществлялась в рамках плановой государственной политики.

В заключение можно отметить, что Гиждуванский Курган в советский период, сохранив черты традиционной городской среды, продолжал развиваться за счёт формирования новой административной, экономической и социальной инфраструктуры. Хотя территория Кургана оставалась историческим центром, основанным на плотной системе гузаров, в советское время в этой среде начали складываться новые формы обслуживания, торговли, санитарии, народного образования, здравоохранения и культурной жизни. Можно сказать, что Курган являлся не пассивным остатком исторической городской структуры, а живым урбанистическим пространством, которое продолжало функционировать и трансформироваться и в советский период.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. To’rayev H.H. Buxoro toponimikasi. Buxoro: “Durdona, 2021 -B.219.
2. O’zbekiston joy nomlarining izohli lug’ati. Birinchi nashr. “Donishmand ziyosi”.Toshkent, 2022.-B.554.
3. Бартольд В.В. Статьи из “Энциклопедии ислама”.Гиждуван. Соч. в 9-томах. Т.3. -Москва: “Наука”, 1965. -Б.400.
4. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А. Расулов таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев.- Тошкент: Шарқ баёзи, 1993.- Б.20.
5. Бақоев М. Ғиждувоннома. Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2001.-Б.27
6. Эшмуродов И. Ғиждувон тиббиёти тарихи. Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2015.-Б.13.
7. Nafisa Zakirovna Khayotova, Ruzigul Sharofovna Bozorova , Tolib Todjievich Safarov, Mokhichekhra Muzafarovna Alimova and Sanjar Aslonovich Muradov. “Urban transformation and cultural heritage in the Turkic world: reassessing the Soviet urban heritage”. https://www.frontiersin.org/journals/built-environment/articles/10.3389/fbuil.2026.1819075/full.

УЎК 94(575.1):930.2

ПОЛВОННИЁЗҲОЖИ ЮСУПОВ ХОТИРАЛАРИНИНГ ХОРАЗМ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДАГИ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ

Ж. Эшчанов, мустақил тадқиқотчи, Урганч давлат педагогика институти, Урганч
https://orcid.org/0009-0008-5590-4900

Аннотация. *Мазкур мақолада Хоразм республикасининг биринчи раҳбари ва воҳада кечган жадидлар ҳаракатининг лидерларидан Полвонниёзҳожи Юсупов хотираларининг XX аср биринчи чорагини ўрганишдаги аҳамияти тадқиқ қилинади. Мемуарнинг тарихдаги жараёнларни ёритишдаги ўрни, асар ҳақидаги тадқиқотчиларнинг фикри, хотираларнинг матбуот ва оммавий ахборот воситалари, нашриётда чоп этилиши ҳам таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *Хоразм, хонлик, монархия, республика, тузум, жадидлар ҳаракати, ҳукумат, мемуар, китоб, тарих, совет давлати, қатағон, нашриёт, интернет сайти.*

Аннотация*. В данной статье исследуется значение мемуаров Палваннияз-ходжи Юсупова -первого руководителя Хорезмской республики и одного из лидеров джадидского движения в регионе — в изучении истории первой четверти XX века. В работе проанализированы роль мемуаров в освещении исторических процессов, взгляды исследователей на данное произведение, а также вопросы публикации воспоминаний в средствах массовой информации, периодической печати и издательствах.*

Ключевые слова*: Хорезм, ханство, монархия, республика, строй, джадидское движение, правительство, мемуары, книга, история, советское государство, репрессии, издательство, интернет-сайт.*

Abstract. *This article examines the significance of the memoirs of Polvonniyozhoji Yusupov-the first leader of the Khorezm Republic and a prominent figure in the Jadid movement of the region-in studying the history of the first quarter of the 20th century. The study analyzes the role of the memoirs in elucidating historical processes, evaluates scholars' perspectives on the work, and investigates the publication of these recollections across mass media, periodicals, and publishing houses.*

Key words: *Khorezm, khanate, monarchy, republic, political system, Jadid movement, government, memoirs, book, history, Soviet state, repressions, publishing house, website.*

Кириш. Хоразм тарихида давлат раҳбари ёки ҳукмдор атрофидаги арбобларнинг хотиралар ёзиш анъанаси йўқ деб бемалол айтиш мумкин. Фақатгина Хива хони Абулғози Баҳодирхон (1603-1664) нинг тарихчи сифатидаги "Шажарайи турк" асарини ёзиш жараёнида ўзи билан боғлиқ воқеаларни ҳам асарига киритганини таъкидлаш жоиз. Бироқ ундан олдин ва шу ҳукмдордан кейин ҳам, умуман олганда 1511 йилдан то 1920 йилда хонлик тугатилганча бўлган даврдаги тарихчилар тахтда ҳукмдорлик қилди дея қайд этадиган 57 нафар хондан бирортаси мемуар ёзмаган. Ҳаттоки, Хиванинг ижодкор ҳукмдорлари бўлган Ферузхон (1844-1910) ва Асфандиёрхон (1872-1918) лар ҳам фақат шеърий асарлар яратган, аммо ўз хотираларини ёки Россияга борганига оид сафарномалар ёзишмаган. Ваҳоланки, уларнинг замондоши бўлган Бухоро амири Абдулаҳадхон "Петербург кундалиги" номли сафарнома ёзиб қолдирган. Ёки буюк маърифатпарвар давлат арбоби ва элчи Аҳмад Донишнинг ҳам ўз даври бошқаруви ҳақидаги фалсафий хотиралари мавжуд.

Шу жиҳатдан қараганда хонликни тугатиб республика тузумига асос солган ва бир йил давлат раҳбари сифатида фаолият кўрсатган Полвонниёз Юсупов (1861-1936) нинг хотиралари ва республика адлия нозири бўлган Бобохун Салимов (1877-1929) нинг сафарномаси Хоразм тарихини ўрганишда катта илмий аҳамиятга эга.

Адабиётлар таҳлили ва методологияси. Тарихга холис ва ҳаққоний баҳо бериш, бошқа манбаларга солиштириш ва илмий адабиётлар билан таққослаш методологиясига кўра, энг аввало Полвонниёз Юсуповнинг хотираси унинг ҳаёти, фаолияти ва Хоразмда кечган тарихий жараёнларни ўрганишда катта аҳамиятга эга. Шу билан бирга унинг асарига муносабат ва мемуарнинг тарихий аҳамияти ҳақида М.Х.Алиакберов, М.Матниёзов, У.Бекмуҳаммад сингари тарихчиларнинг мақолалари ҳам мазкур мақолада таҳлил қилинди.

Муҳокама. Хоразм жадидчилик ҳаракати ва воҳада хонликни тугатиб республика тузумига асос солган лидерлардан, шунингдек республиканинг биринчи қурултойида сайланган давлат раҳбари Полвонниёз Юсупов бўлиб, 1861 йили Хивада- савдогар оиласида туғилган эди. Полвонниёз 10 ёшигача ота-онаси қарамоғида вояга етади ва афсуски, 1871 йилларда ота-онаси вафот этгач амакиси Юсуфбой уни ўз тарбиясига олади.

Яъни, Полвонниёзнинг ҳаёти, фаолиятида истиқбол йўлини белгилаб берган амакиси Юсуфбой уни Хивадаги мактабда ўқиб савод чиқаришига, ўзи каби савдогарчилик илмини эгаллашига имкон яратади. Савдогарчиликга ихлос қўйган Полвонниёз амакиси билан 1877 йили Россияга, 1904-05 йилларда Эрон, Усмонийлар давлати, Миср, Сурия ва Арабистонга сафар қилади. Макка ва Мадина шаҳарларини зиёрат қилиб келгач эса уни Хоразмда Полёзҳожи, расмий ҳужжатларда эса Полвонниёзҳожи Юсупов дея аташади.

Рус, форс, араб тилларини ўрганган ва ўз даврининг илғор зиёлиси сифатида Санкт-Петербург, Оренбург, Қрим ва Миср, Истанбулда нашр этилиб турган газета-журналларни ўқишни одат қилади. Табиийки. 19 аср охири ва 20 аср бошларида хорижий давлатларда кўрган-кузатганлари, ўқиб ўрганганлари асосида илғор, тараққийпарвар фикрлар билан танишади.Шунингдек, Қримлик Исмоил Гаспиралининг "Таржимон" газетаси таъсирида жадидчилик ғоялари билан танишиб, Хоразмда ушбу ҳаракатнинг намояндалари даражасига етади.

Маълумки, ҳар бир даврда савдогарлар ўз юртида обрў эътиборли шахс бўлишган. Полвонниёз ҳам савдогарчилик ортидан Хивада таниқли мулкдор, қолаверса ҳожи сифатида ўзига яраша обрў-эътибор топади. Қолаверса, Хива хони саройидаги амалдорлар орасидан ҳам

ўзига маслакдошлар топади. Полвонниёзҳожи Юсуповни ўзига яқин олган амалдорлар орасида йирик мулкдор, девонбегилар сулоласига мансуб Ҳусайнбек Матмуродов бор эди.

Полвнниёзҳожининг хотираларига кўра, 1912 йилда Хива хони Асфандиёрхон Россия ва Кавказга сафар қилганида, Ҳусайнбек Матмуродовни ва унга саркотиб сифатида Полвонниёзҳожини ҳам дипломатик миссия аъзолигига қўшади.

Аммо, у давлат арбоблари билан сафарларга борган бўлсада, 1913-14 йилларда Асфандиёрхон саройида авж олган турли гуруҳбозлик туфайли хонликда зиддиятли воқеалар авж олиб кетишига гувоҳ бўлади ва бу ҳақда ўз хотираларида ёзиб ўтади. Хотираларда Асфандиёрхоннинг зулми, мустамлакачиларнинг найранглари тафсилотлари билан берилган.

Ўша даврдаги вазиятда “Асфандиёрхон турли гуруҳбозлар иғвосига берилиб ўз амалдорлари фитнаси гирдобига тушиб қолади.Натижада 1904-05 йилларда шакллана бошлаган, одатда ўз дўкон, уйларидаги зиёфатларда бирика бошлаган мулкдор, савдогарлардан иборат қатлам, 1910-14 йилларда манфаатлар гуруҳи сифатида тўпланди.1917 йилга келиб сиёсий жараёнларнинг кучайиши, Петербургдаги императорнинг тахтдан қулатилиши, вақтли ҳукумат берган эркинликлар, қолаверса 1-жаҳон уруши бўлиб турган вазиятдаги бошбошдоқлик туфайли, мустамлака хонлик Хивадаям мухолифат сиёсий куч сифатида намоён бўла бошлади.Ана шу сиёсий кучни юзага келтирганлар сафида Ҳусайнбек Матмуродов, Назир Шоликаров, Бобоохун Салимовлар қаторида Полёзҳожи Юсупов ҳам бор эди.

Ана шу сиёсий куч 1917 йил 5 апрелида Хоразм тарихида илк бор халқни намойишга чорлаб, Асфандиёрхон саройида уни манифест имзолашга, идораи маршрутия –парламентар кенгаш тузишга мажбур қилади. Ўша йилнинг кузида ташкил этилган кенгаш Асфандиёрхон ва унинг мутаассиб амалдорлари томонидан тарқатиб юборилгач, юқоридаги шахслар (Ҳусайнбек Матмуродовдан ташқари) турли шаҳарларга бошпана излаб, сиёсий қочоқ сифатида кетишга мажбур бўлади. Натижада ўзларини “Ёш хиваликлар” дея атаган гуруҳнинг Тошкент, Тўрткўл шаҳарларида инқилобий қўмиталари юзага кела бошлайди.Шу тариқа Полёзҳожи Юсупов ҳам 1918-20 йилларда Тошкентда муҳожир сифатида яшашга мажбур бўлади.Бу даврда у Тошкентдан ўзлари каби бошпана топган “Ёш бухороликлар” ва бошқа тараққийпарвар кишилар билан танишади.Қолаверса Тошкентда ўтган 2 йил тарихимиздаги энг сиёсий воқеаларга қайноқ, шиддатли ва зиддиятли воқеаларга бой давр эди.

Ана шундай воқеалар силсиласида Полёзҳожи ва унинг сафдошлари фикрлари янада қатъийлашди.”Ёш хиваликлар” партияси 1918 йил 5 июнда ўз дастури, тузилиш, муҳрига эга бўлган расмий ташкилот сифатида тўла шаклланди. Улар дунёқарашининг шаклланиши ва тадрижий ривожланишида хонликдаги мавжуд ижтимоий-сиёсий тузум, Туркия, Эрон, Россия ва Туркистондаги сиёсий ўзгаришлар, 1917 йил ноябр, 1918 йил январидаги Қўқон воқеалари, ўлкада кечган сиёсий ўзгаришлар объектив шароит сифатида катта таъсир кўрсатди.Шу билан бирга рус инқилобчилари, солдат шўролари, Туркистондаги маҳаллий инқилобчилар таъсири субъектив омил сифатида катта роль ўйнади.

Ана шу ташкилот ва унинг маслакдошлари 1918 йил октябрида Асфандиёрхоннинг фитна туфайли ўлдирилиши, 1920 йил Саид Абдуллахоннинг тахтдан қулатилишига сабаб бўлишди.Большевиклар мададига таяниб ХХРни ташкил этган ҳам, унинг илк раҳбарлариям Полвониёзҳожи ва сафдошлари эди” (1).

1920 йил апрелидаги Хоразм республикасининг 1-қурултойида шу боис Полвоннёзҳожи Юсупов ҳукумат бошлиғи қилиб сайланган ва қатъиятлилик билан воҳа халқлари манфаатлари учун фаолият олиб борган. .Бироқ, миллий ва мустақил сиёсат юргиза бошлаган Полвонниёзҳожи Юсупов ҳукумати РСФСРнинг Хоразмдаги вакиллари, шовинист шахслар томонидан рақиб дея қаралди. Шу тариқа, 1921 йил мартида Полвониёзҳожи Юсупов ва унинг ҳукумат нозирлари мажбурий равишда ишдан олинади, ўзлари бадном қилинади.

Орадан маълум бир вақт ўтиб, Полвонниёзҳожи Юсупов Отамахзумохун Муҳаммадраҳимов ҳукумат раислигига келган пайтда “оқланиб” яна ХХСРнинг молия, солиқ ишларида фаолият юрита бошлайди.Аммо бутунлай сиёсатдан чекинишга ҳаракат қилди.

Негаки, бу пайтга келиб кучлар нисбати РСФСРнинг шовинист арбоблари қўлига бутунлай ўтиб кетганди.

Маълумки, 1924-25 йиллардаги миллий чегараланиш ва республиканинг тугатилиб миллий чегараланиш сиёсати ўтказилиб, Хоразм округ даражасига туширилгач, Полвониёзҳожи Юсупов Хива Ичан қалъа музейида оддий ходим сифатида ишлайди ва 1936 йилда вафот этади.

Полвонниёзҳожи Юсупов ҳаёти ва фаолияти давомида кундаликлар ёзиб борган ва шу асосида хотираларини 1926 йилда давлат арбобига хос мемуар тарзида шакллантиради. Араб алифбосида битилган Полвонниёзҳожининг хотиралари 644 бетдан иборат бўлиб, унда муаллиф ўзи кўрган, кузатган, ўзи бошидан кечирган Хоразмдаги, шунингдек Туркистон ўлкасидаги воқеликни қаламга олади.

Катта ҳажмли асар асосан кундалик дафтар асосида ёзилгани боис, унга бирон ном, мавзу, бўлим, боб қўйилмаган. Полёзҳожининг асаридаги воқеалар асосан 1910-25 йилларда кечган жараёнлардир.

Профессор Матёқуб Матниёзов ёзишича "Полвонниёзҳожи Юсупов асарининг қиммати ва ўша давр тарихи ҳақида чоп этилган бошқа китоблардан фарқи шундаки, муаллиф коммунистик ғоя ва ақидалардан холис ҳолда, ўз кўзи билан кўрган, билган, эшитган, бевосита иштирок қилган тарихий воқеа ва ҳодисаларни ўзича баҳолаб, рўй-рост ҳикоя қилади.

Полвонниёзҳожи Юсупов "Хотиралари" қўлёзмаси 644 бетдан иборат бўлиб, у ҳалигача чоп қилинмаган эди. Лекин муаллифнинг ўзи ҳаёт вақтида, тахминан 30 йилларнинг ўрталарида Хоразм "инқилоби"нинг иштирокчиси Борис Чепрунов томонидан рус тилига таржима қилинган. "Хотиралар"нинг рус тилига таржима қилинган нусханинг ҳажми машинка ёзувида 256 бетни ташкил қилган. Машинкада босилган бир қанча нусхалар турли архивларга, жумладан собиқ ИМЛнинг Ўзбекистон филиали партия архивининг қўлёзмалар фондига, Хива тарих музейига, собиқ Ўзбекистон ССР фанлар академиясининг Қорақалпоғистон филиали кутубхонасига юборилган" (2).

Борис Чепруновнинг ушбу таржима нусхасидан Хоразмнинг 20 асрдаги биринчи чорагига доир асарлар ёзган кўплаб совет даври тадқиқотчилари фойдаланишган. Хусусан бу совет даври олимларига Г.Непесов ("Из истории Хорезмской революции", Т, "Узбекистон" 1962), К.Муҳаммадбердиев ("История Хорезмской революции" , Т, "Фан", 1986), И.В.Погорельский ("история Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики" Л, "Университет, 1984)" Н.Қаландаров (" Образование и деятелность ХКП", Т, "Узбекистон", 1975) ларни ва уларнинг яратган юқоридаги ва бошқа тадқиқот ишларини мисол сифатида келтириш жоиз..

"Афсуски, уларнинг ва бошқа муаллифларнинг асарларида кўп йилларгача Полвониёзҳожи Юсупов номи кўрсатилмай келинди.Чунки шўро мафкураси Полвонниёзҳожи Юсуповни ва у бошчилик қилган ҳукуматни "миллий буржуа ҳукумати" дея атаб бадном қилиб келарди.Шу боис юқоридаги ва шу мавзуга доир асарларда Полвонниёз ҳожи Юсуповнинг фаолияти тўла ёритилмай, фақатгина Юсупов ҳукумати дея чекланган, бирёқлама тарздаги маълумот билан кифояланиб келинди.

Ваҳоланки ўз давридаёқ Полвонниёз ҳожи Юсупов ва уларнинг "инқилобий фаолияти" , ҳукумати тўғрисида К.Хромых ("Создание фронта в Средней Азии. Хорезмская республика" (Военная мысль", 1920, 3 1, стр 7) Г.Б.Скалов ("Хивинская революция 1920 года", "Новый Восток", 1923, № 4, стр 250), А.Виноградова (Хорезмская Советская Народная Республика", "Жизнь национальностей", 1923, Кн.1, стр 183)ларнинг мақолалари яратилганди " (3).

Гарчи мафкуравий томондан Полвониёзҳожи Юсупов ҳаёти, сиёсий фаолиятига коммунистик қарашлардан келиб чиқиб баҳо берилган ёки исми келтирилмай "Юсупов ҳукумати", "буржуа ҳукумати" тарзида келтирилган даврда, асар ҳақида биринчи бўлиб М.Х.Алиакберов томонидан мақола ёзилди (4).

Натижа. Орадан вақт ўтиб 1991 йилдаги мустақиллик даври йилларида тарихга холис ва ҳаққоний қараш бошланган пайтгача Полвонниёзҳожи Юсупов ва унинг фаолияти тўғрисидаги бирон асар, ёки илмий тадқиқот иши олиб борилмай ҳатто, мақола ҳам ёзилмади.

Фақатгина “Туркистон” газетасининг 1992 йил 14-15 феврал сонларида “ Отилганлар ва сотилганлар “ (муаллифлар Рўзимбой Ҳасан ва Абдулла Абдурасулов) мақоласи чоп этилиб, унда Х.Девонов, Н.Шоликаров, Б.Салимовлар қаторида Полвонниёзҳожи фаолияти қисқа тарзда ёритилди.

“Истиқлол берган имкониятдан фойдаланиб, тарихшуносликдаги шу даврга оид бўшлиқни тўлдириш, тарихни ҳаққоний ва холис ёритиш бўйича ташланган илк қадам Мақсуд Маткаримовга тегишли бўлди. Иқтисод фанлари номзоди, доцент Мақсуд Маткаримов 1993 йилда “Хоразм” нашриётида “Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди” дея номланган китобини чоп эттирди (5).

Ушбу асарда илк бора ХХР фаолияти, нозирлари олиб борган сиёсат ҳаққоний ёритилиб, Полвониёзҳожи фаолияти ҳам қаламга олиб ўтилганди.

1999 йилда эса тарих фанлари номзоди, профессор Матёқуб Матниёзов томонидан “Полвонниёз ҳожи Юсупов ва унинг “Хотиралари” ҳақида”ги мақола яратилди ва ушбу мақола Полвониёзҳожи Юсуповнинг хотираларига сўзбоши тарзида “Хоразм” нашриётида чоп қилинди. 486 бетли ушбу хотираларга 49 саҳифалик сўзбоши тарзидаги мақола “Полвонниёз ҳожи Юсупов “Хотиралари” ҳақида” дея номланади.

. 2007 йилда эса О.Қўшжонов ва Н.Полвоновлар томонидан “Хоразмдаги ижтимоий сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар”, 2011 йилда эса ЎЗМУ доценти, тарих фанлари номзоди Неъматжон Полвонов томонидан “Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи” (1900-1924) дея номланган, мавзу ҳаққоний ёритилган монография нашр қилинди ва унда ҳам Полвонниёзҳожи Юсупов ҳаёти, фаолияти билан бирга , унинг мемуаридан иқтибослар келтириб ўтилди. Яъни, 20 аср бошида Хоразмдаги тарихий жараёнларни ёритишда Полвонниёзҳожи Юсупов хотираларининг илмий аҳамияти эътиборга олиниб, ундан иқтибослар келтириладиган илмий анъана шаклланди.

Профессор Матёқуб Матниёзовнинг 1999 йилдаги нашри, Полвонниёз Ҳожи Юсуповнинг набираси Анвар Отабоевда сақланиб келинган “Хотиралари” 1995-98 йиллар давомида Болта Давлетов, Бахтиёр Отажоновлар томонидан араб алифбосидан кириллчага айлантирилган нусха асосида амалга оширилди.

Профессор Матёқуб Матниёзов фикрича, “муаллиф асарга сарлавҳа қўймаганлиги, бўлимларга ажратмаган”. Натижада М.Матниёзов хотираларни тўққиз бобга ажратган ва уларни номлаган. Шунингдек мемуарга “Ёш хиваликлар тарихи” дея сарлавҳа қўйиб, “Хоразм” нашриётида чоп қилдирган. Шунингдек, асарни ноёб мулк сифатида сақлаган Анвар Отабоев, арабчадан кириллчага айлантирган Болта Давлетов, Бахтиёр Отажонов ,уларга кўмакдошлик қилган профессор Отаназар Мадраҳимов маслаҳатлари асосида арабий, форсий сўзлар учун китоб охирида (472 бетдан 483 бетгача) луғат тузиб, изоҳ бериб ўтган” (6).

Хулоса. Ушбу босма нашр илмий тадқиқотчилар, тарих фани ўқитувчилари, олий таълим муассасалари талабалари учун Хоразм тарихидаги 1900-1925 йил воқеаларини таҳлил этишдаги ноёб манба сифатида илмий аҳамиятга эга. Шу тарзда профессор Матёқуб Матниёзовнинг саъй ҳаракатлари билан, 20 аср биринчи чорагидаги Хоразмдаги тарихий жараёнларни ёритишдаги аҳамияти эътиборга олиниб, Полвонниёзҳожи Юсуповнинг хотиралари илмий истеъмолга олиб кирилди. Натижа 1999 йилдан то ҳозиргача бўлган даврдаги илмий тадқиқот ишлари, кўплаб илмий оммабоп китобларда Полвонниёзҳожи Юсупов хотираларидан бошқа манбаларга таққословчи, қиёсий асар сифатида фойдаланилмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.У.Бекмуҳаммад “Полвонниёзҳожининг ноёб асари”, “Хуршид Даврон кутубхонаси” интернет сайти, 15.08.2015 йил.

2.М.Матниёзов “Полвонниёз ҳожи Юсупов “Хотиралар”и ҳақида”, Полвонниёз Ҳожи Юсуповнинг “Ёш хиваликлар тарихи” асарига ёзилган сўзбоши. “Хоразм” нашриёти, Урганч-1999 йил, 3-бет.

3. У.Бекмуҳаммад “Полвонниёзҳожининг ноёб асари”, “Хуршид Даврон кутубхонаси” интернет сайти, 15.08.2015 йил.

4. М.Х.Алиакберов “Общественые науки в Узбекистане” журнали, 1968 йил 2-сон.

5.Мақсуд Маткаримов “Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди”, “Хоразм”нашриёти, Урганч-1993 йил.

6.Полвонниёз ҳожи Юсупов "Ёш хиваликлар тарихи", "Хоразм"нашриёти, Урганч-1999 йил.

УДК 327(470:510)

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДИПЛОМАТИИ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКО-КИТАЙСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Д.Ф. Якубов, м.н.с., Институт Антропологии АН Республики Узбекистан, Ташкент

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi fan va ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinib, u Xitoy Xalq Respublikasining ta'lim diplomatiyasidagi muhim mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. Unda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning tarixiy asoslari hamda xalqlararo aloqalarni mustahkamlashda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining tutgan o'rni baholanadi. Shuningdek, akademik mobillik, stipendiya dasturlari va qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirishga oid ma'lumotlar keltiriladi.*

Bundan tashqari, fan, oliy ta'lim va arxeologiya sohalaridagi hamkorlikka, jumladan, zamonaviy tadqiqot markazlarini tashkil etish hamda Buyuk ipak yo'li madaniy merosini saqlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy va ta'lim sohasidagi hamkorlik O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, gumanitar aloqalarni rivojlantirish hamda uzoq muddatli sheriklikni yo'lga qo'yishning muhim tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *ilmiy-ta'limiy hamkorlik, ta'lim diplomatiyasi, O'zbekiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, akademik mobillik, Konfutsiy instituti, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi, madaniy-gumanitar aloqalar, arxeologik hamkorlik.*

Аннотация. *В работе рассматриваются современные направления развития узбекско-китайского сотрудничества в сфере науки и образования как одного из основных механизмов образовательной дипломатии Китайской Народной Республики. Оцениваются исторические предпосылки взаимодействия двух государств, роль инициативы «Один пояс – один путь» в рамках укреплений гуманитарных связей. Подробно раскрывается информация о реализации академической мобильности, стипендиальных программ, и совместных научных проектов.*

Кроме того, особое внимание уделяется сотрудничеству в области науки, высшего образования и археологии, включая создание совместных исследовательских центров и проекты по сохранению культурного наследия Великого Шёлкового пути. Сделан вывод о том, что научно-образовательное сотрудничество является важном аспектом в укреплении двусторонних отношений, развития гуманитарного взаимодействия и формирования долгосрочного партнерства между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.

Ключевые слова: *научно-образовательное сотрудничество, образовательная Дипломатия, Республика Узбекистан, Китайская Народная Республика, академическая мобильность, Институт Конфуция, Один пояс – один путь, культурно-гуманитарное взаимодействие, археологическое сотрудничество.*

Abstract. *The paper considers modern directions of development of Uzbek-Chinese cooperation in science and education as one of the main mechanisms of educational diplomacy of the People's Republic of China. The historical prerequisites of interaction between two states are assessed, as well as the role of the "One belt-one path" initiative within the framework of strengthening humanitarian ties. Detailed information is provided on the implementation of academic mobility, scholarship programs, and joint research projects.*

In addition, special attention is paid to cooperation in the field of science, higher education and archaeology, including the creation of joint research centers and projects for the preservation of the cultural heritage of the Silk Road. It was concluded that scientific and educational cooperation is an important aspect in strengthening bilateral relations, developing humanitarian interaction and forming a long-term partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China.

Key words: *scientific and educational cooperation, eucational diplomacy, Republic of Uzbekistan, People's Republic of China, academic mobility, Confucius Institute, Belt and Road Initiative, cultural and humanitarian interaction, archaeological cooperation.*

Актуальность работы: Актуальность научного исследования обоснована нарастающей ролью научно-образовательного сотрудничества в системе современных международных отношений и укрепление общеобразовательной дипломатии как система реализации внешнеполитических стратегий государств. В условиях развития узбекско-китайских отношений особую значимость приобретает изучение механизмов взаимодействия в сфере науки, образования и культурно-гуманитарных обменов. Осуществление проекта «Один пояс – один путь», развитие академической мобильности, деятельность Институтов Конфуция и реализация совместных исследовательских программ способствуют укреплению гуманитарных связей между двумя странами. Данное исследование позволяет выявить современную динамику развития двустороннего сотрудничества, определить его влияние на образовательный и научный потенциал Узбекистана, а также оценить перспективы дальнейшего развития узбекско-китайского сотрудничества.

История: Исторические связи между Узбекистаном и Китаем выделяются своей устойчивостью и продолжительностью. Согласно данным древнекитайских хроник, установление первых дипломатических контактов с государствами, расположенных на территории современного Узбекистана, относится ко второй половине II века до н.э. Ярким примером является миссия посла Западно-Ханьского государства Чжан Цяня в Давань, государство, расположенное на территории Ферганской долины.

Ключевым фактором, способствовавшим развитию межгосударственных связей, выступил Великий Шелковый Путь, который играл роль не только в торговой сфере, но и в культурной, где формировалось пространство многогранного взаимодействия между народами.

Что же касается средневековой эпохи, то в данном периоде продолжается развитие межгосударственных контактов на территории нынешнего Узбекистана и Китая, преимущественно имея политические аспекты. Направление дипломатической миссии по приказу Шахруха в Пекин в 1419-1422 годах положили начало торгово-политического сотрудничества. В последующие периоды (включая новое время), согласно «Правдивым записям о правлении династии Мин» и другим историческим хроникам, между представителями Мавераннахра и Бухарского ханства с правителями династии Мин и Цин происходили неоднократные дипломатические взаимодействия [6].

При распаде СССР Китайская Народная Республика относится к числу первых государств, признавших суверенитет Республики Узбекистан, и в настоящее время является стратегическим партнером Узбекистана. На протяжении более 30 лет Узбекистан, совместно с Китаем совершает масштабные проекты, а также ставит общие приоритетные направления развития. За это время весьма ощутимо достигнуты результаты сотрудничества в сфере науки и образования.

Партнёрство между Республики Узбекистан и Китайской Народной Республики в сфере высшего образования опирается на соглашение, заключённое 8 ноября 1999 г. между Министерством высшего и среднего образования Узбекистана и Министерством образования КНР.

Один пояс, один путь: В 2013 году Председатель Китайской Народной Республики Си Цзиньпин инициировал масштабный международный проект под названием «Один пояс, один путь» (ОПОП). В рамках данной концепции термин «Путь» представляет собой морской маршрут из Китая в Юго-Восточную Азию, затем в Африку и далее через Европу до стран Латинской Америки. Понятие «Пояс» предусматривает наземный путь из Китая через Центральную Азию, а затем далее в Европу [1].

В последние годы образование и наука стало весьма значимым инструментом реализации стратегии «мягкой силы» в рамках данной инициативы, особенно в странах

Центральной Азии. Основным механизмом образовательной дипломатии КНР выступают стипендиальные программы, обеспечивающие студентам из Центральной Азии обучению в ведущих университетах Китая, которые охватывают широкий комплекс дисциплин – от технических, медицинских до социально-гуманитарных направлений.

Наряду со стипендиальными программами Китай последовательно совершенствует образовательные программы путем обмена студентов и преподавателей вузов Центральной Азии. Данные программы усиливают межуниверситетское взаимодействие между Китаем и странами Центральной Азии. В их пределах реализуются совместные исследования и научные мероприятия, обеспечивающие обмен знаниями, методику изучения между учеными в различных научных направлениях [10].

Институт Конфуция в Узбекистане. Важную роль в институционализации академических связей сыграли договоры о создании Институтов Конфуция (Ханьбань) в Ташкенте (2004 г.) и в Самарканде (2013), ставшие значимыми элементами развития гуманитарного и образовательного взаимообмена.

Ташкентский Институт Конфуция был учреждён при Ташкентском государственном институте востоковедения (ТашГИВ) в сотрудничестве с Ланчжоуским Университетом Китая. Основой его создания послужило межведомственное соглашение между Министерством высшего и среднего образования Республики Узбекистана и Министерством образования Китайской Народной Республики.

Самаркандский Институт Конфуция был сформирован в рамках сотрудничества с Ханьбань (Государственная канцелярия по распространению китайского языка за рубежом) при партнёрском участии Шанхайского университета иностранных языков и работает при Самаркандском государственном институте иностранных языков (СамГИИЯ).

Основной задачей Ханьбаня (Института Конфуция) является распространение китайского языка через образовательные программы, а также привлечение людей к получению образования в Китае. Правительство исходит из предпосылки о необходимости развития китайского языка как одного из ведущих мировых языков межкультурной коммуникации наравне с английским. Государственная политика Китая исходит из предпосылки о целесообразности формирования китайского языка как одного из ведущих мировых языков межкультурной коммуникации наряду с английским [4].

Кроме того, Китай ежегодно предоставляет грантовые квоты для прохождения годичных стажировок в высших учебных заведениях страны в пределах межгосударственного взаимодействия, а также программы сотрудничества государств-членов Шанхайской Организации Сотрудничества.

Участие в данных проектах позволяет студентам и стажёрам проходить обучение в Китае не только с целью изучения самого китайского языка, но и для повышения квалификации и подготовки по различным профилям образования [7].

Концепция «сообщества единой судьбы человечества». Что же касается концепции «сообщества единой судьбы человечества», продвигаемая Китаем, то она предполагает практическую реализацию через широкий спектр инструментов, среди которых особое место занимает экспорт китайского образования. Помимо Институтов Конфуция, выступающих ключевым инструментом распространения культурного и образовательного влияния в Узбекистане, Китай реализует широкий спектр образовательных и научных проектов, направленные на развитие академического сотрудничества, расширение гуманитарных контактов и укрепление связей с зарубежными партнерами.

Руководство КНР рассматривает научно-образовательную сферу в качестве одного из важнейших механизмов продвижения концепции «сообщества единой судьбы человечества». В связи с этим, особое внимание уделяется привлечению иностранных граждан к обучению в китайских высших учебных заведениях по наиболее востребованным и перспективным направлениям подготовки.

После продвижения инициативы «единой судьбы человечества» политика КНР в области международного образования вышла на новый уровень. Несмотря на то, что Китай весьма

недавно стал одним из крупнейших членов в сфере международной академической мобильности, в настоящее время страна занимает влиятельные позиции среди ведущих экспортеров образовательных услуг и активно продвигает собственную модель высшего образования на международной арене. Данный подход тесно связан с реализацией проекта «Пояс и путь», в рамках которой расширение контингента иностранных студентов рассматривается как важный механизм укрепления международного авторитета Китая и формирования устойчивых гуманитарных связей в дальнейшей перспективе.

Статистические материалы показывают, что основную группу иностранных студентов в Китайских университетах составляют представители государств Юго-Восточной Азии. Для большинства из них обучение в КНР является возможностью получить качественное образование при сравнительно невысоких финансовых затратах, одновременно овладев китайским языком, что значительно повышает перспективы дальнейшего трудоустройства в китайских компаниях. Наряду с этим активный интерес к образовательным возможностям китайских университетов демонстрируют и граждане государств Центральной Азии, рассматривающие обучение Китая как эффективный инструмент профессионального роста, получения современных компетенции и расширения карьерных возможностей.

В пределах осуществления политики привлечения иностранных студентов был расширен спектр государственных образовательных программ и стипендий. Особое внимание также уделяется стимулированию научно-исследовательской деятельности иностранцев посредством финансовой поддержки университетов и модернизации материально-технической базы.

Среди государственных программ, направленных на привлечение иностранных обучающихся, относятся такие программы как: Great Wall и Форум Тихоокеанских островов [2].

Одним из важных требований к поступающим в китайские вузы является владение китайским языком на уровне не ниже среднего, что должно подтверждаться наличием соответствующими сертификатами (HSK) [3].

Культурно-Гуманитарное сотрудничество между Узбекистаном и Китаем. В последние годы наблюдается интенсивное развитие культурно-гуманитарного сотрудничества между Узбекистаном и Китаем. Так, в Китае организовываются дни узбекского кино, представления туристического потенциала, а также международный фестиваль «Шарк тароналари» («Мелодии Востока») который проводится каждые два года в Самарканде, имеет большую популярность. Китайская сторона проводит новогодние мероприятия и празднование «Чуньцзе» («Праздник весны») а также другие значимые события, играющие важную роль в культурном обмене и сближении народов двух стран. Параллельно развивается и научное сотрудничество, включая совместные археологические исследования, экспедиций, и проекты по сохранению наследия Великого шёлкового пути.

Дополнительным шагом укрепления сотрудничества между Китаем и Узбекистаном в сфере науки стало создание Академией наук Китайской Народной Республики первого исследовательского центра в Центральной Азии по изучению комплексных лекарственных препаратов.

Партнерство между филиалом НИТУ МИСИС в г. Алмалык и Уханьским университетом науки и технологий выступает как институциональная основа для расширения совместных образовательных и научно-исследовательских проектов.

Взаимообмен знаний, навыков, передовых технологий в данном сотрудничестве способствуют не только модернизации качества образования, но и увеличению научных разработок, ориентированных на воздействие высокотехнологичных сегментов экономики обеих стран.

Кроме того, реализация данного сотрудничества является существенным аспектом укрепления узбекско-китайского взаимодействия в научно-образовательной сфере, а также создаёт устойчивую среду для подготовки квалифицированных кадров будущих

специалистов, обладающих межкультурной компетентностью и способных формировать инновационные подходы к решению актуальных глобальных проблем [8].

Узбекско-Китайское сотрудничество в сфере Археологии. Что же касается сотрудничества в сфере археологии, представители города Самарканд, государственные структуры по охране руин города Бэйтин (Синьцзян-Уйгурский Автономный Район Китая) и острова Гуланъюй провели экспертное обсуждение по вопросам сохранения и трансляции культурного наследия, в котором подписали двустороннее соглашение о разитии сотрудничества.

Основной задачей данного мероприятия стало укрепление механизмов взаимодействия в сфере охраны, мониторинга и рационального применения объектов культурного наследия.

Древний город Бэйтин, являвшийся одним из ключевых локации сухопутного Шелкового пути, в период правления династии Тан, играл военно-политическую роль на западной территории средневекового Китая. Сам город выполнял такую функцию как распространение китайской цивилизационной структуры на запад, оставив при этом глубокий отголосок межкультурного взаимодействия.

Город играл значительную роль в распространении китайской цивилизационной модели в западном направлении и выступал пространством интенсивного межэтнического и культурного взаимодействия.

Что же касается острова Гуланъюй, то он известен своим историческим международным архитектурным комплексом, который демонстрирует процессы морских контактов и культурной интеграции Востока и Запада, а также имеет механизмы межцивилизационного содействия и культурной синергии.

Как известно, Самарканд, являясь одним из важных центров Великого Шёлкового пути в Центральной Азии, исторически выполнял функцию важной локации взаимодействия китайской и западной культурных традиции.

Несмотря на территориальную удалённость, Самарканд, Бэйтин и Гуланъюй являются ключевыми историко-культурными объектами, сыгравшие значимую роль в развитии цивилизационных процессов на Шелковом пути.

Согласно заявлению представителя Управления культуры и туризма провинции Фуцзянь, проведение данной встречи отражает современный этап интеграции сухопутного и морского направлений Шёлкового пути и способствует развитию глобального диалога в рамках инициативы «Один пояс – один путь».

По данным газеты «Фуцзянь жибао», в 2019 году представители острова Гуланъюй заключили соглашение о партнерстве со службой охраны руин древнего города Бэйтин. В рамках сотрудничества стороны договорились о реализации совместных исследований в сфере цифровой защиты культурного наследия, направленных на изучение возможности научно-технических решений в области охраны историко-культурных объектов.

В мае 2025 года делегация правительства провинции Фуцзянь прибыла с визитом в Узбекистан с целью развития сотрудничества между островом Гуланъюй и городом Самарканд [5].

Кроме того, в мае 2025 года при участии Института археологии провинции Шаньси (КНР), Музея провинции Шаньси (КНР) и Ферганского государственного университета был учрежден совместный археологический центр (Фергана – Шаньси). Данный проект стал важным этапом прогресса узбекско-китайского сотрудничества в сфере археологических исследований, сохранения и изучения культурно-исторического наследия.

Открытие Археологического центра «Фергана – Шаньси», а также Лаборатории по охране и реставрации объектов культурного наследия прошло в Ферганском государственном университете. В рамках данного мероприятия была также представлена выставка «Эпоха Юй Хуна» (533-592 гг.).

Юй Хун являясь выходцем из Центральной Азии, прибыл в Китай в составе дипломатической миссии, после чего остался в стране и занял высокую государственную должность.

Данная выставка предоставила посетителям возможность подробнее ознакомиться с культурным многообразием Центральной Азии и особенностями взаимодействия народов, проживавших на территории, где проходил Шелковый путь.

Ректор Ферганского государственного университета Баходиржон Шермухаммадов подчеркнул многовековой характер культурных и торговых связей между Центральной Азией и Китаем. По его мнению, сотрудничество с китайскими научными и образовательными учреждениями будет способствовать укреплению археологических исследований и расширению научного потенциала данного университета в перспективе [9].

Заключение: Опыт узбекско-китайского партнерства в сфере науки и образования занимает важное место в системе внешнеполитических инструментов Китая. Развитие академической мобильности, деятельность Институтов Конфуция, осуществление стипендиальных программ и совместных научных проектов формируют надежную основу для расширения гуманитарных связей между двумя государствами.

Современный этап сотрудничества характеризуется не только приростом образовательных обменов, но и углублением взаимодействия в научно-исследовательской сфере, включая археологию, сохранение культурного наследия и подготовку высококвалифицированных специалистов.

Исходя из этого, можно наблюдать, что механизмы образовательной дипломатии Китая становится весомым фактором расширения гуманитарного содействия Узбекистана в Центральной Азии. При этом научно-образовательное сотрудничество выступает не только инструментом продвижения интересов Китайской Народной Республики, но и создаёт дополнительные возможности для развития образовательного и научного потенциала Республики Узбекистан.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Гланц М. Китайская инициатива «Один пояс – один путь»: что может сделать «бренд» // Проблемы постсоветского пространства., Унивеситет Колорадо, США, 2017 – С.9 – 10.

2. Махмутова Е.В. Анализ опыта работы с иностранными студентами в России и Китае // Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета, Т. 9, Вып. 6, Москва, 2019 – С. 27.

3. Махмутова Е.В. Китайская «Мягкая сила» в Центральной Азии: Перспективы и ограничители // Международные отношения КНР, Москва, 2022 – С. 279.

4. Официальный сайт Конфуция. Интернет ресурс: https://learnchinese.uz/institut-imeni-konfucija/.

5. Представители Китая и Узбекистана обменялись опытом в области охраны объектов культурного наследия. Интернет ресурс: https://russian.news.cn/20250815/18beec155e194770a1b854ced5549c7d/c.html. [Дата обращения: 15.08.2025].

6. Расулева И. Узбекистан и Китай: Новый вектор сотрудничества. // Общество и инновации Т. 5, Вып. 1, Ташкент, 2024 – С. 293.

7. Сотрудничество Узбекистана и Китая в сфере высшего образования. Интернет ресурс: http://www.kitaichina.com/rbestxinwen/202305/t20230512_800330872.html. [Дата обращения: 12.05.2023].

8. Сотрудничество Узбекистана и Китая в сфере науки и технологии выходит на новый уровень. Интернет ресурс: https://review.uz/post/sotrudnichestvo-uzbekistana-i-kitaya-v-sfere-nauki-i-texnologiy-vxodit-na-novy-uroven. [Дата обращения: 12.05.2025].

9. Узбекистан и Китай открыли совместный археологический центр. Интернет ресурс: https://ipaknews.uz/ru/1275-kitai-i-uzbekistan-sozdali-sovmestnyi-arkheologicheskii-tsentr. [Дата обращения: 19.05.2025].

10. Чень Шань Влияние инициативы «Один пояс один путь» на систему образования в Центральной Азии // Методологические основы и тенденции развития образовательного процесса, КНР, Шэньси – С. 19.

UO'K 378

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK TAMOYILLARI

D.R. Alaudinova, PhD, dots., Termiz davlat universiteti, Termiz
I.I. Aripova, mustaqil tadqiqotchi, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-didaktik tamoyillari nazariy va metodik jihatdan tahlil etilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida bo‘lajak chet tili o‘qituvchisidan faqatgina ingliz tilining nazariy va amaliy asoslarini bilish emas, balki axborotni mustaqil tahlil qilish, dalillarni baholash, muammoli vaziyatlarga nisbatan turli nuqtayi nazardan yondashish, asoslangan xulosalar chiqarish hamda o‘z pedagogik qarorlarini tanqidiy asoslay olish kompetensiyasi ham talab etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, kompetensiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, pedagogik-didaktik tamoyillar, chet tilini o‘qitish metodikasi*

Аннотация. *В данной статье теоретически и методически рассматриваются педагогико-дидактические принципы развития компетенции критического мышления у будущих учителей английского языка. В условиях современной системы образования от будущего преподавателя иностранного языка требуется не только знание теоретических и практических основ английского языка, но и способность самостоятельно анализировать информацию, оценивать аргументы и доказательства, рассматривать проблемные ситуации с различных точек зрения, делать обоснованные выводы и критически обосновывать свои профессионально-педагогические решения.*

Ключевые слова: *критическое мышление, компетенция, будущий учитель английского языка, педагогико-дидактические принципы*

Abstract. *This article examines the pedagogical and didactic principles of developing critical thinking competence among prospective English language teachers. In contemporary education, future foreign language teachers are expected not only to possess theoretical and practical knowledge of English, but also to analyse information independently, evaluate evidence and arguments, approach problematic situations from different perspectives, draw well-grounded conclusions, and critically justify their professional and pedagogical decisions. The article explores the essence of critical thinking competence and its significance in the professional preparation of prospective English language teachers.*

Keywords: *critical thinking, competence, prospective English language teachers, pedagogical and didactic principles, foreign language teaching*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri mustaqil fikrlaydigan, o‘z nuqtayi nazariga ega, mavjud axborotni tanqidiy tahlil qila oladigan va o‘z faoliyatini refleksiv baholaydigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy ingliz tili o‘qituvchisi til materialini shunchaki yetkazib beruvchi pedagog emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilishi, muammolarni hal etishi va turli axborot manbalaridan samarali foydalanishini tashkil etuvchi ta’lim subyekti sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli uning kasbiy tayyorgarligi jarayonida til kompetensiyasi bilan bir qatorda analitik, baholovchi, refleksiv va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi pedagogik va psixologik tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, uning asosini ma’lumotni oddiy qabul qilishdan ko‘ra, uni tahlil qilish, taqqoslash, dalillarni baholash, mantiqiy xulosalar chiqarish va muayyan qarorga kelish jarayoni tashkil etadi. J.

Dewey, B. Bloom, R. Ennis, P. Facione kabi olimlarning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashning turli jihatlari yoritilgan.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida mazkur kompetensiyani rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy intellektual salohiyatini oshiradi, balki kelajakdagi pedagogik faoliyatining samaradorligini ham ta’minlaydi. Chunki tanqidiy fikrlaydigan o‘qituvchi dars mazmunini tanlash, metod va vositalarni belgilash, o‘quvchilar faoliyatini baholash hamda ta’lim natijalarini tahlil qilishda mustaqil va asoslangan qarorlar qabul qila oladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining mazmun-mohiyati

Tanqidiy fikrlash shaxsning muayyan axborot yoki muammoli vaziyatga nisbatan ongli, mantiqiy va dalillarga asoslangan munosabatini ifodalaydi. U tayyor xulosani qabul qilish bilan cheklanmay, mazkur xulosaning asoslanganligi, ishonchliligi va mantiqiy izchilligini tekshirishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun tanqidiy fikrlash bir nechta o‘zaro bog‘liq qobiliyatlarni qamrab oladi:

Axborotni tahlil qilish – matn, nutq, pedagogik vaziyat yoki ilmiy manbadagi asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni farqlash.

Taqqoslash va umumlashtirish – turli nazariyalar, metodlar va qarashlarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash.

Dalillarni baholash – berilgan fikr yoki xulosaning ishonchliligini dalillar asosida aniqlash.

Mantiqiy xulosa chiqarish – mavjud ma’lumotlar asosida asoslangan qaror shakllantirish.

Muammoni aniqlash va yechim ishlab chiqish – pedagogik muammoga turli muqobil yechimlarni taklif qilish.

Refleksiya – o‘z fikrlashi, qarorlari va pedagogik faoliyatini baholash.

Fikrni asoslab berish – o‘z nuqtayi nazarini dalillar bilan himoya qilish va boshqa qarashlarga nisbatan konstruktiv munosabat bildirish.

Shu jihatdan tanqidiy fikrlash kompetensiyasini bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining umumiy pedagogik kompetensiyasidan ajratib bo‘lmaydi. Chunki o‘qituvchi har bir darsda ma’lum darajada qaror qabul qiladi: qanday metodni tanlash, qaysi topshiriqni berish, o‘quvchining xatosini qanday izohlash, baholash mezonlarini qanday qo‘llash va ta’lim jarayonini qanday takomillashtirish masalalariga javob topadi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-didaktik tamoyillari

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish maqsadli, tizimli va metodik jihatdan asoslangan pedagogik jarayonni talab etadi. Mazkur jarayon bir qator pedagogik-didaktik tamoyillarga tayanishi lozim.

Mazkur tamoyilga ko‘ra, talaba bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki ularni mustaqil ravishda izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliy faoliyatda qo‘llovchi subyekt sifatida ishtirok etishi kerak. Ingliz tili mashg‘ulotlarida talabalarga tayyor grammatik yoki lingvistik qoidani berish o‘rniga, muayyan misollar asosida qoidani o‘zlari aniqlashlari uchun sharoit yaratish tanqidiy fikrlashni faollashtiradi.

Masalan, talabalar turli kontekstlarda ishlatilgan grammatik birliklarni tahlil qilib, ularning funksional xususiyatlarini aniqlashlari va umumiy qoida ishlab chiqishlari mumkin. Bunday yondashuv bilimni mexanik o‘zlashtirishdan ko‘ra, kognitiv faoliyatni kuchaytiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli vaziyat yaratish alohida ahamiyatga ega. Muammoli vaziyat talabaning mavjud bilimlari bilan yangi vaziyat o‘rtasida intellektual qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi va uni mustaqil izlanishga undaydi.

Ingliz tili metodikasida, masalan, “Which method would be more effective for teaching speaking to shy learners?” yoki “Can artificial intelligence replace the English language teacher?” kabi savollar asosida munozara tashkil etish mumkin. Bunda talabalar faqat “ha” yoki “yo‘q” shaklida javob bermay, o‘z qarashlarini pedagogik va metodik dalillar bilan asoslashlari talab etiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining tanqidiy fikrlashi kommunikativ faoliyatdan tashqarida rivojlana olmaydi. Fikrni shakllantirish, uni og‘zaki yoki yozma ifodalash, boshqa fikrlarni tinglash va ularga munosabat bildirish jarayonlari tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlaridir.

Shu sababli juftlik va guruhlarda ishlash, munozara, debat, “think-pair-share”, “problem-solving”, “role-play” kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday faoliyat talabaning o‘z fikrini asoslash bilan bir qatorda, boshqa nuqtayi nazarlarni ham tahlil qilishiga imkon beradi.

Tanqidiy fikrlashning muhim belgilaridan biri shaxsning o‘z fikrlash jarayonini tahlil qila olishidir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida refleksiv faoliyatga muntazam ravishda murojaat qilish lozim.

Dars yakunida “What did I learn?”, “What evidence supports my opinion?”, “What would I change?”, “Which argument was the strongest and why?” kabi savollardan foydalanish talabaning o‘z faoliyatini baholashiga yordam beradi.

Refleksiya orqali talaba nafaqat natijani, balki natijaga olib kelgan fikrlash jarayonini ham tahlil qiladi. Bu esa metakognitiv ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining tanqidiy fikrlash kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar asosida shakllanmaydi. Nazariy bilim pedagogik amaliyot bilan uzviy bog‘langan taqdirdagina mazkur kompetensiya kasbiy mazmun kasb etadi.

Masalan, talabaga real dars jarayonidan olingan muammoli vaziyat beriladi: “O‘quvchilarning aksariyati speaking activities davomida faol qatnashmayapti. O‘qituvchi qanday metodik qaror qabul qilishi kerak?” Talaba muammoni aniqlaydi, uning sabablarini tahlil qiladi, bir necha yechim taklif qiladi va eng maqbul variantni dalillar asosida tanlaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-didaktik tamoyillari nazariy va metodik jihatdan yoritildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim tarkibiy komponentlardan biridir.

Birinchidan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta’limning ongli va faol xarakteri, muammolilik, kommunikativlik, refleksivlik, nazariya va amaliyot integratsiyasi hamda individuallashtirish kabi pedagogik-didaktik tamoyillarga asoslanishi lozim.

Ikkinchidan, ingliz tili ta’limida debat, munozara, case-study, loyiha, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish va refleksiv topshiriqlardan tizimli foydalanish talabalarning tahliliy, baholovchi, argumentativ va muammoli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bunda AI tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirish, xatolarni aniqlash, muqobil manbalar bilan taqqoslash va natijalarni pedagogik nuqtayi nazardan baholash muhim metodik shart hisoblanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish faqat alohida bir metoddan foydalanish bilan emas, balki maqsad, mazmun, metod, texnologiya, refleksiya va baholashning yagona pedagogik-didaktik tizim sifatida tashkil etilishi bilan ta’minlanadi. Mazkur yondashuv kelajakdagi ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil pedagogik qaror qabul qilish, o‘quv jarayonini tahlil qilish va ta’lim samaradorligini muntazam takomillashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933.

2. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956.

3. Ennis R.H. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996.

4. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae: Insight Assessment, 2011.

5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

UO'K 373.026:159.954.4

DIDAKTIK O'YINLARNI TASHKIL ETISHDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

A.Bobokeldiyeva, PhD, Termiz davlat universiteti, Surxondaryo
L.Bobokeldiyeva, katta o'qituvchi, Termiz davlat universiteti, Surxondaryo

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo miqyosida kechayotgan innovatsion ta'lim islohotlari sharoitida, bolalarda didaktik o'yinlarni tashkil etishda bo'lajak tarbiyachilarning kreativ qobiyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari, pedagogik muammolari va yechimlar to'g'risida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, qobiliyat, kritik fikrlash, faoliyat, didaktik o'yin, tarbiyachi, ijodkorlik, yangilik, mustaqillik, divergent tafakkur, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются условия, педагогические проблемы и решения для развития творческих способностей будущих педагогов при организации дидактических игр для детей в контексте инновационных образовательных реформ, происходящих во всем мире.*

Ключевые слова: *креативность, способность, критическое мышление, деятельность, дидактика, игра, педагог, креативность, новизна, самостоятельность, дивергентное мышление, инновация.*

Abstract. *This article discusses the conditions, pedagogical problems, and solutions for developing the creative abilities of future educators in organizing didactic games for children in the context of innovative educational reforms taking place worldwide.*

Keywords: *creativity, ability, critical thinking, activity, didactic, game, educator, creativity, novelty, independence, divergent thinking, innovation.*

Kirish. Dunyo miqyosida kechayotgan innovatsion ta'lim islohotlari sharoitida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu bois ta'lim tizimida tarbiyachi-pedagoglarning noodatiy fikrlashini rivojlantirish, bo'lajak pedagog shaxsining ijodiy salohiyatini yuksaltirish va kasbiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar izchil olib borilmoqda. Italiya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi rivojlangan bir qator davlatlarda bo'lajak pedagoglarda shakllantirilishi lozim bo'lgan "zamonaviy shaxsga xos fazilatlar" majmui ishlab chiqilganligi va o'sib kelayotgan yosh avlodning aqliy va intellektual rivojlanishining didaktik jihatdan turli usullar, yondashuvlar asosida muntazam ravishda tizimli rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligi ushbu maqolada muhim o'rin tutadi, bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida yuqori intellektual salohiyatga va mustahkam amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan yosh izlanuvchi tarbiyachilarni yetishtirib berish, bo'lajak tarbiyachilarni kreativ qobiliyatini rivojlantirishda ilg'or texnologik vositalarni qo'llash, ta'limda yaratuvchanlikka keng yo'l ochish kabi samarali tajribalarini o'zlashtirishning metodik tizimini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni talablariga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini oshirish hamda nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Biroq, bugungi kunda bo'lajak tarbiyachilarda ijodkorlik, yangilikka, kreativlikka, mustaqillikka hamda divergent tafakkurni shakllantirish, yaratuvchanlikka bo'lgan motivatsiyaning sustligi, metodi hamda malakasini puxta o'zlashtirmaganligi, bolalar bilan ishlash jarayonida ko'plab qiyinchilik va duch keladigan muammolarga vaziyatlarni hal etish va oldini olishga qaratilgan bir qator vazifalarning mavjudligi va dolzarbligi ushbu tadqiqot ishini olib borishni taqozo etdi.

Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek - "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" [2].

Kreativlikni rivojlantirish va oshirish masalalari yuzasidan jahon mamlakatlarining yetuk olimlari ham ko'plab tadqiqotlarni olib borishgan.

K.D.Ushinskiyning fikriga ko‘ra - “Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega, u insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”[9] - deb yozgan edi. Y.A.Komenskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning nazariyalari hozirgacha bolalar o‘yinlarini tashkil etishda katta ahamiyatga egadir. Y.A.Komenskiyning fikriga ko‘ra, “o‘yin - bolaning barcha turdagi qobiliyatlarini rivojlantiradigan muhim aqliy faoliyatidir, o‘yin orqali olam, dunyo haqidagi tasavvurlari kengayadi va boyiydi, nutqi rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadilar”[6].

Bugunda zamonaviy ta’lim sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning kreativ qobiliytalarini shakllantirishda didaktik o‘yinlarni to‘g‘ri va samarali tashkil etish muhimdir. Davlat talablarida ham interfaol ta’lim va integrativ o‘qitishga alohida e’tibor qaratilgan. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik strategiyasini taqozo etadi. Bu orqali tarbiyachi didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning barcha jihatlarini hamda ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun mohirona qo‘llaydi. Bunda bolalarning quyidagi jihatlari inobatga olinishi lozim:

–bolalarning qiziqishlarini inobatga olish;

–ularning kuchli va zaif tomonlari anglash;

–ta’lim berish uslubini to‘g‘ri tanlash;

–yoshga oid xususiyatlarini bilish;

–shaxsiy-kreativ sifatlarini o‘rganish.

Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida pedagogik amaliyotda quyidagilarni inobatga olish zarur:

1. Har bir bolaning individualligi va imkoniyatlarini qanday bo‘lsa shu holatda qabul qilish.
2. Bolalarga kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning maqsadi ularning ham “umumiy maqsadi” bo‘lishiga erishish.
3. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish - mashg‘ulotlar davomida har bir bola imkoniyatiga, qiziqishiga qarab yo‘naltirilgan holda taqsimot qilish tarbiyachi-pedagogning muhim vazifasidir.

Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning shaxsiy yo‘naltirilgan rivojlanishi va tarbiyalanishi jihatidan ustuvorlikni ko‘rsatadi. Bolaning shaxsiy rivojlanishi quyidagi maqsadlarga erishishni ko‘zlaydi:

1. Didaktik o‘yinlar eng optimal ravishda qanday motorik, kognitiv, kreativ rivojlanayotganliklariga asoslanishi kerak.
2. “Yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish - samaradorligi tarbiyachi-pedagog kasbiy mahorati, bolalarni individual va jamoaviy rivojlantirish metodlari hamda usullarini puxta egallagan bo‘lishi lozim”.
3. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish - mashg‘ulotlar davomida har bir bola salohiyatiga yo‘naltirilgan vazifalarni taqsimot qilish tarbiyachi-pedagogning muhim vazifasidir.
4. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning muhim tarbiyaviy jihati sifatida o‘z imkoniyatlari, iqtidorlarini “kashf” qilishga “maydon” yaratishdir.

Didaktik o‘yinlar vositasida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish quyidagi oltita pedagogik o‘lchamlar orqali bolani har tomonlama barkamol rivojlantirishga pedagogik shart-sharoit yaratadi:

1. Jismoniy faollikni oshirish. Jismoniy mashqlarning o‘ziga xos shakllaridan individual jismoniy qobiliyatlarni mustaqil ravishda rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, maktabga boradigan bolalarning 30-50% da, surunkali kasalliklar mavjuddir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom va barkamol bo‘lishi uchun, bola organizmini kasalliklarga qarshi kurashida, immunitetini oshirish va sog‘ligini mustahkamlashda ularni sport mashg‘ulotlariga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, rivojlanayotgan organizmga, bolalar sog‘ligiga, ish qobiliyatini oshirishga ta’sir qiladigan omillardan biri, bu jismoniy faollikdir. Jismoniy faollik, bu jismoniy harakatlanishga tabiiy ehtiyoj hisoblanib, ushbu faollik orqali bolalarni

garmonik rivojlanishi va axloqiy, kreativ tarbiyalash shartidir.

2. Kreativlikni oshirish. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish harakat bilan bog‘liq kreativlikni rivojlantirish uchun topshiriqlarni individual, farqli holatda amalga oshirishga harakat qiladi. Bolani ko‘pincha mustaqil o‘ynashi orqali uning kreativ g‘oyalarni yaratish va noan’anaviy harakat, verbal intellekt, ifoda usullarini, original g‘oyalarni shakllantiradi.

3. Shaxsni yuksaltirish. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda barqaror shaxsni rivojlantirish uchun uni turli xil sinovdan o‘tkazish imkoniyatini yaratib beradi. Xususan, kichik guruhlarda intensiv ishlash va o‘z g‘oyalarini taqdim etish bola uchun qulay shartlardir. Bu bilan ular o‘zlarini kognitiv, hissiy va motivatsion taraflarini rivojlantirishlari mumkin.

4. Ijtimoiy xulq-atvorni yuksaltirish. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning ijtimoiy (yoki sotsial) ta’limni rivojlantirish uchun bolani tengdoshlari bilan kichik guruhlarda tez-tez ishlashlariga imkoniyat yaratadi. Boshqalar bilan muloqotda bo‘lishda bola hamkorlik qilish, nizolarni hal qilish va tanqid qilish qobiliyatlari kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni sinab ko‘rishlari hamda boshqa odamlar bilan empatiyani mashq qilishlari mumkin.

5. Idrok (his) qilishni yuksaltirish. Bolalarda didaktik o‘yinlar vositasida kreativ va idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga turli xil ixtiyoriy mashqlarini bajarishga imkoniyat yaratiladi. Jumladan, kundalik harakatdan farqli bo‘lgan g‘ayrioddiy harakat shakllari bolada his qilishning sub’ektiv ahamiyatli taraflarini uyg‘otishi va idrok qilish qobiliyatini shakllantiradi.

6. Ifoda etish qobiliyatini yuksaltirish. O‘yinning transformatsion shakllari orqali bola o‘zlarining taassurotlari va tajribalarni qayta yodga olishlari, ularni beixtiyor ifodalashlari mumkin [8].

Didaktik o‘yinlar vositasida maktabgacha ta’limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsad qilinar ekan, bunda tarbiyalanuvchilarda pedagogik faoliyatni tashkil etishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

–aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;

–izchillik;

–uzluksiz;

–tizimlilik va majmuali yondashuv asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bolalarning hayoti va salomatligiga havf soluvchi omillarni bartaraf etish layoqati tarbiyalanadi.


Maktabgacha ta’limda didaktik o‘yinlar vositasida mashg‘ulotlar tashkil etish orqali bolalarda kichikligidan sog‘lom hayot tarziga odatlansa, intellektual jihatdan ham o‘sib rivojlanishida uning o‘z faoliyati muhimligini tushunadi. Didaktik harakatli o‘yinlar, jumladan, tarbiyalanuvchilarni o‘ziga, o‘z tanasiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi, irodaviy va axloqiy, kreativ sifatlarni hamda bilimlarni mustahkamlash, divvergent tafakkurni rivojlantirish talabini o‘rgatadi.

Bolalarda yana bir didaktik imkoniyati - kreativ qobiliyatlarini shakllantirish daqiqalarda qo‘llanishi bilan tavsiflanadi. Ayonki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ qobiliyatlarini (yangicha fikrlash) o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar o‘rtasidagi tanaffusda, shuningdek mashg‘ulotlar jarayonining o‘zida o‘tkaziladi. Didaktik o‘yinlar va art-usullar yordamida bola faloliyati va holatini harakat faolligi orqali almashtirishni ko‘zlaydi va bolani hissiy emotsional holatini yaxshilaydi [5].

Quyidagilar bo‘lajak tarbiyachilarni kreativligini rivojlantirish va kreativ yondashuvlarini kengaytirish maqsadida barcha fanlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

“Chorraha” metodi

Metodning maqsadi: Ushbu metod zamonaviy, murakkab, ko‘ptarmoqli, hamda muammoli guruhdagi mavzularni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Metodning mazmuni shundan iboratki, bunda muammoli mavzuning turli sohalari bo‘yicha bir xil ma’lumot beriladi va ularning har biri alohida mezonlar bilan tahlil etiladi. Masalan, muammo mavzusining afzallik va kamchiliklari, ijobiy-salbiy jihatlari, foyda, zararlari tomonidan chuqur muhokama qilib, o‘rganib chiqiladi. Mazkur interfaol fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda himoya qilishda muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkoniyat yaratadi [3].




1-rasm.
“Chorraha” metodi

Metodni tashkil etish: Talabalarni 4-5 ta kichik guruhlarga bo‘lib, chorraxaning tutashgan markazida, ya’ni o‘rtasida mavzuga oid topshiriq olinadi. Topshiriqlarni to‘rt tarafdagi yo‘llarga muhokamasi yoziladi (1-rasmga qarang).


Kreativ g‘oyalar g‘ildiragi” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi: Bu interfaol metodda talabalardagi o‘z g‘oyalaridan umumiy g‘oyalar, tahliliy xulosalar chiqarish, qiyoslash, taqqoslash bilan ma’lumotlarni o‘rgarish, xulosa chiqarish, shuningdek, erkin ijodiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu interfaol metoddan ta’lim berishda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda, o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda, uyga berilgan topshiriqni so‘rashda hamda uyga vazifa berishda foydalanish yuqori natijalarni beradi [7].

Metodni tashkil etish: Har bir talaba o‘z g‘oyalarini “Kreativ g‘oyalar g‘ildiragi”ga bitta fikr asosida bayon qiladilar. Barcha g‘oyalar umumlashtirib, muhokama qilinib, umumiy g‘oyalar majmuasi yaratiladi. (2-rasmga qarang).



2-rasm.“Kreativ g‘oyalar g‘ildiragi” metodi



3-rasm. “CADG” metodi

CADG” metodi

“CADG” metodi (creative ability didactic games)- bu metod har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq ta’rif topishga imkon beradi, talabalarga guruhlarda ishlashni, boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtai nazarni ishlab chiqishni, kreativ fikrlash hamda kritik tahliliy yondashishni o‘rgatadi. Guruhlardagi ish jarayoniga qarab, har bir guruh vakillari navbati bilan o‘z plakatlarini xona taxtasiga ilib qo‘yadi va o‘qiydi.

Berilgan savollarga javob beradi. Keyingi navbat pedagogga beriladi. Pedagog barcha guruhlar ishtirokidagi umumiylikni topishga yordam beradi. (3-rasmga qarang). Didaktik o‘yin mashg‘ulotlari jarayonida kerakli vositalarini to‘g‘ri, unumli va xavfsiz qo‘llashning o‘ziga hos jihatlarini bilish zarur. Ushbu vositalarni quyidagi turlari farqlanadi:

konselyariya mahsulotlari – ruchka, qalam, chizg‘ichlar, qaychi, yelim, skoch, flomasterlar hamda turli o‘lchamlardagi oq va rangli qog‘ozlar va boshqa kerakli narsa-buyumlar.

axborot texnika vositalari – kompyuter, video kamera, video magnitafon, televizor, proyektor, mikrofon va boshqa kerakli vositalar.

o‘quv asbob uskunalari – o‘lchov asboblari, o‘quv proborlari, moslama, o‘quv laboratoriya va ustaxona jihozlari

mahalliy – tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

Xulosa qilish mumkinki, bugun jahonda ma’lumotlar tizimining tez sur’atlarda o‘sib bormoqdaki, xattoki bu yuksalish ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Buning uchun mashg‘ulotlarni oddiy moslashuvi emas, balki uni yangilash va o‘zgartirish jarayonidir. Ba’zi ilmiy nazariyalarda kreativlikning asosiy omili sifatida insonning dezadaptatsiyasi va ijtimoiy muhitga to‘liq moslasha olmaslik holati ko‘rsatiladi. Bugungi zamonaviy tarbiyachi kreativ fikrlovchi, yaratuvchi va o‘z ustida tinimsiz mehnat bilan mashg‘ul bo‘luvchi, yangi metodlarni mohirona qo‘llay oladigan, bolalarni sevadigan shaxs sifatida bo‘lmog‘i lozim. Chunki ta’limni debochasi maktabgacha ta’limdan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2019, 16-dekabr). *“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonun*. https://lex.uz/

2. Mirziyoyev Sh.M. (2017). *Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz* (1-jild). O‘zbekiston.

3. Abdullaeva B. va boshq. (2015). *Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik*. Navro‘z nashriyoti.

4. Абдураҳимова Д.А. (2014). Кичик ёшдаги болаларда толерантлик ахлоқини шакллантиришда оиланинг роли. *The Culture of Tolerance in the Context of Globalization: Methodology of Research, Reality and Prospect: Materials of the International Scientific Conference*, 117–120.

5. Hamidov J.A. (2017). *Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi* (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.

6. Ласкина Н.В., Новикова Н.А., Лежнева Н.С., Тимофеева Н.Ю., Слесарев С.А., & Вахрушева Ю.Н. (2014). *Комментарий к Федеральному закону от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации» (постатейный).* Система ГАРАНТ.

7. Рўзиева Д., Усмонбоева М. & Ҳолиқова З. (Туз.). (2013). *Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши.* ТДПУ нашриёти.

8. Raximova I.I. (2018). *Kompyuter o‘yinlariga tobelikning psixologik xususiyatlari* (PhD dissertatsiyasi). Toshkent.

9. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova M. & A’zamova M. (2019). *Maktabgacha pedagogika*. Tafakkur.

UO'K 378.147:[57+574]:61

EKOLOGIK VA BIOLOGIK BILIMLARNI SIMULYATSION TA’LIM HAMDA OSCE TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYALASH BO‘YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINING MAQSADI VA DASTURI

K.X.G‘aniyev, b.f.n., dots., Central Asian Medical University, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak shifokorlarning klinik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodika — ekologik va biologik bilimlarni simulyatsion ta’lim hamda OSCE texnologiyalari bilan integratsiyalash metodikasi — samaradorligini tekshirish uchun tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va dasturi asoslab berilgan. Tajriba-sinovning bosh maqsadi, ilmiy farazi, vazifalari va ularni tasdiqlovchi empirik dalillar tizimi bayon etilgan. Ko‘p markazli kvazi-eksperimental dizayn, tadqiqot bazalari, 803 nafar talabadan iborat kontingentning oliy ta’lim tashkilotlari va ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti, dasturning besh bosqichi hamda har bir bosqichning natijaviy mahsulotlari ochib berilgan. Metodik ta’sirning o‘zgarmas yadrosi, nazorat sharti, o‘zgaruvchilar tizimi va tajribaning etik talablari ko‘rsatilgan. Taklif etilgan dastur tajribani boshqa tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida takrorlash va metodikani transfer qilish uchun tashkiliy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik-biologik bilimlar, simulyatsion ta’lim, OSCE, klinik kompetensiya, pedagogik tajriba-sinov, kvazi-eksperimental dizayn, integrativ o‘qitish, tibbiyot ta’limi.*

Аннотация. *В статье обоснованы цель и программа педагогической опытно-экспериментальной работы, организованной для проверки эффективности методики интеграции экологических и биологических знаний с симуляционным обучением и технологиями OSCE, направленной на развитие клинических компетенций будущих врачей. Изложены основная цель, научная гипотеза и задачи эксперимента, а также система эмпирических доказательств, подтверждающих их выполнение. Раскрыты многоцентровой квазиэкспериментальный дизайн, базы исследования, распределение контингента из 803*

студентов по вузам и направлениям подготовки, пять этапов программы и результативные продукты каждого этапа. Описаны инвариантное ядро методического воздействия, условие контроля, система переменных и этические требования эксперимента. Предложенная программа служит организационной основой для воспроизведения эксперимента и переноса методики в другие медицинские вузы.

Ключевые слова: *эколого-биологические знания, симуляционное обучение, OSCE, клиническая компетенция, педагогический эксперимент, квазиэкспериментальный дизайн, интегративное обучение, медицинское образование.*

Abstract. *The article substantiates the purpose and program of a pedagogical experiment designed to test a methodology integrating ecological and biological knowledge with simulation-based training and OSCE to develop future physicians' clinical competencies. It presents the main aim, scientific hypothesis and tasks, together with the empirical evidence planned for assessing their fulfilment. The multicentre quasi-experimental design, research sites, allocation of 803 students across universities and study programs, five program stages and their deliverables are described. The core intervention, control condition, variables and ethical requirements are outlined. The program provides an organizational basis for replicating the experiment and transferring the methodology to other medical universities.*

Keywords: *ecological and biological knowledge, simulation-based training, OSCE, clinical competence, pedagogical experiment, quasi-experimental design, integrative teaching, medical education.*

Kirish. O‘zbekistonda oliy tibbiyot ta’limini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ hujjatlar bitiruvchilarning fundamental bilimlarni klinik amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezoni sifatida belgilaydi [1; 2; 3]. Hujayraviy va molekulyar mexanizmlar, irsiyat qonuniyatlari, atrof-muhitning xavf omillari va biologik xavfsizlik to‘g‘risidagi bilimlar klinik fikrlashning poydevori hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining baholariga ko‘ra, global kasalliklar yukining salmoqli qismi atrof-muhit omillari bilan bog‘liq [4]; shu bois shifokor ekspozitsiya, biologik mexanizm va klinik belgi o‘rtasidagi aloqani ko‘ra olishi lozim. Biroq amaliyotda ekologik va biologik mazmun ko‘pincha klinik vazifadan ajralgan nazariy mavzular yig‘indisi sifatida o‘qitiladi, natijada talaba egallagan bilimini real yoki modellashtirilgan klinik vaziyatga ko‘chira olmaydi.

Simulyatsion ta’lim va obyektiv tuzilmalashtirilgan klinik imtihon (OSCE) bilimni kuzatiladigan harakatga aylantiradigan, ya’ni Miller piramidasining “biladi” pog‘onasidan “ko‘rsatadi” pog‘onasiga o‘tishni ta’minlaydigan texnologiyalar sifatida e’tirof etilgan [5]. Ekologik-biologik mazmunni ana shu texnologiyalar bilan integratsiyalash pedagogik innovatsiya bo‘lib, uning samaradorligi faqat nazariy asoslash bilan emas, empirik tekshiruv bilan tasdiqlanishi kerak. Pedagogik tajriba-sinovning ishonchliligi esa ko‘p jihatdan uning maqsadi, farazi, vazifalari, dizayni, bazalari, kontingenti, bosqichlari va etik talablari sinovdan oldin qanchalik aniq belgilanganiga bog‘liq. Mazkur maqolaning maqsadi — ekologik va biologik bilimlarni simulyatsion ta’lim hamda OSCE texnologiyalari bilan integratsiyalash metodikasining samaradorligini tekshirish uchun tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va dasturini asoslab berishdan iborat. Diagnostik vositalar hamda statistik ishlov berish metodikasi alohida nashr predmeti bo‘lgani uchun ushbu maqolada yoritilmaydi.

Adabiyotlar tahlili. OSCE texnologiyasi R. Harden va hammualliflari tomonidan klinik kompetensiyani standartlashtirilgan stansiyalarda baholash vositasi sifatida taklif etilgan [6; 7] va keyinchalik tibbiyot ta’limida eng ko‘p qo‘llaniladigan amaliy imtihon shakliga aylangan. AMEE yo‘riqnomasida OSCE’ning nazariy asoslari va blueprint tuzish tamoyillari batafsil tahlil qilingan [8]. Simulyatsion ta’lim bo‘yicha tizimli tahlil yuqori aniqlikdagi simulyatsiyaning samarali o‘rganishga olib keluvchi xususiyatlarini — qayta aloqa, takroriy mashq, murakkablikning bosqichma-bosqich oshishi va o‘quv dasturiga integratsiyani — ajratib ko‘rsatgan [9]; keng ko‘lamli meta-tahlil texnologiya asosidagi simulyatsiya bilim, ko‘nikma va xulq-atvor natijalariga sezilarli ijobiy ta’sir

ko‘rsatishini tasdiqlagan [10]. Debrifingning “asosli mulohaza” modeli xatoni jazo emas, tahlil obyekti sifatida qarashni asoslab bergan [11].

Ekologik mazmunning tibbiyot ta’limidagi o‘rni so‘nggi yillarda planetar salomatlik konsepsiyasi doirasida faol muhokama qilinmoqda: AMEE konsensus bayonoti atrof-muhit omillarini klinik tayyorgarlikning uzviy qismi sifatida o‘qitishni tavsiya etadi [12]. Tibbiyot ta’limini transformatsiya qilish bo‘yicha xalqaro komissiya hisobotida fundamental va klinik fanlar o‘rtasidagi uzilish kadrlar tayyorlash tizimining asosiy muammolaridan biri deb baholangan [13]. Pedagogik tajribani tashkil etish metodologiyasi, kvazi-eksperimental dizaynlar va ularning ichki validligiga tahdidlar U. Shadish, T. Kuk va D. Kempbellning fundamental asarida [14], tasodifiylashtirilmagan intervensiyalar hisobotini rasmiylashtirish talablari esa TREND bayonotida [15] tizimlashtirilgan. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, farazni shakllantirish va tajribani rejalashtirish masalalari V.I. Zagvyazinskiy, A.M. Novikov va boshqa olimlarning ishlarida yoritilgan [16; 17].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar asosan klinik fanlarda simulyatsiya va OSCE’ni qo‘llashga bag‘ishlangan. Fundamental bosqichda o‘qitiladigan ekologik-biologik mazmunni ushbu texnologiyalar bilan integratsiyalash va buni bir nechta oliy ta’lim tashkilotini qamrab olgan tajriba-sinov orqali tekshirish esa yetarli o‘rganilmagan. Aynan shu bo‘shliq tajriba-sinov dasturini maxsus asoslashni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dasturni asoslashda normativ hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik modellashtirish va loyihalash, o‘quv reja hamda fan dasturlarini qiyosiy tahlil qilish, pedagogik tajribani umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinovning o‘zi “boshlang‘ich o‘lchov — shakllantiruvchi pedagogik ta’sir — yakuniy o‘lchov” sxemasi bo‘yicha tashkil etilgan ko‘p markazli kvazi-eksperimental dizaynga tayanadi; unda tajriba va nazorat guruhlari ishtirok etadi, natijalar esa oliy ta’lim tashkilotlari va ta’lim yo‘nalishlari kesimida qatlamlangan holda qiyoslanadi [14; 15].

Tahlil va natijalar.

Tajriba-sinovning maqsadi va ilmiy farazi. Pedagogik tajriba-sinovning bosh maqsadi ekologik va biologik bilimlarni simulyatsion ta’lim hamda OSCE texnologiyalari bilan integratsiyalash metodikasining bo‘lajak shifokorlar klinik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sirini aniqlashdan iborat. Metodikaning mohiyati ekologik-biologik mazmunni klinik kontekstga ko‘chirishda, unga simulyatsion faoliyat, OSCE mezonlariga asoslangan baholash, debrifing va individual korreksiyani uzviy bog‘lashda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun sinov obyekti sifatida alohida olingan metod yoki didaktik vosita emas, balki maqsad, mazmun, faoliyat, baholash va qayta aloqa bo‘g‘inlarini birlashtirgan yaxlit pedagogik tizim qabul qilindi.

1-jadval

Pedagogik tajriba-sinovning vazifalari va ularni tasdiqlovchi dalillar

Tajriba-sinov vazifasi	Tasdiqlovchi empirik dalil
Tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich holatini aniqlash	Kasbiy qiziqish, ekologik-biologik bilim, klinik vaziyatni tahlil qilish va xavfsizlik bo‘yicha kirish diagnostikasi natijalari
Metodikani tajriba guruhlarida izchil joriy etish	Integrativ modullar, simulyatsion ssenariylar, OSCE elementlari, debrifing va korreksion topshiriqlarning bajarilganligi
Metodik ta’sirning amalga oshirilish izchilligini nazorat qilish	Mashg‘ulot protokollari, qatnashuv, bosqichlar ketma-ketligi, baholash mezonlaridan foydalanish va qayta aloqa qaydlari
Boshlang‘ich va yakuniy natijalarni qiyoslash	Guruhlardagi mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar, o‘sish sur’ati va guruhlararo farq
Natijalarning ishonchliligini baholash	Guruhlararo farqning tasodifiy emasligini va effekt kattaligini tasdiqlovchi statistik dalillar
Metodikaning transferi va barqarorligini aniqlash	Turli OTM va ta’lim yo‘nalishlarida effekt yo‘nalishining saqlanishi; resurs, kadr va monitoring talablari

Tajriba-sinovning ilmiy farazi to‘rt shartning birgalikda bajarilishiga asoslanadi: 1) ekologik-biologik mazmun klinik muammolar mantiqi asosida qayta tuziladi; 2) o‘quv jarayoniga biologik mexanizmni klinik belgi va diagnostik dalil bilan bog‘lashni talab qiluvchi integrativ topshiriqlar tizimi kiritiladi; 3) talabaning bilimi simulyatsion ssenariylar va OSCE stansiyalarida tashqi

kuzatuvga ochiq faoliyatga aylantiriladi; 4) baholash natijalari debrifing va refleksiya orqali individual korreksiyaga yo‘naltiriladi. Ushbu shartlar bajarilganda tajriba guruhida kasbiy motivatsiya, bilimni klinik vaziyatga ko‘chirish, xavfni baholash, dalilni talqin qilish va asoslangan qaror qabul qilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ijobiy dinamika kutiladi. Farazni tekshirish uchun belgilangan vazifalar va har bir vazifaga mos dalil manbalari 1-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajriba-sinov kontingentining OTM va ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti

OTM	Davolash ishi	Pediatriya ishi	Stomatologiya	Jami	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
CAMU	92	90	92	274	136	138
SamDTU	97	90	60	247	123	124
TDTU	95	92	95	282	140	142
Jami	284	272	247	803	399	404

Dizayn, tadqiqot bazalari va kontingent. Talabalarni individual tasodifiy taqsimlash real o‘quv jarayonida cheklangani uchun ko‘p markazli kvazi-eksperimental dizayn tanlandi. Tajriba-sinov ishlari 2024–2026-yillarda olib borildi; shakllantiruvchi bosqich har bir oqim uchun 14 haftalik taqvimiy-texnologik xarita asosida amalga oshirildi. O‘lchov nuqtalari sifatida kirish diagnostikasi, oraliq formativ monitoring, formativ OSCE, yakuniy diagnostika va yakuniy OSCE belgilandi. Tadqiqot bazalari sifatida Markaziy Osiyo tibbiyot universiteti (CAMU), Samarqand davlat tibbiyot universiteti (SamDTU) va Toshkent davlat tibbiyot universiteti (TDTU) tanlandi. Ishtirokchilar ushbu oliy ta’lim tashkilotlarining birinchi bosqichida “Davolash ishi”, “Pediatriya ishi” va “Stomatologiya” yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalardan shakllantirildi. Uchta universitet va uchta yo‘nalishni qamrab olish, bir tomondan, ekologik-biologik bilimlarning turli klinik profil sharoitidagi ahamiyatini qiyoslash, ikkinchi tomondan, metodikaning bitta OTM yoki yo‘nalish doirasidan tashqariga chiqa olish salohiyatini tekshirish imkonini beradi. Tajriba guruhlarida taklif etilgan metodika joriy etildi, nazorat guruhlari esa amaldagi fan dasturi asosida an’anaviy tartibda o‘qishni davom ettirdi. Kontingentning taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan.

Tajriba-sinovga jami 803 nafar talaba jalb etildi: 399 nafari tajriba, 404 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Barcha diagnostik vositalar, simulyatsion ssenariylar, OSCE stansiya pasportlari, baholash rubrikalari va ma’lumotlarni kodlash qoidalari yagona tajriba-sinov materiallari majmuasida rasmiylashtirildi; bu uchala bazada metodikaning bir xil ko‘rinishda qo‘llanishini ta’minladi.

Dasturning bosqichlari. Tajriba-sinov dasturi mantiqan bir-biriga bog‘langan besh bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich uchun asosiy vazifa va natijaviy mahsulot belgilandi (3-jadval).

3-jadval

Tajriba-sinov dasturining bosqichlari va natijaviy mahsulotlari

Bosqich	Asosiy vazifa	Natijaviy mahsulot
Tayyorgarlik-loyihalash	Tadqiqot bazalari, guruhlar, integrativ modullar va ssenariylarni muvofiqlashtirish	Tajriba-sinov dasturi, ishchi reja, diagnostik paket, o‘qituvchilar uchun yo‘riqnoma
Aniqlovchi	Boshlang‘ich motivatsiya, bilim darajasi va mazmunni kliniklashtirish ehtiyojini aniqlash	So‘rovnoma, test, klinik-biologik keys, kuzatuv va boshlang‘ich OSCE elementlari natijalari
Shakllantiruvchi	Metodikani tajriba guruhlarida 14 haftalik xarita asosida amalga oshirish	Integrativ modullar, simulyatsion ssenariylar, OSCE, debrifing, talaba portfoliosi
Nazorat-yakuniy	Boshlang‘ich mezonlar bo‘yicha qayta o‘lchov o‘tkazish	Yakuniy so‘rov, nazorat testi, yakuniy OSCE va refleksiv materiallar
Tahliliy-umumlashtiruvchi	Miqdoriy va sifat dalillarini tizimlashtirish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish	Statistik jadvallar, diagrammalar, ekspert talqini, xulosa va tavsiyalar

Tayyorgarlik-loyihalash bosqichida uchala OTM uchun yagona ishchi reja tuzildi, o‘qituvchilar metodikaning o‘zgarmas yadrosi va baholash mezonlari bo‘yicha yo‘riqnoma oldi. Aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich holati bir xil vositalar bilan qayd etildi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida o‘quv jarayoni “ekologik-biologik tushuncha — biologik mexanizm — klinik belgi — diagnostik dalil — xavfni baholash — qaror — refleksiya” zanjiri bo‘ylab, takrorlanuvchi sikl tarzida qurildi. Nazorat-yakuniy bosqichda yakuniy diagnostika boshlang‘ich o‘lchov bilan bir xil mezonlar asosida o‘tkazildi, tahliliy-umumlashtiruvchi bosqichda esa dalillar OTM, ta’lim yo‘nalishi va guruh kesimida tizimlashtirilib, metodikani joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Metodik ta’sirning yadrosi va o‘zgaruvchilar tizimi. Tajriba natijasini faqat “tajriba guruhi — nazorat guruhi” qarama-qarshiligi orqali talqin qilish yetarli emas; qaysi metodik elementlar o‘zgarishga olib kelganini izohlash uchun intervensiya tarkibi sinovdan oldin operatsion birliklar tilida belgilanishi kerak. Shu maqsadda metodikaning o‘zgarmas yadrosi ajratildi: ekologik-biologik mazmunni klinik kontekstda faollashtirish, muammoli-klinik vaziyatni tahlil qilish, simulyatsion faoliyat, OSCE mezonlari asosida baholash, prebrifing va debrifing, refleksiya hamda individual korreksiya. Nazorat sharti amaldagi fan dasturi va an’anaviy mashg‘ulotlar doirasida saqlandi. Bunday farqlash tajriba guruhidagi natijani alohida vositaga emas, maqsad–mazmun–faoliyat–baholash–qayta aloqa birligiga tayangan yaxlit metodik tizimga nisbat berish imkonini yaratadi.

Dasturda o‘zgaruvchilarning to‘rt guruhi belgilandi. Mustaqil o‘zgaruvchi — yuqorida bayon etilgan metodik yadro. Birlamchi bog‘liq natija sifatida shifokorlik kasbiga shaxsiy qiziqish va kasbiy yo‘nalganlik (motivatsion-aksiologik komponent), kengaytirilgan bog‘liq natijalar sifatida bilimni klinik vaziyatga ko‘chirish, xavfni baholash, dalilni talqin qilish, xavfsiz harakat, muloqot va refleksiya ko‘rsatkichlari olindi. Nazorat qilinadigan shartlar qatoriga ta’lim yo‘nalishi, o‘qish bosqichi, mavzu maqsadi, topshiriq formati va baholash mezonlari, kontekstual omillar qatoriga esa OTM resurslari, o‘qituvchi tajribasi, guruh hajmi, boshlang‘ich motivatsiya va mavjud simulyatsion jihozlar kiritildi. Dalil kuchi masalasi dasturda oldindan chegaralandi: motivatsion-aksiologik komponent bo‘yicha o‘zgarishlar to‘liq statistik tekshiruvga tortiladi, qolgan komponentlar uchun esa o‘lchov va baholash protokollari asoslanib, ularni keyingi tadqiqotlarda to‘liq sinash nazarda tutiladi.

Etik talablar va dastur ijrosining kafolatlari. Tajriba-sinov davomida talabaning sha’ni va psixologik xavfsizligi muhofaza qilindi; simulyatsiyada yo‘l qo‘yilgan xato jazo asosi emas, o‘rganish resursi deb qaraldi. Natijalar faqat umumlashtirilgan ko‘rinishda taqdim etildi, individual ma’lumotlar maxfiy saqlandi. Simulyatsion faoliyat haqiqiy bemorga zarar yetkazmaydigan o‘quv muhitida o‘tkazildi, biologik xavfsizlik qoidalari va standart ehtiyot choralari alohida nazoratga olindi. Dasturning sifatli bajarilishini ta’minlash uchun mashg‘ulot protokollari, qatnashuv va bosqichlar ketma-ketligi yuzasidan amalga oshirish izchilligini nazorat qilish varaqasi yuritildi, nazorat guruhlarining tajriba materiallaridan foydalanishi esa boshqariladigan kirish orqali cheklandi. Dastur TREND tavsiyalariga muvofiq rasmiylashtirildi [15]: nazariy asos, ishtirokchilarni tanlash tartibi, intervensiya va taqqoslash sharti, natija ko‘rsatkichlari hamda protokoldan og‘ishlar alohida bandlar sifatida qayd etildi. Bu tajribani boshqa tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida takrorlash va metodikani transfer qilish uchun zarur shartdir.

Xulosa. Ekologik va biologik bilimlarni simulyatsion ta’lim hamda OSCE texnologiyalari bilan integratsiyalash metodikasining samaradorligini tekshirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov dasturi maqsad, faraz, vazifalar, dizayn, bazalar, kontingent, bosqichlar, o‘zgaruvchilar va etik talablarni yagona mantiqiy tizimga birlashtiradi. Dasturning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat: 1) sinov obyekti sifatida alohida vosita emas, maqsad–mazmun–faoliyat–baholash–qayta aloqa birligiga tayangan yaxlit metodik tizim olingan; 2) uchta oliy ta’lim tashkiloti va uchta ta’lim yo‘nalishini qamrab olgan ko‘p markazli dizayn metodikaning transfer salohiyatini tekshirish imkonini beradi; 3) dastur besh bosqichga bo‘linib, har bir bosqich uchun aniq natijaviy mahsulot belgilangan; 4) intervensiyaning o‘zgarmas yadrosi va o‘zgaruvchilar tizimi sinovdan oldin operatsionlashtirilgan; 5) hisobot TREND talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan. Ana shu xususiyatlar tajriba natijalarining qayta tekshiriluvchanligini ta’minlaydi. Tajriba-sinovda

qo‘llanilgan diagnostik vositalar, statistik tahlil metodikasi va olingan natijalar keyingi nashrlarda yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son “Tibbiyot ta’limi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. Prüss-Ustün A., Wolf J., Corvalán C., Bos R., Neira M. Preventing disease through healthy environments: a global assessment of the burden of disease from environmental risks.–Geneva: World Health Organization, 2016.–147 p.

5. Miller G.E. The assessment of clinical skills/competence/performance // Academic Medicine. – 1990. – Vol. 65, No. 9 (Suppl.). – P. S63–S67.

6. Harden R.M., Stevenson M., Downie W.W., Wilson G.M. Assessment of clinical competence using objective structured examination // British Medical Journal. – 1975. – Vol. 1, No. 5955. – P. 447–451.

7. Harden R.M., Gleeson F.A. Assessment of clinical competence using an objective structured clinical examination (OSCE) // Medical Education. – 1979. – Vol. 13, No. 1. – P. 41–54.

8. Khan K.Z., Ramachandran S., Gaunt K., Pushkar P. The Objective Structured Clinical Examination (OSCE): AMEE Guide No. 81. Part I: An historical and theoretical perspective // Medical Teacher. – 2013. – Vol. 35, No. 9. – P. e1437–e1446.

9. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R., Gordon D.L., Scalese R.J. Features and uses of high-fidelity medical simulations that lead to effective learning: a BEME systematic review // Medical Teacher. – 2005. – Vol. 27, No. 1. – P. 10–28.

10. Cook D.A., Hatala R., Brydges R. et al. Technology-enhanced simulation for health professions education: a systematic review and meta-analysis // JAMA. – 2011. – Vol. 306, No. 9. – P. 978–988.

11. Rudolph J.W., Simon R., Rivard P., Dufresne R.L., Raemer D.B. Debriefing with good judgment: combining rigorous feedback with genuine inquiry // Anesthesiology Clinics. – 2007. – Vol. 25, No. 2. – P. 361–376.

12. Shaw E., Walpole S., McLean M. et al. AMEE Consensus Statement: Planetary health and education for sustainable healthcare // Medical Teacher. – 2021. – Vol. 43, No. 3. – P. 272–286.

13. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world // The Lancet. – 2010. – Vol. 376, No. 9756. – P. 1923–1958.

14. Shadish W.R., Cook T.D., Campbell D.T. Experimental and quasi-experimental designs for generalized causal inference. – Boston: Houghton Mifflin, 2002. – 623 p.

15. Des Jarlais D.C., Lyles C., Crepaz N.; TREND Group. Improving the reporting quality of nonrandomized evaluations of behavioral and public health interventions: the TREND statement // American Journal of Public Health. – 2004. – Vol. 94, No. 3. – P. 361–366.

16. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования: учеб. пособие. – М.: Академия, 2005. – 208 с.

17. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. – М.: Либроком, 2010. – 280 с.

UO’K 378.147:811.111

NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIDA MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

N.H.Jabborova, o‘qituvchi, Asman universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada nofilologik yo‘nalish talabalarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan. Ushbu kompetensiyaning mohiyati, tarkibiy qismlari (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, madaniy) va uni nofilologik yo‘nalishlarda shakllantirishdagi qiyinchiliklar yoritilgan. Tadqiqot maqsadi — kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tipologik va pedagogik kuzatish metodlari qo‘llanilgan. Natijalar oliy ta’limda chet tili o‘qitish metodikasi, o‘quv dasturlari va materiallarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, nofilologik yo‘nalish, pedagogik muammo, chet tili o‘qitish, madaniyatlararo muloqot, lingvomadaniyatshunoslik.*

Аннотация. *В статье анализируется формирование межкультурной коммуникативной компетенции у студентов нефилологических специальностей как актуальная педагогическая проблема. Раскрываются сущность данной компетенции, её*

компоненты (лингвистический, социолингвистический, прагматический, культурологический) и трудности её формирования в нефилологических программах. Цель исследования — выявить педагогические основы развития компетенции и разработать практические рекомендации. Применены методы анализа научной литературы, сравнительно-типологического анализа и педагогического наблюдения. Результаты имеют практическое значение для совершенствования методики преподавания иностранных языков, учебных программ и материалов в вузах.

Ключевые слова: *межкультурная коммуникативная компетенция, нефилологическое направление, педагогическая проблема, обучение иностранному языку, межкультурная коммуникация, лингвокультурология.*

Abstract. *The article analyses the development of intercultural communicative competence in students of non-philological specialities as a topical pedagogical problem. The essence of this competence, its components (linguistic, sociolinguistic, pragmatic, cultural) and the difficulties of forming it in non-philological programmes are examined. The study aims to identify the pedagogical foundations for developing the competence and to propose practical recommendations. Literature analysis, comparative-typological analysis and pedagogical observation were applied. The results are of practical value for improving foreign language teaching methodology, curricula and materials in higher education.*

Key words: *intercultural communicative competence, non-philological speciality, pedagogical problem, foreign language teaching, intercultural communication, linguoculturology.*

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va axborot texnologiyalarining barcha soha vakillari faoliyatiga chuqur kirib borishi zamonaviy mutaxassisdan nafaqat o‘z kasbiy sohasida chuqur bilimga ega bo‘lishni, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini ham talab etadi. Ayniqsa, texnika, tabiiy fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarning kelajakda xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xorijiy hamkorlar bilan muzokara olib borish, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilish kabi vazifalarni bajarish ehtimoli yuqori. Bunday sharoitda ularning chet tilini nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida chet tili o‘qitish jarayoni ko‘pincha faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yetarli e’tibor berilmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tushunchasi xorijiy va mahalliy tilshunoslik hamda pedagogika fanida keng o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilar orasida M. Byram, D. Hymes, G. Hofstede kabi olimlarning ishlari alohida o‘rin tutadi. M. Byram madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarning uzviy birligi sifatida talqin qilib, uning tarkibida savoirlar (bilim turlari) tizimini ishlab chiqqan [1]. D. Hymes esa kommunikativ kompetensiya nazariyasining asoschisi sifatida tilni nafaqat grammatik, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda qo‘llash qobiliyatini birinchi o‘ringa qo‘ygan [2]. G. Hofstede milliy madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni qadriyat o‘lchovlari asosida tavsiflab, madaniyatlararo muloqotdagi tafovutlarni tushuntirishga nazariy asos yaratgan [3].

O‘zbek tilshunosligi va pedagogikasida ushbu masala Sh. Safarov, N. Mahmudov, Q. Sariyev, G‘. Bakiyeva kabi olimlarning ishlarida turli jihatlardan tahlil qilingan [4; 5; 6]. Ular madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda milliy-madaniy o‘ziga xoslikni hisobga olish, talabalarning ona tili va o‘rganilayotgan til madaniyatini qiyosiy tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydilar. Chet tilini o‘zlashtirishda ona tili ta’siri natijasida yuzaga keladigan interferensiya hodisalari ham madaniyatlararo muloqotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [7]. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning aksariyati filologik yo‘nalish talabalariga qaratilgan bo‘lib, nofilologik yo‘nalish talabalarining o‘ziga xos ehtiyojlari va ularda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning maxsus metodikasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tipologik tahlil va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy-tipologik metod ona tili va o‘rganilayotgan til madaniyatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni belgilashda, pedagogik kuzatish esa nofilologik yo‘nalishlarda chet tili o‘qitishning amaldagi holatini o‘rganish va kompetensiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlashda qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning turli madaniy tizimlarga mansub kishilar bilan samarali, adekvat va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot olib borish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat deb hisoblanadi:

1) lingvistik komponent — o‘rganilayotgan tilning leksik, grammatik va fonetik qoidalarini bilish;

2) sotsiolingvistik komponent — nutqni muloqot sharoitiga, ijtimoiy mavqega va vaziyatga mos ravishda qo‘llash qobiliyati;

3) pragmatik komponent — muloqot maqsadidan kelib chiqib, matn va nutqni to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmasi;

4) madaniy komponent — muloqot yuritilayotgan xalqning qadriyatlari, an’analari, xulq-atvor normalarini bilish va ularga hurmat bilan qarash.

Bu to‘rt komponent bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri talabada alohida emas, balki kompleks tarzda rivojlantirilishi lozim. Nofilologik yo‘nalish talabalari uchun, ayniqsa, madaniy va pragmatik komponentlarni shakllantirish murakkabroq kechadi, chunki ularning o‘quv dasturida chet tiliga ajratilgan soatlar miqdori filologik yo‘nalishlarga nisbatan sezilarli darajada kam.

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatishlar va mavjud pedagogik amaliyotni tahlil qilish natijasida nofilologik yo‘nalish talabalarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha omillar aniqlandi:

— chet tiliga ajratilgan o‘quv soatlarining cheklanganligi va ularning asosan kasbiy yo‘naltirilgan leksikani o‘zlashtirishga sarflanishi;

— o‘quv dasturlari va darsliklarda madaniyatlararo muloqot elementlarining yetarli darajada aks etmaganligi;

— o‘qituvchilarning madaniyatlararo pedagogika metodikasi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega emasligi;

— talabalarda o‘z madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan qiyoslash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi;

— autentik materiallar (video, audio, matn)dan foydalanishning cheklanganligi.

Bu omillarning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun tizimli, kompleks yondashuv talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hisobga olib, nofilologik yo‘nalish talabalarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha quyidagi pedagogik yo‘llar taklif etiladi.

Birinchidan, chet tili darslarida kasbiy yo‘naltirilgan matnlar bilan bir qatorda madaniyatshunoslik elementlarini o‘z ichiga olgan autentik materiallardan (maqolalar, videolavhalar, intervyular) foydalanish zarur. Bu talabalarga tilni jonli kontekstda, real madaniy muhitda idrok etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, o‘quv jarayonida qiyosiy-madaniy tahlil metodlaridan foydalanish, ya’ni ona madaniyati va o‘rganilayotgan til madaniyati o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv talabalarda madaniy nisbiylikni anglash va boshqa madaniyatga nisbatan stereotiplardan xoli munosabatni shakllantiradi.

Uchinchidan, rolli o‘yinlar, keys mashg‘ulotlari va simulyatsiya usullarini qo‘llash orqali talabalarga xorijiy hamkorlar bilan muzokara olib borish, ish yuritish, taqdimot o‘tkazish kabi real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish tavsiya etiladi. Bu usullar nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimida madaniyatlararo pedagogika metodikasi bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish zarur, zero o‘qituvchining o‘zi ushbu kompetensiyaga ega bo‘lmasa, uni talabalarda samarali rivojlantira olmaydi.

Beshinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar (masalan, xorijiy talabalar bilan onlayn muloqot loyihalari, tandem-o‘qitish usullari) imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarga real madaniyatlararo muloqot tajribasini orttirish imkonini yaratish mumkin.

Xulosa. Yuqoridagilarni hisobga olib, nofilologik yo‘nalish talabalarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim va dolzarb pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning yechimi nafaqat lingvistik bilimlarni chuqurlashtirish, balki talabalarda madaniy ongni, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmatni va muloqot vaziyatiga moslashuvchanlikni shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim. Maqolada keltirilgan tavsiyalar — autentik materiallardan foydalanish, qiyosiy-madaniy tahlil, interaktiv metodlarni joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish — nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida chet tili o‘qitish sifatini yaxshilash va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatida xalqaro darajada muvaffaqiyatli muloqot olib borishga tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu masalani aniq mutaxassisliklar (texnika, tibbiyot, iqtisodiyot) kesimida chuqurroq o‘rganish va har bir yo‘nalish uchun maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.

2. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / Ed. by J.B. Pride, J. Holmes. — Harmondsworth: Penguin, 197— P. 269–293.

3. Hofstede G. Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. — 2nd ed. — Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. — 596 p.

4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. — 318 b.

5. Mahmudov N. Til va madaniyat // O‘zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 201— № 3. — B. 12–18.

6. Bakiyeva G‘. Chet tili o‘qitishda madaniyatlararo muloqot muammolari. — Toshkent: Fan, 2019. — 176 b.

UO’K 378:37.013:811.111

OLIY TA’LIMDA INGLIZ TILI FANI MAZMUNIGA ETNOPEDAGOGIK KOMPONENTLARNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI

N.H.Jabborova, o‘qituvchi, Asman universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqola oliy ta’limda ingliz tili fani mazmuniga etnopedagogik komponentlarni integratsiyalashning metodik imkoniyatlarini ochib beradi. Muallif 1999–2026-yillarga oid 28 ta manbani tahlil qildi va pedagogik loyihalash usulini qo‘lladi. Tadqiqot integratsiyaning to‘rt darajasi va uch modelini ajratdi. Muallif 60 soatlik kurs uchun namunaviy taqsimotni taklif qiladi: etnopedagogik komponent dars vaqtining 20,8 foizini egallaydi.*

Kalit so‘zlar: *etnopedagogik komponent, integratsiya, oliy ta’lim, ingliz tili fani mazmuni, mediatsiya, topshiriqlar tizimi, baholash mezonlari.*

Аннотация. *Статья раскрывает методические возможности интеграции этнопедагогических компонентов в содержание дисциплины «Английский язык» в высшем образовании. Автор проанализировала 28 источников 1999–2026 годов и применила метод педагогического проектирования. Исследование выделило четыре уровня и три модели интеграции. Автор предлагает примерное распределение для 60-часового курса: этнопедагогический компонент занимает 20,8 процента аудиторного времени.*

Ключевые слова: *этнопедагогический компонент, интеграция, высшее образование, содержание дисциплины «Английский язык», медиация, система заданий, критерии оценивания.*

Abstract. *The article describes methodological possibilities for integrating ethnopedagogical components into the content of an English language course in higher education. The author analysed 28 sources published between 1999 and 2026 and applied pedagogical design. The study identified*

four levels and three models of integration. An illustrative allocation for a 60-hour course is proposed: the ethnopedagogical component occupies 20.8% of classroom time.

Keywords: *ethnopedagogical component, integration, higher education, English course content, mediation, task system, assessment criteria.*

Kirish. O‘zbekiston oliy ta’limi tez kengaymoqda: 2025/2026 o‘quv yili boshida 1 535 ming talaba tahsil olgan [5]; PF-5847-son Farmon qamrovni 50 foizdan oshirishni maqsad qilib qo‘ydi [2]; PQ-5117-son va 312-son qarorlar chet tili ta’limiga talabni kuchaytirdi [3; 4]. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta’lim-tarbiyaga singdirishni asosiy tamoyillar qatoriga qo‘shadi [1]. Ingliz tili fani buning uchun qulay maydon, biroq fan mazmuni milliy madaniyatga kam o‘rin beradi: J. Shin va hamkasblari 7 seriyadagi 25 xalqaro darslikda «ichki doira» mamlakatlari madaniyati ustunligini aniqladi [6]; Z. Tajeddin va S. Teimournezhad tahlilida Erondagi mahalliy darsliklardagi madaniy unsurlarning ko‘p qismi ham betaraf bo‘lib chiqdi [7]. Demak, maxsus metodika kerak.

Tayanch tushunchalar: etnopedagogik komponent — fan mazmuniga kiruvchi xalq pedagogikasi unsuri (maqol, ertak, urf-odat, odob qoidasi, hunar an’anasi, qadriyat) va u bilan ishlash topshirig‘i [8; 9]; integratsiya — komponentni fan mazmuni, til materiali, topshiriq va baholashga singdirish; 4C modeli — CLIL yondashuvining to‘rt tayanchi: mazmun, muloqot, tafakkur va madaniyat [10]; mediatsiya — ikki til yoki madaniyat o‘rtasida vositachilik [12]; madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya — chet tilida boshqa madaniyat vakili bilan samarali muloqot qilish qobiliyati [13].

Materiallar va metodlar. Tadqiqot nazariy tahlil va pedagogik loyihalashni birlashtiradi; tajriba-sinov o‘tkazilmagani uchun model loyiha maqomiga ega. Metodologik asos — G.N. Volkovning etnopedagogika konsepsiyasi [8], 4C modeli [10], material yaratish tamoyillari [11] va M. Byram modeli [13]. 1999–2026-yillarga oid 28 ta manba tanlandi. Usullar: nazariy tahlil va umumlashtirish, kontent-tahlil, pedagogik loyihalash va hisob-kitob (60 akademik soatlik kurs = 30 mashg‘ulot × 80 daqiqa = 2 400 daqiqa).

Natijalar va tahlil

Integratsiya darajalari va modellari. Nazariy tahlil etnopedagogik komponentni fan mazmuniga to‘rt darajada kiritish mumkinligini ko‘rsatdi: mazmun-mavzu darajasida o‘qituvchi dastur mavzusiga milliy-madaniy kichik mavzu qo‘shadi («Family» mavzusida o‘zbek oilasidagi tarbiya an’analari); til materiali darajasida lug‘at va matnga realiya, maqol va iboralar kiradi (hashar, mahalla; «Yetti o‘lchab, bir kes»); faoliyat darajasida topshiriq turi o‘zgaradi (mediatsiya, qiyosiy tahlil, loyiha, rolli o‘yin); baholash darajasida mezonlarga madaniy mazmun qo‘shiladi («madaniy tushunchani izohlash» mezoni). Darajalar bir-birini to‘ldiradi va 4C modeliga mos keladi [10].

Integratsiyani uch model amalga oshiradi. Fragmentar model: darsga 10–15 daqiqalik etnopedagogik topshiriq qo‘shiladi — dasturni o‘zgartirmaydi, har qanday mavzuga mos keladi, lekin tizimlilikni ta’minlamaydi. Modulli model: semestrda bir necha to‘liq mashg‘ulot madaniyatlar qiyosiga bag‘ishlanadi — mavzuni chuqur ochadi, lekin dastur soatini talab qiladi. Loyihaviy model: talabalar semestr davomida bitta madaniy loyihani bajaradi — mustaqillik va ijodni rivojlantiradi, lekin baholashni murakkablashtiradi. Shu sababli uchalasini birlashtiruvchi aralash model taklif qilinadi. 60 soatlik kurs uchun namunaviy taqsimot 1-jadvalda berilgan.

1-jadval.

Etnopedagogik komponentning 60 soatlik kursdagi namunaviy ulushi

Shakl	**Hajm**	**Vaqt, daqiqa**	**Ulush, %**
Fragmentar topshiriqlar	12 mashg‘ulot × 15 daqiqa	180	7,5
To‘liq mashg‘ulotlar	4 mashg‘ulot × 80 daqiqa	320	13,3
Jami etnopedagogik komponent	16 mashg‘ulot	500	20,8
Dasturning qolgan mazmuni		1 900	79,2
Jami	30 mashg‘ulot	2 400	100

Komponent auditoriya vaqtining 20,8 foizini egallaydi va 30 mashg‘ulotdan 16 tasida (53,3 foiz) ishtirok etadi; vaqtning 79,2 foizi asosiy mazmunga qoladi, demak, model ingliz tilli mamlakatlar madaniyatini va kasbiy mazmunni siqib chiqarmaydi.

Mavzular xaritasi. Model dastur mavzularini o‘zgartirmaydi, balki har bir mavzuga mos etnopedagogik komponentni biriktiradi (2-jadval).

2-jadval.

Dastur mavzulari va etnopedagogik komponentlar xaritasi

Dastur mavzusi	Etnopedagogik komponent	Topshiriq	Nutq faoliyati
Family	Kattaga hurmat odobi; «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» maqoli	O‘zbek va ingliz oilasidagi tarbiya odatlarini qiyoslash	Gapirish
Food	Palov madaniyati, dasturxon odobi	Xorijlik mehmon uchun dasturxon odobining 5 qoidasini yozish	Yozish
Holidays	Navro‘z, sumalak	Navro‘zni boshqa xalqning bahor bayrami bilan qiyoslash	O‘qish, gapirish
Community	Mahalla, hashar	Hasharni «volunteering» tushunchasi bilan qiyoslab tushuntirish	Mediatsiya
Jobs and crafts	Usta–shogird an’anasi, Marg‘ilon atlas va adrasi	Usta bilan intervyu rejasini tuzish va natijani inglizcha taqdim etish	Gapirish, yozish
Humour	Askiya, Nasriddin Afandi latifalari	Latifani inglizcha aytib berish va hazil ma’nosini izohlash	Mediatsiya
Arts	Shashmaqom, lazgi, baxshichilik	San’at turi haqida 2 daqiqalik audiogid matnini tayyorlash	Yozish, gapirish
Travel	Mehmondo‘stlik odobi	Sayyoh uchun «Dos and don’ts» yo‘riqnomasini tuzish	Yozish

Xarita UNESCO ro‘yxatidagi O‘zbekistonning 18 ta nomoddiy madaniy meros unsuridan 8 tasini (44,4 foiz) qamraydi [25].

Topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari. Topshiriqlar uch bosqichga ajratildi. Tanishtiruvchi bosqich: talaba matn, audio yoki rasm orqali madaniy unsur bilan tanishadi va lug‘atni o‘zlashtiradi; rasm va audio ham hisobga olinadi, chunki ular matn bilan birga ma’no yaratadi [18] va ko‘pincha xorijiy madaniyat tomon og‘adi [19]. Qiyosiy-tahliliy bosqich: talaba o‘z madaniyatidagi unsurni boshqa madaniyatdagi o‘xshash hodisa bilan solishtiradi [16]; pragmatik farqlar sababini muhokama qilish metapragmatik xabardorlikni oshiradi [17]. Ijodiy-mahsuldor bosqich: talaba xat, yo‘riqnoma, audiogid yoki taqdimot yaratadi, mediatsiya yetakchi faoliyatga aylanadi [12]; imkon bo‘lsa, xorijiy universitet talabalari bilan virtual almashinuv tashkil etiladi [26].

Og‘zaki va yozma mahsulot uchun 20 ballik baholash mezonlari taklif qilinadi — har biri 5 balldan: madaniy mazmunning to‘g‘riligi (talaba odat yoki qadriyatni aniq va xatosiz tushuntiradi); qiyosiy tahlil (ikki madaniyatdagi o‘xshashlik va farqni ko‘rsatadi, qolipga tushmaydi); til vositalari (izohlash va ta’riflash strategiyasini hamda mos lug‘atni qo‘llaydi); mediatsiya samarasi (xorijlik tinglovchi yoki o‘quvchi ma’noni to‘liq tushunadi). Mezonlar CEFR mediatsiya shkalalariga tayanadi [12]; A. Fantini bitta vosita kompetensiyani to‘liq o‘lchay olmasligini ta’kidlagani uchun [28] ularni portfolio va o‘zini o‘zi baholash varag‘i bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Modelni qo‘llab-quvvatlovchi dalillar. Model tajribada sinalmagan bo‘lsa-da, oldingi tadqiqotlar uning g‘oyalarini qo‘llaydi: L. Septiyana va hamkasblari tadqiqotida 70 talaba mahalliy mazmunli materialni 4 balldan 3,48 ball bilan baholadi [20]; S. Sharipova (390 talaba) tadqiqotida yuqori daraja 44,8 foiz va 28,1 foiz [22], I. Ilxamova (479 talaba) tadqiqotida maqsadli daraja 89 foiz va 50 foiz [23], A. Amanov (389 talaba) tadqiqotida past daraja 8,6 foiz va 44 foiz bo‘ldi [24]. To‘rt tadqiqot jami 1 328 talabani qamradi; uchala o‘zbek tadqiqotida tajriba guruhi nazorat guruhidan 16,7–39 foiz punktga turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlangan.

Xulosa

1. Etnopedagogik komponentni ingliz tili fani mazmuniga to‘rt darajada (mazmun-mavzu, til materiali, faoliyat, baholash) kiritish mumkin; fragmentar, modulli va loyihaviy modellarni birlashtiruvchi aralash model ushbu imkoniyatlarni bir tizimda jamlaydi.

2. 60 soatlik kursda komponent 500 daqiqani (auditoriya vaqtining 20,8 foizi) egallaydi va 30 mashg‘ulotdan 16 tasida ishtirok etadi; sakkiz mavzuli xarita, uch bosqichli topshiriqlar tizimi va 20 ballik baholash mezonlari modelni amaliyotga tayyor holga keltiradi.

3. Jami 1 328 talabani qamragan to‘rt tadqiqotning natijalari madaniy mazmunni maqsadli kiritish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Ular turli natija ko‘rsatkichlaridan foydalanganligi sababli taklif etilgan model samaradorligining bevosita isboti hisoblanmaydi; modelni tajriba va nazorat guruhlarida tekshirish keyingi vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). Oliy ta’lim muassasalari talabalari soni to‘g‘risida ma’lumot (2025/2026 o‘quv yili). 17.06.2026. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/68784-talabalar-soni-1-5-mln-nafarga-etdi-ajollar-ulushi-yu-ori-2

2. Shin, J., Eslami, Z. R., & Chen, W.-C. (2011). Presentation of local and international culture in current international English-language teaching textbooks. Language, Culture and Curriculum, 24(3), 253–268. https://doi.org/10.1080/07908318.2011.614694

3. Tajeddin, Z., & Teimournezhad, S. (2015). Exploring the hidden agenda in the representation of culture in international and localised ELT textbooks. The Language Learning Journal, 43(2), 180–193. https://doi.org/10.1080/09571736.2013.869942

4. Волков, Г. Н. (1999). Этнопедагогика. Москва: Академия. 168 с.

5. Mutalipova, M. J. (2015). Xalq pedagogikasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya. 160 b.

UO‘K 796.012.1-053.5

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA MAKTAB TA’LIMIGA MOSLASHISH DAVRIDA 7-8 YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA MORFOFUNKSIONAL HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH

P.J. Mamutov, dots., Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus

Annotatsiya. *Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi 7-8 yoshli bolalarning maktab ta’limiga moslashish davrida jismoniy rivojlanishi va morfofunksional holatini har tomonlama baholash natijalari keltirilgan. Antropometrik, fiziometrik va somatoskopik ko‘rsatkichlar o‘rganildi, salomatlik holatini baholash va jismoniy tarbiyani tashkil etishda ahamiyatga ega bo‘lgan yosh va hududiy xususiyatlar aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *7-8 yoshli bolalar, jismoniy rivojlanish, morfofunksional holat, antropometriya, fiziometriya, somatoskopiya, maktab ta’limiga moslashish, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, yurak-qon tomir tizimi, qomat.*

Аннотация. *В статье представлены результаты комплексной оценки физического развития и морфофункционального состояния детей 7–8 лет Республики Каракалпакстан в период адаптации к школьному обучению. Изучены антропометрические, физиометрические и соматоскопические показатели, выявлены возрастные и региональные особенности, имеющие значение для оценки состояния здоровья и организации физического воспитания.*

Ключевые слова: *дети 7–8 лет, физическое развитие, морфофункциональное состояние, антропометрия, физиометрия, соматоскопия, адаптация к школьному обучению, жизненная емкость легких, сердечно-сосудистая система, осанка.*

Abstract. *The article presents the results of a comprehensive assessment of the physical development and morphofunctional state of 7-8 year-old children in the Republic of Karakalpakstan during the adaptation period to school education. Anthropometric, physiometric, and somatoscopic indicators were studied, and age-related and regional characteristics were identified that are significant for assessing health status and organizing physical education.*

Key words: *children aged 7–8 years, physical development, morphofunctional state, anthropometry, physiometry, somatoscopy, adaptation to schooling, vital capacity of the lungs, cardiovascular system, posture.*

Kirish. Bolalarning jismoniy rivojlanishi salomatlik holatining eng informativ integral ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, organizmning o‘sishi va yetilishi qonuniyatlarini, irsiy omillar, atrof-muhit sharoitlari, ovqatlanish xarakteri, harakat faolligi darajasi va hayotning ijtimoiy-iqtisodiy

sharoitlari ta’sirini aks ettiradi. Morfologik va funksional ko‘rsatkichlarni kompleks baholash bolaning biologik rivojlanish sur’atlari haqida xolisona fikr yuritish, funksional og‘ishlarning erta belgilarini aniqlash va o‘sib kelayotgan avlod salomatligini saqlash hamda mustahkamlashga qaratilgan profilaktika tadbirlarini o‘z vaqtida ishlab chiqish imkonini beradi [1, 2].

7-8 yosh davri bolaning ontogenetik rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, u tizimli maktab ta’limi boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Ushbu yosh davrida intellektual yuklama hajmi sezilarli darajada oshadi, kun tartibi o‘zgaradi, spontan harakat faolligi ulushi kamayadi, bu esa asab, yurak-qon tomir, nafas olish va tayanch-harakat tizimlari mexanizmlarining qayta qurilishi bilan birga kechadi. Ta’limning yangi sharoitlariga fiziologik moslashish samaradorligi ko‘p jihatdan kichik maktab yoshidagi bolalarning keyingi jismoniy rivojlanishi, organizmning funksional zaxiralari va salomatlik darajasini belgilaydi [3-5].

Zamonaviy tadqiqotlar bolalarning o‘sish va morfofunksional yetilish jarayonlari yaqqol individual hamda hududiy o‘zgaruvchanlikka ega ekanligidan dalolat bermoqda. Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga iqlim-geografik xususiyatlar, ekologik vaziyat, ovqatlanish tarzi, urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy-maishiy sharoitlar, shuningdek, o‘quv jarayoni va jismoniy faollikning tashkil etilishi ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, hududiy xususiyatlarni inobatga olmasdan yagona me’yoriy ko‘rsatkichlardan foydalanish bolalar salomatligi holatini obyektiv baholashga va profilaktik ishlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olishga har doim ham imkon beravermaydi [6, 7].

So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda antropometrik, fiziometrik va somatoskopik tadqiqot usullaridan foydalangan holda bolalarning morfofunksional holatini kompleks baholashga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv nafaqat jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashga, balki yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga, tayanch-harakat apparati holatini, qomatni, oyoq gumbazlarini, mushak kuchini va o‘sayotgan organizmning moslashuv imkoniyatlarini tavsiflovchi boshqa ko‘rsatkichlarni baholashga imkon beradi. Ko‘rsatilgan parametrlarning kompleks tahlili zamonaviy yosh fiziologiyasi va maktab tibbiyotining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi [4, 8-10].

Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ancha ko‘p bo‘lishiga qaramay, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bolalarining morfofunksional holati haqidagi ma’lumotlar cheklanganligicha qolmoqda. Tabiiy-iqlim va ekologik sharoitlari turlicha bo‘lgan hududlarda, jumladan, Orolbo‘yi hududida yashovchi bolalarni o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. 7–8 yoshli bolalar organizmining jismoniy rivojlanishi va funksional holatining yoshga oid xususiyatlari mintaqaviy darajada yetarlicha o‘rganilmaganligi umumta’lim maktabi sharoitida tibbiy kuzatuvni takomillashtirish, jismoniy tarbiyani tashkil etish hamda funksional buzilishlarning oldini olish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni qiyinlashtirmoqda.

Shu munosabat bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va morfofunksional holatini kompleks baholashni amalga oshirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo‘lib, uning natijalari bolalar salomatligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish, profilaktika chora-tadbirlari samaradorligini oshirish va hududdagi umumta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etishni optimallashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Muammoning dolzarbligi va hozirgi holati. Bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash zamonaviy tibbiyot, fiziologiya va ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bolaning jismoniy rivojlanishi organizmning morfologik yetilish xususiyatlarini, asosiy fiziologik tizimlarning funksional holatini va turli yosh davrlarida moslashish imkoniyatlari darajasini aks ettiruvchi integral ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Bolalik davridagi jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi irsiy, ekologik, ijtimoiy va xulq-atvor omillari majmuasi ta’sirining sezgir ko‘rsatkichi bo‘lib, ularni tizimli ravishda o‘rganish zarurligini taqozo etadi [1, 4].

7-8 yosh ontogenezning kritik bosqichlariga kiradi, chunki u tizimli maktab ta’limining boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bolaning hayot faoliyati sharoitlari sezilarli darajada o‘zgaradi: intellektual yuklama hajmi ortadi, harakat faolligi rejimi o‘zgaradi, ruhiy-hissiy zo‘riqish ortadi va asab, yurak-qon tomir, nafas olish hamda tayanch-harakat tizimlarining keyingi funksional yetilishi sodir bo‘ladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab ta’limiga muvaffaqiyatli

moslashish nafaqat bolaning psixologik tayyorgarligi, balki yangi ta'lim sharoitlariga adekvat moslashishni ta'minlaydigan organizmning morfofunksional rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Moslashuvning fiziologik mexanizmlarini, jumladan, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish va organizmning biologik ritmlari funksional ko'rsatkichlarining o'zgarishini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

To‘rtinchi yo‘nalish san’at va raqamli texnologiyalar integratsiyasining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. V.Pavlou san’at va texnologiya integratsiyasi, xususan, raqamli hikoyalash vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning vizual ifodalash, ijodiy fikrlash va hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi [9]. H.Gış va A.Deveci Topal vizual san’at ta’limida texnologiya integratsiyasining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib, raqamli texnologiyalarning san’at ta’limi mazmuni va metodlariga ta’sirini ko‘rsatadi [4]. B.Liu, S.Julsuwan va P.Chansirisira esa san’at va texnologiya integratsiyasini san’at fakultetlari kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog‘lab, zamonaviy texnologik vositalarni badiiy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi [6].

Umumiy kuzatuvlar va ilmiy manbalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, san’at ta’limida an’anaviy badiiy tajriba, amaliy ijodiy faoliyat, kreativ kompetensiya va raqamli texnologik kompetensiyaning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda an’anaviy naqqoshlik elementlarini raqamli grafik vositalar orqali qayta ishlash va ularni bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga tizimli integratsiya qilish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur holat an’anaviy naqqoshlik va raqamli grafikani integratsiyalash asosida kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishning ilmiy-pedagogik dolzarbligini belgilaydi.

Metodlar. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan, amaliy-faoliyatli va madaniy yondashuvlar tashkil etdi.

Kompetensiyaviy yondashuv talabaning nazariy bilimlarini real badiiy va pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Integrativ yondashuv esa an’anaviy naqqoshlik va raqamli grafikani yagona ta’lim jarayonida birlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, modellashtirish va amaliy topshiriqlarni loyihalash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot doirasida kreativ kompetensiyani baholashning quyidagi mezonlari taklif etildi:

1. Badiiy-kompozitsion mezon - naqsh elementlarini tanlash, kompozitsiya tuzish, ritm va simmetriyadan foydalanish;

2. Raqamli-texnologik mezon - naqshni raqamlashtirish, grafik vositalardan foydalanish va tasvirni qayta ishlash;

3. Kreativ mezon - an’anaviy naqsh asosida yangi va original kompozitsion yechim yaratish;

4. Metodik mezon - yaratilgan raqamli materialni o‘quv jarayonida qo‘llash;

5. Refleksiv mezon - o‘z ijodiy faoliyatini tahlil qilish va natijani takomillashtirish.

Natijalar va muhokama.

1. Kreativ kompetensiyaning mazmuni. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kreativ kompetensiyasi mustaqil, original va estetik jihatdan asoslangan badiiy yechimlar yaratish qobiliyatini anglatadi. Mazkur kompetensiya badiiy bilim, tasavvur, ijodiy fikrlash, kompozitsion tafakkur va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi.

An’anaviy naqqoshlik kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun qulay material hisoblanadi. Chunki naqsh elementlari takroriy tuzilishga ega bo‘lsa-da, ularni turli kompozitsion va rangli

variantlarda qo‘llash mumkin. Talaba tayyor naqshni ko‘chirish bilan cheklanmay, uning tuzilishini tahlil qiladi va yangi badiiy yechimlar yaratadi.


Raqamli grafika esa mazkur ijodiy jarayonni yangi imkoniyatlar bilan boyitadi. Raqamli muhitda grafik dasturlar yordamida naqsh elementlarini masshtablash, fazoviy aylantirish, simmetrik aks proeksiyalash, va koloristik yechimlarini modellashtirish va turli kompozitsion variantlarni tezkor sinab ko‘rish mumkin.

2. An’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasining pedagogik imkoniyatlari. An’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasi talabaning badiiy va texnologik faoliyatini o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Bunda raqamli texnologiya an’anaviy san’atni almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki uni saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash va yangi pedagogik muhitga olib kirish vositasi sifatida qo‘llanadi.

An’anaviy usulda talaba naqsh tarixini loyihalaydi. Keyingi bosqichda mazkur ish raqamli muhitga o‘tkaziladi. Grafik dastur yordamida tasvirning chiziqlari aniqlashtiriladi, ranglar o‘zgartiriladi, elementlar ko‘paytiriladi va yangi kompozitsiyalar yaratiladi. (1-rasmga qarang)


Mazkur jarayon quyidagi pedagogik imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- Badiiy tafakkurni rivojlantirish.
- Kreativ fikrlashni faollashtirish.
- Raqamli savodxonlikni shakllantirish.
- Kompozitsion variantlarni tezkor sinab ko‘rish.
- Milliy naqshlarni elektron shaklda saqlash.
- Pedagogik maqsadlarda raqamli ko‘rgazmali materiallar yaratish.



1-rasm. An’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasining pedagogik imkoniyatlari.

3. “An’ana - amaliyot - raqamlashtirish - ijodiy transformatsiya - pedagogik qo‘llash” modeli. Tadqiqot doirasida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun besh bosqichli integratsion model taklif etildi. (Mazkur model 2-rasmda o‘z ifodasini topgan)



2-rasm. Ijodiy pedagogik model.

Modelning asosiy afzalligi shundaki, unda talaba badiiy ijodkor sifatida ham, kelajakdagi pedagog sifatida ham faoliyat olib boradi.

4. Raqamli grafik topshiriqlar tizimi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy topshiriqlar tizimini taklif etish mumkin.

1-jadval.

Raqamli grafik topshiriqlar tizimi:

№	Topshiriq	Mazmuni
1	Naqsh elementini tahlil qilish	An’anaviy naqshning shakl, rang va kompozitsion xususiyatlarini aniqlash.
2	An’anaviy eskiz yaratish	Tanlangan element asosida qog‘ozda yangi naqsh eskizini ishlab chiqish.
3	Naqshni raqamlashtirish	Yaratilgan kompozitsiyani raqamli muhitga o‘tkazish.
4	Grafik qayta ishlash	Grafikli muhitda kompozitsiyani vizual korreksiyalash, koloristik o‘zgartirish va elementlarni multiplikatsiyalash.
5	Ijodiy transformatsiya	Kamida uchta yangi rang yoki kompozitsion variant yaratish.
6	Raqamli naqshlar albomi	Yaratilgan ishlarni elektron albom shaklida jamlash.
7	Pedagogik mahsulot yaratish	Ta’lim oluvchilar uchun zamonaviy didaktik ta’minot (raqamli o‘quv topshirig‘i) ishlab chiqish.

Mazkur topshiriqlar talabaning an’anaviy badiiy faoliyatini raqamli ijodiy faoliyat bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, ular mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish va pedagogik material yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Integratsion yondashuvning kreativ kompetensiyaga ta’siri. An’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kreativ kompetensiyasini bir necha yo‘nalishda rivojlantiradi.

Birinchidan, talabaning **badiiy tafakkuri** rivojlanadi. Chunki u naqshning tashqi ko‘rinishini emas, balki uning ichki kompozitsion tuzilishini tahlil qiladi.

Ikkinchidan, **ijodiy fikrlash** faollashadi. Talaba an’anaviy namunali visual-tahliliy o‘rganish orqali innovatsion badiiy-estetik yechimlar modellashtiradi.

Uchinchidan, **raqamli savodxonlik** shakllanadi. Talaba grafik dasturlar va raqamli tasvir vositalaridan maqsadli foydalanishni o‘rganadi.

To‘rtinchidan, **metodik kompetensiya** rivojlanadi. Talaba o‘zi yaratgan badiiy materialni kelajakdagi o‘quvchilarga qanday yetkazish mumkinligini o‘ylaydi.

Beshinchidan, **milliy-madaniy kompetensiya** mustahkamlanadi. Talaba milliy naqshlarning badiiy va madaniy qiymatini anglaydi.

6. **Kompetensiyalarni baholash mezonlari.**

2-jadval.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini baholash mezonlari:

Mezon	Boshlang‘ich (reproduktiv) daraja	O‘rta (qisman izlanuvchi) daraja	Yuqori (kreativ) daraja
Badiiy-kompozitsion	Kompozitsion yaxlitlik va mutanosiblikni ta’minlashda qiyinchilikka uchraydi	Oddiy kompozitsiya yaratadi	Murakkab va yaxlit kompozitsiya yaratadi
Raqamli	Grafik vositalardan foydalanishda qiynaladi	Oddiy grafik amallarni bajaradi	Raqamli vositalardan ijodiy foydalanadi
Kreativ	Tayyor namunani takrorlaydi	Ayrim o‘zgarishlar kiritadi	Original badiiy yechim yaratadi
Metodik	O‘quv materialini metodik jihatdan asoslash va yetkazishda qiynaladi	Oddiy topshiriq tuza oladi	To‘liq metodik tizim ishlab chiqadi
Refleksiv	O‘z badiiy va pedagogic faoliyatini obyektiv tahlil qila olmaydi	Asosiy kamchiliklarini ko‘radi	Ishini chuqur tahlil qilib, takomillashtiradi

Mazkur mezonlar asosida talabaning tayyor mahsuloti bilan bir qatorda ijodiy jarayoni, texnologik faoliyati va pedagogik qo‘llash qobiliyati ham baholanadi.

Tadqiqot doirasida tahlil qilingan nazariy va metodik qarashlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasi bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun pedagogik jihatdan muhim yo‘nalish hisoblanadi.

An’anaviy naqqoshlik talabalarga badiiy shakl, rang, ritm va kompozitsiya bilan ishlashni o‘rgatsa, raqamli grafika mazkur bilimlarni yangi ijodiy muhitda qo‘llash imkonini beradi. Talaba

o‘zining an’anaviy eskizini raqamli shaklga o‘tkazib, turli rang va kompozitsion variantlarni yaratishi mumkin.

Bunday integratsiya natijasida raqamli texnologiya faqat texnik vosita sifatida emas, balki badiiy va pedagogik maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish an’anaviy badiiy amaliyot bilan bog‘langan holda tashkil etilishi zarur.

Mazkur yondashuvda talaba nafaqat yangi badiiy mahsulot yaratadi, balki uni o‘quvchilarga o‘rgatish uchun metodik materialga aylantiradi. Bu esa kreativ kompetensiya bilan bir qatorda pedagogik va metodik kompetensiyalarning ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari an’anaviy naqqoshlik va raqamli grafika integratsiyasi bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kreativ, badiiy, raqamli va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. “An’ana - amaliyot - raqamlashtirish - ijodiy transformatsiya - pedagogik qo‘llash” modeli orqali milliy naqshlarni o‘rganish, raqamlashtirish va zamonaviy kompozitsiyalarga transformatsiya qilish badiiy hamda pedagogik faoliyatni integrativ asosda tashkil etish va optimallashtirish imkonini beradi. Shu asosda integratsion mashg‘ulotlarni kengaytirish, naqshlarni raqamlashtirish va elektron portfoliolar yaratish, grafik dasturlar asosidagi loyihaviy topshiriqlarni joriy etish tavsiya etiladi. Shuningdek, raqamli badiiy materiallardan maktab ta’limida foydalanish metodikasini takomillashtirish tavsiya etiladi. Kelgusida taklif etilgan modelning samaradorligini tajriba-sinov va statistik diagnostika asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdirasilov S. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. - Toshkent: Ilm-Ziyo, 2011. - 106 b.

2. Basilotta-Gómez-Pablos V., Matarranz M., Casado-Aranda L.A., Otto A. Teachers’ Digital Competencies in Higher Education: A Systematic Literature Review // International Journal of Educational Technology in Higher Education. - 2022. - Vol. 19. - Article 8. - P. 1-21.

3. Boymetov B. Qalamtasvir. - Toshkent: Ilm-Ziyo, 2017. - 87 b.

4. Gış H., Deveci Topal A. Sanatta Dijital Dönüşüm: Görsel Sanatlar Eğitiminde Teknoloji Entegrasyonuna Yönelik Eğilimler ve Bulgular // AJIT-e: Academic Journal of Information Technology. - 2025. - Vol. 16, № 4.

5. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. - Toshkent: Fan, 2004. - 106 b.

6. Liu B., Julsuwan S., Chansirisira P. Integrating Art and Technology: Enhancing Art Faculty Competencies in China’s New Liberal Arts Era // Journal of Education and Learning. - 2025. - Vol. 14, № 6. - P. 260-272.

7. Mamurov A.A. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliy san’atning pedagogik ahamiyati // Yosh olimlar. - 2026. - T. 4, № 4 (58). - B. 49-51.

8. Oripov B.N. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi: o‘quv-metodik qo‘llanma. - Toshkent: Ilm-Ziyo, 2013. - 152 b.

9. Pavlou V. Art Technology Integration: Digital Storytelling as a Transformative Pedagogy in Primary Education // International Journal of Art & Design Education. - 2020. - Vol. 39, № 1. - P. 195-210.

10. Tondeur J., Howard S., Van Zanten M., Gorissen P., Van der Neut I., Uerz D., Kral M. The HeDiCom framework: Higher Education teachers’ digital competencies for the future // Educational Technology Research and Development. - 2023. - Vol. 71. - P. 33-53.

11. Urinbayev I.K. Tasviriy va amaliy san’at mashg‘ulotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining ahamiyati // Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal. - 2023. - T. 4, № 3. - B. 156-164.

UO’K 37.016:811.111:004.9

MATEMATIKA YONALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDAN TEMATIK LUG’AT BOYLIGINI OSHIRISHDA ONLAYN TARJIMONLARDAN FOYDALANISH AFZALLIGI

M.O. Sherboeva, magistrant, Turon universiteti, Qarshi shahri

Annotatsiya*. Mazkur maqolada kompyuter yordamida matnni avtomatik tarjima qilishda matematik terminologiyaning ingliz va o‘zbek tillaridagi qiyosiy-lingvistik tahlili ko’rilgan. Ingliz tilidagi matematik matnlarni tarjima qilishdagi terminologik muammo o’rganilgan va ularni hal qilishda elementar matematika mavzularidan foydlanish tavsiya etilgan.*

Kalit so’zlar: *ingliz tili, onlayn tarjimonlar, tematik lug‘at, AKT, internet tarmog’i, matematik tushinchalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается сравнительно-лингвистический анализ математической терминологии в английском и узбекском языках при автоматическом переводе текстов с помощью компьютера. Изучены терминологические проблемы, возникающие при переводе математических текстов с английского языка, и предложено использовать темы элементарной математики для их решения.*

Ключевые слова: *английский язык, онлайн-переводчики, тематический словарь, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), сеть Интернет, математические понятия.*

Abstract. *This article presents a comparative linguistic analysis of mathematical terminology in English and Uzbek in the context of computer-assisted machine translation. It examines terminological challenges encountered in translating mathematical texts from English and recommends using topics from elementary mathematics to address these challenges.*

Keywords: *English language, online translators, thematic dictionary, information and communication technologies (ICT), Internet, mathematical concepts.*

Kirish. Ingliz tilida erkin muloqat qila oladigan inson uchun ham biror sohaga oid axborotlarni ingliz tilidan tarjima qilishi shu soha bo'yicha yetarli ma'lumotga ega bo'lmasa oson ish emas. Negaki, har bir sohani o'ziga xos atamalari mavjud, bu atamalar oddiy so'zlashuv tilidagi ma'nosidan farq qilishi mumkin. Matematika sohasida bunday atamalar bisyordir. Ularni tarjima qilishda ma'nosiga e'tibor berilmasa, mutlaqo tushinarsiz jumlalar hosil bo'ladi. Shuning uchun matematiklar til o'rganishida aynan o'z sohasi bilan bog'lab o'rganishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirda tarjima masalasi sezilarli darajada yengillashgan. Texnika-texnologiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida tarjima jarayoni ham avtomatlashtirilgan. Tarjimon dasturlar tarjimon insonlarga nisbatan tez natija beradi, ayniqsa katta hajmdagi ma'lumotlarni bir zumda tarjima qilishi tahsinga loyiq. Biroq hozircha tarjimon dasturlarda kamchiliklar sezilmoqda, ular qayta ishlanishi bois, yangidan-yangi dasturlar yaratilayotgani tufayli bu kamchiliklar kamaya bormoqda.

Har qanday mutaxassis ilmiy-ijodiy ishida o'z ishiga mos tadqiqotlarni internet tarmog'idan izlaydi. Ularni o'qib o'rganadi. Bunda albatta onlayn tarjimonlardan foydalanadi. O'quvchida noto'g'ri tushinchalar hosil bo'lmasligi uchun til o'rgatishda tarjimon dasturlar afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishni ham til o'rgatishdagi qoidalar qatoriga qo'yish kerak. Ushbu maqolada matematik matnlarni tarjimon dasturlarda tarjima qilishning lug'aviy tomonlari ko'riladi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda barcha fanlarni o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKTlardan) foydalanish davr talabi hisoblanadi. Ingliz tilini o'rgatishda shunday AKTlardan biri, bu tarjimon dasturlar hisoblanadi. Ular orqali ixtiyoriy matnni tez va oson tarjima qilish mumkin. AKTdan olingan tarjimani leksik, grammatik, uslubiy, mantiqiy tuzilishlari to'g'rimi-yo'qmi tahlil qilish ingliz tilidagi qoidalarni o'rgatishda asqotadi. Ayniqsa, matematika sohasida AKTlarda lug'avi jihatdan xatoliklar ko'p uchraydi. Ularni to'g'rilash orqali matematik tushinchalarni to'g'ri tarjima qilish o'rganiladi. Bu talabalarni matematika sohasida tematik lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

So'ngi ma'lumotlarga ko'ra eng yaxshi bepul onlayn tarjimonlar quyidagilardir:

Ommabop tarjimonlar

1. Google Translate 100 dan ortiq tillardagi matnlar, veb-saytlar va hujjatlarni tarjima qiladi.
2. Yandex Translate rus tiliga tarjima qilishda juda yaxshi va fotosuratlar, audio va veb-saytlardan tarjimalarni taqdim etadi.
3. DeepL Translate —sun'iy intellekt tufayli eng aniq va tabiiy tarjimalarni taqdim etadi.
4. ChatGPT — sun'iy intellekt tarjimoni. Bepul versiyada matn tarjimasi, xulosa berish, savollarga javob, mashqlar yaratish va xatolarni ko'rsatish imkoniyatlarga ega.


Ixtisoslashgan xizmatlar

1. Reverso —kontekstida so'zlarning tarjimasini ko'rsatadi.
2. PROMT.One — bu dastur ichiga tematik lug'atlar (o'qish, biznes, gadjetlar uchun) o'rnatilgan.

Bu dasturlardan Google Translate, Yandex Translate, ChatGPT dan foydalanib matematikaga doir matn va iboralarni tarjimlarini ko'ramiz. Bunda maktab matematikasining deyarli barcha bo'limlarini o'z ichiga olgan onlayn o'quv qo'llanmani taqdim etadigan saytlardan biri **bymath.com** sayti materiallarini tarjima qilish orqali matematik yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'rgatish xususiyatlari ko'riladi.

https://www.bymath.com/studyguide/plan_eng.php havolasi orqali elementar matematika to'liq kursi - bymath.com saytiga kirish mumkin. Unda elementar matematika o'quv dasturining bo'limlari: arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya, funksiyalar va grafiklar, matematik tahlil berilgan.

Matematika sohasidagi talabalar ingliz tilini o'rganishlarida mashq tariqasida bu saytdan foydalanish mumkin. Bunda Google Translate, Yandex Translate tarjimonlaridan foydalanish qulay, lekin bularda barcha matematik so'zlar, iboralar va matnlar to'g'ri tarjima qilinavermaydi. Ularga misol 1-jadvalda 2-3- ustunda berilgan. Bunday xatolikni bymath.com sayti bosh sarlavhasi tarjimasida ham ko'rish mumkin(1-rasm). Sayt sarlavhasi "All Elementary Mathematics" so'zma-so'z tarjimada "Barcha boshlang'ich matematika", lekin matematikada bunday ibora ishlatilmaydi, uni "To'liq elementar matematika" deb tarjima qilsa to'g'ri bo'ladi, sarlavha sifatida esa "Elementar matematika to'la kursi" deyish mumkin. 1.a-rasm Google Translate, Yandex Translate tarjimalari tematik lug'atga mos emas, 1.b-rasmda kontekstga qarab tarjima variantlarini tanlashni ChatGPT taklif qilgani ko'rish mumkin. Tarjima to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini faqat matematik tushinchalar bo'yicha bilimga ega bo'lgan o'quvchi ajrata oladi.



1-rasm. "All Elementary Mathematics" iborasini AKT larda tarjimasi.

Tadqiqot ishida bymath.com saytida berilgan dastlabki mavzular matnlarining Google Translateda onlayn tarjimasi ko'rildi. Matematikada uchramaydigan jumlalar ajratildi va ularni boshqa tarjimonlardagi tarjimasi bilan solishtirib taxlil qilindi. Taxlil natijalari quyidagi jadvalda keltiriladi.

1-jadval.

	№Google Translate tarjimasi	Yandex Translate tarjimasi	ChatGPT tarjimasi
	Vulgar fraction		
	Qo'pol kasr	Vulgar kasr	Oddiy kasr
	Repeating decimal		
	Takrorlanuvchi o'nlik kasr	O'nli kasrni takrorlash	Davriy o‘nli kasr
	Factorization		
	Faktorlarga ajratish	Faktorizatsiya	Ko‘paytuvchilarga ajratish
	Prime factoring of composite numbers		
	Kompozit sonlarni tub faktorlarga ajratish	Murakkab sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish	Murakkab sonlarni tub ko‘paytuvchilarga ajratish
	Extraction of a root		
	Ildizni ajratib olish	Ildizni qazib olish	Ildiz chiqarish
	Stereometry (Solid geometry)		
	Stereometriya (Qattiq geometriya)	Stereometriya (qattiq geometriya)	Stereometriya (fazoviy geometriya)
	Trigonometric functions and transformations		
	Trigonometrik funksiyalar va o‘zgartirishlar	Trigonometrik funktsiyalar va transformatsiyalar	Trigonometrik funksiyalar va almashtirishlar
	Limits		
	Cheklovlar	Chegaralar	Limitlar
	Theory of combinations and Newton's binomial		
	Kombinatsiyalar nazariyasi va Nyuton binomiali	Kombinatsiyalar nazariyasi va Nyutonning binom formulasi	Kombinatorika nazariyasi va Isaac Newton binomi.
			Nyuton binomi
	Divisibility criteria. Prime and composite numbers. Resolution into prime factors. Greatest common factor. Least common multiple. Ratio and proportion.		
	Bo'linish mezonlari. Oddiy va kompozit sonlar. . Oddiy ko'paytirgichlarga ajratish. Eng katta umumiy ko'paytirgich. Eng kichik umumiy ko'paytirgich. Nisbat va proporsionallik.	Bo'linish mezonlari. Tub va murakkab sonlar. Tub ko'rsatkichlarga ajratish. Eng katta umumiy bo'luvchi. Eng kichik umumiy karrali. Nisbat va mutanosiblik.	Bo‘linish belgilari. Tub va murakkab sonlar. Tub ko‘paytuvchilarga ajratish. Eng katta umumiy bo‘luvchi. Eng kichik umumiy karrali. Nisbat va proporsiya
	Monomials and polynomials. Formulas of abridged multiplication. Division of polynomial by linear binomial. Divisibility of binomials. Factoring of polynomials.		
	Monomlar va ko'phadlar. Qisqartirilgan ko'paytirish formulalari. Ko'phadni chiziqli binomga bo'lish. Ikkihomlarning bo'linishi. Ko'phadlarni faktorlarga ajratish.	Monomiallar va ko‘phadlar. Qisqartirilgan ko‘paytirish formulalari. Ko‘phadni chiziqli binomga bo‘lish. Binomlarning bo‘linishi. Ko‘phadlarni faktorlarga ajratish.	Birhadlar va ko‘phadlar. Qisqartirilgan ko‘paytirish formulalari. Ko‘phadni chiziqli ikkihadga bo‘lish. Ikkihadlarning bo‘linuvchanligi. Ko‘phadlarni ko‘paytuvchilarga ajratish.
			Qisqa ko‘paytirish formulalari
	Linear equations in one unknown. System of two simultaneous linear equations in two unknowns. System of three simultaneous linear equations in three unknowns. Imaginary and complex numbers. Factoring of a quadratic trinomial.		
	Bitta noma'lum chiziqli tenglamalar. Ikkita noma'lum chiziqli tenglamalar tizimi. Uchta noma'lum chiziqli tenglamalar tizimi. Xayoliy va kompleks sonlar. Kvadrat uch a'zoni faktorlarga ajratish.	Bir noma'lumli chiziqli tenglamalar. Ikki noma'lumli ikkita bir vaqtning o'zida chiziqli tenglamalar tizimi. Uchta noma'lumli uchta bir vaqtning o'zida chiziqli tenglamalar tizimi. Xayoliy va murakkab sonlar. Kvadrat uchhadni faktorlash.	Bir noma’lumli chiziqli tenglamalar. Ikki noma’lumli ikkita chiziqli tenglamalar sistemasi. Uch noma’lumli uchta chiziqli tenglamalar sistemasi. Mavhum va kompleks sonlar. François Kvadrat uchhadni ko‘paytuvchilarga ajratish.
			Kvadrat uchhadni
	Similarity of plane figures. Geometric locus. Inscribed and circumscribed polygons. Areas of plane figures.		
	Tekislik figuralarining o'xshashligi. Geometrik joylashuv. Ichkariga chizilgan va o'ralgan ko'pburchaklar. Tekislik figuralarining yuzalari.	Tekis figuralarning o'xshashligi. Geometrik joy. Ichki va tashqi chizilgan ko'pburchaklar. Tekis figuralarning maydonlari	Tekis shakllarning o‘xshashligi. Geometrik o‘rin. Ichki chizilgan va tashqi chizilgan ko‘pburchaklar. Tekis shakllarning yuzalari.

	Tangent plane of a ball, a cylinder and a cone. Solid angles. Regular polyhedrons. Volumes and areas of bodies' surfaces.		
	Shar, silindr va konusning tangens tekisligi. To'liq burchaklar. Muntazam ko'p qirrali burchaklar. Jismlar sirtlarining hajmlari va maydonlari.	Sharning, silindrning va konusning tangens tekisligi. Qattiq burchaklar. Oddiy ko'p qirralilar. Jismlar sirtlarining hajmlari va yuzalari.	Sferaning, silindrning va konusning urinma tekisligi. Fazoviy burchaklar. Muntazam ko‘pyoqliklar. Jismlarning hajmlari va sirt yuzalari.
	Reduction formulas. Some important correlations. Solving of oblique triangles.		
	Qaytarish formulalari. Ba'zi muhim korrelyatsiyalar. Qiya uchburchaklarni yechish	Qisqartirish formulalari. Ba'zi muhim bog'liqliklar. Qiya uchburchaklarni yechish	Keltirish formulalari. Ba’zi muhim munosabatlar. Ixtiyoriy uchburchaklarni yechish
	Constants and variables. Graphical solving of equations. Graphical solving of inequalities.		
	Konstantalar va o'zgaruvchilar. Tenglamalarni grafik yechish. Tengsizliklarni grafik yechish.	Doimiy va o'zgaruvchilar. Tenglamalarni grafik usulda yechish. Tengsizlikni grafik usulda yechish.	O‘zgarmaslar va o‘zgaruvchilar. Tenglamalarni grafik usulda yechish.Tengsizliklarni grafik usulda yechish.
	De L'Hospital’s rule . Convexity, concavity and inflexion points of a function		
	De L'Hospital qoidasi . Funksiyaning botiqligi, botiqligi va egilish nuqtalari .	De L'Hospital qoidasi. Funksiyaning qavariqligi, botiqligi va egilish nuqtalari	Guillaume de l'Hôpital qoidası. Funksiyaning qavariqligi, botiqligi va burilish nuqtalari.
			Lopital qoidası
	Primitive. Indefinite integral. . Integration methods. Integral with variable upper limit of integration		
	Ibtidoiy. Noaniq integral. Integratsiya usullari. Integratsiyaning o'zgaruvchan yuqori chegarasi bo'lgan integral	Primitiv. Aniqmas integral. Integrallash usullari. Integralning o'zgaruvchan yuqori chegarasi bilan integral	Boshlang‘ich funksiya. Aniqmas integral. Integrallash usullari. O‘zgaruvchan yuqori chegarali integral.
			yuqori chegarasi o‘zgaruvchan integral.
	Independence of events . Random variables. Characteristics of random variables		
	Hodisalarning mustaqilligi. Tasodifiy o'zgaruvchilar. Tasodifiy o'zgaruvchilarning xususiyatlari	Hodisalarning mustaqilligi . Tasodifiy o'zgaruvchilar. Tasodifiy o'zgaruvchilarning xususiyatlari	Hodisalarning mustaqilligi. Tasodifiy miqdorlar. Tasodifiy miqdorlarning xarakteristikalari
			Hodisalarning erkliligi.

Ushbu jadval 2-ustunida bymath.com saytida berilgan mavzular nomini va dastlabki mavzular matnlarini Google Translateda tarjima qiliganda uchragan noto’g’ri jumlalar keltirilgan va shu jumlalarning Yandex Translate, ChatGPT dagi tarjimalari 3-,4- ustunlarda berilgan. Jadvalda tarjima xatoliklari ibora ostiga chizilgan nuqtali chiziq bilan ko’rsatilgan, 2-3- ustunidagi xatoliklarni to’g’ri variantini 4-ustunda ko’rish mumkin. 4-ustundagi xatolikni to‘g‘ri varianti esa keyingi satrda ko’rsatilgan. Ostiga chizilmagan iboralar matematik jihatdan to‘g‘ri tarjima qilingan.

Muhokama. Google Translate, Yandex Translate kontekstga qaramay so’zma –so’z tarjima qiladi, ChatGPT tabiiy ma’nosi bo’yicha tarjimalar taqdim qiladi. Demak, Sun’iy intellekt tarjimoni ChatGPT matematik tushinchalarni Google Translate, Yandex Translatelarga nisbatan ancha to’g’ri tarjima qiladi. Biroq ChatGPTda ham hamma iboralar to’g’ri deyish qiyin (1-jadvalda 4- ustundagi xatoliklar).

Ushbu jadvalda berilgan 140 ta so’zdan lug’aviy jihatdan Google Translate 59ta 42% xato, Yandex Translate 39 ta 27,39% xato, ChatGPT 6ta 4% xato aniqlangan.

Xulosa. Ko’rsatilgan xatolar onlayn tarjimonlardan foydalanish yaxshi emas degan xulosaga olib kelmaydi. Til o‘rganishda aynan shu hatoliklardan foydalanish yaxshigina samara beradi. Xatolarni izlash, to’g’ri variantini qidirish va muhokama qilish bilimni oshiradi va mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sherboyeva M.O., Mirzayeva M.M. Matematik mutaxassislar uchun ingliz tilini o‘qitishda sohaga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari va ularning samaradorligi. – “Til va adabiyot” Pedagogika,21(67) son,15 dekabr, 2025

2. https://www.bymath.com/studyguide/plan_eng.php

UO'T: 784.4:78.03(575.1)

KATTA ASHULA IJROCHILIK MAKTABINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING MILLIY MUSIQA MADANIYATIDAGI AHAMIYATI

A.R. Tursunov, dots., Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqa san'atining noyob janrlaridan biri bo'lgan katta ashula ijrochilik maktabining shakllanishi, rivojlanishi va o'ziga xos ijrochilik xususiyatlari tahlil qilingan. Katta ashulaning an'anaviy ijro uslubi, ovoz imkoniyatlari, kuy-ohang tuzilishi, so'z va musiqa uyg'unligi, ijrochilar o'rtasidagi an'anaviy ustoz-shogird munosabatlari hamda ijrochilik maktablarining hududiy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda katta ashulaning Farg'ona vodiysi, xususan, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan va unga tutash hududlarda shakllangan ijrochilik an'analari milliy musiqa madaniyati rivojidagi o'rni nuqtayi nazaridan yoritilgan. Shuningdek, katta ashulaning xalqning ma'naviy-estetik qarashlari, musiqiy tafakkuri va milliy o'zligini ifodalashdagi ahamiyati ochib berilgan. Katta ashulani yosh avlodga yetkazish, an'anaviy ijrochilik maktablarini asrab-avaylash va zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *katta ashula, milliy musiqa, ijrochilik maktabi, an'anaviy ijrochilik, ustoz-shogird, maqom, Farg'ona vodiysi, vokal san'ati, xalq musiqa ijodiyoti, musiqiy meros.*

Аннотация. *В данной статье анализируются особенности формирования и развития школы исполнения катта ашула - одного из уникальных жанров узбекского национального музыкального искусства. Особое внимание уделяется традиционному исполнительскому стилю катта ашула, вокальным возможностям исполнителей, мелодической структуре, взаимосвязи поэтического текста и музыки, традициям «устоз-шогирд», а также региональным особенностям исполнительских школ. Рассматривается роль катта ашула в развитии национальной музыкальной культуры, сохранении духовно-эстетических ценностей народа и формировании национального музыкального мышления. В статье также освещаются вопросы сохранения традиций катта ашула, передачи исполнительского опыта молодому поколению и использования данного культурного наследия в современном музыкальном образовании.*

Ключевые слова: *катта ашула, национальная музыка, исполнительская школа, традиционное исполнение, устоз-шогирд, маком, Ферганская долина, вокальное искусство, народное музыкальное творчество, музыкальное наследие.*

Abstract. *This article analyzes the formation, development and specific performance characteristics of the katta ashula school, one of the unique genres of Uzbek national musical art. Particular attention is paid to the traditional performance style, vocal techniques, melodic structure, interaction between poetic text and music, the master-apprentice tradition, and regional characteristics of katta ashula performance schools. The study highlights the role of katta ashula in the development of national musical culture, preservation of spiritual and aesthetic values, and formation of national musical thinking. The article also discusses the importance of preserving traditional performance practices, transmitting artistic experience to younger generations, and incorporating this cultural heritage into contemporary music education.*

Key words: *katta ashula, national music, performance school, traditional performance, master-apprentice tradition, maqom, Fergana Valley, vocal art, folk music creativity, musical heritage.*

Kirish (Adabiyotlar sharhi). O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqiy merosi rang-barang janr va ijrochilik an'analariga boy bo'lib, unda katta ashula alohida o'rin egallaydi. Katta ashula o'zining yirik ko'lamdagi ijrochilik uslubi, kuchli va jarangdor ovoz, keng diapazon, badiiy ifodaning yuqori darajasi hamda she'riy matnning musiqiy talqin bilan uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi. Mazkur janr, ayniqsa, Farg'ona vodiysi hududida keng rivojlanib, avloddan-avlodga ustoz-shogird an'anasi orqali yetkazib kelingan. Katta ashula oddiy qo'shiq ijrochiligidan o'zining ijro ko'lami va musiqiy tafakkuri bilan farq qiladi. Unda ijrochining individual mahorati, ovoz imkoniyatlari, kuyga munosabati va she'riy matnni mazmunan ochib berish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ijro

jarayonida ashulachilar o‘zaro musiqiy dialogga kirishib, kuy rivojini navbatma-navbat davom ettirishlari, ohangni bezash va yangi musiqiy ifoda vositalaridan foydalanishlari mumkin.[4]

Katta ashula ijrochilik maktabining shakllanishida Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos musiqiy muhiti muhim omil bo‘lgan. Hududda qadimdan shakllangan xalq qo‘shiqchiligi, ashulachilik va sozandalik an’analari katta ashula janrining rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratgan. Katta ashula ijrochiligida xalq orasida keng tarqalgan she’riy meros, mumtoz adabiyot namunalari hamda insoniy kechinmalarni ifodalovchi poetik mazmunlardan samarali foydalanilgan.[2]

Mazkur san’at turini o‘rganishda musiqashunoslik, folklorshunoslik va an’anaviy ijrochilikka oid tadqiqotlarning ahamiyati katta. Katta ashulaning tarixiy shakllanishi, ijrochilik uslublari, kuy tuzilishi va badiiy xususiyatlari bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, o‘zbek an’anaviy musiqasi, maqom san’ati va xalq ijodiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda katta ashulaning milliy musiqa tizimidagi o‘rni qayd etilgan.[3]

Katta ashula ijrochilik maktabining asosiy xususiyatlaridan biri ustoz-shogird an’anasining kuchliligidir. Ijro mahorati faqat nazariy bilim orqali emas, balki bevosita ustozdan amaliy tarzda o‘rganish, tinglash, takrorlash va ijodiy o‘zlashtirish orqali shakllangan. Shu sababli har bir ijrochilik maktabida o‘ziga xos uslub, ovoz chiqarish madaniyati, bezaklar, ohang rivoji va talqin xususiyatlari yuzaga kelgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi katta ashula ijrochilik maktabining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning shakllanish va rivojlanish omillarini tahlil qilish hamda mazkur janrning O‘zbekiston milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.[5]

Tadqiqotning asosiy vazifalari katta ashulaning ijrochilik xususiyatlarini o‘rganish, uning vokal va musiqiy ifoda vositalarini tahlil qilish, ustoz-shogird an’anasining janr rivojidagi o‘rnini aniqlash, hududiy ijrochilik maktablarining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish hamda katta ashulani asrab-avaylash va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.[1]

Materiallar va uslublar. Tadqiqotning metodologik asosini o‘zbek milliy musiqa madaniyati, xalq musiqa ijodiyoti va an’anaviy ijrochilikka oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-madaniy, qiyosiy-tahliliy, musiqiy-nazariy, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Katta ashula ijrochilik maktabining xususiyatlarini o‘rganishda uning shakllanish tarixi, ijrochilik an’analari, musiqiy-poetik tuzilishi va ustoz-shogird tizimi o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, an’anaviy ijrochilar repertuaridagi namunalar, katta ashulaga oid ilmiy va o‘quv-uslubiy manbalar hamda xalq musiqa merosini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahliliy material sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda katta ashulaning ijro jarayonidagi ovoz imkoniyatlari, nafas olish, diksiya, ohangni rivojlantirish, musiqiy bezaklardan foydalanish va she’riy matnni ifodali yetkazish kabi jihatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Natijalar va munozara. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, katta ashula ijrochilik maktabi o‘zbek an’anaviy musiqa madaniyatida o‘ziga xos va murakkab ijrochilik tizimiga ega. Uning asosiy xususiyati ijrochining nafaqat kuchli va keng diapazonli ovozga, balki musiqiy tafakkur, improvizatsion qobiliyat va yuqori darajadagi badiiy talqin mahoratiga ega bo‘lishini talab etishidir.

Katta ashulada ijrochi ovozining tabiiy imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Ovozning jarangdorligi, baland-past registrlarning uyg‘unligi, uzoq davom etuvchi tovushlarni barqaror saqlash, ohangni turli bezaklar bilan boyitish va so‘z mazmunini ta’sirchan ifodalash ijrochilik mahoratining muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Katta ashulaning yana bir muhim xususiyati - ijrochilar o‘rtasidagi musiqiy muloqotdir. An’anaviy ijro jarayonida bir necha ashulachi ishtirok etishi mumkin. Bunday ijroda har bir xonanda o‘z ovoz imkoniyati va musiqiy tafakkurini namoyon etgan holda umumiy kuy rivojiga hissa qo‘shadi. Bu esa katta ashulani jamoaviy va ayni vaqtda individual ijrochilik imkoniyatlarini birlashtiruvchi noyob janr sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Katta ashula ijrochiligida poetik matnning o‘rni ham nihoyatda muhimdir. Mumtoz va xalq she’riyati namunalaridan foydalanish ijroning mazmuniy va falsafiy ko‘lamini kengaytiradi. She’rda

ifodalangan muhabbat, sadoqat, insoniylik, hayot va tabiat haqidagi fikrlar xonandaning ovoz va ohang vositasida yanada ta'sirchan shaklga ega bo‘ladi.

Katta ashula maktabining hududiy xususiyatlari ham diqqatga sazovordir. Farg‘ona vodiysining turli hududlarida shakllangan ijrochilik an'analarida umumiy jihatlar bilan bir qatorda, kuy talqini, ovoz chiqarish, she'rni ifodalash, musiqiy bezaklar va ijro xarakterida o‘ziga xosliklar mavjud. Bu jihatlar katta ashula maktabining ichki rang-barangligini ta'minlaydi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, katta ashula ijrochilik maktabi faqat vokal ijro texnikasidan iborat bo‘lmay, balki musiqiy tafakkur, poetik mazmun, improvizatsiya, ijrochilar o‘rtasidagi hamohanglik va ustoz-shogird an'analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Katta ashulaning milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati, avvalo, uning xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini saqlashdagi vazifasi bilan belgilanadi. Ushbu janr orqali xalqning estetik qarashlari, musiqiy tafakkuri, she'riy didi va ijrochilik tajribasi avlodlarga yetkaziladi.

Bundan tashqari, katta ashula o‘zbek vokal san'atining rivojlanishida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Uning ijrochilik usullari professional xonandalik maktabining shakllanishiga ham ta'sir ko‘rsatgan. An'anaviy ijrochilik tajribasining zamonaviy musiqa ta'limi bilan uyg‘unlashuvi yosh xonandalarning milliy ijrochilik asoslarini chuqur egallashiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda katta ashula an'anasini saqlash masalasida asosiy e'tibor ijrochilikning tabiiy va an'anaviy xususiyatlarini yo‘qotmagan holda uni yosh avlodga yetkazishga qaratilishi lozim. Bunda ustoz-shogird tizimini qo‘llab-quvvatlash, maxsus o‘quv dasturlarini takomillashtirish, katta ashula namunalarini audio va video shaklda arxivlashtirish hamda ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va tavsiyalar. O‘tkazilgan tahlillar natijasida katta ashula ijrochilik maktabi o‘zbek milliy musiqa madaniyatining muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi. Mazkur janrning o‘ziga xosligi kuchli va jarangdor ovoz, keng diapazon, murakkab nafas texnikasi, musiqiy improvizatsiya, she'riy matn va kuy uyg‘unligi hamda ijrochining individual talqin mahoratida namoyon bo‘ladi. Katta ashulaning milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati uning xalqning ma'naviy merosi, musiqiy tafakkuri va estetik qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirishi bilan belgilanadi. Mazkur san'at turi nafaqat tarixiy-madaniy meros sifatida, balki zamonaviy musiqa ta'limi va ijrochilik amaliyotida foydalanish mumkin bo‘lgan muhim manba sifatida ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent: Fan, 2000.
2. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.
3. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1963.
4. Karomatov F. O‘zbek xalq musiqasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent.

UO‘K: 78:371.3

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI

O.B. Xakimov, katta o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik mahoratini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda yosh sozandalarning ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida musiqiy eshitish, ritmik his, texnik mahorat, ijro madaniyati, badiiy tafakkur va mustaqil ishlash kompetensiyalarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalq cholg‘ularini o‘rgatish jarayonida ustoz-shogird an'anasi, individual yondashuv, bosqichma-bosqich o‘qitish, amaliy mashqlar, ansambl bilan ishlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik mahoratini shakllantirish samaradorligi ta'lim mazmuni, pedagogik yondashuv, mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish bilan bevosita bog‘liqligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *xalq cholg‘ulari, ijrochilik mahorati, musiqa ta'limi, pedagogik yondashuv, metodika, ustoz-shogird, sozanda, ansambl, musiqiy eshitish, texnik ko‘nikma, ijro madaniyati.*

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические и методические основы формирования исполнительского мастерства на узбекских народных музыкальных инструментах. Рассматривается значение музыкального слуха, чувства ритма, технических навыков, исполнительской культуры, художественного мышления и самостоятельной работы в процессе развития исполнительских способностей молодых музыкантов. Особое внимание уделяется традиции «учитель–ученик», индивидуальному подходу, поэтапному обучению, практическим упражнениям, ансамблевому исполнительству и использованию современных педагогических технологий. Обосновано, что эффективность формирования исполнительского мастерства непосредственно связана с содержанием обучения, правильной организацией практических занятий, педагогическим подходом и учетом индивидуальных возможностей учащихся.*

Ключевые слова: *народные музыкальные инструменты, исполнительское мастерство, музыкальное образование, педагогический подход, методика, учитель–ученик, музыкант, ансамбль, музыкальный слух, технические навыки, исполнительская культура.*

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and methodological foundations of developing performing skills on Uzbek traditional musical instruments. The study highlights the importance of musical hearing, sense of rhythm, technical skills, performance culture, artistic thinking, and independent practice in developing the abilities of young musicians. Particular attention is paid to the teacher-student tradition, individual approach, gradual instruction, practical exercises, ensemble performance, and the use of modern pedagogical technologies. The study demonstrates that the effectiveness of developing performing skills is directly related to the content of education, appropriate organization of practical lessons, pedagogical approaches, and consideration of students’ individual abilities.*

Key words: *traditional musical instruments, performing skills, music education, pedagogical approach, methodology, teacher-student tradition, musician, ensemble, musical hearing, technical skills, performance culture.*

Kirish. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik musiqa madaniyati milliy cholg‘ular va ular bilan bog‘liq ijrochilik an’analari asosida shakllangan. Dutor, tanbur, rubob, g‘ijjak, nay, chang, doira, surnay, karnay kabi cholg‘ular xalqimizning musiqiy tafakkuri, estetik qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim madaniy meros hisoblanadi. Mazkur cholg‘ularning ijro imkoniyatlari, o‘ziga xos uslublari va ijrochilik an’analari avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib kelgan.

Bugungi kunda milliy musiqa merosini asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish bilan bir qatorda, xalq cholg‘ularida ijrochilik mahoratini zamonaviy pedagogik talablar asosida shakllantirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musiqa va san’at ta’limi tizimida yosh sozandalarning nafaqat cholg‘uni texnik jihatdan egallashi, balki asarning mazmun-mohiyatini anglash, badiiy talqin qilish va mustaqil ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Xalq cholg‘ularida ijrochilikni o‘rgatish jarayoni faqat texnik mashqlar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. O‘quvchida to‘g‘ri o‘tirish, cholg‘uni ushlash, tovush hosil qilish, barmoq harakatlarini muvofiqlashtirish, ritmni his qilish, musiqiy jumlalarni to‘g‘ri shakllantirish kabi dastlabki ko‘nikmalar bilan bir qatorda musiqiy tafakkur, eshitish qobiliyati va sahna madaniyatini ham shakllantirish talab etiladi. Cholg‘u ijrochiligida ta’limning uzviyligi ham alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda musiqa ta’limining turli bosqichlarida nazariy va amaliy bilimlarning izchil o‘zlashtirilishi sozandaning ijrochilik mahoratini rivojlantirish uchun muhim omil ekanligi qayd etiladi

Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik mahoratini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslarini o‘rganish, samarali ta’lim usullarini aniqlash hamda ularni amaliy mashg‘ulotlarga tatbiq etish dolzarb ilmiy-metodik vazifalardan biridir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik mahoratini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, samarali o‘qitish usullarini aniqlash hamda yosh sozandalarning ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek xalq cholg‘ulari va musiqa ta’limiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarda milliy cholg‘ularning tarixi, ijro imkoniyatlari, ijrochilik an’analari hamda ularni ta’lim jarayonida o‘rgatish masalalari turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan.

S. Begmatov va M. Matyoqubovning “O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari” asarida o‘zbek xalq cholg‘ularining tarixiy shakllanishi, turlari va an’anaviy ijrochilikdagi o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan. Mazkur manba xalq cholg‘ularining milliy musiqa madaniyatidagi o‘rnini anglash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nomdagi manba O‘zbekiston oliy ta’lim darsliklari ro‘yxatlarida ham qayd etilgan

